ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2026

2-son
(Mart-Aprel)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

		TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI
H. Norqulov	4	Oilada ma'naviy-axloqiy tarbiya: milliy qadriyatlar va zamonaviy yondashuvlar
O. Aripova	11	Zamonaviy oilada farzand tarbiyasining ilmiy-pedagogik asoslari
B. Umarov	14	Maktab darslikmatnlarini o'qib tushunishda sun'iy intellektdan foydalanishning xulqiy tamoyillari
R. Quziyev	20	O'smir yoshdagi o'quvchilarni ijtimoiylashtirish jarayonida axborotlar bilan ishlash madaniyatini shakllantirish metodlari va ushbu maqsadga yo'naltirilgan pedagogik jarayon
B. Yusupov	24	O'quvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari
F. Olimova	28	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini variativ yondashuv asosida takomillashtirish (Variativ ta'lim strategiyasining ahamiyati va shaxsga yo'naltirilgan ta'limda hamkorlik)
A. Abdug'aniyev	32	Umumiy o'rta ta'lim maktablarida nogironligi bo'lgan o'quvchilar uchun inklyuziv ta'lim muhitini boshqarish mexanizmlari
N. Musayeva	37	Boshlang'ich ta'limda kollaborativ yondashuvning nazariy-metodik asoslari
F. Xamroyeva	40	Talabalarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari (So'rovga asoslangan ta'lim misolida)
A. Avlaev	45	O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda konseptual yondashuvlar
T. Abdujabborova	50	Oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning o'rni
Sh. Bekmuratova	53	Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirishning differensial metodologik yondashuvlari
Z. Abralova	58	Innovatsion ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarda boshqaruvchilik kompetensiyalarini shakllantirish
M. Boxodirova	61	Matn ustida ishlash orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish
		TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI
Sh. Ochilov	65	Texnologiya fanida o'quvchilarga suv tejovchi qurilmalarni fanlararo o'qitish metodikasi
S. Maxkamova	70	Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini qalamtasvir fanida grafik rassomlar ishlarini badiiy tahlil qilishga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari
G. G'aniyeva	77	Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilariga matn tahlilini amalga oshirish bo'yicha metodik tavsiyalar
S. Begimqulova	81	Biologiya darslarida loyihaviy ta'limning yangicha ko'rinishi
		ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

M. Mahmudova	84	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kreativ qobilyatlarini rivojlantirishda ta‘limiy o‘yinlarning ahamiyati
N. Suyunova	88	O‘quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish
M. Raximova	92	Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida “vark” (visual, auditory, read/write, kinesthetic) modeli asosida multimodal ta’limni tashkil etishning pedagogik asoslari
X. Ergasheva	96	“Case-study” texnologiyasining oliy ta’lim pedagogika darslarida tanqidiy va reflektiv fikrlashni rivojlantirishdagi roli
MILLIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI		
S. Abdujalolov	101	Milliy hunarmandchilik qadriyatlari asosida o‘quvchilarining tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish
HUQUQ VA HUQUQIY TARBIYA		
D. Tajiyev	104	O‘quvchilar huquqiy madaniyatini shakllantirishning o‘ziga xos pedagogik, psixologik va ijtimoiy jihatlari
PSIXOLOGIYA		
O. Jumanova	112	Birinchi sinf o‘quvchilarini maktabdagi o‘quv-tarbiya muhitiga moslashtirishda pedagogik va psixologik jarayonning o‘rni va ahamiyati
F. Raximova	115	Boshlang‘ich ta’limda interaktiv o‘qitish texnologiyalarining psixologik asoslari
ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ		
З. Ким	120	Учитель в центре реформ: уважение и признание
МЕТОДИКА ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ		
Н.Тошманов, С. Абидова	125	Эффективность использования инфографики для визуализации информации на занятиях гистологии
СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ		
Т. Камалова	130	Использование интерактивных методов с использованием современных информационных технологий при обучении русскому языку учащихся в каракалпакских классах
METHODOLOGY OF EDUCATION AND UPBRINGING		
D. Baratov, N. Rustamova	134	Analysis of factors affecting the formation of students' creative abilities in preparing for engineering careers
PSYCHOLOCY		
O. Zaripov	140	The harmony of mental and physical health in ensuring personal health

Husniddin NORQULOV,
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti, dotsent, pedagogika fanlari nomzodi

OILADA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYA: MILLIY QADRIYATLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Annotatsiya

Maqolada oilada ma'naviy-axloqiy tarbiya masalasi milliy qadriyatlar va zamonaviy ijtimoiy jarayonlar uyg'unligi asosida tahlil qilinadi. Globallashuv, raqamli muhit va ijtimoiy transformatsiya sharoitida oila institutining tarbiyaviy imkoniyatlari, milliy-ma'naviy merosning ahamiyati, shuningdek, ta'lim, mahalla va jamoat institutlari bilan hamkorlik mexanizmlari ilmiy jihatdan yoritiladi. Muallif tomonidan oilaviy ma'naviy-axloqiy tarbiyani samarali tashkil etish bo'yicha nazariy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tayanch so'zlar. Oila, ma'naviy-axloqiy tarbiya, milliy qadriyatlar, zamonaviy yondashuv, globallashuv, raqamli muhit, mahalla, ijtimoiy institut.

В статье анализируется вопрос духовно-нравственного воспитания в семье на основе гармонии национальных ценностей и современных социальных процессов. В условиях глобализации, цифровой среды и социальной трансформации научно освещаются воспитательные возможности института семьи, значение национально-духовного наследия, а также механизмы сотрудничества с образовательными, махаллинскими и общественными институтами. Автором разработаны теоретические выводы и практические рекомендации по эффективной организации семейного духовно-нравственного воспитания.

Ключевые слова. Семья, духовно-нравственное воспитание, национальные ценности, современный подход, глобализация, цифровая среда, махалля, социальный институт.

The article analyzes the issue of spiritual and moral education in the family based on the harmony of national values and modern social processes. In the context of globalization, the digital environment, and social transformation, the educational potential of the family institution, the significance of national and spiritual heritage, as well as the mechanisms of cooperation with educational, mahalla, and public institutions are scientifically illuminated. The author has developed theoretical conclusions and practical recommendations for the effective organization of spiritual and moral education in the family.

Key words. Family, spiritual and moral education, national values, modern approach, globalization, digital environment, mahalla, social institution.

Jamiyat taraqqiyotining barqarorligi, avvalo, oila institutining ma'naviy-axloqiy salohiyati bilan belgilanadi. Oila – shaxs ijtimoiylashuvining ilk va eng muhim maktabi bo'lib, unda insonning dunyoqarashi, axloqiy pozitsiyasi, hayotiy qadriyatlari shakllanadi. Ayniqsa, bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida oilada ma'naviy-axloqiy tarbiya masalasi ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda oila institutini mustahkamlash, milliy va ma'naviy qadriyatlarni asrash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Biroq zamonaviy axborot muhiti, mehnat migratsiyasi, madaniy global ta'sirlar oilaviy tarbiya mazmuniga yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada oilada ma'naviy-axloqiy tarbiya milliy qadriyatlar asosida, zamonaviy yondashuvlar bilan uyg'un holda tahlil qilinadi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya shaxsda insoniy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan

murakkab va uzluksiz ijtimoiy-pedagogik jarayon hisoblanadi. U axloq normalari, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ijtimoiy me'yorlar hamda shaxsiy mas'uliyat hissini o'zlashtirishni qamrab oladi. Pedagogik adabiyotlarda ma'naviy tarbiya shaxsning ichki dunyosi, e'tiqodi, axloqiy qarashlari va qadriyatlar tizimi bilan uzviy bog'liq holda talqin etiladi.

Ijtimoiy fanlarda oila ijtimoiy institut sifatida insonni ma'naviy, axloqiy va madaniy jihatdan shakllantiruvchi eng asosiy muhit sifatida qaraladi. Bolaning jamiyatga bo'lgan munosabati, hayotiy pozitsiyasi, mehr-oqibat, burch, mas'uliyat, insof va vijdon kabi axloqiy sifatlari, avvalo, oilaviy munosabatlar tizimi orqali qaror topadi. Shu ma'noda, oiladagi ma'naviy muhit va tarbiyaviy iqlim shaxs kamolotining hal qiluvchi omili hisoblanadi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya deganda shaxsda jamiyat tomonidan qabul qilingan axloqiy me'yorlar, milliy qadriyatlar va insoniy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan uzluksiz jarayon tushuniladi. Bu jarayonda ota-onaning shaxsiy namunasi, oiladagi o'zaro munosabatlar madaniyati, ma'naviy muhitning sog'lomligi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bola axloqiy qoidalarni, avvalo, nazariy tarzda emas, balki kundalik hayotdagi amaliy misollar orqali o'zlashtiradi.

O'zbek tilining izohli lug'ati[1]da ushbu tushunchalarga o'ziga xos tarzda izohlar berib o'tilgan. Masalan, "Oila" so'zi arab tilidagi "a'yla" (عائلة) so'zidan olingan bo'lib, bola-chaqa, xonadon, urug', avlod, er-xotin, ularning bola-chaqalari va eng yaqin tug'ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmui degan ma'nolarni ifodalaydi. "Ma'naviyat" so'zi arab tilidagi "ma'no" (معنى) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, axloqiy holat, barcha axloqiy narsalar, xususiyatlar degan ma'nolarni anglatadi.

"Axloq" so'zi arab tilidagi "xulq" (خُلُق) so'zining ko'plik shakli bo'lib, kishining tabiati, muomala, xatti-harakat odobi degan ma'nolarni anglatadi. "Tarbiya" so'zi esa arab tilidagi "rabba" (رَبّى) fe'lidan kelib chiqqan bo'lib, rivojlantirish, parvarish qilish, o'stirish, o'rgatish, ilm berish, kamolga yetkazish degan ma'nolarni anglatadi.

Shu o'rinda Sharq mutafakkirlari asarlarida ham oila tarbiyasi masalasi markaziy o'rinni egallaydi. Xususan, Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida jamiyat taraqqiyotini ma'naviy yetuk shaxslar faoliyati bilan bog'lab, inson kamolotini axloq va aql uyg'unligida ko'radi. Olim shunday yozadi: "Inson fazilati avvalo uning axloqida namoyon bo'ladi, axloq esa to'g'ri tarbiya orqali shakllanadi"[2]. Muallif fikricha, insonning aqliy salohiyati yoki ijtimoiy mavqeyidan ko'ra, uning axloqiy qiyofasi – fazilatining asosiy mezoni hisoblanadi. Axloq esa o'z-o'zidan shakllanmaydi, balki tarbiya orqali, ayniqsa oila muhitida qaror topadi. Demak, tarbiya inson fazilatlarining poydevori sifatida talqin qilinib, ota-ona va jamiyat zimmasiga katta ma'naviy mas'uliyat yuklaydi.

Abu Ali ibn Sino bola tarbiyasida muhitning hal qiluvchi ahamiyatiga alohida e'tibor qaratgan. Uning ta'kidlashicha, bola axloqi ko'p jihatdan uni o'rab turgan kattalarning xulq-atvori ta'sirida shakllanadi. Olim shunday yozadi: "Bola qalbi sof oynadek bo'lib, unga qanday naqsh solinsa, shu holda qoladi"[3]. Demak, olim bolalik davrining tarbiyada hal qiluvchi bosqich ekanini ifodalaydi. Bola qalbini sof oynaga qiyoslab, unga singdirilgan har qanday axloqiy ta'sir – ijobiy yoki salbiy – uzoq vaqt saqlanib qolishini

[1] "O'bek tilining izohli lug'ati". A.Madvaliev tahriri ostida, "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. –Toshkent, 2006-2008y. 97-b., 120-b., 565-b., 678-b.

[2] Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. - Toshkent: "Fan" nashriyoti, 1993.

[3] Ibn Sino A. Tib qonunlari. - Toshkent: Abu Ali ibn Sino nomidagi nashriyot, 1996.

ta’kidlaydi. Shu ma’noda, oila muhiti, ota-onaning xulq-atvori va munosabat madaniyati bola shaxsining keyingi ma’naviy qiyofasini belgilab beruvchi asosiy omil hisoblanadi.

Alisher Navoiy asarlarida esa ota-onaning farzand oldidagi mas’uliyati ma’naviy burch sifatida talqin qilinadi. U “Mahbub ul-qulub” asarida tarbiyani inson hayotining eng muhim masalasi sifatida baholab, ota-onaning axloqiy namunasiga alohida urg‘u beradi: “Farzandning odobi – ota-onaning fazilat oynasidur”[4]. Bunda Navoiy farzand tarbiyasini ota-onaning shaxsiy namunasi bilan uzviy bog‘liq ekanini ta’kidlaydi. Ya’ni, bola o‘z odobini, xulqini va axloqiy qarashlarini avvalo ota-onaning fazilatlari, harakatlari va munosabatlaridan o‘rganadi. Shu sababli, farzandning odobi ota-onaning axloqiy “oynasi” sifatida qaralib, ota-onaning shaxsiy namunasi tarbiyada hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Jadid ma’rifatchiligi namoyondalaridan Abdulla Avloniy asarlarida ham axloqiy tarbiyaning oiladan boshlanishi qat’iy ta’kidlangan. U “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida shunday yozadi: “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat masalasidur”[5]. Bunda Abdulla Avloniy tarbiyaning inson hayotidagi jamiyat va ma’naviyatga ta’sirining o‘ta muhimligini ta’kidlaydi. U ta’lim va tarbiyani faqat bilim berish sifatida emas, balki insonning hayoti va o‘lim, najot va halokat kabi ma’naviy oqibatlarga olib keladigan hal qiluvchi masala sifatida qarash lozimligini ko‘rsatadi. Demak, tarbiyadagi kamchilik yoki noto‘g‘ri yo‘nalish insonning hayoti va ma’naviy barqarorligi uchun jiddiy xavf tug‘dirishi mumkin.

Zamonaviy o‘zbek pedagog-olimlarining ishlarida ham mazkur masala ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilingan. Xususan, pedagog olima A.Musurmonova oila tarbiyasining ijtimoiy ahamiyatini quyidagicha izohlaydi: “Oiladagi tarbiya inson ma’naviyatining ilk poydevorini qo‘yadi va keyingi barcha ijtimoiy munosabatlarga yo‘nalish beradi”[6].

Bunda oiladagi tarbiyaning shaxsning ma’naviy rivojlanishi va ijtimoiy integratsiyasidagi asosiy ahamiyatini ta’kidlaydi. Ota-ona va oila muhiti bolada axloq, qadriyatlar, mas’uliyat va insoniy fazilatlarning ilk poydevorini qo‘yadi, shu orqali bola keyingi hayotdagi barcha ijtimoiy munosabatlarini, xulqini va qaroridagi barqarorligini shakllantiradi. Shu tariqa, ilmiy-nazariy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, oiladagi ma’naviy-axloqiy tarbiya shaxs kamolotining bosh manbai bo‘lib, u milliy qadriyatlar, ota-onaning shaxsiy namunasi va ma’naviy muhit uyg‘unligida samarali amalga oshadi.

Oiladagi ma’naviy-axloqiy tarbiya – bu bola va yoshlarning shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan, kundalik hayotda amaliy tarzda namoyon bo‘ladigan tarbiya tizimidir. U shaxsning axloqiy qarashlari, ijtimoiy faolligi va ma’naviy barqarorligini shakllantirishda asosiy rol o‘ynaydi. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning samarali amalga oshishi uning tarkibiy qismlarining uyg‘unligidan kelib chiqadi. Masalan:

Birinchidan, axloqiy qadriyatlarni singdirish tarbiyaning asosiy yo‘nalishi hisoblanadi. Bu bolada halollik va rostgo‘ylik, vijdonlilik va mas’uliyat, adolat va insof, sabr-toqat va bardosh, shuningdek, o‘z-o‘zini nazorat qilish kabi fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan. Axloqiy qadriyatlar nafaqat ta’lim muassasasida, balki oila muhitida kundalik hayotda amaliy tarzda namoyon bo‘lishi lozim.

Ikkinchidan, oilaviy munosabatlar madaniyati bola shaxsining ijtimoiy va ma’naviy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. U ota-onalarga hurmat va itoat, katta-kichik o‘rtasidagi odob-axloq, er-xotin munosabatida o‘zaro hurmat, ishonch va sadoqat,

[4] Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: “G‘afur G‘ulom” nashriyoti, 2000.
[5] Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 1992.
[6] Musurmonov A. Oila pedagogikasi. – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 2015.

aka-uka va opa-singillar orasida mehr-oqibat kabi odobiy normalarni o‘zlashtirishni qamrab oladi.

Uchinchidan, mehr-muhabbat va insoniylik, ya’ni bolada rahm-shafqat, bag‘rikenglik, yordamga muhtojlarga yordam berish, kechirimlilik va muruvvat, hamda hamdardlik va birovning holini tushunish sifatlarini rivojlantirish. Bu fazilatlar bolaning ijtimoiy mas’uliyati va ma’naviy barqarorligini mustahkamlaydi.

To‘rtinchidan, milliy va ma’naviy an’analar tarbiya jarayonida ustuvor ahamiyatga ega. Bu bolada milliy urf-odatlar va oilaviy an’analarga rioya qilish, ma’naviy merosga hurmat, ona tilga, tarix va qadriyatlarga sadoqat, shuningdek, milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirish orqali milliy ong va o‘zlik hissini rivojlantiradi.

Beshinchidan, mehnat va mas’uliyat tarbiyasi shaxsda intizom, mehnatsevarlik, oiladagi vazifalarni ado etish, o‘z mehnati va boshqalar mehnatiga hurmat, tejamkorlik va tartib-intizom kabi sifatlarni shakllantirishga qaratilgan. Bu nafaqat shaxsning ijtimoiy faolligini, balki uning kelajakdagi mustaqil hayotini ham ta’minlaydi.

Oltinchidan, muomala va xulq-atvor madaniyati bolada odobli gapirish va tinglash, jamoada o‘zini tutish qoidalari, nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish va axloqiy me’yorlarga amal qilish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. Bu tarkibiy qism bolaning ijtimoiy integratsiyasi va tinch hamjamiyatdagi ishtiroki uchun asosiy hisoblanadi.

Yettinchidan, iymon-e’tiqod va ruhiy barqarorlik shaxsning ichki olamini mustahkamlaydi. Bu yaxshilik va yomonlikni farqlay olish, hayotga ijobiy munosabat, sabr, shukronalik va qanoat, shuningdek, ruhiy sog‘lomlikni saqlash kabi fazilatlarni o‘z ichiga oladi. Bu qism bola va yoshlarning ma’naviy barqarorligi va ruhiy sog‘lomligini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Shu tariqa, oiladagi ma’naviy-axloqiy tarbiya o‘zaro bog‘langan va uyg‘un tarkibiy qismlardan tashkil topgan tarbiya tizimi bo‘lib, u bola va yoshlarning shaxs sifatida barqaror rivojlanishi, milliy qadriyatlar va ijtimoiy odob-axloqga asoslangan kamoloti uchun poydevor hisoblanadi.

Ota-onaning ma’naviy-axloqiy tarbiyadagi o‘ziga xos o‘rni.

Oiladagi ma’naviy-axloqiy tarbiyaning samaradorligi avvalo ota-onaning shaxsiy namunasiga bog‘liq. Bola ota-onaning kundalik hayotiy xulq-atvori, qarori va munosabatlarini kuzatadi va shu orqali o‘z axloqiy qarashlari va fazilatlarini shakllantiradi. Ota-ona bola uchun birinchi va eng ta’sirchan tarbiyachi hisoblanadi. Bola hayotdagi dastlabki axloqiy me’yorlar - yaxshilik va yomonlik, poklik va nopoklik, hurmat va mas’uliyat tushunchalarini aynan ota-ona munosabati, xulqi va hayot tarzi orqali o‘zlashtiradi. Shu ma’noda, ota-onaning shaxsiy namunasi har qanday so‘z yoki nasihatdan kuchliroq ta’sir ko‘rsatadi. Ota-ona o‘z ishiga mas’uliyat bilan yondashsa, bir-biriga hurmat va sabrli munosabat ko‘rsatsa, bola ham shu fazilatlarni o‘zlashtiradi. Ota-onaning o‘zaro munosabati, mehnatga munosabati va jamoada o‘zini tutishi bola uchun tabiiy tarbiya maktabi vazifasini o‘taydi.

Tarbiya jarayonida so‘z bilan amal uyg‘unligi – ya’ni ota-onaning aytgani va qilgani bir-biriga mos kelishi – asosiy pedagogik qadriyat hisoblanadi. Agar ota-ona bolaga adolat, sadoqat va mas’uliyat yuzasidan ta’lim bersa, ammo o‘zlari noto‘g‘ri xulq ko‘rsatsa, bola bu ta’limni qabul qilmaydi va oiladagi ma’naviy barqarorlik zaiflashadi. Aksincha, so‘z va amal uyg‘un bo‘lsa, bola axloqiy qarashlarni amaliy tarzda o‘zlashtirib, hayotda qo‘llaydi va o‘z munosabatlarida ham o‘z namunasini shakllantirib boradi.

Milliy qadriyatlar – oilaviy tarbiyaning ma’naviy poydevori.

Milliy qadriyatlar – muayyan xalq yoki millatning tarixiy taraqqiyoti, turmush tar-

zi, dunyoqarashi va ma’naviy tajribasi asosida shakllangan, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan ma’naviy, axloqiy, madaniy va ijtimoiy me’yorlar majmuasidir. So‘zlarning ma’nosiga e’tibor beradigan bo‘lsak, milliy – muayyan millatga xos, uning o‘zigagina tegishli degan ma’noni bersa, qadriyat – qadr-qimmatga ega bo‘lgan, asrash va e’zozlash lozim bo‘lgan ma’naviy boylik degan tushunchalarni bildiradi.

Faylasuf olim Q.Nazarov: “Milliy qadriyatlar” – muayyan millatning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy rivojlanish jarayonida yaratgan moddiy va ma’naviy boyliklar, yashayotgan hudud, madaniy-ma’naviy meros, milliy madaniyat, til, milliy ong, millat ruhi, tarixi, yashash tarzi, milliy umrguzaronlikni tartib-qoidalari hamda ular bilan bog‘liq xususiyatlar, jihatlar va boshqalarning ijtimoiy ahamiyatini ifodalaydigan tushunchadir”[7] - deb keltiradi.

Demak, milliy qadriyatlar – bu, millatning o‘zligini belgilab beruvchi ruhiy-ma’naviy mezonlar, ijtimoiy xulq-atvorni tartibga soluvchi axloqiy qoidalar, jamiyat barqarorligini ta’minlovchi ma’naviy tayanchdir. Milliy qadriyatlar kattaga hurmat, kichikka izzat, ota-ona roziligi, oila muqaddasligi, mehmondo‘stlik, hamjihatlik va qo‘shnichilik, or-nomus va hayo, vatanga sadoqat, halollik va adolat kabi ma’naviy-axloqiy me’yorlar va tamoyillar orqali namoyon bo‘ladi. Shuningdek, milliy qadriyatlar shaxs tarbiyasining asosini tashkil qiladi, yosh avlodda milliy o‘zlik va faxr tuyg‘usini shakllantiradi, globallashuv sharoitida madaniy assimilyasiyadan himoya qiladi, ya’ni milliy qadriyatlar – millatning ma’naviy kodi, uning tarixi, madaniyati va kelajagini bog‘lab turuvchi ruhiy ko‘prikdir desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Milliy qadriyatlar oilada ma’naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy mazmuniy va metodologik poydevori hisoblanar ekan, ular bola va yoshlarning shaxsiy fazilatlari, axloqiy qarashlari va ijtimoiy munosabatlarini shakllantirishda asosiy yo‘nalish va tarbiya tizimini belgilaydi. Oilaviy an’analar, urf-odatlar va marosimlar orqali bolalar milliy o‘zlikni, madaniy merosni va avlodlar davomiyligini anglaydi. Masalan, Navro‘z, Qurbon va Ramazon hayitlari, nikoh marosimlari, oilaviy uchrashuvlar va birgalikdagi milliy dasturxon madaniyati bolada milliy madaniy qiymatlarni anglash va qadrlashni rivojlantiradi. Shu bilan birga, oila nafaqat tarbiya sub’ekti sifatida, balki milliy madaniyatni avloddan-avlodga yetkazuvchi vosita vazifasini ham bajaradi.

Milliy qadriyatlar zamonaviy hayotdan uzilgan holda emas, balki yangi ijtimoiy va texnologik realliklar bilan uyg‘unlikda namoyon bo‘lishi lozim. Zamonaviy ta’lim va tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarni ilg‘or pedagogik usullar va raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish bolada an’anaviy va zamonaviy bilimlarni samarali o‘rgatish imkonini beradi. Masalan, bolalarga oilaviy qadriyatlar haqidagi multimedia materiallari, elektron kitoblar va video syujetlar orqali tarbiya berish an’anaviy tajribani zamonaviy muhit bilan uyg‘unlashtirishning samarali yo‘li bo‘ladi. Shu bois, milliy qadriyatlarni oilaviy tarbiyada samarali amaliy tarzda qo‘llash - har bir ota-ona va pedagog uchun eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy yondashuvlar va oilaviy tarbiya.

Zamonaviy yondashuvlar - bu an’anaviy usullardan farq qiluvchi, hozirgi zamon talablari, ilmiy bilim va texnologiyalar asosida yaratilgan innovatsion va amaliy yondashuvdir. U oilaviy tarbiyada onlayn platformalar, interaktiv mashg‘ulotlar va ijtimoiy treninglar orqali ma’naviy-axloqiy tarbiyani rivojlantirish, madaniy merosni raqamli formatda saqlash va yoshlar orasida targ‘ib qilish imkonini beradi. Shu tariqa, zamonaviy yondashuv pedagogik, texnologik va ijtimoiy talablarni ham birlashtirgan amaliyotdir.

Hozirgi globallashuv va raqamli texnologiyalar davri oilaviy tarbiyaga ikki tomonla-

[7] Q.Nazarov. Qadriyatlar falsafasi. – Toshkent. “Akademiya” nashriyoti, 2011 y. 384b. 69-bet.

ma ta’sir ko‘rsatmoqda. Bir tomondan, internet, elektron ta’lim platformalari va raqamli resurslar bolalar va yoshlar uchun ta’limiy va ma’rifiy imkoniyatlarni kengaytirmoqda. Masalan, bolalar milliy tarix, adabiyot va ma’naviy qadriyatlar haqida onlayn video va interaktiv materiallar orqali bilim olishlari mumkin. Shu bilan birga, ota-onalar zamonaviy texnologiyalar orqali bolalar bilan individual muloqotni tashkil qilish va ularning ma’naviy rivojlanishiga rahbarlik qilish imkoniga ega.

Ikkinchi tomondan, global ommaviy madaniyat milliy qadriyatlar va an’anaviy tarbiya usullariga raqobatchi bo‘lib chiqmoqda. Yoshlar orasida g‘arb madaniyati va ijtimoiy tarmoqlarda tarqaladigan radikal yoki noyob g‘oyalar ta’siri kuchaymoqda. Bu esa ma’naviy barqarorlikning zaiflashishi va oilaviy tarbiyaning samaradorligini pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, zamonaviy ota-onalar uchun tarbiyada milliy qadriyatlarni ilg‘or pedagogik usullar va zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish muhim vazifa hisoblanadi.

Bundan tashqari, zamonaviy ota-onalar uchun oilaviy tarbiyadagi muhim vazifa - bolaning ma’naviy-axloqiy o‘sishi uchun vaqt va e’tiborni samarali taqsimlashdir. Shu maqsadda ota-onalar bolalar bilan muloqot uchun maxsus kunlar belgilash, oilaviy tadbir va uchrashuvlar tashkil etish, hamda ijtimoiy tarmoq va internetdan tanlovli va nazoratli tarzda foydalanishlari zarur.

Oilada ma’naviy-axloqiy tarbiyada uchrayotgan muammolar.

Zamonaviy dunyoda oilada ma’naviy-axloqiy tarbiyani samarali singdirish bir qator global muammolar bilan bog‘liq. Ushbu muammolar nafaqat O‘zbekistonda, balki butun dunyoda oilaviy tarbiyaning sifatini pasayishiga sabab bo‘lmoqda. Asosiy global muammolar quyidagilardan iborat:

Global madaniy integratsiya va milliy qadriyatlarga raqobat. Globallashuv va ommaviy madaniyat ta’siri oilaviy tarbiyaga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, g‘arb kino va multimedia mahsulotlari, internet tarmoqlarida tarqaladigan g‘oyalar yoshlar orasida milliy an’analar va qadriyatlarning ahamiyatini pasaytirishi mumkin. Bu holat, ayniqsa, oilada tarbiya jarayonida ota-onaning madaniy va ma’naviy ta’siri zaif bo‘lgan holatlarda kuchayib ketadi.

Raqamli muhit va internet xavflari. Bolalar va yoshlar orasida internet, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalar orqali tarqaladigan radikal yoki etikaga zid kontent ma’naviy barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu global muammo ota-onalar va pedagoglar uchun nazorat va targ‘ibotning yangi uslublarini talab qiladi.

Mehnat migratsiyasi va oilaviy aloqalarning susayishi. Hozirgi zamonda mehnat migratsiyasi oilaviy tarbiya jarayonida muhim muammo hisoblanadi. Ota-onalarning uzoq muddat birga yashamasligi muloqot va emotsional aloqalarning zaiflashishiga olib keladi, bu esa bolada ma’naviy-axloqiy fazilatlarning to‘liq shakllanishiga to‘siq bo‘ladi.

Iqtisodiy ustuvorlik va ma’naviy zaiflik. Ko‘pincha oilalarda moddiy jihat ustuvor bo‘ladi, bu ma’naviy tarbiyaga yetarli e’tibor berilishini cheklaydi. Natijada bola orasida mas’uliyat, sabr-toqat va insof kabi fazilatlarning rivojlanishi uchun zarur muhit kamayib ketadi.

O‘zgaruvchan ijtimoiy muhit va stressli jarayonlar. Jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, migratsiya, ishsizlik, stress va kamida ijtimoiy barqarorlikning zaiflashishi oilaviy tarbiya jarayonida bolaning ma’naviy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ota-onaning so‘z va amal uyg‘unligi susayishi. Global va zamonaviy ta’sirlar ota-onaning shaxsiy namunasini zaiflashtirishi mumkin. Agar ota-ona o‘z axloqiy qarashlarini amaliy tarzda namoyon etmasa, bola uchun tarbiya jarayonidagi asosiy model yo‘qoladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, oilada ma’naviy-axloqiy tarbiyani samarali singdirish yuzasidan quyidagi taklif va tavsiyalarni keltirish mumkin:

Birinchidan, milliy qadriyatlarni zamonaviy tarbiyaga integratsiya qilish kerak. Oilada mehmondo‘stlik, kattalarga hurmat va sabr-toqat kabi qadriyatlar amaliy misollar orqali o‘rgatilishi lozim. Maktab va mahalla hamkorligida bolalarga milliy an’analar va tarix haqida interaktiv vositalar orqali bilim berish tavsiya etiladi.

Ikkinchidan, so‘z va amal uyg‘unligini ta’minlash muhim. Ota-onalar o‘z axloqiy talablarini amaliy xulq orqali namoyon etsin, masalan, adolat va mas’uliyatni ta’lim berishda ham shu fazilatlarni o‘zlari ko‘rsatsin.

Uchinchidan, raqamli muhitdan samarali foydalanish zarur. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali ma’naviy va ma’rifiy kontent taqdim etish, salbiy ta’sirdan himoya qilish uchun nazorat tizimlari joriy etilishi kerak.

To‘rtinchidan, mehnat migratsiyasi va oilaviy muloqot muammolarini kamaytirish zarur. Video qo‘ng‘iroqlar, onlayn muloqot va oilaviy tadbirlar orqali bola va ota-onaning muntazam aloqasi ta’minlanishi lozim.

Beshinchidan, mahalliy va jamoat institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish kerak. Maktab va mahalla ma’naviy-axloqiy dasturlar, xayriya va ijtimoiy faollik aksiyalari orqali bolalarda hamjamiyatga mas’uliyat va hamdardlik hissini rivojlantirishi lozim.

Oltinchidan, ma’naviy va iqtisodiy omillar o‘rtasida muvozanatni saqlash zarur. Chunki, moddiy qo‘llab-quvvatlash oilaning barqarorligini ta’minlab, ma’naviy tarbiyaning samaradorligini oshiradi.

Yetinchidan, ota-onalarning shaxsiy va pedagogik malakalarini doimiy oshirib borish kerak. Chunki, psixologiya, pedagogika va media savodxonlik kurslari bola tarbiyasidagi zamonaviy global muammolarga qarshi samarali chora hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida keltirish mumkinki, oilada ma’naviy-axloqiy tarbiya jamiyat barqarorligi va ma’naviy taraqqiyotining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Milliy qadriyatlar ushbu tarbiyaning ma’naviy poydevorini tashkil etsa, zamonaviy yondashuvlar uni yangi sharoitlarga moslashtirish imkonini beradi. Globallashuv va raqamli muhit sharoitida oila institutini qo‘llab-quvvatlash, uning tarbiyaviy salohiyatini oshirish uchun ta’lim, mahalla va jamoat institutlarining integrativ hamkorligi zarur. Bu esa yosh avlodda milliy o‘zlik, ma’naviy barkamollik va ijtimoiy mas’uliyatni mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati / A. Madvaliev tahriri ostida. –Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2006–2008. 97-b., 120-b., 565-b., 678-b.

2. Fozil odamlar shahri / A.N. Forobiy. –Toshkent: Fan nashriyoti, 1993.

3. Tib qonunlari / A. Ibn Sino. –Toshkent: Abu Ali ibn Sino nomidagi nashriyot, 1996.

4. Mahbub ul-qulub / A. Navoiy. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2000.

5. Turkiy guliston yoxud axloq / A. Avloniy. –Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 1992.

6. Oila pedagogikasi / A. Musurmonov. –Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2015.

7. Qadriyatlar falsafasi / Q. Nazarov. –Toshkent: Akademiya nashriyoti, 2011. 384 b., 69-b.

Omila ARIPOVA,
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti, kichik ilmiy xodim

ZAMONAVIY OILADA FARZAND TARBIYASINING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy oilada farzand tarbiyasining pedagogik va psixologik asoslari har tomonlama tahlil qilinadi. Shuningdek, globallashuv, raqamli muhit va axborot texnologiyalari tez sur'atda rivojlanishining bola shaxsi shakllanishiga ko'rsatayotgan ta'siri ilmiy manbalar asosida yoritilib, oilaviy kommunikatsiya, demokratik tarbiya modeli, emotsional intellektni rivojlantirish, milliy qadriyatlar bilan innovatsion tarbiya usullarini uyg'unlashtirishning samaradorigi tadqiq etilgan. Muallif bola rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari va oila institutining strategik rolini ilmiy asosda ochib beradi.

Tayanch so'zlar. Zamonaviy oila, farzand tarbiyasi, raqamli muhit, demokratik tarbiya modeli, emotsional intellekt, axborot xavfsizligi, milliy qadriyatlar, pedagogik yondashuvlar, oilaviy kommunikatsiya, bola rivojlanishi.

В статье всесторонне анализируются педагогические и психологические основы воспитания детей в современной семье. Также на основе научных источников освещено влияние глобализации, цифровой среды и стремительного развития информационных технологий на формирование личности ребенка, исследована эффективность семейной коммуникации, модели демократического воспитания, развития эмоционального интеллекта, гармонизации инновационных методов воспитания с национальными ценностями. Автор на научной основе раскрывает современные тенденции развития ребенка и стратегическую роль института семьи.

Ключевые слова. Современная семья, воспитание детей, цифровая среда, демократическая модель образования, эмоциональный интеллект, информационная безопасность, национальные ценности, педагогические подходы, семейное общение, развитие ребенка.

The article comprehensively analyzes the pedagogical and psychological foundations of child-rearing in the modern family. Also, based on scientific sources, the influence of globalization, the rapid development of the digital environment and information technologies on the formation of a child's personality is highlighted, the effectiveness of family communication, the model of democratic upbringing, the development of emotional intelligence, and the harmonization of innovative methods of upbringing with national values is investigated. The author scientifically reveals modern trends in child development and the strategic role of the family institution.

Key words. Modern family, raising children, digital environment, democratic education model, emotional intelligence, information security, national values, pedagogical approaches, family communication, child development.

Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida oila instituti oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri – farzandning har tomonlama barkamol rivojlanishini ta'minlashdir. Zamonaviy jamiyatda axborot oqimi keskin o'sishi, madaniy-ma'naviy ta'sirlar xilma-xilligi, ta'lim muhiti rang-barangligi ota-onalardan yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Ilmiy tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, bola shaxsi shakllanishida oila eng ta'sirchan ijtimoiy institut sifatida asosiy o'ringa ega.

Zamonaviy oila va tarbiya muhitidagi o'zgarishlar hamda raqamli muhitning yoshlarga ta'siri. Farzand tarbiyasida eng samarali usul bu talabchanlik, samimiy qo'llab-quvvatlash bo'lib, bunday usullar bolada ishonch, mas'uliyat, mustaqil fikrlashni

shakllantiradi. Ota-ona bilan bola o‘rtasidagi hamkorlik, birgalikda faoliyat olib borishning ilmiy asoslangan samarasi yuqori. Zamonaviy oilada hissiyotni anglash, stressni boshqarish, o‘zaro empatiyani shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 65-moddasida: “Har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish, o‘z ota-onasini bilish, ularning g‘amxo‘rligidan foydalanish, ular bilan birga yashash huquqiga ega, bola manfaatlariga zid bo‘lgan holatlar bundan mustasnodir[1]”, deb ko‘rsatib o‘tilgan. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, har bir o‘zbek oilasida milliy-ma’naviy qadriyatlar: kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, o‘zaro mehr-oqibat, iboli-hayoli bo‘lish kabi fazilatlar – bolaning axloqiy asosini belgilashda ota-onalar teng huquqlidirlar. Zamonaviy tarbiyada milliylik, innovatsion pedagogika tamoyili o‘zaro uyg‘unlashganda eng yuqori natijaga erishiladi. Shuningdek, oilada jismoniy faollikni rag‘batlantiruvchi fitnes-o‘yinlar, interaktiv o‘yinli usullar, media kontentni tahlil qilish orqali tafakkurni rivojlantirishda ham ota-onalarning o‘rni beqiyos.

XXI asr bolasi juda erta yoshdan internet, gadjet va interaktiv texnologiyalar bilan yuzlashadi. Internet va gadjetlar bolaning har tomonlama rivojlanishiga ham, ijtimoiy xulqiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, gadjetdan nazoratsiz foydalanish diqqat parokandaligi, ijtimoiy chekinish va ta’limda pasayishga olib kelmoqda. Nevropsixologik tadqiqotlarda keltirilishicha, smartfon va planshetlardan uzoq muddat foydalanish bolaning diqqatini jamlash qobiliyati, xotira va fikrlash doirasi tezligi, nutqi rivojlanishi, ijtimoiy muloqot ehtiyoji kabi jarayonlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Shunga qaramay, raqamli muhitning ijobiy tomonlari ham mavjud bo‘lib, bola erta yoshdan axborot izlash, multimedia orqali o‘rganish, yodlash, savol berish va mustaqil izlanishga ham o‘rganadi. Bunda ota-onalar o‘z farzandlarini to‘g‘ri nazorat qilishlari, tavsiya etilayotgan ma’lumotlarni maqsadli yo‘naltirishlari zarur. Shu bilan birga, bolalarda axborot texnologiyasi to‘g‘ri yo‘naltirilsa, ularda tafakkurni rivojlantiruvchi resurslari ham boy bo‘ladi.

Zamonaviy ota-onaning vazifalari faqat og‘zaki tarbiya berish bilan cheklanmasligi kerak. Ular o‘z ustida ishlab, media savodxon bo‘lishlari, ya’ni bolaning internetga kirish doirasini, xavfsiz saytlarini bilishlari, bolaning har bir hissiyotlarini qabul qilib, ularni emotsional qo‘llab-quvvatlashlari, o‘qish, ahloq, bo‘sh vaqt taqsimotini taqsimlashda yordam berib, nazoratga olishlari, bolalarni hayotiy ko‘nikmalarga o‘rgatishlari, qiyinchiliklarga uchraganda esa yaqin maslahatchi rolini bajarishlari kerak.

Bir so‘z bilan aytganda, zamonaviy ota-ona – psixolog, o‘qituvchi, maslahatchi, tarbiyachi, texnolog va do‘st vazifalarini birlashtirgan yangi tipdagi shaxs bo‘lishi darkor.

Hozirgi kunda zamonaviy oilalarda ayrim muammolar ham uchramoqda, ya’ni davlat va boshqa idoralarda ishlaydigan ota-onalarning farzandi tarbiyasiga ajratiladigan vaqti yetishmasligi. Ularning har ikkalalari ham ish bilan bandligi, hayot sur’atining tezligi oilaviy muloqot vaqti qisqarishiga sabab bo‘lmoqda. Internet tarmoqlaridagi zo‘ravonlik, yoshga mos kelmaydigan turli tahdidlar, emotsional aloqa susayishi – jonli muloqot o‘rnini onlayn muloqot egallamoqda. Ayniqsa, ko‘p milliylik, madaniy ta’sirlar bola ongida chalkashliklarni keltirib chiqarib, natijada “Qaysi qadriyat to‘g‘ri?, “Qaysi madaniyatga tayanish kerak?” degan savollar ko‘p bolalarda ruhiy noaniqlikni olib kelmoqda. Shuningdek, ota-ona va bola bilan psixologik aloqa susayishi oqibatida bolalarning o‘tish yoshidagi o‘ziga hos bo‘lgan ayrim nizolar kelib chiqish xolatlari kuzatilmoqda.

Bugungi kunda keng tarqalgan tarbiya modellaridan biri bu demokratik tarbiya

[1] O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. https://lex.uz/ru/docs/104720

bo‘lib, tarbiyaning mazkur usuli ota-ona va farzand o‘rtasidagi bir-biriga bo‘lgan talabchanlik va yaqin munosabatlar uyg‘unlashuvidir. Ilmiy tadqiqotlarga ko‘ra, bu usul natijasida bolalarda o‘ziga bo‘lgan ishonch, mustaqil qaror qabul qilish, o‘z fikrini ifoda etish, mas’uliyatni his qilish kabi fazilatlar kuchayadi. Demokratik ota-ona bolaga erkinlik beradi, lekin chegaralarni aniq belgilaydi. U atrofi bilan bemalol muloqot qiladi va vaziyatdan kelib chiqib, “bu vaziyatni qanday yaxshiroq hal qilish mumkin?” degan savol bera oladi.

Gadjetlar va onlayn muloqot ota-ona bilan bola o‘rtasidagi real munosabatlarni qisqartiradi. Emotsional aloqasi kuchli bo‘lmagan bolalar tez stressga tushadi, o‘zini yakkalangandek his qiladi.

Shuning uchun ham bugungi kunda bolalarda emotsional intellekt tarbiya (E.I.) muhim o‘rin egallaydi. Hozirgi davrda bolada identifikatsiya muammolari yuzaga kelmoqda. Bolalarda emotsional intellektni rivojlantirish ularda shaxsiy barqarorlikning asosiy omili hisoblanadi. Ota-ona bolaning qo‘rquv, xursandchilik, g‘azab, ranjish kabi hissiyotlarini tan olishi va uning holatini bartaraf etishga yordam berishi, “sen hozir xafa bo‘ldingmi?”, “hammasi yaxshi bo‘ladi” kabi munosabatda bo‘lib, bolaga stressni yengish usullarini o‘rgatishi kerak. Emotsional barqaror bola ijtimoiy munosabatlarda muvaffaqiyatli, hayoti davomida uchraydigan ayrim nizolarni oson hal qila olish qobiliyatiga ega bo‘ladi.

Har bir oiladagi “oilaviy an’analar” farzandlarni ruhiy barqaror qiladigan asosiy ustun hisoblanadai. Masalan, birgalikda kitob o‘qish, haftada bir kun oilaviy dam olish, milliy bayramlarni an’anaviy nishonlash, tarixiy ziyoratgohlarga, muzey va teatrlarga sayohat uyushtirish shular jumlasidandir. Oilada har bir ota-ona o‘z farzandiga hayotda kerak bo‘ladigan fazilatlar: mas’uliyat, to‘g‘rilik, mehnatsevarlik, vatanga muhabbat va boshqa fazilatlarni nafaqat o‘rgatishi, balki o‘zi ham kundalik hayotda namuna ko‘rsatishi kerak.

Zamonaviy pedagogikada oilada milliy qadriyatlar bilan birga innovatsion tarbiya usullarini ham integratsiyalash bolada etnik-ijtimoiy identifikatsiya, o‘zligini anglash, ruhiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Milliy o‘zlikka ega bola boshqa madaniy ta’sirlar oldida ham mustahkam tura oladi. Tarbiyadagi bunday yondashuv orqali bolalar zamonaviy, biroq milliy ruhda tarbiyalangan shaxs bo‘lib yetishadilar.

Bolalarda mustaqil tadqiqot qilishni shaklantirishda quyidagi usullardan foydalanish, ya’ni Case-study – hayotiy misollar orqali fikrlashga o‘rgatish, Gamification – o‘yinli ta’lim, raqamli pedagogika – interaktiv platformalar orqali ta’lim olish hamda Stem (STEM) faoliyatlari orqali – ijodiy va texnik tafakkurni rivojlantirish muhim omil hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkin, zamonaviy oilada farzand tarbiyasi pedagogik, psixologik, madaniy va raqamli omillar bir vaqtning o‘zida ta’sir qiladigan murakkab tizimdir. Samarali tarbiya sifatida demokratik yondashuv, emotsional qo‘llab-quvvatlash, axborot xavfsizligi, milliy qadriyatlar va zamonaviy ta’lim texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirilganda ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi nashri.

2. O‘zbekistonda oila va bolalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar (2020–2024 yillar). – Toshkent.

3. Madaniy-ta’limiy rivojlanish nazariyasi / L.S. Vigotskiy. Moskva, 2002.

Bahrom UMAROV,
Surxondaryo viloyati Pedagogik mahorat markazi kafedra mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

MAKTAB DARSLIK MATNLARINI O‘QIB TUSHUNISHDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING XULQIY TAMOYILLARI

Annotatsiya

Maqolada maktab darslik matnlarini o‘qib tushunishda sun’iy intellektdan foydalanishning xulqiy tamoyillari, o‘quvchilar xatti-harakatlarining kognitiv, motivatsion va ijtimoiy jihatlaridagi o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Shuningdek, tahlil matnni shaxsiylashtirish, avtomatik qiyinchilikni sozlash, o‘yinlashtirish va algoritmik fikr-mulohazalar natijasida yuzaga keladigan xulq-atvor xususiyatlariga qaratilgan. Bundan tashqari, qiyosiy tahlil an’anaviy darsliklar va sun’iy intellekt bilan o‘zgartirilgan matnlar o‘rtasidagi xulq-atvor xususiyatlaridagi farqlarni ochib berilgan. Muallif maqsadli pedagogik yordamsiz sun’iy intellektdan foydalanish nafaqat axborot olish samaradorligini oshirishi, balki o‘rganish xatti-harakatlarida regressiyalarga olib kelishi mumkinligi aytib o‘tgan.

Tayanch so‘zlar. Sun’iy intellekt, o‘quvchilar xulq-atvori, darslik, raqamli pedagogika, kognitiv faoliyat, maktab ta’limi, moslashuvchan o‘rganish, motivatsiya.

В статье анализируются поведенческие принципы использования искусственного интеллекта при чтении и понимании школьных учебников, изменения в когнитивных, мотивационных и социальных аспектах поведения учащихся. Анализ также фокусируется на поведенческих характеристиках, возникающих в результате персонализации текста, автоматической настройки сложности, игровой и алгоритмической обратной связи. Кроме того, сравнительный анализ выявил различия в поведенческих характеристиках между традиционными учебниками и текстами, модифицированными искусственным интеллектом. Автор отмечает, что использование искусственного интеллекта без целенаправленной педагогической помощи может не только повысить эффективность получения информации, но и привести к регрессиям в учебном поведении.

Ключевые слова. искусственный интеллект, поведение учащихся, учебник, цифровая педагогика, когнитивная деятельность, школьное образование, адаптивное обучение, мотивация.

The article analyzes the behavioral principles of using artificial intelligence in reading and understanding school textbook texts, changes in the cognitive, motivational, and social aspects of student behavior. The analysis also focuses on the characteristics of behavior arising from text personalization, automatic difficulty adjustment, playback, and algorithmic feedback. In addition, the comparative analysis revealed differences in behavioral characteristics between traditional textbooks and texts modified by artificial intelligence. The author notes that the use of artificial intelligence without targeted pedagogical assistance can not only increase the effectiveness of information acquisition, but also lead to regressions in learning behavior.

Key words. Artificial intelligence, student behavior, textbook, digital pedagogy, cognitive activity, school education, adaptive learning, motivation.

Ta’limning tezkor raqamlashtirilishi sharoitida o‘quvchilarning raqamli texnologiyalar bilan, xususan, o‘quv jarayoniga integratsiyalashgan sun’iy intellekt (SI) vositalari bilan o‘zaro ta’sirining xulq-atvor jihatlari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. SI kontentni moslashtirish, taraqqiyotni kuzatish va avtomatlashtirilgan fikr–mulohazalarni taqdim etish uchun keng imkoniyatlarga ega bo‘lishiga qaramay,

o‘quvchilarning idrok etishi, motivatsiyasi va undan foydalanish paytidagi faoliyatini tartibga solishning xulq-atvor xususiyatlari yetarlicha o‘rganilmaganligicha qolmoqda. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim muhitining samaradorligi nafaqat texnologik salohiyat, balki SI muhitdagi o‘quvchilarning xatti-harakatlari bilan ham belgilanadi.

Sun’iy intellekt (SI)ning maktab ta’lim muhitiga integratsiyalashuvi zamonaviy ta’lim tuzilmasidagi eng muhim o‘zgarishlardan biriga aylandi. Bosma darsliklar va statik matnlar orqali bilimlarni uzatishning ilgari qattiq va universal tizimi endi moslashuvchan va xulq–atvorga yo‘naltirilgan modelga aylantirilmoqda. Bunda SI nafaqat texnologik vosita, balki o‘quvchilar xatti-harakatlarining vositachisi sifatida ham ishlaydi. Ushbu aralashuv nafaqat bilim olish usullarini, balki o‘quvchilarning kognitiv, hissiy va ijtimoiy faolligining asosiy jihatlarini ham o‘zgartiradi. Barcha o‘quvchilarning ta’limda sun’iy intellektdan foyda olishlarini ta’minlash uchun tegishli tartibga solish va axloqiy asoslar talab etiladi. Hozirgi vaqtda xususiy kompaniyalar ta’limda sun’iy intellektni eng faol qo‘llashga turtki bo‘lmoqda, bu esa o‘quvchilar ma’lumotlarining maxfiyligi, xavfsizligi va ulardan foydalanish borasida xavotirlarni kuchaytirmoqda.

Tijorat tashkilotlari ushbu yangi texnologiyalarning ta’lim afzalliklarini targ‘ib qilishda muhim rol o‘ynashi mumkin, ammo ularning umumiy aholiga ta’lim berish vazifasi yuklatilganlardan farqli ustuvorliklari borligi tushunarli va bunday xizmatlarning narxi ularni ushbu imtiyozlarga eng ko‘p muhtoj bo‘lgan o‘quvchilar guruhlari uchun mavjud bo‘lmasligi mumkin. Bunday texnologiyalarning roli va ularning ta’limga, umuman olganda, o‘quvchilarning qobiliyatlari va hatto qadriyatlar tizimiga ta’sirini hisobga olish kerak. Sun’iy intellektga asoslangan texnologiyalar shaffoflik va nazorat asosiy inson huquqlarini qo‘llab-quvvatlashi va mustahkamlashi muhim sanaladi. Shuningdek, ta’limda sun’iy intellektdan foydalanish barqaror rivojlanish maqsadlariga, xususan, ‘‘inklyuziv va teng sifatli ta’limni ta’minlash va barcha uchun umrbod ta’lim imkoniyatlarini rivojlantirish’’ zarurligini mustahkamlovchi 4–BRMga erishishga hissa qo‘shishini ta’minlash uchun juda muhimdir.

SIni o‘quv materiallariga joriy etishning asosiy ta’sirlaridan biri bu o‘quvchilarning o‘qish, tushunish xatti-harakatlaridagi o‘zgarishdir. An’anaviy matnlar interaktiv imkoniyatlarga ega raqamli platformalar bilan almashtirilishi bilan chiziqli va chuqur o‘qishdan axborotni modulli, epizodik idrok etishga o‘tish sodir bo‘lmoqda. SI tizimlari foydalanuvchilarga matnning algoritmik optimallashtirilgan versiyalarini taklif qiladi, takrorlashni yo‘q qiladi va materialning murakkabligini moslashtiradi. Bu bir tomondan, turli kognitiv profillarga ega o‘quvchilar uchun tushunishni yaxshilaydi, boshqa tomondan, chuqur kognitiv kuch talab qilmaydigan ‘‘oson o‘qish’’ odatini rivojlantiradi.

T.Xie va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, raqamli darsliklar bilan ishlaydigan o‘quvchilar aniq kalit so‘zlar va algoritmik tarzda ajratilgan parchalarga e’tibor qaratib, tanlab o‘qishning aniqroq xususiyatlarini namoyish etadilar. Bu xatti-harakatlar tanqidiy fikrlashni cheklaydi, matnni yaxlit idrok etishni buzadi va tor, pragmatik yo‘naltirilgan o‘qish strategiyasini ishlab chiqishga yordam beradi.

An’anaviy modelda darsliklarni o‘qishga motivatsiya ichki qiziqish va o‘qituvchilar va ota-onalarning tashqi ijtimoiy bosimiga asoslangan edi. Sun’iy intellekt ko‘magi ostida o‘quvchilarning motivatsion munosabatlari operatsion foydalilikka o‘tishni boshlaydi: o‘quvchilar matn bilan faqat tezkor natijalar, fikr-mulohazalar yoki takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar olish darajasida o‘zaro ta’sir qiladi. Bu, ayniqsa, matn topshiriqlarini bajarganlik uchun ballar beriladigan va xatti-harakatlar raqobatbardosh ravishda qayd

etiladigan o‘yinlashtirish modeliga asoslangan tizimlarda yaqqol ko‘rinadi.

Matn bilan raqamli o‘zaro ta’sirlarda o‘quvchilarning xatti-harakatlari o‘qib tushunish qobiliyati, kognitiv chidamlilik va o‘rganish uchun ichki motivatsiya kabi omillar bilan belgilanadi. SI vositalaridan (masalan, aqlli darsliklar, chat yordamchilari, moslashuvchan test tizimlari) foydalanganda, o‘quvchilar vazifalarni bajarishni tezlashtirish uchun skriming va fikr-mulohazalardan strategik foydalanish kabi turli xil faoliyat shakllarini namoyish etadilar. ular matn bilan to‘liq shug‘ullanmasdan SI javoblariga tayanadigan “ma’noni chetlab o‘tish” strategiyalarining ko‘payishiga olib keladi. Matnni talqin qilishda ixtiyoriy harakatlarning pasayishi, chunki o‘quvchi mustaqil fikrlashga emas, balki raqamli vositachining tavsiyalariga tayanadi. Biroq, xulq-atvor nuqtai nazaridan, bu “kognitiv dangasalik”ga olib kelishi mumkin.

Tadqiqot jarayonida o‘tkazilgan meta-tahlilga ko‘ra, SI yordamchilari bilan ishlaydigan o‘quvchilarning taxminan 42 foizi matn topshiriqlarini bajarishda mustaqil fikrlash vaqtining kamayganligini ko‘rsatdi.Bu model tashqi motivatsiyani kuchaytirishi mumkin, ammo o‘qishga bo‘lgan doimiy ichki qiziqishni susaytiradi.

Matn bilan an’anaviy o‘zaro ta’sir metakognitiv strategiyalarni ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi: o‘quvchilar o‘zlariga savol berishni, gipotezalarni shakllantirishni va o‘z tushunchalarini baholashni o‘rganadilar. Boshqa tomondan, sun’iy intellekt bu funksiyalarning katta qismini o‘z zimmasiga oladi, materialni o‘zlashtirish darajasini avtomatik ravishda aniqlaydi va tuzatish variantlarini taklif qiladi. Bu, K.Ergashev va boshqalar tomonidan o‘rganish o‘zaro ta’sirlarini tahlil qilishda ko‘rsatilganidek, refleksiya jarayonlari faolligini pasaytiradi, chunki o‘quvchi sun’iy intellektning harakatlarini to‘liq nazorat sifatida qabul qiladi va natija uchun shaxsiy javobgarlikni susaytiradi.

An’anaviy o‘quv muhitida o‘quvchilar o‘qituvchilarga, tengdoshlarga yoki qo‘shimcha materiallarga murojaat qilishadi. Sun’iy intellekt muhitida yordam manbai algoritmning o‘zi bo‘lib, u real vaqt rejimida kontekstual tushuntirishlar yoki tuzatish ma’lumotlarini taqdim etadi. Fikr-mulohaza tezligidagi aniq afzalliklarga qaramay, bu o‘quvchilar yechim topish uchun tashabbus ko‘rsatmaydilar, balki avtomatik qo‘llab-quvvatlashni kutishadiki bu yondashuv passiv o‘rganish tafakkurini rivojlantiradi.

Bundan tashqari, sun’iy intellekt ta’sirida o‘quvchilarning xatti-harakatlari o‘rganish tajribasini individuallashtirishga sezilarli o‘tishni ko‘rsatadi. Bu ikki tomonlama oqibatlarga olib keladi. Bir tomondan, o‘quv matnlarini shaxsiylashtirish samaradorlikni oshiradi va umidsizlikni kamaytiradi. Boshqa tomondan, o‘rganishning ijtimoiy komponenti buziladi.

Shuni ham hisobga olish kerakki, maktab darsliklarida sun’iy intellektdan foydalanish o‘quvchilarning hissiy xatti-harakatlariga ta’sir qiladi. Empatiyaga ega bo‘lmagan sun’iy intellekt tizimi neytral deb qabul qilinishi mumkin, ammo har doim ham qabul qila olmaydi. Bu o‘quvchilarning hissiy reaksiyalari – umidsizlik, quvonch, zerikish – yetarli darajada javob olmaydigan o‘zaro ta’sirning noyob shaklini yaratadi, bu esa o‘qish paytida to‘liq hissiy tartibga solishning rivojlanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin.

K.Ergashev SI modullari bilan ishlaydigan o‘quvchilar matnga asoslangan o‘rganishning an’anaviy shakllari bilan shug‘ullanadigan o‘quvchilarga nisbatan o‘quv jarayonida kamroq hissiy ishtirokni namoyish etishlarini ta’kidlaydilar. Bundan tashqari, muhim xulq-atvor belgisi o‘quvchilarning avtomatlashtirilgan fikr-mulohaza elementlari bilan o‘zaro ta’siri turidir. Avtomatlashtirilgan baholashlar, tabiiy tilni qayta ishlashga asoslangan va vizual ishoralar (ta’kidlash, kalit so‘zlar) kabi vositalar metakognitiv boshqaruv jarayonlarini faollashtiradi, ammo “affektiv qaramlik” effektini ham keltirib chiqarishi mumkin, bunda o‘quvchi o‘zini tekshirishga intilmaydi, balki tizimdan tas-

diqlashni kutadi.

2025-yilda Surxondaryo viloyatidagi maktablarda amalga oshirilgan tadqiqotimizda sun'iy intellekt tizimi bilan o'zaro ta'sirlar soni va boshlang'ich tayyorgarlik darajasi past bo'lgan o'quvchilar orasida akademik mustaqillikning pasayishi o'rtasida ijobiy bog'liqlikni aniqladi. Aniqlanishicha, raqamli savodxonlik darajasi yuqori bo'lgan o'quvchilar avtomatlashtirilgan so'rovlar mavjud bo'lganda tanlab o'qishga va matnning murakkab qismlarini o'tkazib yuborishga moyildir. Sun'iy intellekt tufayli vazifalarni tezda bajarish qobiliyatidan xabardor bo'lgan o'quvchilar matn bilan ishlashni oxirgi mumkin bo'lgan muddatgacha qoldirib ketishadi. Bu yuzaki o'qishni, matn tahlili chuqurligining pasayishini va maksimal natijalarga erishish uchun minimal harakat qilishni rag'batlantirdi,o'qib tushunish va tahlil qilishdan ko'ra avtomatlashtirilgan muammolarni yechishga ko'proq murojaat qilishdi.

Ko'rsatilganidek, eng aniq o'quvchilar guruhi SI tizimiga kiritilgan signallarga tayanadi (35%), chinakam mustaqil o'quvchilar ulushi esa atigi 30 foizni tashkil qiladi. Bu fakt texnologik qulaylik, ixtiyoriy va kognitiv tashabbusning regressiyasi o'rtasidagi murakkab bog'liqlikni ko'rsatdi.

Ta'kidlash kerakki, o'quvchilarning sun'iy intellekt vositalari bilan ishlashdagi xatti-harakatlari interfeys shakliga yuqori sezgirlikni va raqamli manbalarga ishonch darajasini namoyon etdi. Empatik raqamli avatarlar, o'yinga asoslangan tavsiyalar yoki vizualizatsiya kabi sun'iy intellekt komponentlariga ega darsliklar o'qishga ko'proq turtki beradi. Biroq, darslik matnlarining haddan tashqari "o'yinlashtirilishi" semantik tahlil chuqurligini pasaytiradi va ikkilamchi interfeys funksiyalariga e'tiborning o'zgarishiga olib keladi.

Tahlilga ko'ra, intellektual ta'lim platformalarini joriy etayotgan pilot maktablarda test ballari oshgan, ammo tanqidiy matn tahlili va mustaqil qayta hikoya qilishda pasayish kuzatilgan.

Quyidagi jadvalda an'anaviy va SI asosidagi darsliklardan foydalanishning xulq-atvor jihatlaridagi asosiy farqlar umumlashtirilgan:

Xulq-atvor kategoriyasi	An'anaviy darsliklar	Sun'iy intellekt yordamidagi darsliklar
O'qish uslubi	chiziqli, chuqur;	parchalangan, tanlangan
Motivatsiya	ichki, barqaror;	tashqi, vaziyatga bog'liq;
Metakognitsiya	faol, mulohazakor;	algoritmik yordam tufayli kamaygan;
Yordam izlash	insoniy, ijtimoiy;	avtomatlashtirilgan, individuallashtirilgan;
Hissiy ishtirok	yuqori, hamdard;	neytral, cheklangan;
O'rganish xulq-atvori	izchil, mas'uliyatli;	optimallashtirilgan, kechiktiruvchi;
Diqqat		tarqoq, qisqa muddatli;

Binobarin, maktablarda matnlar va darsliklar bilan ishlashda sun'iy intellektdan foydalanishning xulq-atvor jihatlari kompleks yondashuvni talab qiladi. Texnologiyani joriy etish mustaqillikning pasayishi, o'quv maqsadlariga ahamiyat bermaslik va semantik tahlil chuqurligining pasayishi bilan birga kelsa, kognitiv va ta'lim natijalarining yaxshilanishini kafolatlanmaydi.

Raqamli o'rganishdagi xulq-atvor vektori nafaqat o'rganilishi, balki pedagogik strategiyalar doirasida maqsadli ravishda ishlab chiqilishi kerak. Raqamli resurslarni tanqidiy tanlash uchun vositalar bilan jihozlangan o'qituvchi o'quvchilarning xulq-atvorini darslik matnlari bilan ongli, motivatsiyalangan va mazmunli o'zaro ta'sirga yo'naltira oladi.

Xulq-atvor turi	Asosiy xususiyatlar	Pedagogik xavflar
Mustaqil o‘qib tushunish	faol matn tahlili, o‘z-o‘zini tahlil qilish, raqamli yordamsiz ishlash;	individual qo‘llab-quvvatlashga ehtiyoj, i-motivatsiyaning yo‘qligi;
Sun’iy intellektga bog‘liq	ishoralardan tez-tez foydalanish, kognitiv harakatlarning kamayishi;	passivlik, sonli javoblarga bog‘liqlik;
O‘yinga asoslangan motivatsiya	vizualizatsiya va ball berish orqali yuqori ishtirok, yuzaki tushunish;	tahlil chuqurligining pasayishi, natijalarning motivatsiya bilan almashtirilishi;
Tanlab o‘qish	matnning murakkab qismlarini o‘tkazib yuborish, kalit so‘zlarga e’tibor qaratish;	tanqidiy fikrlashdan, materialni tanlab o‘zlashtirishdan uzoqlashish;

Binobarin, sun’iy intellekt bilan o‘zaro ta’sirni samarali pedagogik qo‘llab-quvvatlash nafaqat kognitiv, balki xulq-atvor farqlarini ham hisobga olishi kerak. O‘quvchi va sun’iy intellekt o‘rtasida vositachi sifatida ishlaydigan o‘qituvchi o‘quvchilarning raqamli matnga nisbatan tanqidiy, faol va refleksiv xulq-atvorga bo‘lgan munosabatini rivojlantirishi kerak. Faqatgina ushbu shartlar bajarilgan taqdirdagina sun’iy intellekt texnologiyalari xulq-atvorni osonlashtirish omili emas, balki kognitiv rivojlanish uchun resursga aylanadi.

Maktab o‘quvchilarining darslik matnlarining sun’iy intellekt komponentlari bilan ishlaydigan taqdim etilgan xulq-atvor modellarini tahlil qilish bizga raqamli mediatsiyaning potensial foydalarini ham, pedagogik javoblarni talab qiladigan jiddiy xavflarni ham aniqlash imkonini beradi. Binobarin, mustaqil, o‘qib tushunish didaktik nuqtai nazardan eng afzal model hisoblanadi, chunki u o‘quvchilarga matnni murakkab intellektual tuzilma sifatida idrok etish imkonini beradi. Biroq, SI muhitida bunday model kamdan-kam hollarda o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladi – bu oldindan tayyorgarlikni, semantik talqin qilish ko‘nikmalarini va raqamli muhitga tanqidiy yondashuvni talab qiladi. Ushbu komponentlar bo‘lmagan taqdirda, o‘quvchilar tezda qaramlik xususiyatiga o‘tadi, bu yerda ularning asosiy faoliyati javoblarni takrorlashga yoki SI ko‘rsatmalariga passiv ravishda amal qilishga kamayadi, ko‘rsatmalarga qaramlik kuchayadi.

Surxondaryo viloyati umumta’lim maktablarida o‘tkazilgan tadqiqotimizda sun’iy intellektga asoslangan matnlar bilan hamkorlikda ishlashda o‘quvchilar ko‘proq o‘qiganlarining ma’nosini muhokama qilishdi va tizimning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatmalariga kamroq tayanishdi. Avtomatik fikr-mulohazadan faol foydalangan 6 va 7–sinf o‘quvchilari bosma matn bilan ishlaydigan guruhga nisbatan tanqidiy fikrlashning 22 foiz past darajasini namoyish etdi. O‘quvchilar matnning mohiyatini o‘rganishga qiziqishni yo‘qotadi, buning o‘rniga algoritmik jihatdan “to‘g‘ri” javobni topishga e’tibor qaratadi.

Sun’iy intellekt bilan raqamli o‘rganishning xulq-atvor o‘lchami nafaqat texnologik integratsiya, balki pedagogik moslashuvni ham talab qiladi. Xulq-atvor nafaqat o‘quvchining shaxsiy strategiyalarini, balki raqamli muhit tuzilishini, pedagogik kontekstni va raqamli madaniyat darajasini ham aks ettiradi. Shuning uchun, ta’lim uchun sun’iy intellekt vositalarini ishlab chiqish nafaqat muhandislar va dasturchilar tomonidan, balki o‘qituvchilar, psixologlar va o‘qib tushunish bo‘yicha mutaxassislar bilan hamkorlikda

ham amalga oshirilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt vositalarini maktab amaliyotiga joriy etish neytral jarayon emas, balki o'quvchilarning xulq-atvor strategiyalarini, shu jumladan ta'lim mazmuni bilan o'zaro ta'sir qilishning ham samarali, ham xavfli modellarini o'zgartirishni o'z ichiga oladi.

Ijobiy tendensiyalar qatoriga raqamli matnlarning vizualizatsiyasi, shaxsiylashtirilishi va moslashuvchanligi tufayli o'quv materiallariga qiziqishning ortishi, shuningdek, turli xil ta'lim ehtiyojlariga ega o'quvchilar uchun ta'lim ma'lumotlariga kirishning ortishi kiradi. Sun'iy intellekt shaxsiylashtirilgan o'qish traektoriyalarini shakllantirishi, ma'lumotnoma ma'lumotlariga kirishni tezlashtirishi va malakali pedagogik yordam bilan qo'llab-quvvatlansa, metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam berishi mumkin.

Xulq-atvor traektoriyalarini pedagogik boshqarish quyidagi elementlarni o'z ichiga olishi mumkin:

– SI yordamchilari bilan o'zaro ta'sirdan keyin semantik o'zini o'zi refleksiya bosqichlarini joriy etish;

– batafsil javobni talab qiladigan raqamli matn haqida ochiq savollar berish;

– SI vositalarini an'anaviy muhokama va tahlil shakllari bilan birlashtirish;

– SI chaqiruvlarining individual sur'atiga bog'liqlikni kamaytirish uchun guruh ishlarini tashkil qilish;

– o'quvchilarda raqamli manbalarni mutlaq vakolat emas, balki talqin sub'ekti sifatida tanqidiy idrok etish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Sun'iy intellekt fikrlashning o'rnini bosmaydi, balki uni yo'naltirishi, kuchaytirishi yoki aksincha, buzishi mumkin. O'qituvchi hamda o'quvchilarning raqamli xulq-atvorini me'mori sifatida ta'limda SIdan samarali foydalanishda didaktik jihatdan asoslangan strategiyaning kombinatsiyasi orqali mumkin. Shundagina sun'iy intellekt yuzaki assimilyatsiya omili emas, balki o'quvchilarning chuqur savodxonligi va ta'lim avtonomiyasini rivojlantirish uchun to'liq huquqli vositaga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zhou Y., Sung Y. T. Cognitive impacts of interface gamification in AI–based textbooks // Computers & Education. – 2023. – Vol. 191. – P. 55–64.

2. Искусственный интеллект в образовании: Изменение темпов обучения. Аналитическая записка ИИТО ЮНЕСКО / Стивен Даггэн; ред. С. Ю. Князева; пер. с англ.: А. В. Паршакова. – Москва: Институт ЮНЕСКО по информационным технологиям в образовании, 2020.

3. Sosnovsky S., Brusilovsky P., Lan A. Intelligent Textbooks // International Journal of Artificial Intelligence in Education. – 2025. – DOI: https://doi.org/10.1007/s40593–024–00451–9. – [2, с. 88].

4. Эргашев К. Поведение учащихся в цифровой среде // Журнал педагогических исследований Узбекистана. – 2024. – №2. – С. 39. – [5, с. 39].

5. Шаймерденова А. С., Исмагамбетова М. Ж. Анализ зарубежного опыта обучения чтению и письму на английском языке младших школьников // Молодой ученый. – Москва, 2021. – №10 (352). – С. 38–41.

6. Qodirov U. D., Qarshiyev J. M. Ta'lim jarayonida sun'iy intellektdan foydalanishning o'ziga xos jihatlari // Zamonaviy ta'lim / Современное образование. – 2024. – 4 (101).

Ravshanbek QUZIYEV,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi Milliy inistituti, mustaqil izlanuvchi

O‘SMIR YOSHDAGI O‘QUVCHILARNI IJTIMOIYLASHTIRISH JARAYONIDA AXBOROTLAR BILAN ISHLASH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH METODLARI VA USHBU MAQSADGA YO‘NALTIRILGAN PEDAGOGIK JARAYON

Annotatsiya

Maqolada o‘smir yoshidagi o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvini ta’minlash ta’lim tizimining eng dolzarb vazifalaridan biriligi aytib o‘tilgan. Shuningdek, o‘smirlar jamoaviy ishlar orqali o‘zaro hamkorlikni, mas’uliyatni, muammolarni birgalikda hal etish ko‘nikmalari va yoshlarimizda g‘oyaviy tahdidlarga qarshi kurashish ko‘nikmasini rivojlantirish haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so‘zlar. O‘smirlik davri, ijtimoiy tajriba orttirish, shaxsiy qadriyatlar, integratsiyalash, ijtimoiy muhit, birgalikda hal etish ko‘nikmalari.

В статье отмечается, что обеспечение социальной адаптации учащихся подросткового возраста является одной из самых актуальных задач системы образования. Также речь идет о развитии у подростков навыков сотрудничества, ответственности, совместного решения проблем и умения бороться с идеологическими угрозами через коллективную работу.

Ключевые слова. Подростковый возраст, приобретение социального опыта, личные ценности, интеграция, социальная среда, навыки совместного решения.

The article notes that ensuring the social adaptation of adolescent students is one of the most pressing tasks of the education system. Also, the discussion focused on the development of cooperation, responsibility, skills for solving problems together, and the ability to combat ideological threats in our youth through collective work.

Key words. Adolescence, gaining social experience, personal values, integration, social environment, skills of joint solution.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan birinchi kunlardanoq milliy qadriyatlarni qayta tiklashi bilan birga umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligini, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishda, barkamol avlodni shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanishini e’lon qildi. Boy madaniy-ma’naviy merosimizdan, buyuk ajdodlarimiz yaratgan ma’naviyat sarchashmalaridan bahramand bo‘lishimiz uchun keng yo‘l ochildi. Lekin bu yutuqlar ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy sohada muammolar yo‘q, hammasi hal etildi degani emas. Davlat va siyosat arboblari, faylasuflar va jamiyatshunos olimlar, sharhlovchi va jurnalistlar bu davrni turlicha ta’riflab, har xil nomlar bilan atamoqda. Kimdir uni yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yana birov yalpi axborotlashuv davri sifatida izohlamoqda.

Taraqqiyotning hozirgi bosqichida jahonda g‘oyat murakkab va tahlikali jarayon kechmoqda. Bu jarayon dunyo xaritasida yangi davlatlarning vujudga kelishi, taraqqiyotning yangi bosqichga ko‘tarilishi, taraqqiyotga g‘ov bo‘ladigan, demokratik rivojlanishni izdan chiqaradigan, jamiyat birligiga rahna soladigan g‘oyaviy to‘siqlarning paydo bo‘lishi, globallashuv jarayonining jamiyat hayotiga kirib kelishi bilan izohlanadi.

Insonni va jamiyatni ma’naviy-axloqiy jihatdan yangilab borish barcha davrlarda real sharoit va ehtiyojlardan kelib chiqib amalga oshirilgan. Bunday paytda zamonasining mutafakkirlari asosli va maqbul ilmiy-amaliy mexanizmlarni taqdim qilishgan. Misol uchun, Sharq va G‘arb olamida birdek e’tirof etilgan Abu Homid G‘azzoliy insonni ma’naviy-axloqiy yangilab borish mexanizmlarini yaratgan faylasuf-mutafakkirlardan biri hisoblanadi. Faylasufning fikricha, insonni ma’naviy-axloqiy yangilash uchun, avvalo uning maqsad-muddaosini to‘g‘rilash lozim. “Shuni bilki, – deydi alloma, – maqsad-muddao, intilish va harakat aslida bir ma’noga ega. Bular inson qalbiga bog‘liq hodisalar bo‘lib, unga anglash va harakat bilan yetiladi. Negaki inson bilmasdan intilishni xohlamaydi, xohlamasdan harakat qilmaydi”.

Faylasufning qarashiga ko‘ra, maqsad-muddao quyidagi to‘rt bosqichda aniqlab olinadi:

– insonning o‘z oldiga biror maqsad qo‘yishi;

– insonning o‘z maqsad-muddaosini aniqlashtirishi. Bunda barcha orzu-havaslar yagona maqsad sari birlashadi.

Demak, aniq maqsad-muddaoga ega bo‘lmasdan inson ma’naviy-axloqiy yangilanmaydi. Chunki maqsad-muddao uni harakatga, harakat esa samaraga boshlaydi.

Hozirgi globallashuv davrida o‘smir yoshidagi o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvini ta’minlash ta’lim tizimining eng dolzarb vazifalaridan biriga aylanmoqda. Yoshlar yangi axborot muhitida tez o‘sib, ijtimoiy rollarini erta shakllantirayotgan bir paytda, ularning ijtimoiy moslashuv darajasi ko‘plab tashqi va ichki omillarga bevosita bog’liqdir. O‘smirlik davri inson shaxsining ijtimoiy tajriba orttirish, o‘z o‘rnini anglash, mustaqil qaror qabul qilish va ijtimoiy rollarni sinab ko‘rish bosqichi hisoblanadi. Shu davrda o‘quvchi o‘zini kattalar dunyosiga tayyorlaydi, shaxsiy qadriyatlarini shakllantiradi va jamiyatga integratsiyalash jarayonini boshdan kechiradi. Bu jarayonda pedagogik rahbarlik, oilaviy qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy muhitning ahamiyati beqiyosdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Yoshlarni ijtimoiy faollikka, o‘z kuchiga ishonch ruhida tarbiyalash, ularning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash – bu bizning eng ustuvor vazifamizdir”. Ushbu fikr ijtimoiy moslashuvning davlat siyosatidagi strategik ahamiyatini belgilaydi.

Mamlakatimizda yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy faolligini oshirish va raqobatbardosh shaxs sifatida voyaga yetishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar ham aynan shu maqsadlarga yo‘naltirilgan bo‘lib, ular o‘smirlarning mustaqil fikrlash, ijtimoiy javobgarlik va fuqarolik madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, globallashuv sharoitida o‘smirlarning ijtimoiy moslashuv jarayoni ko‘p qirrali tus olmoqda. Zamonaviy texnologiyalar, internet tarmoqlari, global madaniy ta’sirlar o‘smirlarning dunyoqarashiga, qadriyatlariga va xulq-atvoriga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli, ta’lim muassasalari faqat bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, madaniyatlararo muloqot va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirishga ham e’tibor qaratishi zarur.

Bundan tashqari, oila institutining roli ham ijtimoiy moslashuvda beqiyosdir. Ota-onalarning farzand bilan muloqoti, ularning shaxsiy namunalari, ijobiy rag’batlantirish usullari o‘smirda jamiyatga nisbatan ishonch hissini uyg’otadi. Agar oila, maktab va jamiyat o‘rtasida uyg’unlik mavjud bo‘lsa, o‘smir ijtimoiy moslashuv jarayonini yanada muvaffaqiyatli kechiradi. Shu jihatdan, ijtimoiy hamkorlikni kuchaytirish, o‘quvchilarning hissiy va psixologik holatini muntazam monitoring qilish, ularning ijtimoiy ehtiyojlariga mos ta’lim muhitini yaratish bugungi kunning eng muhim talablaridan biridir.

O‘smirlarning ijtimoiy moslashuvi faqat shaxsiy jarayon emas, balki ijtimoiy taraqqiyotning muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi. Shu sababli, bu yo‘nalishda amalga oshiriladigan har bir pedagogik, psixologik va ijtimoiy chora-tadbirlar nafaqat yoshlarning, balki butun jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

O‘smirlarning ijtimoiy moslashuvi masalasi psixologiya va pedagogika fanida keng tadqiq etilgan. L.S. Vygotskiy shaxsning ijtimoiylashuvi u yashayotgan muhit bilan doimiy o‘zaro ta’sirda shakllanishini ta’kidlagan. Unga ko‘ra, ijtimoiy muhit shaxs tafakkuri, nutqi va xulqining asosiy manbaidir. Urie Bronfenbrenner esa ekologik tizim nazariyasida bolaning rivojlanishida mikro (oila, maktab), mezo (tengdoshlar), ekzo va makro (madaniy qadriyatlar) tizimlarning o‘zaro ta’sirini aniqlagan.

Yana bir muhim omil - bu o‘quvchilarning jamoaviy faoliyat va ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish darajasidir. O‘smirlar jamoaviy ishlar orqali o‘zaro hamkorlikni, mas’uliyatni, muammolarni birgalikda hal etish ko‘nikmalarini o‘rganadilar. Ijtimoiy loyihalarda qatnashish esa ularning tashabbuskorlik, yetakchilik, hamkorlik va empatiya sifatlarini rivojlantiradi. Shuningdek, bunday faoliyatlar orqali o‘smirlar jamiyatdagi ijtimoiy qadriyatlarni amalda his etadilar, o‘z kuchlari bilan ijtimoiy foyda keltirish mumkinligini anglaydilar. Natijada ularning shaxsiy o‘sishi bilan bir qatorda ijtimoiy mas’uliyat hissi ham kuchayadi.

So‘nggi yillarda internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyati ham o‘smirlarning ijtimoiy moslashuviga sezilarli darajada ta’sir etmoqda. Zamonaviy axborot muhitida o‘smirlar turli ijtimoiy tarmoqlar orqali muloqot qiladi, o‘z fikrlarini bildiradi, dunyoqarashini kengaytiradi. Biroq bu jarayonni to‘g’ri boshqarish muhim, chunki noto‘g’ri axborot, zararli kontent yoki virtual qaramlik ijtimoiy faollikni pasaytirishi mumkin. Shu sababli, internetdan foydalanuvchi madaniyatini shakllantirish, axborot tanlash ko‘nikmalarini o‘rgatish, raqamli etikani singdirish ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanishi kerak.

Qisqa qilib aytganda, o‘smirlarning ijtimoiy moslashuvi ko‘p omilli jarayon bo‘lib, u oila, maktab, o‘qituvchi, jamiyat va raqamli muhit o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning uyg’unligiga tayanadi. Har bir omil o‘smir shaxsining shakllanishida muhim rol o‘ynaydi, shu sababli pedagogik amaliyotda bu omillarni uyg’un holda qo‘llash ijtimoiy moslashuv samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Biz milliy urf-odatlarimiz, marosimlarimizga baho bermoqchi bo‘lsak, butun insoniyat manfaatlari nuqtai nazarini, alohida shaxs erkinligi, Vatan va millat manfaatlarini, milliy qadriyatlarimiz majmuini yaxlit uyg‘unlikda olib qaramog‘imiz talab etiladi. Agar shu uyg‘unlikka mohiyatan muvofiq bo‘lsa yoxud loaqal unga zid bo‘lmasa, demak, maqbul, ammo insonlararo ziddiyat tug‘dirsa, nifoq solsa yoki o‘zga shaxs erkini poymol qilsa, Vatan va millat manfaatlariga zid bo‘lsa, demak, maqbul emas.

Yuqoridagilarga asoslanib yoshilarimizda g‘oyaviy tahdidlarga qarshi kurashish ko‘nikmasini rivojlantirish uchun quyidagi usullardan foydalanish lozim:

– g‘oyaviy tahdidlarning paydo bo‘lish omillarini bartaraf etib borish;

– g‘oyaviy bo‘shliqqa yo‘l qo‘ymaslik. Mafkuraviy immunitet shakllanish jarayonidagi ziddiyatli muammolar uzluksizligini oldini olish kabi profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

– milliy o‘zlikni saqlashda umuminsoniy qadriyatlardan unumli foydalanish;

– ezgu insoniy g‘oyalar va yuksak mahorat bilan ilmiy-pedagogik va o‘quv-metodik nashrlar orqali o‘qituvchilarimizning madaniy saviyasini yuksaltirish.

Xalqimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, eng qimmatli an'analar – halollik,

rostgo‘ylik, or-nomus, sharm-hayo, mehr-oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar dastlab oilada shakllangan. Bu muhitning o‘z hududi, qonun-qoidasi bor. Bunda ko‘plab mikromuhit an'analari, urf-odatlari, ma'naviy-axloqiy me'yorlar sayqal topadi. Oilada, ya'ni muayyan mikromuhitdagi sog‘lom turmush tarzi va ma'naviy axloqiy munosabatlar bilan birgalikda boshqarish, nazorat, yo‘naltirish, jazolash kabi axloqiy vazifalar ham bajariladi. Xullas, yosh avlodning axloqiy kamol topishida oilaning o‘rni va roli benihoya katta.

Xulosa qilib aytganda, o‘smir yoshidagi o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvi – bu shaxsning ma’naviy, psixologik va ijtimoiy jihatdan jamiyatga uyg’unlashish jarayoni bo‘lib, uni pedagogik va psixologik yondashuvlar orqali boshqarish mumkin. Oila, maktab va mahalla hamkorligiga asoslangan strategiya o‘smirlarning barqaror ijtimoiy identifikatsiyasini shakllantiradi. Shuningdek, o‘qituvchilarni sotsiopedagogik treninglardan o‘tkazish ham dolzarb vazifalardan biridir. Bunday treninglar o‘qituvchilarga o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlash, ularning hissiy holatini tushunish va har bir o‘quvchiga mos yondashuvni tanlash imkonini beradi. Zamonaviy ta’lim sharoitida har bir o‘quvchining psixologik xususiyatlari, oilaviy muhit va shaxsiy qiziqishlarini hisobga olgan tarbiyaviy yondashuv samarali natija beradi. Shu yo‘l bilan o‘smirlarning o‘ziga ishonchi, ijtimoiy faolligi va o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasi oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston – yangi taraqqiyot yo‘li. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020.

2. Otamurotov S., Mamashokirov S., Xolbekov A., Lafasov M. Markaziy Osiyo: g‘oyaviy jarayonlar va mafkuraviy tahdidlar. – Toshkent: Ijod dunyosi, 2001. – S. 18.

3. Ochildiev A. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. – Toshkent, 2011. – S. 64.

4. Paxrutdinov Sh. Tahdid tushunchasi: nazariya va amaliyot. – Toshkent, 2014.

5. Jalolov T. O‘quvchi shaxsining ijtimoiylashuvi va tarbiyada o‘qituvchi roli. – Toshkent: Fan, 2021.

6. Kadirova S. O‘quvchi shaxsini ijtimoiylashuv jarayonlari. – Samarqand: Zarafshon, 2019.

7. Nuriddinov A. “O‘smirlarning ijtimoiy moslashuvi psixologiyasi” // O‘zMU Xabarlari. – 2022. – 3(2). – S. 56–61.

8. Хасанов У. А. Региональная безопасность и национальные интересы (Центральноазиатский регион). – М.: 2004. – S. 192.

Berdibek YUSUPOV,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, o‘qituvchi

O‘QUVCHILARNING IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada adabiy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari, innovatsion pedagogik texnologiyalar hamda madaniyatlararo muloqotning samarali usullari tahlil qilinadi.

Tayanch so‘zlar. Ijtimoiy-madaniy kompetensiya, adabiy ta’lim, kommunikativ yondashuv, madaniyatlararo muloqot, turkiy xalqlar adabiyoti, innovatsion texnologiyalar, loyiha metodi, tanqidiy fikrlash, til va madaniyat.

В статье анализируются дидактические возможности развития социально-культурной компетенции учащихся в процессе литературного образования, роль инновационных педагогических технологий и межкультурного взаимодействия в современном обучении.

Ключевые слова. Социально-культурная компетенция, литературное образование, коммуникативный подход, межкультурная коммуникация, литература тюркских народов, инновационные технологии, проектный метод, критическое мышление.

The article examines didactic opportunities for developing students’ socio-cultural competence within literary education, highlighting innovative pedagogical technologies and effective methods of intercultural communication in modern educational practice.

Key words. Socio-cultural competence, literary education, communicative approach, intercultural communication, Turkic literature, innovative technologies, project-based learning, critical thinking.

O‘quvchilar ko‘p hollarda o‘z fikrlarini to‘g‘ri ifodalash, izohlash, umumiy xulosalar chiqarishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ular, asosan, jonli, madaniy nutqni standart mimika va imo-ishoralar bilan almashtirishga harakat qilishadi. Bolalar uchun mustaqil, izchil, umumlashtirilgan og‘zaki va yozma bayonotlar yaratish murakkabdir. O‘quvchilar nutqida uslubiy, imlo va tinish belgilarida xatolarga yo‘l qo‘yadi. Shuning uchun o‘qituvchi sinfda kommunikativ va ijtimoiy-madaniy kompetensiyani shakllantirish uchun sharoit yaratishi joiz sanaladi.

Ijtimoiy-madaniy yondashuv maktabda fanlarni o‘qitishning yangi jihatidir. U “Milliy o‘quv dasturi”. muqaddimasida ifodalangan ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirish zarurati bilan bog‘liq. Ijtimoiy-madaniy yondashuv milliy madaniyat prizmasi orqali matn bilan ishlash, til o‘rganish strategiyasini ham belgilaydi.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiya deyilganda shunchaki nutq va ijtimoiy-madaniy muhit o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik, til va jamiyat rivojlanishi o‘rtasidagi munosabatlar haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lish tushunilmaydi. Bunda quyidagilar nazarda tutiladi:

– til nafaqat bilish va muloqot vositasi, balki ijtimoiy xotira shakli, “xalqning madaniy kodi” ekanligini anglash, til va voqelik faktlarini solishtirish qobiliyatini rivojlantirish;

– har bir lingvistik birlik ortidagi madaniy fonni ko‘rish qobiliyati;

– dunyo xalqlarining madaniyati, tarixi, urf-odatlari bilan tanishish va ulardan xabardorlik;

– mintaqaviy ahamiyatga ega leksemalarni aniqlash va ularning matndagi ro‘lini tushunish qobiliyati.

Qo‘shni xalqning madaniyati bilan tanishish to‘liq muloqotga, ma’lum bir madaniyatning tashuvchilari haqida aniq va to‘g‘ri ma’lumotlarni tushunish imkonini yaratadi. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetensiyani shakllantirishga yordam beradigan innovatsion o‘qitish texnologiyalarini izlashni o‘z ichiga oladi.

O‘quvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirishning dolzarbligi ijtimoiy va madaniyatlararo muloqotda faol foydalanish qobiliyatining yetarli emasligi bilan bog‘liq. Ijtimoiy-madaniy kompetensiyani shakllantirish bo‘yicha mavjud ilmiy-pedagogik ishlanmalar va bu vazifani o‘rta maktabda turkiy xalqlar adabiyoti namunalari misolida amalga oshirishning murakkabligi obyektiv qiyinchiliklar mavjudligi: til muhitining yo‘qligi, dars soatlarining siqiqligi bilan izohlanadi. Mavjud muammolarni bartaraf etish zarurati tadqiqot mavzusini tanlash uchun asos bo‘ldi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida qozoq adabiyotini o‘rgatishda o‘quvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, xususan, ularda dunyoning yaxlit manzarasi haqida tasavvur shakllantirish, boshqa xalqlarning madaniy merosi bilan tanishish, o‘z mamlakatining vatanparvar fuqarosini tarbiyalash kabilardan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

– har xil faoliyat turlari bo‘yicha o‘quvchilarning bilim doirasini kengaytirish: o‘zining va o‘rganilayotgan mamlakat ijtimoiy-madaniy xususiyatlari haqida tinglash, o‘qish, yozish va gapirish;

– boshqa millat vakillari madaniyati, an’ana, urf-odatlariga nisbatan bag‘rikenglik tuyg‘usini, o‘z madaniyatining xususiyatlarini boshqa xalqlar va butun jahon madaniyati kontekstida ko‘rish qobiliyatini rivojlantirish;

– o‘quvchilar dunyoqarashi, ularning umumiy madaniyat darajasi va tilni o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqini oshirish.

Yetakchi g‘oya – zamonaviy inson ko‘p qutbli dunyo va ko‘p madaniyatli makonda yashaydi. Sivilizatsiyalar, madaniyatlar va urf-odatlar o‘rtasidagi muloqot, ayniqsa, XX asr oxiri – XXI asr boshlarida dolzarb bo‘lib qoldi. Ijtimoiy-madaniy kompetensiyani boshqa madaniyatni tushunish va qabul qilish qobiliyati sifatida rivojlantirish zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatli muloqot qilishning zaruriy shartiga aylandi.

Bizningcha, quyidagi komponentlar adabiy ta’lim jarayoniga kiritilsa o‘quvchilarning shaxsiy munosabatlariga ijobiy ta’sir qiladi:

1) o‘quv dasturi mazmunida ona tilida so‘zlashuvchilar uchun milliy-madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan elementlardan foydalanish;

2) o‘qitishning yangi usullarini qo‘llash, hamkorlikning guruh shakllari orqali o‘quv jarayonini faollashtirish, bilim olish va mustaqil ishlash ko‘nikmalarini oshirish;

3) o‘qituvchining kasbiy faoliyati ufqlarini kengaytirish, geografiya, tarix va boshqa o‘quv fanlari o‘qituvchilari bilan yaqindan hamkorlik qilish va h.k.

Mavzuning ahamiyatlilik darajasi quyidagi elementlarning kombinatsiyasida namoyon bo‘ladi: loyiha metodologiyasi, hamkorlikda o‘qitish rolli aloqa usuli, taqqoslash usuli, tanqidiy fikrlash texnologiyasi. Bundan tashqari, monolog va dialogik nutq uchun vaziyatlar banki; turli vazifalarga ega matn materiallari banki; madaniyatshunoslik testlari bankini yaratish, rolli o‘yinlarda nutq xatti-harakati, nutq ustida ishlash algo-

ritmlarini ishlab chiqish, matnlarni turli strategiyalar bilan o‘qish algoritmlarini yaratish bu borada samaralidir.

Qozoq adabiyot darslarida turkiy xalqlar adabiyotini o‘qitishning asosiy maqsadi – adabiy asarlardan madaniyatlar muloqotida muloqot vositasi sifatida foydalana oladigan, o‘rganilayotgan tilda madaniyatlararo muloqotda ishtirok etishni xohlaydigan o‘quvchi shaxsini rivojlantirish va o‘zlashtirgan til nutq faoliyatini mustaqil ravishda takomillashtirishdan iborat. Shu bois tadqiqotda qozoq adabiyoti darslarida o‘quvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini shakllantirishga alohida e’tibor berildi. Shu asosda ijtimoiy-madaniy kompetensiyani shakllantirishga doir mualliflik ta’rifi ishlab chiqildi:

Ijtimoiy-madaniy kompetensiya – bu adabiyoti o‘rganilayotgan mamlakat tili, milliy va madaniy xususiyatlari, shuningdek, tipik muloqot sharoitida o‘quvchilarning nutq va nutqdan tashqari xatti-harakatlar qoidalari qobiliyati. Bu jarayonda ularning ma’lum miqdordagi lingvistik va mintaqaviy bilim-ko‘nikmalar, shuningdek, tabiiy, iqlimiy, iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy xususiyatlari to‘g‘risidagi bilimlarni o‘zlashtirishni o‘z ichiga oladi.

Qozoq adabiyoti darslarida o‘quvchilarning turkiy xalqlar madaniyati o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotda ishtirok etishi uchun zarur bo‘lgan lingvistik va madaniy kompetensiya asoslarini yaratish ko‘zda tutiladi. Buning uchun o‘rganilayotgan mamlakat adabiyoti, tili, madaniyati, tarixi, urf-odatlari, an’analari va hozirgi hayoti bilan yaqindan tanishish maqsadga muvofiq.

O‘quv jarayonida mintaqaviy ma’lumotlardan foydalanish o‘quvchilarning bilim faolligini oshirishni ta’minlaydi; ularning muloqot qobiliyatlari, shuningdek, ijobiy motivatsiyani qo‘llab-quvvatlaydi, til ustida mustaqil ishlashga rag‘batlantiradi va ta’lim muammolarini hal qilishga hissa qo‘shadi.

Strukturaviy nuqtayi nazardan, ijtimoiy-madaniy kompetensiya murakkab hodisa bo‘lib, turli toifalarga mansub komponentlar majmuyini o‘z ichiga oladi:

– lingvistik va madaniy komponent: milliy va madaniy semantikaga ega leksik birliklar va ularni madaniyatlararo muloqot sharoitida qo‘llash qobiliyati – maqollar, idiomalar, aforizmlar va boshqalar;

– ijtimoiy lingvistik komponent: ijtimoiy qatlamlarning lingvistik xususiyatlari, turli avlodlar, jinslar, ijtimoiy guruhlar, dialektlar vakillari kabilar;

– ijtimoiy-psixologik komponent: ijtimoiy va madaniy jihatdan aniqlangan ssenariylarga, ma’lum madaniyatda qabul qilingan kommunikativ usullardan foydalangan holda milliy o‘ziga xos xulq-atvor namunalariga ega bo‘lish va h.k.;

– madaniy komponent: ijtimoiy-madaniy, tarixiy-madaniy, etnomadaniy kelib chiqishi.

Kommunikativlik tamoyili darslarda o‘quv va nutqiy vaziyatlardan keng foydalanishni nazarda tutadi. Agar u har bir o‘quvchiga yaqin bo‘lsa, muloqot uchun haqiqiy rag‘batga aylanadi. Binobarin, o‘quv va nutqiy vaziyatlarni tanlash va taqsimlashda o‘qituvchi o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olishi kerak. Bu ikkinchi (aniqrog‘i, asosiy) umumiy didaktik – o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish tamoyilini amalda qo‘llashni anglatadi.

Yosh xususiyatlarini hisobga olish alohida ahamiyatga ega. Yosh bolalar uchun uslubiy tavsiyalar o‘rta maktab o‘quvchilarini o‘qitish bilan bog‘liq vaziyatlarda amalda qabul qilinishi mumkin emas. Har xil turdagi vazifalarni mustaqil bajarishga qaratilgan aqliy mehnatning tabiati ham farq qiladi.

So‘ngi paytlarda ko‘pchilik o‘quvchilar turli tillarni o‘rganish zarurligini tobora ko‘proq anglab yetmoqda. Ular qilayotgan ishlarida ma’no ko‘rsa, til va adabiyotni integratsiyalab o‘rganish mazmunli bo‘ladi. Shundagina taklif qilingan topshiriq va mashqlar o‘quvchi

tomonidan qabul qilinadi. Uning barcha psixologik jarayonlari – fikrlash, idrok etish, diqqat, xotira harakatga keladi va o‘rganish shaxsga rivojlantiruvchi ta’sir ko‘rsatadi.

O‘qitishning asosiy tamoyili – turkiy xalqlar adabiyotini boshqa madaniyat bilan tanishtirish vositasi sifatida o‘qitish. Jamiyatimizda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar til va adabiyotdan, haqiqatan ham, turli milliy madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir vositasi sifatida foydalanish imkonini beradi.

Tajribalarimiz shuni ko‘rsatdiki, tanqidiy fikrlash texnologiyasi, loyiha faoliyati, hamkorlikda o‘qitish, o‘yin texnologiyalari, rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyasi chet tilidagi muloqotga qiziqishni rivojlantiradi va uning mavzu mazmunini kengaytiradi. Ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham katta ahamiyatga ega. Bunda loyiha metodi eng samaralidir, chunki u o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi uchun yetarlicha imkoniyat yaratadi. Ularni ijodiy salohiyati va kognitiv qiziqishlarini rivojlantirishga yo‘naltiradi. Natijada ijtimoiy-madaniy kompetensiyani shakllantirish bo‘yicha ishlar tizimi nafaqat turkiy xalqlar adabiyoti haqidagi bilimlarni chuqurlashtiradi, balki o‘quvchilarning madaniy ufqlari, bilimdonligini kengaytirishga, ijodiy faolligini rivojlantirishga yordam beradi, degan xulosaga kelish mumkin. Shuningdek, ma’naviy-axloqiy soha, estetik did va adabiyot o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni oshiradi. Bu esa, bilimlar prizmasi orqali o‘z mamlakati madaniyatini yanada faolroq o‘zlashtirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umumiy o‘rta ta’limning adabiyot fanidan “Milliy o‘quv dasturi”. Loyiha–2. – Toshkent, 2021. – 212 b.

2. Abduvalitov Ye.B. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida qardosh xalqlar adabiyotini qiyosiy o‘rganish (ta’lim o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq va turkman tillarida olib boriladigan maktablarning V–IX sinflari adabiyot darslari misolida): pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2020. – 140 b.

3. Sarsenbaeva Z.J. Talabalarning lingvomadaniy kompetensiyasini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida): pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Chirchiq, 2023. – 54 b.

4. Сариева К.Н. Методика преподавания казахской литературы в школах с русским языком обучения (теория и практика). – Алматы: Фонд Шаймардана Сариева, 2022. – 152 с.

Feruza OLIMOVA,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, mustaqil izlanuvchi

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI VARIATIV YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH
(Variativ ta’lim strategiyasining ahamiyati va shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda hamkorlik)

Annotatsiya

Maqolada variativ ta’limning rivojlantirish strategiyasining mohiyati va ahamiyati va variativ ta’lim o‘quvchilarning individual imkoniyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishga yo‘naltirilgan bo‘lib, shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirishga xizmat qilishi yoritilgan. Shuningdek, ta’lim mazmuni, shakl va usullarining xilma-xilligini ta’minlash, pedagogik erkinlikni kengaytirish hamda o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va kalit kompetensiyalarni shakllantirishda variativ ta’limning o‘rni asoslab beriladi.

Tayanch so‘zlar. Variativ ta’lim, strategiya, individual yondashuv, ijodkorlik, shaxsiy rivojlanish, ta’lim jarayoni

В статье освещены сущность и значение стратегии развития вариативного обучения и то, что вариативное обучение направлено на организацию образовательного процесса с учетом индивидуальных возможностей, интересов и потребностей учащихся и служит реализации личностно-ориентированного обучения. Также обосновывается роль вариативного обучения в обеспечении разнообразия содержания, форм и методов обучения, расширении педагогической свободы и формировании у учащихся самостоятельного мышления, творчества и ключевых компетенций.

Ключевые слова. Вариативное образование, стратегия, индивидуальный подход, креативность, личностное развитие, образовательный процесс

The article highlights the essence and significance of the development strategy of variable education and the fact that variable education is aimed at organizing the educational process, taking into account the individual capabilities, interests, and needs of students, and serves the implementation of personality-oriented education. Also, the role of variable education in ensuring the diversity of content, forms, and methods of education, expanding pedagogical freedom, and forming independent thinking, creativity, and key competencies in students is substantiated.

Key words. Variable education, strategy, individual approach, creativity, personal development, educational process

Mamlakatimizda ta’lim tizimini isloh qilish, texnika va texnologiyalarning tezkor rivojlanishi, ta’lim mazmuniga o‘zgartirishlar kiritish borasida ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini, o‘qitish metodikalarini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirish, ta’lim sifatini oshirish kun tartibida turgan dolzarb masalalardan biridir. Umumta’lim maktablarida, xususan boshlang‘ich ta’limda variativ yondashuv asosida ta’lim berishni tizimli amalga oshirishda o‘qituvchilarning tayyorgarligi, ularning ushbu yo‘nalishning mazmun mohiyati, uning afzalliklari va undan samarali foydalanish orqali o‘quvchilar bilimini oshirishga erishishda muhim

rol o‘ynaydi. Variativ yondashuv asosida ta’lim berishni rivojlantirish strategiyasi kelajak avlodga sifatli ta’lim berish uchun alohida e’tibor talab etadi.

Variativ ta’limning strategiyasi ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u o‘quvchilarning individual imkoniyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishga qaratilgan. Mazkur strategiyaning asosiy maqsadi - har bir o‘quvchining shaxsiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish, mustaqil fikrlash, ijodkorlik va o‘zini-o‘zi rivojlantirish qobiliyatlarini shakllantirish uchun qulay ta’lim muhitini yaratishdan iborat. Variativ ta’lim strategiyasi ta’lim mazmuni, shakllari, usullari va texnologyalarining xilma-xilligini ta’minlashni nazarda tutadi. Bu esa o‘qituvchiga ta’lim jarayonida pedagogik erkinlikni, o‘quvchiga esa bilim olishda ongli tanlov qilish imkoniyatini beradi. Ushbu yondashuv shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirishga xizmat qilib, ta’lim jarayoni ishtirokchilarining faolligi va mas’uliyatini oshiradi.

Shuningdek, variativ ta’limni rivojlantirish strategiyasi zamonaviy ta’lim standartlari talablariga muvofiq holda universal o‘quv harakatlari va kalit kompetensiyalarni shakllantirishni ta’minlaydi. Ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan, axborot-kommunikatsiya vositalaridan samarai foydalanish, fanlararo integratsiyani kuchaytirish ushbu strategiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Variativ ta’limni rivojlantirish stretegiyasi ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarni hayotga, kelgusi ta’lim bosqichlariga va kasbiy faoliyatga tayyorlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Variativ yondashuvga asoslangan ta’lim strategiyasidagi vazifalarni amalga oshirishda o‘qituvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish talab etiladi. O‘qituvchilarda ijodiy faoliyatning rivojlanishi ayniqsa, boshlang‘ich sinflardagi ta’lim samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi.

Xususan, o‘qituvchi sinf xonasida faol muhitni yaratishi, darsda har bir bolani faol ishtirok ettirishi, savol-javob, guruhli va juftli ishlarni muntazam qo‘llashi, mustaqil topshiriqlar orqali har bir bolaning fikrlashini rivojlantirishi, variativ topshiriqlardan unumli foydalanishi uchun turli darajadagi va turdagi topshiriqlarni taqdim etishi, o‘quvchining o‘z imkoniyatiga qarab topshiriq turini tanlay olishi uchun sharoit yaratishi, xatolarni tajriba sifatida qabul qilishni targ‘ib qilishi zarur bo‘ladi. Shuningdek, variativ ta’limda raqamli va vizual vositalardan foydalanish orqali raqamli ta’lim resurslari (videomateriallar, prezentatsiyalar, modellar)dan topshiriqlarni ko‘rsatish va tushuntirishda foydalanish, tasvir va sxemalar orqali o‘quvchilar bilimlarini aniq va tushunarli qilishga erishish, ijodiy metodlardan foydalanish “Shpargalka”, “RAFT”, “Kardiogramma”, “Svetogramma” kabi interaktiv usullardan dars jarayonida foydalanish, bolalarga o‘ziga xos usullarda topshiriqlarni bajarish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari individuallashtirilgan yondashuv asosidagi ta’limda bolaning qiziqishlari, qobiliyatlari va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olish, har bir bolaga ijodiy yechim topishda qo‘llab-quvvatlash, mustaqil tadqiqot va izlanishlar uchun kichik loyihalarni berib borish, motivatsiya va rag‘batlantirishda darsda o‘quvchilar tomonidan tayyorlangan ijodiy ishlarni e’tirof etish va mukofotlash, ularning erishgan yutuqlari orqali bolalarning o‘z qobiliyatiga ishonishini ta’minlash hamda musobaqa va loyiha ishlari orqali ijodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash bilan bir qatorda hamkorlik va multidissiplinar yondashuv asosida darslarni turli fanlar bilan bog‘lash (matematika va san’at, tabiiy fanlar va grafika va h.k.), bolalar o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish, guruhli ijodiy loyihalar tashkil qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Variativ ta’lim shaxsning hayotiy yo‘lini tanlashda va o‘zini rivojlantirishda imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan jarayon sifatida tushuniladi. Variativ ta’limning moti-

vatsiyasi esa – ta’limni shaxsning ijtimoiylashuvida yetakchi institutga aylantirish, shu orqali zamonaviy jamiyatda shaxsning shaxsiy va kasbiy muvaffaqiyatlariga erishishiga ko‘maklashishdir. V.V.Pikanning fikriga ko‘ra variativlik shaxsga kompleks yondashuv, ta’lim va shaxs erkinligi orqali amalga oshiriladi va o‘quvchini ta’limda asosiy subyektiv pozitsiya sifatida tan olish, shaxsning asosiy muvofiqlashtiruvchi mexanizmi uning qiymat-mantiqiy sohasi, ehtiyojlari, motivlari va qobiliyatlari ekanligini qabul qilish, ta’lim jarayoni mazmunini shunday tarzda tuzish, o‘quvchiga ma’lumot manbasini uni olish usuli va yangi ma’lumotni o‘zlashtirish darajasini mustaqil tanlash huquqi berilishi mumkin bo‘lsin, shuningdek, bola va pedagogning hamkorlik asosida o‘zaro aloqasini ta’minlash, pedagogik usullar, qabullar va texnologiyalarni o‘quvchilarning psixoyosh xususiyatlariga moslash, o‘quvchida ichki motivatsiyaga tayanish va “muvafaqqiyat holati”ni yaratishga erishilsin.

Pedagogikada variativlik ta’limni individuallashtirish g‘oyasini amalga oshiradi va bu turli ta’lim dasturlarini ochishga yordam beradi, o‘quv materialini psixofiziologik xususiyatlar asosida turli usullarda tuzish imkoniyatini yaratadi va bolalarni turli ta’lim sohalarida rivojlantirishga qaralitgan individual trayektoriya qurish imkonini beradi. Variativ topshiriqlar – bu o‘quvchilarga topshiriqlar darajasi va xususiyati, individual harakat usuli va qiziqarli mavzularni tanlash huquqini beruvchi topshirqlardir, ular o‘quvchilarni topshiriqni samarali hal qilishning mumkin bo‘lgan variantlarini qidirishga yo‘naltiradi. Variativ topshiriqlarni qo‘llash uchun o‘quvchilarda variativ fikrlashni rivojlantirish kerak bu variativ tabiatga ega topshiriqlar bolani xatolardan qo‘rqmaslikka o‘rgatadi, muvaffaqiyatsizlikni tajriba va vaziyatni tuzatish motivatsiyasi sifatida qabul qilishga yordam beradi, o‘quvchilarda ta’limga bo‘lgan motivatsiyasini ularning subyektiv ta’limiy talablarini hisobga olish lozim.

Variativ topshiriqlar mazmuni shaxsiy xususiyatlar, individual qiziqishlar, ehtiyojlar va o‘quvchining hamda uning oilasining zarur ta’limiy natijani olishdagi imkoniyati, o‘qituvchining kasbiy mahorati, ta’lim tashkiloti tomonidan o‘quvchining ta’limiy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlari, ta’lim muassasasining moddiy-texnik bazasining salohiyati kabi omillar majmuasiga asoslangan bo‘lishi kerak. Bundan tashqari raqamli ta’lim resurslari (RTR) – bu vertual makonda fotosuratlar, ta’lim videomateriallari, modellar, audiomateriallar, hujjatlar, simvollar va boshqa ta’limiy materiallar shaklida taqdim etilgan axborot mahsulotlari bo‘lib, ular ta’lim jarayonida qo‘llaniladi. Bu holda raqamli resurslar pedagog uchun zarur bo‘lgan shaklda varaitiv topshiriqlarni taqdim etish platformasi hisoblanadi.

Pedagogik jarayonda raqamli variativ topshiriqlarni qo‘llash quyidagilarni ta’minlaydi:

O‘quvchilarga shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv yaratish, ta’limni individuallashtirish, bilimlardan tashqari ko‘nikma va mahoratlarni shakllantirish hamda e’tiborni pedagogdan ko‘ra o‘quvchining faoliyatiga qarattirish;

Faoliyatga asoslangan yondashuvni chuqurlashtirish;

O‘quv materiallarini variativ tarzda taqdim etish hamda o‘quvchilar uchun individual ta’limiy trayektoriyalar yaratish;

O‘quvchilarni mustaqillik darajasini yangi bosqichga olib chiqish, ularning mustaqil qarorlar qabul qilish, izlanuvchanlik va tadqiqot faoliyati ko‘nikmalarini egallash, yangi bilim yaratish imkoniyati orqali;

O‘quv materialini yanada aniq va tushunarli holda taqdim etish va uning mazmunini tushunishni ta’minlaydi.

Raqamli ta’lim resurslari ta’limda yordamchi vosita bo‘lib, ta’lim materiallarini

raqamli shaklda ifoda etish imkoniyatini beradi. Shu tariqa raqamli variativ topshiriqlarni umumta'lim maktablarida pedagogik jarayonga joriy etish va qo'llash – o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirishning muhim didaktik sharti hisoblanadi. Ushbu topshiriqlar pedagogik mehnatning samarali vositasini taqdim etadi. Shuningdek, barcha o'quvchilar uchun ta'limga qiziqishni faollartirish orqali maktabni tugatishga zarur tayyorgarlikni ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, variativ yondashuv zamonaviy ta'limning samaradorligini ta'minlovchi muhim pedagogik yondashuvlardan biri hisoblanadi. U o'quvchi shaxsini rivojlantirish, ta'lim jarayonini maslashuvchan va samarali tashkil etish imkonini beradi. Shu sababli mazku yondashuvni ta'lim jarayoniga keng joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ta'lim muassasalarida o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini ortishini, ularning bilimlarini o'zlashtirish darajasining yaxshilanishini shuningdek, o'quvchilarda ijtimoiy faollik va o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan intilishning kuchayishini inobatga olgan holda variativ yondashuv asoslangan ta'limni qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ishmuxamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. –Toshkent: Iste'dod, 2008.

2. Sattorov E.N. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tabaqalashtirib o'qitishning tashkiliy jihatlari // Umumta'lim maktablarida tabaqalashtirib o'qitish muammolari: Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. –Toshkent: O'zPFITI, 2003. B.118–121.

3. Batomunkueva A.M. Individual o'quv rejalari asosida ishlash / A.M. Batomunkueva // Direktor shkoli. 2009. № 9.

4. Pikan V.V. Variativ ta'lim texnologiyasi. Moskva: Perspektiva, 2008.

5. Синитсина И.А. Постнеклассик таълим парадигмаси контекстида системанинг асосий консепти сифатида вариативлик / И.А. Синитсина // Современные проблеми науки и образования. 2017. № 3.

Abdurauf ABDUG‘ANIYEV,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat Milliy instituti, mustaqil izlanuvchi

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA NOGIRONLIGI BO‘LGAN O‘QUVCHILAR UCHUN INKLYUZIV TA’LIM MUHITINI BOSHQARISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya

Maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar uchun inklyuziv ta’lim muhitini yaratish va uni samarali boshqarish masalalari bo‘yicha ishlarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan. Inklyuziv ta’lim muhitini boshqarishning tashkiliy, pedagogik, ijtimoiy-psixologik va institutsional mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, ta’lim jarayonida barcha o‘quvchilar uchun teng imkoniyatlarni ta’minlash, pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyasini oshirish hamda maktab boshqaruvida innovatsion yondashuvlarni joriy etish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Tayanch so‘zlar. Inklyuziv ta’lim, nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar, ta’lim muhiti, ta’limni boshqarish, pedagogik qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy integratsiya.

В статье рассматриваются вопросы создания и эффективного управления инклюзивной образовательной средой для учащихся с ограниченными возможностями в общеобразовательных школах. Освещены организационные, педагогические, социально-психологические и институциональные механизмы управления инклюзивной образовательной средой. Также особое внимание уделяется вопросам обеспечения равных возможностей для всех учащихся в образовательном процессе, повышения профессиональной компетентности педагогических кадров и внедрения инновационных подходов в управление школой.

Ключевые слова. Инклюзивное образование, учащиеся с ограниченными возможностями, образовательная среда, управление образованием, педагогическая поддержка, социальная интеграция.

The article provides for work on creating an inclusive educational environment for students with disabilities in general education schools and its effective management. Organizational, pedagogical, socio-psychological, and institutional mechanisms for managing the inclusive educational environment are highlighted. Also, special attention is paid to ensuring equal opportunities for all students in the educational process, improving the professional competence of teaching staff, and introducing innovative approaches in school management.

Key words. Inclusive education, students with disabilities, educational environment, education management, pedagogical support, social integration.

Jahon ta’lim tizimida so‘nggi yillarda inklyuziv ta’lim g‘oyasi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Inklyuziv ta’lim – bu jismoniy, aqliy, sensor yoki boshqa imkoniyatlari cheklangan bolalarning umumiy ta’lim tizimiga to‘liq jalb etilishini ta’minlaydigan ijtimoiy-pedagogik jarayondir. Ushbu yondashuv har bir bolaning ta’lim olish huquqini ta’minlash, kamsitishning oldini olish va jamiyatda ijtimoiy adolatni qaror toptirishga xizmat qiladi.O‘zbekiston Respublikasida ham inklyuziv ta’limni rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bola ta’lim tarbiyasi haqida Sharq mu-

tafakkirlari Imom al-Buxoriy, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Abu Iso Muhammad at-Termiziy, Ibn Sino, Farobiy, Beruniy, Mirzo Ulug‘bek, Yusuf Xos Hojib, Imom G‘azzoliy, Bahovuddin Naqshband, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy kabi allomalar o‘z zamonlarida oilada, jamiyatda yoshlar tarbiyasi va uning kamolotiga pedagogik-psixologik yondashuv muammosi to‘g‘risida yozilgan ilmiy va ilmiy-pedagogik mushohadalari bizgacha yetib kelgan noyob asarlarida o‘z ifodasini topgan. Ayniqsa, Abu Ali ibn Sino asarlarida sog‘lom bolalar bilan bir qatorda, alohida yordamga muhtoj bolalar tarbiyasiga oid tavsiyalar ham beriladi. Alloma nogiron bola tengqurlari qatori ta’lim-tarbiya olishga haqli ekanini aytib, ularda kasb-hunar o‘rganish, ilm olishga qiziqish boshqalarga nisbatan kuchliligini ta’kidlaydi. Sharq allomalarining bola shaxsini tarbiyalash, ularning rivojlanishida ta’lim-tarbiyaning ta’siri haqidagi qarashlari tahlili keyingi avlod uchun yorqin yulduz kabi yo‘l ko‘rsatuvchi bo‘lib xizmat qilib kelmoqda Shunday ekan bugunki kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar uchun qulay ta’lim muhitini yaratish va uni tizimli boshqarish dolzarb vazifaga aylangan.

Ayniqsa bu jarayonda samarali boshqaruv mexanizmlarisiz inklyuziv ta’limni amalga oshirish ham muhim vazifa hisoblanadi. Hurmatli Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev 2025-yil 30-oktabr kuni Samarqandda YUNESKO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasida kun tartibidagi asosiy vazifalardan yana biri alohida ehtiyojli bolalar uchun Inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘yicha YUNESKO platformasini joriy etish kabi juda muhim taklifni ilgari surdi.Shunday ekan biz avvalo inklyuziv ta’limning mazmun mohiyati va uning ahamiyati nimada ekanligi borasida so‘z yuritamiz.

Inklyuziv ta’lim muhitining mohiyati va ahamiyati.

Inklyuziv ta’lim muhiti – bu nogironligi bo‘lgan va bo‘lmagan o‘quvchilarning birgalikda ta’lim olishi uchun yaratilgan jismoniy, pedagogik, psixologik va ijtimoiy shart-sharoitlar majmuidir. Bunday muhit quyidagi asosiy xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim:ta’lim binolarining infratuzilmasini samarali jihatdan moslashtirilganligi; individual ta’lim ehtiyojlarini hisobga olgan o‘quv rejalari va maxsus pedagogik va korreksion qo‘llab-quvvatlash hamda ijobiy psixologik iqlim va qo‘llab-quvvatlovchi muhitni yaratishdan iborat. Inklyuziv ta’lim muhitining ahamiyati shundaki, u nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarning ijtimoiylashuviga, o‘z-o‘ziga ishonchining oshishiga hamda jamiyat hayotida faol ishtirok etishiga xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda, inklyuziv ta’lim muhitining asosiy tamoyillari bu jarayonda juda katta ahamiyat kasb etadi. Biz bularni quyidagi turlarga ajratishimiz mumkin.

1. Teng imkoniyatlar tamoyili. Har bir bola ta’lim olish huquqiga ega bo‘lib, uning jismoniy yoki aqliy holati ta’lim jarayonidan chetlatish uchun sabab bo‘la olmaydi.

2. Individuallashtirilgan ta’lim. O‘quvchining rivojlanish sur’ati, qobiliyati va ehtiyojlariga mos ta’lim strategiyalari ishlab chiqiladi.

3. Ijtimoiy integratsiya. Imkoniyati cheklangan bolalarning sog‘lom tengdoshlari bilan birgalikda ta’lim olishi ijtimoiy moslashuvni kuchaytiradi.

4. Pedagogik hamkorlik. O‘qituvchi, psixolog, logoped, defektolog va ota-onalar o‘rtasida uzviy hamkorlik yo‘lga qo‘yiladi.

Inklyuziv ta’lim muhitining ahamiyati ham o‘z navbatida jamiyatda ijtimoiy tenglik va bag‘rikenglikni shakllantiradi va alohida ehtiyoji bo‘lgan bolalarda ta’lim sifati va ijtimoiy moslashuv darajasini oshirishga qaratilgan. Sog‘lom o‘quvchilarda ham empatiya, ijtimoiy mas’uliyat va insonparvarlik tuyg‘ulari rivojlantiradi. Bunda ta’lim tizimining samaradorligi va moslashuvchanligi ortadi.Masalan, buni biz misollar doirasida ko‘rib

chiqamiz.

1-misol (umumta’lim maktabi amaliyotidan).Inklyuziv ta’lim joriy etilgan umumta’lim maktablaridan birida eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchi uchun vizual ta’lim vositalari (interaktiv taqdimotlar, rasmli topshiriqlar) qo‘llaniladi. Natijada o‘quvchining darsdagi faolligi 35–40 foizga oshgani kuzatiladi. Bu holat inklyuziv ta’lim muhiti o‘quvchilarning ta’lim natijalarini yaxshilashganini ya’ni samarasini ko‘rsatadi.

2-misol (pedagogik yondashuv).Boshlang‘ich sinflarda o‘qish qiyinchiligiga ega bo‘lgan bolalar uchun individual ta’lim rejalari ishlab chiqildi. Dars jarayonida differensiallashgan topshiriqlar qo‘llanilishi natijasida o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon etadi.

3-misol (ijtimoiy-psixologik samara).Inklyuziv muhitda ta’lim olayotgan sog‘lom o‘quvchilarda jamoada ishlash ko‘nikmalari, o‘zaro hurmat va bag‘rikenglik darajasi yuqori ekani aniqlangan. Bu holat inklyuziv ta’limning faqat imkoniyati cheklangan bolalar uchun emas, balki butun jamiyat uchun ijobiy ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Inklyuziviyada ta’lim muhitini boshqarish – bu ta’lim muassasasida inklyuziv siyosatni rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish va nazorat qilishga qaratilgan tizimli faoliyat va tamoyillar asosida ish ko‘radi. 1.Tenglik va adolat tamoyili – barcha o‘quvchilar uchun ta’lim olishda teng imkoniyatlarni ta’minlash.Individual yondashuv tamoyili – har bir bolaning ta’lim ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olish.va hamkorlik tamoyili – pedagoglar, ota-onalar, mutaxassislar va jamoat tashkilotlari o‘rtasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish. Eng asosiysi uzluksiz rivojlanish tamoyili – inklyuziv muhitni doimiy ravishda takomillashtirib borish.Bunda bu jarayonlarni muvofiqlashtirib samarali natijalarga tomon olib boriladi.Bu muhitni boshqarishda tashkiliy boshqaruv mexanizmlari inklyuziv ta’limni joriy etish uchun aniq boshqaruv tuzilmasini yaratishni nazarda tutadi. Bunda:maktab rahbariyatining inklyuziv ta’limga bo‘lgan munosabati, strategik rejalashtirish va ichki me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.Maktab direktori va ma’muriyati inklyuziv ta’lim jarayonida muhim yetakchi rol o‘ynaydi.O‘quvchilar bilan differensial va individual ta’lim usullarni qo‘llashda pedagoglarni kasbiy kompetensiyalari yuqori darajada bo‘lishi zarurdir.

Pedagogik mexanizmlar yaxlit ketma-ketlikda izchil harakatlarni tizimli amalga oshirishlari kerak bo‘ladi. O‘qituvchining inklyuziv madaniyati va kasbiy tayyorgarligi ta’lim samaradorligining asosiy omili hisoblanadi. Bu jarayon davomida ijtimoiy-psixologik mexanizmlar ham ya’ni inklyuziv muhitda ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash muhim o‘rin tutadi. Bunda:o‘quvchilar o‘rtasida bag‘rikenglik va o‘zaro hurmatni shakllantirish va ota-onalar bilan tizimli ish olib borish hamda psixologik xizmatni kuchaytirish lozim. Bu mexanizmlar nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarning maktab jamoasiga moslashuvini yengillashtiradi.Shuningdek moddiy-texnik va infratuzilmaviy mexanizmlar inklyuziv ta’lim muhitining samaradorligi moddiy-texnik bazasini boyitishga qaratilgan bo‘lib, panduslar, liftlar, maxsus jihozlar va adaptatsiya qilingan o‘quv qo‘llanmalar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. kabi omillarni o‘z ichiga oladi.

Ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’lim muhitini boshqarish zamonaviy ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.Inklyuziv sinflar tashkil etilgan sinflarda ijobiy muhitni samarali tashkil etish va rivojlantirish aniq mexanizmlar asosida boshqarilishi maqsadga muvofiq.Inklyuziv ta’lim muhitini boshqarish mexanizmlari, avvalo, normativ-huquqiy asoslarga tayanadi. Ta’lim to‘g‘risidagi qonunlar, davlat ta’lim standartlari, hukumat qarorlari va sohaviy me’yoriy hujjatlar inklyuziv ta’limni tashkil etishning huquqiy poydevorini belgilab beradi. Ushbu hujjatlar ta’lim muassasalari rahbarlari, pedagoglar va mutaxassislarning vazifa

va majburiyatlarini aniqlaydi hamda barcha o‘quvchilar uchun teng ta’lim olish huquqini kafolatlaydi.Inklyuziv ta’lim muhitini boshqarishda tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari alohida ahamiyatga ega. Ta’lim muassasasi rahbariyati inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘yicha strategiya va rejalarni belgilashi lozim. Shuningdek, defektolog, logoped, psixolog, ijtimoiy pedagog kabi mutaxassislar faoliyatini muvofiqlashtirish, pedagoglar o‘rtasida hamkorlikni ta’minlash boshqaruv samaradorligini oshiradi.Pedagogik mexanizmlar inklyuziv ta’lim muhitining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Unda individual ta’lim rejalarini ishlab chiqish, differensial va adaptiv o‘qitish usullarini qo‘llash, zamonaviy inklyuziv pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim o‘rin tutadi. Bu mexanizmlar har bir o‘quvchining individual ehtiyojlari, imkoniyatlari va qiziqishlarini inobatga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etish imkonini beradi. Inklyuziv ta’lim muhitini boshqarishda psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash mexanizmi ham katta ahamiyatga ega. O‘quvchilarning psixoemotsional holatini muntazam o‘rganish, ularning jamoaga moslashuvini ta’minlash, ota-onalar bilan samarali hamkorlik qilish inklyuziv muhit barqarorligini ta’minlaydi. Bu jarayonda bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash asosiy tamoyil sifatida namoyon bo‘ladi.Moddiy-texnik mexanizmlar inklyuziv ta’lim muhitining amaliy jihatlarini belgilaydi. Ta’lim muassasalarida panduslar, maxsus jihozlar, adaptiv o‘quv materiallari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta’minlangan muhitni yaratish imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning ta’lim jarayonida to‘liq ishtirok etishini ta’minlaydi va samarali natija ko‘rsatadi.

Inklyuziv ta’lim muhitini boshqarish jarayoni rejalashtirish, tashkil etish, ijro, nazorat va baholash hamda takomillashtirish bosqichlari asosida amalga oshiriladi. Ushbu tizimli yondashuv ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Inklyuziv ta’lim muhitini boshqarish jarayoni bosqichma bosqich amalga oshiriladi.Keling hozir sizlar bilan ushbu jarayonlarni ko‘rib chiqamiz.

1. Rejalashtirish bosqichi.Bu bosqichda asosiy maqsad – inklyuziv ta’lim muhitini yaratish uchun strategiya va rejalarni ishlab chiqish. Asosiy dastlabki qadamlar:

Talab va ehtiyojlarni tahlil qilish: Maktabdagi barcha o‘quvchilar, shu jumladan alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ehtiyojlari aniqlanadi.

Maqsad va vazifalarni belgilash: Inklyuziv ta’limning maqsadlari aniq va o‘lchanadigan bo‘lishi kerak. Masalan: Barcha o‘quvchilar uchun barobar ta’lim imkoniyatini ta’minlash.

Resurslarni aniqlash: Kadrlar, moddiy-texnik bazasi, treninglar va metodik qo‘llanmalar rejalashtiriladi.

To‘siqlarni baholash va strategiyalar ishlab chiqish: Masalan, personal tayyor emasligi, moddiy bazaning yetarsizligi va hokazo.

2. Tashkil etish bosqichi.Bu bosqichda reja amalga oshirilishi uchun muhit va shart-sharoitlar yaratiladi:

Maktabda inklyuziv jamoa shakllantirish ya’ni tashkil etish, tuzib olish. Pedagoglar, psixologlar, defektologlar va ota-onalardan iborat qo‘mita tashkil etiladi.

Ta’lim muhitini tayyorlash: Sinf xonalaridagi jihozlar, o‘quv materiallari, texnik vositalar inklyuziv talablarga moslashtiriladi.

Rol va majburiyatlarni taqsimlash: Har bir ishtirokchining vazifalari aniq belgilanadi.

Maktabning ichki tartib qiodalariga va inklyuziv muhitga tayyorgarlik darajasi. Misol uchun, ta’lim muassasasida diskriminatsiyaga yo‘l qo‘ymaslik qoidalari hamda jamoaning inklyuzivlikka tayyorlash.

3. Ijro (amaliyotga joriy etish) bosqichi.Bu bosqichda reja asosida haqiqiy ta’lim

jarayoni boshlanadi.Sinfda inklyuziv ta’limni amalga oshirish: Har bir o‘quvchi uchun individual ta’lim yo‘l xaritasi (IPR) ishlab chiqiladi.

Hamkorlik va ko‘mak: Mutaxassislar o‘quvchilar bilan hamkorlikda faoliyat olib borishadi.

Faol o‘qitish usullari qo‘llash: Guruhli mashqlar, adaptiv materiallar, vizual va audio qo‘llanmalardan foydalanish.

4. Nazorat va baholash bosqichi. Bu bosqichda ta’lim jarayoni samaradorligi va ijro holati tekshiriladi:

Ma’lumotlarni to‘plash: O‘quvchilarning o‘quv natijalari, ijtimoiy adaptatsiya va faoliyat ko‘rsatkichlari qayd etiladi.

Nazorat usullari: Sinovlar, kuzatuv, pedagog va ota-onalar fikri.

Samaradorlik tahlili: Rejadagi maqsadlar qanchalik bajarilgani baholanadi.

5.Takomillashtirish (so‘nggi tahlil va rivojlantirish) bosqichi.

Bu bosqichda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar aniqlanadi va tegishli choralar ko‘riladi:

Ta’lim jarayonini qayta ko‘rib chiqish: Kamchiliklar asosida strategiya va reja tuziladi.

Pedagoglarning malakalarini oshirish: Treninglar, seminarlar va master-klasslar o‘tkazish.

Inklyuziv muhitni yaxshilash: Jihozlar, metodik materiallar va qo‘llanmalar modernizatsiya qilinadi.

Ilgari natijalarni targ‘ib qilish: Muvaffaqiyatli tajribalar boshqa sinf va maktablarga joriy etiladi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’lim muhitini boshqarish mexanizmlari barcha o‘quvchilar uchun teng imkoniyatlar yaratish, ta’lim sifatini oshirish va insonparvar jamiyatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Inklyuziv ta’lim nafaqat alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolalar uchun, balki butun jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun xizmat qiladi, shuningdek, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar uchun inklyuziv ta’lim muhitini boshqarish kompleks va tizimli yondashuvni talab etadi. Samarali boshqaruv mexanizmlari orqali har bir bolaning ta’lim olish huquqi ta’minlanadi, ularning ijtimoiy faolligi oshadi va jamiyatda to‘liq integratsiyalashuviga erishiladi. Inklyuziv ta’lim – bu faqat pedagogik emas, balki ijtimoiy ahamiyatga ega jarayondir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Inklyuziv ta’lim asoslari. – Toshkent: Ta’lim, 2020.

2. YUNESKO. Inklyuziv ta’lim bo‘yicha qo‘llanma. – Toshkent.

3. Shavkat Mirziyoyev. Ta’lim sohasini rivojlantirishga oid ma’ruzalar. – Toshkent.

4. Mehmonova R. R. Ota-onalar bilan ishlashning zamonaviy shakllari. – Toshkent: Ilm ziyo, 2018.

5. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Inklyuziv ta’lim bo‘yicha metodik qo‘llanma. – Toshkent, 2018.

Nargiza MUSAYEVA,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi Milliy instituti, mustaqil izlanuvchi

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA KOLLABORATIV YONDASHUVNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida kollaborativ yondashuvning mazmuni, pedagogik asoslari, uni dars jarayoniga tatbiq etishning samarali usullari, o‘quvchilar tafakkuri va ijtimoiy faolligini rivojlantirishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, ta’lim sifatini oshirishda hamkorlikda o‘qitish texnologiyalarining afzalliklari, ularni qo‘llash mexanizmlari va zamonaviy pedagogik talablar bilan uyg‘unligi tahlil qilingan.

Tayanch so‘zlar. Kollaborativ yondashuv, hamkorlikda o‘qitish, boshlang‘ich ta’lim, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, interfaol metodlar, kichik guruhlarda ishlash, kompetensiya.

В статье освещены содержание, педагогические основы коллаборативного подхода в процессе начального образования, эффективные методы его внедрения в учебный процесс, роль в развитии мышления и социальной активности учащихся. Также проанализированы преимущества технологий совместного обучения в повышении качества образования, механизмы их применения и соответствие современным педагогическим требованиям.

Ключевые слова. Коллаборативный подход, совместное обучение, начальное образование, личностно-ориентированное обучение, интерактивные методы, работа в малых группах, компетенция.

The article highlights the content, pedagogical foundations of the collaborative approach in the process of primary education, effective methods of its implementation in the lesson process, and its role in the development of students’ thinking and social activity. The advantages of collaborative learning technologies in improving the quality of education, the mechanisms of their application, and their compatibility with modern pedagogical requirements were also analyzed.

Key words. Collaborative approach, collaborative learning, primary education, personality-oriented learning, interactive methods, working in small groups, competence.

Zamonaviy ta’lim jarayoni ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashi, muloqot madaniyati va ijodkorligini rivojlantirishni talab etmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning shaxs sifatida shakllanishi, o‘zaro hamkorlik qilish ko‘nikmalarini erta bosqichdan rivojlantirish muhimdir. Shu nuqtai nazardan kollaborativ (hamkorlikka asoslangan) yondashuv ta’lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqadi. Hozirgi kunda davlat ta’lim standartlari va ta’lim sifatini baholash tizimi ham o‘quvchining faolligi, hamkorlikda ishlashi, mustaqil qaror qabul qilishi kabi kompetensiyalarni rivojlantirishni talab etmoqda.Shu nuqtai nazardan qaralganda, boshlang‘ich ta’limda kollaborativ metodlarni qo‘llash o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, darslarni mazmunan boyitish, o‘quvchilar o‘rtasida ijobiy psixologik muhit yaratish hamda o‘qituvchining pedagogik mahoratini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur maqolada kollaborativ yondashuvning nazariy asoslari, metodik tamoyillari va ularni boshlang‘ich ta’lim tizimida samarali qo‘llash yo‘llari tahlil qilinadi.

Kollaborativ yondashuv – bu ta’lim jarayonida o‘quvchilarning o‘zaro hamkorlikda bilim olishlari, muammolarni birgalikda hal etishlari, ijodiy faoliyat asosida umumiy natijaga erishishlariga yo‘naltirilgan pedagogik tizimdir. Uning asosini konstruktivizm,

sotsiokonstruktivizm, faol ta’lim va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv kabi nazariyalar tashkil etadi.Kollaborativ yondashuv, ya’ni hamkorlikda o‘qitish, o‘quvchilarning birgalikda ishlashi, bilim va tajriba almashishi orqali o‘zaro o‘rganishini mustahkamlaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu usul o‘quvchilarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda, mas’uliyat hissini oshirishda va muammolarni birgalikda hal qilish qobiliyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kollaborativ yondashuvni qo‘llagan sinflarda o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi 20-25 foizga oshgan, ijtimoiy faollik ko‘rsatkichlari esa 25%-30%ga yuqori bo‘lgan. Shuningdek, bu usul o‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholash qobiliyatini 35% ga yaxshilagan. Kelgusida ta’lim jarayonida kollaborativ yondashuvni keng qo‘llash orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining umummadaniy kompetensiyasini yanada samarali shakllantirish mumkin bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida, jamiyatda madaniy va ijtimoiy jihatdan yetuk avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining umummadaniy kompetensiyasini shakllantirish va ta’lim jarayonida kollaborativ yondashuvni joriy etish borasida qator muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.Bu yondashuvda o‘qituvchi rahbardan ko‘ra fasilitator sifatida ishtirok etadi. O‘quvchi dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi, ta’lim esa shaxslararo muloqot va hamkorlikka asoslanadi. Vygotskiyning “Yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchi murakkab topshiriqlarni jamoa bilan hamkorlikda bajarganda yuqoriroq natijaga erishadi. Kollaborativ yondashuv aynan shu o‘zaro yordam, qo‘llab-quvvatlash va muloqot jarayonini takomillashtiradi.Ushbu yondashuvning pedagogik va psixologik imkoniyatlarini tahlil qilish. Pedagogik imkoniyatlar. Kollaborativ yondashuvning pedagogik imkoniyatlari ta’lim jarayonini interaktiv va qiziqarli qilishga yordam beradi. Ushbu yondashuvning pedagogik afzalliklari quyidagilardan iborat: Faol ishtirok: Kollaborativ yondashuv o‘quvchilarning dars jarayonida faol ishtirok etishiga yordam beradi. O‘quvchilar birgalikda ishlash orqali o‘z fikrlarini erkin ifoda etadilar va bir-birlarining fikrlarini hurmat qilishni o‘rganadilar. Bilimlarning kengayishi: Kollaborativ yondashuv orqali o‘quvchilar yangi bilimlarni birgalikda o‘rganadilar va o‘z bilimlarini kengaytiradilar. Bu jarayonda o‘quvchilar bir-birlariga yordam beradilar va yangi bilimlarni o‘zlashtiradilar.

Boshlang‘ich sinflar uchun kollaborativ yondashuv elementlarini quyidagi shakllarda qo‘llash maqsadga muvofiq:

1. Kichik guruhlarda ishlash. Guruhlarda berilgan topshiriqlar o‘quvchilarning fikrlash, bahs-munozara qilish va muammolarni hal etish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Guruhlar 3–5 nafar o‘quvchidan iborat bo‘lishi o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi.

2. “Aylana stol”, “Jigsaw”, “Klaster” kabi interfaol metodlar. Bu metodlar o‘quvchilarning mustaqil izlanishiga, mavzuni turli nuqtai nazardan o‘rganishiga va jamoaviy natijaga erishishiga imkon yaratadi.

3. Rolli o‘yinlar va muammoli vaziyatlar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun rolli o‘yinlarning ahamiyati katta. Ular orqali o‘quvchilar nutq, muloqot, ijtimoiy moslashuv va ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

4. Raqamli kollaborativ platformalardan foydalanish. Padlet, Google Classroom, Canva yoki jamboard kabi raqamli vositalar boshlang‘ich ta’limda hamkorlikda ishlashni yanada qulay qiladi.

Kollaborativ yondashuvning ta’lim sifatiga ta’siriKollaborativ yondashuv natijasida:o‘quvchilarda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar rivojlanadi;muloqot madaniyati shakllanadi;mustaqil fikrlash faollashadi;o‘quvchi o‘z fikrini asoslashga va boshqalarni

tinglashga o‘rganadi;bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmasi kuchayadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinflarda hamkorlikda o‘qitish o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini 15–25% ga oshiradi.Kollaborativ yondashuvning boshlang‘ich ta’limga moslashtirilgan milliy metodik modeli taklif etildi. Raqamli va an’anaviy interfaol metodlarning integratsiyalangan qo‘llash tamoyillari asoslab berildi.Hamkorlikda o‘qitishning emotsional-intellektual rivojlanishdagi ahamiyati boshlang‘ich sinf o‘quvchilari misolida yoritildi.Dars jarayonida kollaborativ topshiriqlarni tuzish uchun metodik ko‘rsatkichlar tizimi ishlab chiqildi.

Xulosa.Boshlang‘ich ta’limda kollaborativ yondashuv o‘quvchilarni faollashtiruvchi, ularda mustaqil fikrlash, ijtimoiy muloqot va ijodiy yondashuvni rivojlantiruvchi samarali pedagogik texnologiyadir. Uning nazariy-metodik asoslarini to‘g‘ri qo‘llash ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilar kompetensiyasini shakllantirish va zamonaviy ta’lim talablariga mos natijalarga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.Kollaborativ yondashuv boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida umummadaniy kompetensiyalarni shakllantirishda samarali usullardan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, jamoa bilan ishlash ko‘nikmalari va madaniy ongini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, kollaborativ ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faolligi va bilim olishga bo‘lgan qiziqishi sezilarli darajada oshadi, ular orasida do‘stona muhit shakllanadi. Kelajakda ushbu yondashuvni yanada takomillashtirish ta’lim sifatini oshirish va ijtimoiy jihatdan yetuk shaxslarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vygotsky L. S. Mind in Society. – Cambridge: Harvard University Press, 1978.
2. Johnson D. W., Johnson R. T. Cooperative Learning. – Minnesota, 1999.
3. O‘zbekiston Respublikasi. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – 2020.
4. Hasanboeva O., To‘rayev A., Yo‘ldosheva Sh. Pedagogika. – Toshkent, 2017.
5. Mavlonova R. va boshq. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
6. Slavin R. E. Educational Psychology: Theory and Practice. – New York, 2018.
7. Interfaol metodlar bo‘yicha metodik qo‘llanma. – Toshkent, 2022.
8. Ziyonet. Rasmiy sayt. – https://ziyonet.uz
9. O‘zbekiston Milliy kutubxonasi. Rasmiy sayt. – http://www.natlib.uz
10. Google Books. – https://books.google.com

Feruza XAMROYEVA,
Samarqand davlat pedagogika instituti, dotsent

TALABALARDA TADQIQOTCHILIK KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI *(So‘rovga asoslangan ta’lim misolida)*

Annotatsiya

Maqolada talabalarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari so‘rovga asoslangan ta’lim (Inquiry-Based Learning) yondashuvi misolida ilmiy-nazariy va metodik jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, tadqiqot jarayonida tadqiqotchilik ko‘nikmalarining mazmuni ochib berilib, ularni shakllantirishda so‘rovga asoslangan muammoli vaziyatlarni tizimli yaratish, talabaning mustaqil izlanish faoliyatini metodik qo‘llab-quvvatlash hamda refleksiya va baholashni tadqiqot jarayoni bilan uzviy bog‘lash asosiy pedagogik shart-sharoitlar sifatida asoslab berilgan.

Tayanch so‘zlar. Tadqiqotchilik ko‘nikmalari, so‘rovga asoslangan ta’lim, Inquiry-Based Learning, pedagogik shart-sharoitlar, investigativ kompetensiya, refleksiya, 5E modeli, oliy ta’lim.

В статье на научно-теоретическом и методическом уровне проанализированы педагогические условия формирования исследовательских умений у студентов на примере подхода обучения, основанного на запросе (Inquiry-Based Learning). В ходе исследования раскрыто содержание исследовательских умений и обоснованы основные педагогические условия их формирования, включающие систематическое создание проблемных ситуаций на основе запроса, методическую поддержку самостоятельной исследовательской деятельности студентов, а также интеграцию рефлексии и оценивания с исследовательским процессом. Результаты исследования подтверждают эффективность обучения, основанного на запросе, в развитии исследовательских, аналитических и критических умений студентов в системе высшего образования.

Ключевые слова. исследовательские умения, обучение на основе запроса, Inquiry-Based Learning, педагогические условия, исследовательская компетентность, рефлексия, модель 5E, высшее образование.

This article provides a scientific, theoretical, and methodological analysis of the pedagogical conditions for developing students’ research skills through the Inquiry-Based Learning approach. The study examines the essence of research skills and substantiates key pedagogical conditions for their development, including the systematic creation of inquiry-based problem situations, methodological support of students’ independent research activities, and the integration of reflection and assessment into the research process. The findings demonstrate that Inquiry-Based Learning is an effective pedagogical approach for fostering students’ research, analytical, and critical thinking skills in higher education.

Key words. Research skills, inquiry-based learning, Inquiry-Based Learning, pedagogical conditions, investigative competence, reflection, 5E model, higher education.

Jahonda oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot markazlarida ta’lim jarayonini XXI asr talablari asosida takomillashtirish, ta’lim oluvchilarda tanqidiy fikrlash, mantiqiy tahlil va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, talabalarning ilmiy muammolarni anglash, dalillarni tahlil qilish hamda asoslangan xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini

rivojlantirishni ta’minlashga qaratilgan ilmiy izlanishlar keng ko‘lamda olib borilmoqda. Ushbu jarayonda ta’lim oluvchilarning bilish faoliyatini faollashtiruvchi va ularni ilmiy izlanishga yo‘naltiruvchi pedagogik yondashuvlarning samaradorligini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, ta’lim sifatini oshirish va xalqaro ta’lim makoniga integratsiyalashuvni ta’minlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” oliy ta’lim tizimini strategik rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab, ta’lim bilan qamrovni kengaytirish, ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘tarish, ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va ilmiy-tadqiqot uslublarini joriy etish hamda oliy ta’lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati natijadorligini oshirishni muhim vazifalar sifatida belgilaydi. Mazkur hujjatda talabalar va professor-o‘qituvchilarni ilmiy izlanishlarga keng jalb etish, ularning ilmiy salohiyatini rivojlantirish hamda xalqaro ilmiy nashrlarda tadqiqot natijalarini e’lon qilish imkoniyatlarini kengaytirishga alohida urg‘u berilgan.

Ushbu islohotlar doirasida talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorgarligini ta’minlash va ularning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasi alohida dolzarblik kasb etadi. Aynan shu nuqtai nazardan, so‘rovga asoslangan ta’lim yondashuvi talabalarning ilmiy savol qo‘yish, muammo aniqlash, gipoteza ilgari surish, ma’lumotlarni tahlil qilish va xulosa chiqarish kabi tadqiqot faoliyatiga oid ko‘nikmalarini shakllantirish uchun samarali pedagogik asos bo‘lib xizmat qiladi. Biroq ushbu yondashuvdan ta’lim amaliyotida samarali foydalanish, uning didaktik imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish uchun ta’lim jarayonida muayyan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish va ularni ilmiy jihatdan asoslash zarurati mavjud. Shu boisdan, talabalarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonida so‘rovga asoslangan ta’limni joriy etishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash va ilmiy asoslash zamonaviy ta’lim islohotlari hamda xalqaro baholash talablariga mos holda dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Pedagogik tadqiqotlarda tadqiqotchilik ko‘nikmalari ta’lim oluvchilarning bilish faoliyatini faollashtiruvchi, ularni mustaqil ilmiy izlanishga yo‘naltiruvchi muhim shaxsiy-kasbiy sifat sifatida talqin etiladi. Tadqiqotlarda muammoli o‘qitish metodlaridan foydalanish orqali talabaning o‘quv-tadqiqotchilik faoliyatini subyektiv yondashuv asosida tashkil etish zarurligi asoslanadi. Bunda ta’lim oluvchilarga individual o‘quv strategiyasini tanlash imkonini berish hamda reflektiv tahlilni rag‘batlantirish tadqiqotchilik salohiyatini rivojlantirishning muhim omili sifatida ko‘rsatib o‘tiladi.

Ilmiy manbalarda tadqiqotchilik faoliyati ta’lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lishi lozimligi ta’kidlanib, o‘qituvchining ilmiy-tadqiqot faoliyatini metodik jihatdan qo‘llab-quvvatlash zarurati asoslab beriladi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, ilmiy izlanishga yo‘naltirilgan ta’lim shaxsning intellektual rivojlanishi va ijtimoiy faolligini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqotchilik faoliyati talabalarning intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish va ularni mustaqil qaror qabul qiluvchi shaxs sifatida shakllantirish vositasi sifatida baholanadi. Bu jarayonda o‘quv faoliyatini bilimlarni tayyor holda o‘zlashtirishga emas, balki ularni mustaqil konstruksiyalashga asoslangan yondashuv ustuvor bo‘lishi lozimligi qayd etiladi. Mazkur yondashuv talabalarda tahliliy fikrlash, muammoni hal etish va refleksiya ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotlarda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi doirasida tadqiqotchilik

ko‘nikmalarini shakllantirish uchun qulay pedagogik sharoitlar yaratish muhimligi ko‘rsatib o‘tiladi. Jumladan, ta’lim oluvchilarga mustaqil tadqiqot yo‘nalishlarini tanlash, o‘z ta’lim traektoriyasini belgilash, ijodiy fikrlash va tanqidiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beruvchi ta’lim muhiti tadqiqotchilik faoliyatining samaradorligini oshirishi ta’kidlanadi.

Yuqoridagi ilmiy yondashuvlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tadqiqotchilik ko‘nikmalari talabaning bilish faoliyatini faollashtirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda ilmiy muammolarni hal etishga tayyorlashga yo‘naltirilgan murakkab integrativ sifat bo‘lib, uni shakllantirish ta’lim jarayonida maxsus pedagogik shart-sharoitlarni yaratishni talab etadi.

Mazkur shart-sharoitlarni ta’minlashda Inquiry-Based Learning (IBL), ya’ni so‘rovga asoslangan ta’lim yondashuvi metodik jihatdan samarali poydevor bo‘lib xizmat qiladi. IBLda talabalar ilmiy savol qo‘yish, izlanish rejasini belgilash, tajriba va kuzatuvlar o‘tkazish, natijalarni tahlil qilish hamda xulosa chiqarish kabi tadqiqot jarayonining asosiy amallarini izchil bajaradi. Izlanishga asoslangan muhitda tashkil etilgan ta’lim talabalarning bilimni chuqurroq o‘zlashtirishiga xizmat qilishi, bunda talaba faqat bilim oluvchi emas, balki bilimni faol ravishda “yaratuvchi” subyektga aylanishi ta’kidlanadi. So‘rovga asoslangan ta’limning mohiyati shundan iboratki, bilimlar tayyor ko‘rinishda berilmaydi; aksincha, talaba savollarni shakllantirish, mustaqil izlanish olib borish, dalillarni tanlash va tahlil qilish orqali bilimga ega bo‘ladi. Natijada ta’lim jarayoni mazmunan boyib, talabaning shaxsiy qiziqishi hamda ichki motivatsiyasi bilan uyg‘unlashadi.

IBL yondashuvi bir qator didaktik ustunliklarga ega. Birinchidan, u tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi: talabalar muammoni chuqur tahlil qiladi, ishonchli manbalarni ajratadi va asosli savollarni shakllantirishni o‘rganadi. Ikkinchidan, mavzuga mustaqil “kirib borish” orqali egallangan bilimlar barqarorroq bo‘lib, uzoq muddat xotirada saqlanadi. Uchinchidan, izlanish faoliyati ta’lim jarayonini mazmunli va shaxsiy ahamiyatli holga keltirib, o‘quv motivatsiyasini kuchaytiradi. Shuningdek, hamkorlikda ishlash, muloqot va jamoaviy qaror qabul qilish ko‘nikmalari ham rivojlanadi.

IBLni samarali tatbiq etishda o‘qituvchi ko‘proq fasilitator (yo‘naltiruvchi) sifatida maydonga chiqadi: u talabalarning qiziqishlari, kognitiv tayyorgarligi va o‘quv maqsadlariga mos, mazmunan boy hamda izlanishga arzigulik muammoli vaziyatlarni taklif etadi. Bu esa talabalarning mustaqil izlanishga yo‘naltirilishini ta’minlaydi.

IBLning didaktik mexanizmlaridan biri sifatida 5E modeli (Engage, Explore, Explain, Elaborate, Evaluate) o‘quv jarayonining mantiqiy ketma-ketligini belgilab, talabalarning fikrlash faoliyatini bosqichma-bosqich murakkablashtiradi. Empirik tadqiqot natijalariga ko‘ra, IBL asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda o‘quv natijalari an’anaviy yondashuvga nisbatan yuqoriroq bo‘lgani qayd etilgan.

Xalqaro tajriba ham IBLning kuchli jihatlarini tasdiqlaydi. Singapur ta’lim tizimida o‘tkazilgan meta-tahlillarda so‘rovga asoslangan yondashuv talabalarda tanqidiy fikrlash, dalillarga tayangan mulohaza yuritish, savol berish, muloqotga kirishish, hamkorlikda ishlash hamda ijtimoiy mas’uliyat kompetensiyalarini rivojlantirishi ko‘rsatib o‘tilgan; o‘qituvchi esa faollashtiruvchi va yo‘naltiruvchi metodik rolni bajaradi.

Biroq, IBLni amaliyotga joriy etishda metodik tayyorgarlikning yetarli emasligi, vaqt resurslarining cheklanganligi, katta akademik guruhlar va imtihonga yo‘naltirilgan baholash tizimi kabi omillar model samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shunga qaramay, tadqiqotlar zarur pedagogik shart-sharoitlar yaratilgan taqdirda IBL yondashuvi yuqori ta’limiy samaradorlikni ta’minlashini ko‘rsatmoqda.

So‘rovga asoslangan ta’lim o‘z mazmuni va metodik mohiyatiga ko‘ra investigative competence (izlanish/tadqiqotchilik kompetensiyasi)ni shakllantirishga xizmat qiluvchi yondashuvlar qatorida alohida o‘rin tutadi. Chunki bu model doirasida talaba tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki muammo qo‘yuvchi, savol beruvchi, izlanish olib boruvchi va xulosa chiqaruvchi subyekt sifatida shakllanadi; bu esa uni real tadqiqot faoliyati logikasiga yaqinlashtiradi.

So‘rovga asoslangan ta’lim jarayoni rejalashtirish, ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish, natijalarni yaratish va taqdim etish hamda baholash bosqichlarini qamrab oladi. Ushbu bosqichlar talabalarda kognitiv faoliyat bilan bir qatorda metakognitiv ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi: talaba o‘z o‘rganish jarayonini anglaydi, nazorat qiladi va takomillashtirish yo‘llarini izlaydi. Natijada, IBL yondashuvi tadqiqotchilik ko‘nikmalarini, shuningdek shaxsiy mas’uliyat, ichki motivatsiya, muloqot madaniyati va jamoada ishlash salohiyatini rivojlantiruvchi integral pedagogik tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Talabalarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish jarayoni maqsadga yo‘naltirilgan, tizimli tashkil etilgan pedagogik jarayonni talab etadi. So‘rovga asoslangan ta’lim (Inquiry-Based Learning) yondashuvi doirasida ushbu jarayon samaradorligini ta’minlash uchun bir qator pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash va ilmiy asoslash muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalariga tayangan holda, talabalarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga quyidagi xizmat qiluvchi asosiy pedagogik shart-sharoitlar ajratib ko‘rsatildi (1-rasm):



1-rasm. *So‘rovga asoslangan ta’lim sharoitida talabalarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar*

Birinchi pedagogik shart-sharoit - so‘rovga asoslangan muammoli vaziyatlarni tizimli yaratishdir. Tadqiqotchilik faoliyati, avvalo, muammoni anglash va ilmiy savol qo‘yishdan boshlanadi. Shu sababli ta’lim jarayonida talabalarning bilish qiziqishini faollashtiruvchi, ularni izlanishga undovchi muammoli vaziyatlarni muntazam ravishda tashkil etish zarur. Bunday vaziyatlar real hayotiy, kasbiy yoki ilmiy kontekstga ega bo‘lib, talabalarning mavjud bilimlari bilan yangi bilimlar o‘rtasida ziddiyatni yuzaga keltiradi. Natijada talaba muammoni hal etish uchun savollar ishlab chiqishga, taxminlar ilgari surishga va izlanishga kirishadi. Muammoli vaziyatlarning tizimli yaratilishi tadqiqotchilik

ko‘nikmalarining fragmentar emas, balki izchil va barqaror shakllanishini ta’minlaydi.

Ikkinchi pedagogik shart-sharoit – talabaning mustaqil izlanish faoliyatini metodik jihatdan qo‘llab-quvvatlash hisoblanadi. So‘rovga asoslangan ta’limda talaba mustaqil izlanish subyekti sifatida maydonga chiqadi, biroq bu jarayon o‘z-o‘zidan samarali kechmaydi. Talabalarning izlanish faoliyati aniq metodik yo‘naltirish, maslahat va fasilitatorlik yordami bilan qo‘llab-quvvatlangandagina kutilgan natijaga olib keladi. O‘qituvchi talabalarga tadqiqot savollarini aniqlashtirish, ishonchli manbalarni tanlash, ma’lumotlarni tahlil qilish usullarini egallash va izlanish natijalarini rasmiylashtirish bo‘yicha metodik ko‘mak ko‘rsatadi. Shu bilan birga, talabaning mustaqilligini cheklamasdan, uning individual izlanish trayektoriyasini tanlashiga sharoit yaratish muhimdir. Bunday metodik qo‘llab-quvvatlash talabalarda mas’uliyat, mustaqil fikrlash va ilmiy izlanishga bo‘lgan ijobiy munosabatni shakllantiradi.

Uchinchi pedagogik shart-sharoit - refleksiya va baholashni tadqiqot jarayoni bilan uzviy bog‘lashdan iborat. Tadqiqotchilik ko‘nikmalarining rivojlanishi faqat yakuniy natijani baholash bilan cheklanib qolmasligi kerak. Ta’lim jarayonida refleksiya va baholash tadqiqotning barcha bosqichlarini qamrab olgan holda tashkil etilganda, talaba o‘z faoliyatini tahlil qilish, xatolarini anglash va ularni bartaraf etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Refleksiya jarayonida talaba o‘ziga “Qanday savol qo‘ydim?”, “Qaysi usullar samarali bo‘ldi?”, “Natijalarimni qanday yaxshilash mumkin?” kabi savollarni berib, o‘z o‘rganish jarayonini ongli ravishda boshqarishni o‘rganadi. Baholash esa nafaqat yakuniy mahsulotni, balki izlanish jarayonini ham qamrab olgan holda amalga oshirilishi lozim. Bu esa talabalarda metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, so‘rovga asoslangan ta’lim sharoitida muammoli vaziyatlarni tizimli yaratish, talabaning mustaqil izlanish faoliyatini metodik qo‘llab-quvvatlash hamda refleksiya va baholashni jarayon bilan uzviy bog‘lash talabalarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishning asosiy pedagogik shart-sharoitlari sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu shart-sharoitlarning o‘zaro uyg‘unligi tadqiqotchilik faoliyatining samaradorligini oshirib, talabaning ilmiy fikrlashga tayyor, mustaqil va mas’uliyatli shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy nashri, 2019. URL: https://lex.uz/docs/-4545884

2. Шадриков В.Д. Методология деятельности и проектирование образовательных систем. Moskva: Логос, 2007. 368 s.

3. Якиманская И.С. Личностно-ориентированное обучение в современной школе. Moskva: Владос, 2001. 192 s.

5. Злиднева Т.П. Проблемное обучение как способ активизации учебно-исследовательской деятельности студентов // Вестник ВГУ. Серия: Педагогика. Психология. 2011. № 2. С. 65–72.

6. Abdi A. The effect of inquiry-based learning method on students’ academic achievement in science course // Universal Journal of Educational Research. 2014. Vol. 2, No. 1. P. 37–41.

7. National Institute of Education. Inquiry-Based Learning in the Singapore Education System: Meta-Synthesis of 24 Projects. Singapore: NIE, 2019. 65 p.

Avloqul AVLAEV,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi Milliy inistituti, mustaqil izlanuvchi,
Qashqadaryo viloyati, Kitob tumani, 4-umumiy o‘rta ta’lim maktabi, direktor

O‘QUVCHILARNI MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA KONSEPTUAL YONDASHUVLAR

Annotatsiya

Maqolada maktab o‘quvchilarida ma’naviyatni shakllantirishning maqsadi, mazmuni va asosiy yo‘nalishlari pedagog tomonidan insonparvarlik-shaxsga yo‘naltirilgan pedagogika mualliflik konsepsiyasida tavsiflangan. Shuningdek, muallif konseptual yondashuv doirasida ma’naviyatni tarbiyalash nafaqat o‘quvchilarda intellektni rivojlantirishni, balki unda ruhiyatni takomillashtirish va shakllantirish uchun sharoit yaratishni ham nazarda tutadi.

T**ayanch so‘zlar.** Konseptual yondashuv, o‘quvchilarda intellektni rivojlantirish, jahon globallashuv bosqichiga o‘tish, ma’naviy-axloqiy tarbiyalash.

В статье цель, содержание и основные направления формирования духовности у школьников описаны педагогом в авторской концепции гуманно-личностно-ориентированной педагогики. Также автор отмечает, что воспитание духовности в рамках концептуального подхода предполагает не только развитие интеллекта у учащихся, но и создание в нем условий для совершенствования и формирования психики.

Ключевые слова. Концептуальный подход, развитие интеллекта у учащихся, переход к этапу мировой глобализации, духовно-нравственное воспитание.

The article describes the purpose, content and main directions of the formation of spirituality in schoolchildren in the concept of humanitarian-personality-oriented pedagogy authorship by an educator. Also, within the framework of the conceptual approach, the author implies the upbringing of spirituality not only the development of intelligence in readers, but also the creation of conditions for improving and shaping the psyche in it.

Key words. Conceptual approach, development of intelligence in students, transition to the stage of world globalization, spiritual and moral education.

XXI asrda jamiyatda axloq darajasining pasayishi munosabati bilan olimlar, pedagoglar, ota-onalar, siyosatchilar, din arboblarining o‘sib kelayotgan insonning ma’naviy-axloqiy rivojlanishi va tarbiyasi masalalariga qiziqishi ortdi. Ilmiy-pedagogik muhitda aholining, eng avvalo, o‘quvchilarni axloqiy madaniyatini yuksaltirishga yangi yondashuvlarga ehtiyoj keskin sezilmoqda, chunki bu muammoni hal qilmasdan shaxs va jamiyatning ma’naviy yangilanishi mumkin emas. Biz ma’naviy-axloqiy tarbiya muammolarini jahon globallashuv bosqichiga o‘tish sharoitida aynan jamiyat ayrim a’zolarining va umuman millatning ma’naviyati davlat va ijtimoiy hayotning barcha sohalaridagi taraqqiyotni belgilaydi deb hisoblaydigan olimlar nuqtai nazaridan ko‘rish mumkin.

O‘quvchilarda ma’naviy madaniyat va axloq asoslarini shakllantirish vazifalarining muvaffaqiyatli hal etilishi ko‘p jihatdan ushbu muammo bo‘yicha mutaxassislarning metodologik pozitsiyalarining kelishilganligiga va tarbiyaviy faoliyatning ushbu muhim yo‘nalishining dunyoqarash mazmuniga bog‘liq. Yuqoridagilardan kelib chiqib, maktab o‘quvchilarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalashga konseptual yondashuvlar genezisini kuzatib borish va shu asosda o‘quvchilarga ma’naviy qadriyatlarni egallashda va ularni shaxsiy ma’nolarga aylantirishda pedagoglar va ota-onalar tomonidan yordam ko‘rsatish

usullari haqidagi pedagogik bilimlarni to‘ldirish zarur ko‘rinadi.

Olimlar asosli ravishda ta’kidlaganidek, O‘zbekiston ko‘p millatli va ko‘p konfessiyali davlat siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy qayta qurishning murakkab bosqichini bosib o‘tayotgan hozirgi sharoitda tadqiqotchilar oldida ushbu ko‘p millatli xalqning madaniy, oilaviy, diniy an’analarida mavjud bo‘lgan ma’naviy va axloqiy qadriyatlar asosida mehribonlik, hamdardlik, fidokorlik, burch hissi, o‘ziga va boshqalarga hurmat, rahmdillik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni tarbiyalash usullarini aniqlash va ilmiy asoslashdek muhim vazifa turibdi.

Pedagogikada ma’naviy-axloqiy tarbiya asoslarini K.D. Ushinskiy qo‘ydi. U o‘z asarlarida insonda axloqiy tamoyillarning ustuvorligini doimo ta’kidlab kelgan. “Biz axloqiy ta’sir ta’limning asosiy vazifasi, umuman ongni rivojlantirishdan, boshni bilim bilan to‘ldirishdan ko‘ra muhimroq ekanligiga ishonch hosil qilamiz”.

Ushinskiy inson tana, qalb va ongning birligi ekanligini ta’kidladi. Inson tanasining bu tarkibiy qismlari o‘zaro bog‘liq: tana moddiy asos, ruhning idishi va ruhning tashuvchisi, qalb – hayotiy faoliyatning nomoddiy sohasi, uning psixikasidir. Ong ilohiy moddaning ifodasidir. “Inson yolg‘iz bilim bilan yashay olmaydi va shuning uchun u bilimga qo‘shimcha sifatida imonga muhtoj”, deb ta’kidladi Ushinskiy.

Olim bolalarda diniy qadriyatlarga hurmatni va o‘z rivojlanishi hamda xulq-atvorida diniy ta’limotda belgilangan axloqiy me’yorlarga amal qilish ehtiyojini tarbiyalash muhimligini ko‘rsatgan. Pedagog haqli ravishda asl diniy tarbiya ruhoniylarning vazifasi deb hisoblagan. Pedagoglarning roli esa “ushbu eng yuksak sof insoniy ehtiyojni qondirishning to‘g‘ri yo‘lini ko‘rsatish, diniy hisning ruhiy asoslarini, uning insondagi rivojlanish tarixini ko‘rsatishdan iborat”.

K.D. Ushinskiyning diniy-axloqiy tarbiya haqidagi g‘oyalari XIX asr oxiri – XX asr birinchi yarmidagi jahon diniy-falsafiy va pedagogik tafakkurining shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. N.A. Berdyaev, I.A. Ilin, N.O. Losskiy, V.S. Solovyov, S.L. Frank va boshqalarning asarlarida insonda uchta asos: jismoniy, ruhiy va ma’naviy mavjudligi haqidagi qoidalar ifodalangan. Bir tomondan, bunday yondashuv insonni uning jismoniy, ruhiy va ma’naviy hayot shakllari birligida ko‘rib chiqish zarurligini tan oladi, boshqa tomondan esa – uning ma’naviy tabiatining ilohiy xususiyatini ta’kidlaydi hamda ma’naviy asosning moddiy asosdan ustuvorligini tasdiqlaydi. Bu kontekstda faylasuflarning fikricha, jamiyatda tarbiyaning ustuvor turi ma’naviy-axloqiy tarbiya bo‘lishi kerak.

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr birinchi yarmidagi falsafiy-pedagogik tafakkur vakillarining qarashlari tahlili ular ma’naviyat va dindorlikni o‘zaro bog‘liq hodisalar sifatida ko‘rib chiqqanliklarini, ularning umumiyligi ma’naviy ishonchda ifodalanishini taxmin qilishga asos beradi. Ma’naviyat insonga diniy qadriyatlar asosida yuksak axloqiy ideallarga intilish muhimligini chuqurroq anglashga, ushbu qadriyatlarga tayanib hayot mazmunini izlash va topishga imkon beradi. Bu maqsadga, jumladan, o‘sib kelayotgan insonni o‘qitish jarayonida, agar tarbiya va ta’lim ma’naviy tajriba orttirish va to‘plashga yordam bersa, erishiladi. XIX asr oxiri – XX asr birinchi yarmidagi jahon diniy-falsafiy va pedagogik tafakkuri vakillarining bu g‘oyalari o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash bo‘yicha zamonaviy konseptual yondashuvlarda rivojlantirilmoqda.

Maktablar va oliy o‘quv yurtlarida pedagoglar va o‘quvchilar o‘rtasida avtoritar muloqot uslubi joriy etildi; jamoa manfaatlari shaxsiy manfaatlardan ustun qo‘yildi. Shu bilan birga, sovet davrida ta’limda va aholi bilan olib boriladigan mafkuraviy ishlarda shaxsning kommunistik fazilatlarini tavsiflash uchun “ma’naviyat” tushunchasi keng qo‘llanilgan. Bu kontekstda shaxs ma’naviyati darajasi mafkuraviy va siyosiy savod-

xonlik, rivojlangan intellekt, ijtimoiy manfaatlarni shaxsiy manfaatlardan ustun qo‘yish qobiliyati, moddiy boylikka intilishning yo‘qligi bilan belgilangan.

Bunday tarbiya modelining amalga oshirilishi, bir tomondan, Kommunistik partiyaning rahbariy g‘oyalarini so‘zsiz bajaruvchilar avlodining shakllanishiga olib keldi, boshqa tomondan esa – pedagoglarga Ikkinchi jahon urushi yillarida kommunizm ideallari yo‘lida o‘z hayotini fido qilib, qahramonlik, jasorat va mardlik ko‘rsatgan insonlarni tarbiyalashga imkon berdi.

Tarbiya, shu jumladan, axloqiy tarbiya muammolarini nazariy asoslash bilan shug‘ullangan birinchi pedagoglardan biri A.S. Makarenko (1888-1939) bo‘ldi. O‘z pedagogik g‘oyalarini rasmiy mafkura yo‘nalishida ishlab chiqar ekan, Makarenko ta’limning asosiy maqsadi kollektivistlarni tarbiyalash deb hisoblagan. Bu kontekstda pedagog ijtimoiy muhitni shaxs dunyoqarashi va axloqini shakllantirishning muhim vositasi, tarbiyaviy jamoani esa – ulg‘ayayotgan insonni axloqiy tarbiyalashning zarur sharti sifatida ko‘rib chiqqan. Shu bilan birga, Makarenko har qanday tarbiyaviy jamoa shaxsning axloqiy va ma’naviy rivojlanishi uchun yaratilishini ta’kidlagan: “jamoa... har bir shaxsni himoya qiladi va uning rivojlanishi uchun eng qulay sharoitlarni ta’minlaydi”. U ba’zi tarbiyachilarning “hammani bir qolipga solishga, insonni bir o‘lchovga sig‘dirishga” intilishiga qat’iy qarshi chiqqan. Bunday yondashuv pedagogning gumanistik pozitsiyasini ifodalagan, chunki u shaxs va jamoa manfaatlarini uyg‘unlashtirishga qaratilgan edi.

Makarenkoning gumanizmi, shuningdek, uning pedagogik optimizmida, o‘sib kelayotgan insonning ijodiy kuchlariga bo‘lgan ishonchida, har bir tarbiyalanuvchida hurmatga loyiq shaxsni ko‘ra bilish qobiliyatida, unda rivojlantirilishi kerak bo‘lgan ijobiy moyilliklarni aniqlashga intilishida ifodalanadi. Shu bilan birga, Makarenko tarbiyada mehr va hurmatni talabchanlik bilan uyg‘unlashtirish zarur deb hisoblagan. O‘z pedagogik tajribasining mohiyatini belgilar ekan, u “insonga imkon qadar ko‘proq talab va unga imkon qadar ko‘proq hurmat ko‘rsatish” kerakligini yozgan. A.S. Makarenkoning pedagogik jarayonda o‘sib kelayotgan insonga nisbatan hurmat va talabchanlikni uyg‘unlashtirish muhimligi, shaxsni jamoada tarbiyalash zarurligi haqidagi g‘oyalari, bizning nazarimizda, o‘z hayotiyligini isbotladi va o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda ijodiy qo‘llanilishi mumkin.

Oilaviy tarbiyada Makarenko ota-onalar va bolalarning madaniy darajasini oshirishga axloqiy tarbiya vositasi sifatida muhim o‘rin ajratgan. “Ota-onalarning o‘zlari gazeta, kitob o‘qimaydigan, teatr yoki kinoga bormaydigan, ko‘rgazmalar, muzeylarga qiziqmaydigan oilada, albatta, bolani madaniy tarbiyalash juda qiyin. Va aksincha, ota-onalarning o‘zlari faol madaniy hayot kechiradigan oilada, ota-onalar bu haqda o‘ylamayotgandek tuyulsa ham, madaniy tarbiya o‘z o‘rnini topadi”. Shunday qilib, buyuk pedagog biz uchun dolzarb bo‘lgan g‘oyani, ya’ni bolalarni tarbiyalar ekan, ota-onalar bir vaqtning o‘zida o‘zlarining madaniy va axloqiy qiyofalarini takomillashtirishlarini tasdiqlagan.

Olimlar (N.K. Goncharov, M.A. Danilov, B.P. yesipov, I.A. Kairov va b.) ijtimoiy axloq tamoyillari asosida axloqiy tarbiyaning mazmuni va metodlarini ilmiy anglashga katta hissa qo‘shdilar. Bunda pedagogika, birinchi navbatda, shaxsning emas, balki jamiyat va davlatning ehtiyojlarini ta’minlaydigan mafkura shakli sifatida qaralgan. N.K. Goncharov yozganidek, “uning (pedagogikaning) mafkura va madaniyatning boshqa shakllaridan farqi shundaki, uning vazifasi jamiyatning o‘quvchilarini shakllantirishdir”. Bunday yondashuv olimlarni, birinchi navbatda, mafkura va ta’lim sohasidagi qarorlarni bajarish usullarini nazariy asoslashga, o‘qituvchilarni esa – ularni amaliy jihatdan ro‘yobga chiqarishga yo‘naltirgan.

Rivojlangan jamiyat konsepsiyasi amalga oshirilgan davrda ta’lim tizimiga hukumat va davlat rahbarligi kuchaytirildi. Axloqiy tarbiya muammolari hujjatlarda ko‘rib chiqildi; yig‘ilishlarda aholi bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar sifatini oshirish bo‘yicha strategik qarorlar qabul qilindi. Bu davrda axloqiy tarbiyani ilmiy asoslash bilan Sh.A. Amonashvili, P.R. Atutov, Yu.K. Babanskiy, O.S. Bogdanova, N.I. Boldirev, B.T. Lixachev, I.S. Marenko, I.F. Xarlamov kabi mashhur olimlar shug‘ullanishgan. Bunda axloqiy tarbiyaning tuzilishi va vazifalarini aniqlashga alohida e’tibor qaratildi.

Psixologlar tomonidan ishlab chiqilgan shaxs tuzilmasiga asoslanib, N.I. Boldirev, I.F. Xarlamov axloqiy tarbiyaning asosiy vazifalarini ifodaladilar, ular quyidagilarni o‘z ichiga olgan: axloqiy ongni shakllantirish, axloqiy his-tuyg‘ularni rivojlantirish, ijtimoiy xulq-atvor ko‘nikmalari va odatlarini hosil qilish. Bularning barchasi, Boldirev haqli ravishda ta’kidlaganidek, “yakuniy hisobda zarur axloqiy fazilatlarning shakllanishi va mustahkamlanishini, ijtimoiy va shaxsiy hayotga tayyorgarlikni ta’minlaydi”. Axloqiy tarbiyaning bunday tuzilmasi o‘zining hayotiyligini tasdiqladi va zamonaviy pedagoglar tomonidan qo‘llanilmoqda.

O‘tgan asr olimlari tarbiyada kompleks yondashuvni ishlab chiqishga katta hissa qo‘shdi, bu yondashuv nazariya va amaliyotda aholining barcha guruhlarini g‘oyaviy-siyosiy, mehnat va axloqiy tarbiyalash birligini ta’minlash asosida shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan edi.

Kompleks yondashuv doirasida tarbiyaning barcha yo‘nalishlari yetakchi vazifa – shaxsning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirish asosida birlashtirilgan, bu esa uning g‘oyaviy-siyosiy yo‘nalishini, ijtimoiy faolligini va fuqarolik mas’uliyatini belgilaydi. Olimlar ma’naviy-axloqiy dunyoqarashni g‘oyaviy-siyosiy, mehnat, axloqiy, estetik va jismoniy tarbiya vazifalarini hal qilish jarayonida shakllantirishni taklif qilganlar. Bir tomondan, kompleks yondashuvni amaliyotda qo‘llash bola shaxsiga barcha tarbiyaviy ta’sirlarni birlikda va o‘zaro bog‘liqlikda amalga oshirishga imkon bergan bo‘lsa, ikkinchi tomondan – tarbiyaviy faoliyatni o‘quvchilarda ma’naviy dunyoqarashni shakllantirishga bo‘ysundirgan. Bu ta’lim mazmuni va o‘quv-tarbiya jarayonining global va mafkuraviy yo‘nalishi kuchayishiga, maktabda avtoritar tarbiya uslubining yanada joriy etilishiga, shaxsning ma’naviy mo‘ljallarini e’tiborsiz qoldirishga olib keldi.

Biroq, olimlarning tarbiya masalalaridagi bunday biryoqlama yo‘nalishiga qaramay, pedagogikada axloqiy tarbiyaning ulg‘ayayotgan insonda insonparvarlik fazilatlari va ma’naviy madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan faoliyat sifatidagi mohiyati va xarakterini yangicha tushunish shakllana boshladi.

Gumanizm nuqtai nazaridan axloqiy tarbiya nazariyasiga V.A. Suxomlinskiy (1918-1970) salmoqli hissa qo‘shgan. U o‘z asarlarida va amaliy faoliyatida “ma’naviy madaniyat”, “ma’naviy faoliyat”, “ma’naviy boylik” tushunchalarini keng qo‘llay boshladi. Suxomlinskiyning fikricha, ma’naviy madaniyatning mohiyati axloqdir, u fikr madaniyati, his-tuyg‘u madaniyati va iroda madaniyatini shakllantirish uchun birlashtiruvchi asos bo‘lib xizmat qiladi. Ma’naviy faoliyat deganda, pedagog o‘sib kelayotgan inson tomonidan sivilizatsiya rivojlanishi davomida insoniyat yaratgan madaniy qadriyatlarni ijodiy o‘zlashtirishini tushungan, bu qadriyatlar asta-sekin uning shaxsiy tasavvurlari, e’tiqodlari va xulq-atvor motivlariga aylanadi.

V.A. Suxomlinskiy bolalarning axloqiy fazilatlarini shakllantirishda oilaning tarbiyaviy funksiyalarini oshirishga katta e’tibor qaratgan. U oila “haqiqiy insoniy sevgi, ishonchli va qattiqqo‘l, nozik va talabchan sevgi maktabi” bo‘lishi kerak deb hisoblagan. Shuning uchun pedagoglar oilaning madaniy va axloqiy darajasini oshirishga alohida e’tibor

qaratishlari lozim. Suxomlinskiy o‘zining boy pedagogik tajribasini hisobga olgan holda asosli ravishda ta’kidlaganki, bolaga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishga bo‘lgan barcha urinishlar, “agar ota, ona bolalarning ma’naviy madaniyati va hayotining to‘liqligini tashkil etuvchi haqiqiy ehtiyoj bo‘lgan insonlar bo‘lmasa”, behuda ketadi.

Sh.A. Amonashvili ma’naviyatni shaxsning oliy qadriyati va insoniy hamjamiyatning poydevori sifatida tushunadi. Maktab o‘quvchilarida ma’naviyatni shakllantirishning maqsadi, mazmuni va asosiy yo‘nalishlari pedagog tomonidan insonparvarlik-shaxsga yo‘naltirilgan pedagogika mualliflik konsepsiyasida tavsiflangan. Ushbu konseptual yondashuv doirasida ma’naviyatni tarbiyalash nafaqat o‘quvchilarda intellektni rivojlantirishni, balki unda ruhiyatni takomillashtirish va shakllantirish uchun sharoit yaratishni ham nazarda tutadi. Shunday qilib, Amonashvilining fikricha, ta’limda nafaqat o‘quvchilar tomonidan bilimlarni egallash jarayonini tashkil etish, balki ushbu bilimlar asosida tegishli motivlarni shakllantirish uchun sharoit yaratish ham muhimdir. Sh.A. Amonashvili va uning izdoshlarining insonparvarlik-shaxsga yo‘naltirilgan pedagogika haqidagi g‘oyalari mahalliy maktab va pedagogika fanining asta-sekin rivojlanishning gumanistik paradigmasiga o‘tishiga turtki bo‘ldi, unda o‘sib kelayotgan o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash muhim o‘rin tutadi.

Jahon ta’lim siyosatida liberal-demokratik islohotlar amalga oshirilgan davrda o‘quvchilarni tarbiyalashga yetarlicha e’tibor berilmadi. S.V. Darmodexin asosli ravishda ta’kidlaganidek, ‘‘tarbiyani maktabdan siqib chiqarish, uning normativ-huquqiy va metodik ta’minotini to‘xtatish, tarbiyaviy ish bo‘linmalarini tugatish bo‘yicha rasmiy yo‘nalish olindi’’. Mafkurasizlantirish bahonasida maktabda tarbiyaviy faoliyatning metodik ta’minoti yetarli darajada amalga oshirilmadi, maktab o‘quvchilarida axloqiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan ko‘plab tarbiya shakllari va metodlari unutildi. Maktabdan tashqari ta’lim muassasalarining katta qismi xususiylashtirildi va qayta ixtisoslashtirildi yoki o‘z faoliyatini tijorat asosida amalga oshira boshladi, bu esa bolalarning axloqiy rivojlanishi, madaniyat va fan yutuqlariga oshno bo‘lish imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklab qo‘yadi.

Bu sharoitda pedagoglar o‘sib kelayotgan o‘quvchining potensial qobiliyatlarini rivojlantirish, uning ma’naviy va intellektual salohiyatini boyitish, o‘zini va atrof-muhitni insonparvarlik asoslarida o‘zgartirish bo‘yicha ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirish yo‘llari va usullarini nazariy asoslash imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-sonli ‘‘Ta’lim to‘g‘risida’’gi Qonuni. – www.lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-sonli “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – www.lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentyabrdagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-sonli Farmoni. – www.lex.uz.

4. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi. “Maktab – ota-ona – mahalla” hamkorligi uzviy tashkil etiladi. – Rasmiy xabar, tezkor yangilik, tahliliy-tanqidiy material, qonun hujjatlari, foto va videoreportajlar. Data poslednego obraщeniya: 11.04.2025. – https://uza.uz/uz/posts/maktab-ota-ona-mahalla-hamkorligi-uzviy-tashkil-etiladi_567716

To‘lqinoy ABDUJABBOROVA,
Farg‘ona davlat universiteti, mustaqil izlanuvchi,
Marg‘ilon pedagogika kolleji, pedagogika-psixologiya fani o‘qituvchisi

OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARINING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MA’NAVIY-MA’RIFIY TADBIRLARNING O‘RNI

Annotatsiya

Maqolada oliy ta’lim talabalarining iqtidori, iste’dodi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishida ma’naviy va ma’rifiy ishlar orqali yetuk kadrlar qilib tarbiyalash yo ‘llari, ijobiy yutuqlar, taklif-mulohazalar bayon qilingan.

Tayanch so‘zlar. Strategiya, tafakkur, konsepsiya, innovatsiya, ilmiy to‘garak, ma’rifat maydoni, trening, kelajak poydevori, ijodiy qobiliyat, iste’dod, iqtidor.

В статье изложены пути, положительные достижения и предложения по воспитанию зрелых кадров посредством духовно-просветительской работы в развитии таланта, одаренности и творческих способностей студентов высших учебных заведений.

Ключевыеслова. Стратегия, мышление, концепция, инновация, научный круг, сфера просвещения, обучение, фундамент будущего, творческие способности, талант, одаренность.

The article describes the ways, positive achievements, and suggestions for educating mature personnel through spiritual and educational work in the development of talents, abilities, and creative abilities of higher education students.

Key words. Strategy, thinking, concept, innovation, scientific circle, field of enlightenment, training, foundation of the future, creative ability, talent, talent.

Prezidentimiz “Yangi O‘zbekiston tarqqiyot strategiyasi” kitobida – Mening nazarimda, insoniyat dunyosining buyuk bir yoritgichi – ma’naviyat chirog‘i bor. Bu chiroqning boshqalardan farqi shuki, u insonning ongi va tafakkurini yoritadi, qalbi, vijdonini uyg‘otadi, odamiylik hissini kuchaytiradi. Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi – ma’naviyatdir. Biz uchun ma’naviyat – insonlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, hurmat va e’tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo‘lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlar majmuasidir… Bu poydevor qancha mustahkam bo‘lsa, xalq ham davlat ham shuncha kuchli bo‘ladi. Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda Farg‘ona davlat universiteti talabalari bilan olib boriladigan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning tashkillanishi, ularning ta’lim va tarbiya olishidagi o‘rni, talabalar iqtidori, iste’dodi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishiga ta’siri haqida fikr mulohaza qilishni maqsad qildik.

O‘zbekiston Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorida belgilangan vazifalarga ko‘ra talabalarda ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, ma’naviy-ma’rifiy va axloqiy tarbiya berish, besh muhim tashabbus doirasida tashkil etilgan klub va to‘garaklar, ko‘rgazmalarga jalb etish, talabalarni darsdan bo‘sh vaqtlarda ko‘rik-tanlovlar va sport to‘garaklariga yo‘naltirish, ma’rifat darslari va “Soft skills” treninglarini o‘tkazish, ilm-fan, innovatsiyasi va tadqiqotlar sohasida iqtidorli va iste’dodli talabalarni aniqlash va ularni maqsadli tayyorlash hamda ilmiy to‘garaklarga jalb etish, turli ilmiy tadbirlar, konferensiyalar, seminarlar, respublika, xalqaro olimpiadalar va forumlarda

ishtirok etishlari, ilmiy maqolalar yozish va chop ettirishga alohida ahamiyat berilib kelinmoqda.

Oliy ta'lim talabalari uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tavsiya etilgan reja asosida har bir fakultetlarning bosqichlari va yoshlarini hisobga olib, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning yillik, oylik va haftalik rejalari tuzilib, tegishli mutaxassislar tomonidan tasdiqlanadi. Hatto oylik rejalarning o‘z nomiga ham egaligi mavjud. Masalan, oktabr oyi – "Ustoz va murabbiylar" yoki fevral oyi – "Sog‘lom turmush madaniyati", iyun oyi esa – "Yoshlar bunyodkorligi" oyligi deb tashkillab, o‘tkaziladi. Shu bois ham, fakultetlar o‘rtasida o‘tkaziladigan "Talaba bahori" ko‘rik-tanlovi talabalaning zukkoligi, mahorati, iqtidori, iste'dodi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishiga katta yordam beradi.

Oliy ta'limda "Yil talabasi", "Huquq bilimdonlari", "Eng yaxshi maqola", "Kitobxon talaba", "Ma'rifat maydoni", "Quvnoqlar va zukkolar" respublika ko‘rik tanlovi hamda universitet huzuridagi "Talabalar teatr studiyalari" talabalarning tashkillotchilik, ijodkorlik, bilimlilik, intellektual, hissiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishiga ko‘maklashadi. Universitetning tasviriy san'at yo‘nalishi bo‘yicha, ijodkor pedagog M.Ahmadbekova rahbarligida "Rassomlar nigohida", "Yosh musavvir", "Mohir haykaltarosh", "Ijodkor naqqosh" to‘garaklaridagi yutuqlari talaygina. Masalan, iste'dodli talaba, Sh.Oxunboboyeva 2024-yili o‘tkazilgan "Global art" xalqaro ko‘rik tanlovida g‘olib bo‘ldi, ijodkor talaba huddi shu yili esa Xalqaro miqyosda o‘tkazilgan "Tasviriy san'at" nominatsiyasi bo‘yicha 1-darajali diplom bilan taqdirlandi. Yana bir iste'dodli talabamiz Muslima Yo‘lchiyeva Fransiyaning O‘zbekistondagi elchi xonasi tomonidan tashkil etilgan "Yangi yil tabriknomasi 2024" tanlovida 1-o‘rinni egalladi.

Musiqa ta'limi yo‘nalishida ta'lim olayotgan talaba M.Jo‘rayeva, pedagog M.Ochildiyeva rahbarligidagi "Tarona vokal cholg‘u ansambli "Respublika yosh ijrochilar" ko‘rik-tanlovida 3-o ‘rinni egalladi. 2024-yil "Yosh maqomchilar" respublika ko‘rik-tanlovida S.Muxtorov, Q.Salimov, O.Sultonaliyev, M.Jo‘rayev, G.Umarovlar "Eng namunali maqom ansambli" nominatsiyasini qo‘lga kiritdi. Filologiya fakultetida ta'lim olayotgan "Mushoira" klubining 3-bosqich talabasi N.Qodirova nazm yo‘nalishida ijod qiladi. Shu kungaqadar 100 dan ortiq she'rlari e'lon qilingan. ‘‘Ikki elning tanti o‘g‘loni" she'riy to‘plamida nashr qilingan. "Vatantaraqqiyotiga mening hissam" viloyat ko‘rik tanlovining nazm yo‘nalishida 1-o‘rinni olgan. Hulkar Hamroyevaning "Biz bilgan..u (bilmagan) Anvar Obidjon" kitobida ijodiy namunalari chop etilgan. "Qo‘shqanot qasidasi" to‘plamida she'rlari chop etilgan. "Poklanish istagi" nomli she'riy to‘plami nashrga tayyorlanmoqda. Yana bir ijodkor talaba Mandonova Farhunda publisistika yo‘nalishi bo‘yicha hozirgi kunga qadar 30 dan ortiq ijodiy ishlari tojik, o‘zbek va ingliz tillarida chop etilib kelmoqda. Ilmiy maqolalari Turkiya, Rossiya, Buyuk Britaniya hamda Tojikiston respublikalarida chop etilgan. Ijodiy ishlari "Yangi Farg‘ona", "Ovozi tojik", "Ovozi Samarqand", "So‘x haqiqati" gazetalarida va "Ijod nafasi" XI asr konferansiyasi, "Dono'' jurnallarida chop etilgan. Shu fakultetning iste'dodoli talabasi Sulaymonova Saodatning shu kunga qadar 50 ga yaqin she'rlarirespublika, viloyat,tuman va shahar bosma nashrlarida e‘lon qilingan. Uning she'rlari Rossiya va Turkiya davlatlarida ham chop etilgan. 2022-yil "Jo‘shqin jilg‘alar" nomli to‘plami va Turkiya davlatidagi "She'rga oshiq ko‘ngillar" to‘plamida she'rlari e'lon qlingan. 2024-yilda "Yilning eng faol talabasi" nominatsiyasida 2-o‘rinni olgan.

Bugungi kunda "Uchinchi Renessans poydevorini yaratish, yurtimizda kechayotgan keng ko‘lamli yangilanish jarayoni bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan, demokratik ja-

miyatni barpo etish,kelajak poydevorini qurishda qat’iyatli, yangicha fikr yuritadigan, yangicha ishlashni maqsad qilib qo‘ygan, doimiy ilmda izlanadigan, yuksak marralarni ko‘zlagan shunday talabalar Prezident va Navoiy kabi nomdor stipendiyalar talabgorlaridir. Masalan, Farg‘ona davlat universiteti talabalari ichida Vatan taqdirini hal qilishdagi bilimi, ilmiy izlanuvchanligini hisobga olib Fayzulla Sayramov “Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash” yo‘nalishi bo‘yicha 2024-2025-o‘quv yili uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyasiga sazovor bo‘ldi. Navoiy nomli davlat stipendiyasiga turli yo‘nalishlar bo‘yicha 13 nafar talabalar, Islom Karimov nomidagi davlat stipendiyasiga esa “Tuproqshunoslik” yo‘nalishi bo‘yicha J.Ma’rufjonov, Ulug‘bek nomidagi davlat stipendiyasiga esa A.Bogdan, F.Jumaboyevalar, Bobur nomli davlat stipendiyasiga ijodkor talabalar Sh.Norxo‘jayev, Pahlavon Mahmud nomli davlat stipendiyasiga Sh.Hudoyqulovlar sazovor bo‘lishgan. Ayni vaqtda yana bir haqiqatni ham esdan chiqarmasligimiz kerak yutuqlar bilan birga eng katta, bebaho boyligimiz bo‘lgan tinchlikka rahna solish, turli xalqlar o‘rtasida urush olovini yoqish, milliy va diniy ziddiyatlarni avj oldirishga urinayotgan kuchlar ham, afsuski, yo‘q emas. Bunday yovuz kuchlarga qarshi kurashda, avvalo doimiy hushyorlik va ogohlik, butun xalqimizning birligi va hamjihatligi hal qiluvchi ro‘l o‘ynaydi.

Bunday xavf-xatarlarga qarshi faqat kuch ishlatish usullari bilan emas, balki, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish lozim.

Farg‘ona davlat universitetida ham davlat miqyosida olib borilayotgan ishlar olim-professorlar hamda talabalarning Vatan ravnaqi yo‘lida olib borayotgan ijodkorlik va ilmiy ishlari maqtovga sazovordir.

Oliy ta’limda talabalarning ijodkorligi, kuch-g‘ayrati, qiziqishlari va yaratuvchanligini oshirish maqsadida quyidagi takliflarni tavsiya etmoqchimiz: Shu bois oliy ta’limda:

– ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, ma’naviyat soatlarining natijalari, ahamiyati, talabaning har tomonlama rivojlanishi, oilaga tayyorlash, vatanga muhabbat tuyg‘ularini o‘stirish, diniy bilimlar, urf-odatlarni singdirish, ko‘rik-tanlovlarning ahamiyati to‘g‘risidagi fikrlarini bilib, hayotga tadbiq etish borasida muntazam pedagoglar va tyutorlar bilan hamkomrlikda so‘rovnomalar va treninglar o‘tkazib turishi hamda tahlil asosida muammo va takliflarni inobatga olish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

– oliy o‘quv yurtida har tomonlama barkamol shaxsni, erkin fikrlaydigan, o‘z vataniga sodiq, qat’iy, hayotiy qarashlarga ega bo‘lishi,yurtimizdagi ijobiy o‘zgarishlar, yutuqlar buyuk allomalar, ulug‘ ajdodlarimizning hayoti va faoliyatini yanada chuqurroq o‘rganish uchun olim-professorlar,kafedralar, ma’naviy-ma’rifiy bo‘lim hamda tyutorlar birgalikda yurtimizning boy tarixiy-madaniy joylariga muntazam sayohatlar uyushtirib olib borish hozirgi kun talabidir.

Xulosa qilib aytganda, ma’naviy yetuk, barkamol avlodni tarbiyalash, ta’lim-tarbiyani rivojlantirish, ma’rifatli jamiyatni barpo etish asnosida taraqqiyot strategiyasini ro‘yobga chiqaradigan yangi shaxsni voyaga yetkazish-pirovardi maqsadi inson manfaatlarini ta’minlash bo‘lgan islohotlarimizning eng muhim vazifalaridandur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi [matn] -T.:O‘zbekiston. 2022. 176-256-261-288-290 b

2. O‘rinova N.M., Abdullayev S.S.Tytorlik faoliyatini tashkiliy metodik jihatdan shakllantirish nazariyasi. Monografiya. – Farg‘ona.: 2024. – 10-103-105-107 b.

3. Ziyovuddin Rahim.Bola odobi bilan aziz. – T.: “Kitobdornashr”- 2022.– 249 b.

Shoxida BEKMURATOVA,
Andijon davlat pedagogika instituti, “Tasviriy san’at va muisiqa ta’limi” kafedrasi, dotsent, (PhD)

BO‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHILARINING KASBIY-METODIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHNING DIFFERENSIAL METODOLOGIK YONDASHUVLARI

Annotatsiya

Maqolada hozirgi zamonda dolzarb bo‘lib hisoblangan masala, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini differensial yondashuvning nazariy tamoyillari, metodologik yondashuvlari haqida yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. Differensial, tarixiy obrazli, tipiklik, nazariy, metodik yondashuv, kompetensiya, metodologik, badiiy obraz, ritm, individual, kontrast, miniatyura, rangshunoslik, perspektiva, nisbat, faktura.

В данной статье рассматривается актуальная сегодня проблема, теоретические принципы дифференциального подхода, методологические подходы к профессионально-методической подготовке будущих преподавателей изобразительных искусств.

Ключевые слова. дифференциальный подход, исторический образ, типичность, теоретический подход, методологический подход, компетентность, методологический подход, художественный образ, ритм, индивидуальный подход, контраст, миниатюра, цвет, перспектива, пропорция, текстура.

This article discusses the current issue, the theoretical principles of the differential approach, methodological approaches to the professional and methodological training of future teachers of fine arts, which is considered relevant today.

Key words. Differential, historical image, typicality, theoretical, methodological approach, competence, methodological, artistic image, rhythm, individual, contrast, miniature, color, perspective, proportion, texture.

Tasviriy san’at mashg’ulotlarida differensiallashgan o‘quv jarayonini tashkil etishda, ta’lim oluvchilarning rivojlanish ko‘rsatgichi ularning qobiliyatlariga qarab o‘quv yo‘llari, usullari, shakllari tanlab olinishi o‘quv materialini taqdim etishda har bir guruhning ushbu jihatlarini inobotga olgan holda moslashtirish, to‘ldirish yoki optimallashtirishdan iboratdir. Differensiatsiya lotin tilidan olingan bo‘lib, “differentia”- farq, tabaqa mano‘larini anglatadi.

Differensial ta’lim muammosi pedagog-rassom va psixolog olimlar tomonidan turli nuqtai nazardan tadqiq etilgan bo‘lib, turlicha ta’rif berilgan.

Amir Temur va Temuriylar davrida tasviriy san’at turlaridan me’morchilik, miniatyura gullab – yashnadi. Bu davrda miniatyura va kitob grafikasi shunchalik rivojlandiki, u nafaqat Sharq, hattoki Yevropa mamalakatlari san’atiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Natijada, Samarqand, Buxoro, Hirot miniatyura maktablari bilan bir qatorda Bag‘dod, Tabriz, Sheroz, Ozarbayjon, Hind, Isfaxon, Turk miniatyura maktablari ham shakllandi va rivojlandi. Bu davrlarda yaratilgan asarlarning badiiyligi hozirgi zamon rassomlari va haykaltaroshlarining asarlaridan qolishmaydi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bunday yuksak badiiy saviyadagi asarlarni o‘sha davrda to‘plangan ilg‘or tajriba, tasviriy san’at maktablarisiz yaratish mumkin emas. Ma’lumki, san’at bir necha avlodning ko‘p yillar

davomida shakllangan an’analari, ustozning shogirdga o‘tkazgan bilimlari asosidagina taraqqiy topadi. Bu esa ustoz shogird an’analari rivojlanganligidan dalolat beradi.

Talabalarga individual yondashuvning asoslari yangi yoki yaqin 100-200 yil davomida paydo bo‘lgan jarayon emas, u kishilik jamiyati, aniqrog‘i, ibtidoiy jamoa paydo bo‘lgan davrdan boshlangan, desak to‘g‘riroq bo‘ladi . Shunday ekan avloddan avlodga o‘z tajribasi va bilimlarini turli yo‘llar bilan o‘tkazish jarayonida ro‘y beradi. Bu jarayon o‘sha davrlarda kundalik turmushda amalga oshirilgani hammaga ma’lum. U mehnat, oila munosabatlari, ov, tarbiya sohalarida, yoshlarning yoshi, qobiliyati, jinsi, qiziqishlari kabi xususiyatlarini hisobga olgan holda bo‘lganligi hammaga ma’lum. Bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olib ularga hunar o‘rgatilgan, ta’lim va tarbiya mazmunini belgilangan. Ta’lim-tarbiyaga bunday yondashuv qadimgi Misrda, O‘rta Osiyoda eramizdan avvalgi VI-V asrlarda, bo‘lganligi rasmiy ma’lumotlardan bizga ma’lum. Hatto uzoq qadimda o‘quvchilarning badiiy hunarlarni o‘zlashtirishi Qadimgi Gretsiyada, so‘ng bir qator YEvropa davlatlari Uyg‘onish davrida o‘quvchilarga individual yondashuv masalasi pedagoglarning alohida e’tiborini tortdi. Chunki u davrlarda ustozning yordamchi va shogirdi bo‘lganligi uchun, o‘quvchi-shogird ustozining badiiy asarlarni yaratishdagi texnikasi, uslubini o‘ziga bevosita qabul qilgan.

Buni Temuriylar davri miniatyura maktablari, shu davrlarda yashab, ijod etgan tasviriy san’at ustalari va ular shogirdlarining faoliyatlarida ham ko‘rishimiz mumkin. Hirotda shakllangan san’at maktabida Mirotlik Mirak naqqosh Kamollidin Behzodga ustozlik qilgani, unga miniatyura rangtasviri sirlarini o‘rgatgani haqida ma’lumotlar bor. Shu maktabning davomchisi sifatida Kamoliddin Behzod o‘nlab mussavirlarga ustozlik qilgan, deydi professor Orif Usmonov o‘zining “Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi” nomli kitobida. U yerda Kamoliddin Behzod o‘z atrofiga o‘nlab iste’dodli yoshlarini to‘plagani, ularga san’atning sir-asrorlarini o‘rgatgani va Tabrizda Sulton Muhammad, Mir Ali, Sulton Muhammad, Abdulla Sheroziy, Mirzo Amir, Mahmud Muzaxxib, Oqo Mirak, Muzaffar Ali, Sulton Muhammad Nur, Rizo Abbosiy, Shomuhammad Nishopuriy, Yusuf Mullo, Mavlono Yoriy, Hasan Bag‘dodiy, Darvesh Muhammad, Mir Said Ali, Qosim Ali, Xeraviy singari o‘nlab iste’dodli musavvirlarni tarbiyalaganligini yozadi. Shogirdlari Behzodning tasviriy san’at uslubini davom etirib, miniatyura va xattotlik san’ati ravnaqiga hissa qo‘shib, o‘zlaridan keyin miniatyura maktablariga asos solib yuzlab musavvirlar yetishib chiqishiga zamin yaratgan. XVII-XIX aslarda ijod qilgan tasviriy san’at ustalaridan Muhammad Muqim, Ahmad Kalla, Ahmad Donish, Mulla Husniddin, Mulla Ortiq Rahmatiy, Ibrohim Davron kabi rassomlar faoliyati ustoz-shogird masalasida e’tiborga molikdir.

Ustoz-shogird o‘rtasidagi munosabatlarni biz tarixiy manbalarga tayanib o‘rganadigan bo‘lsak, u davrlarda tasviriy san’atni o‘qitishda rassom - ustozlarning badiiy ustaxonalarida o‘quvchi-shogirdlarga ta’lim-tarbiya berish aniq belgilangan qonun-qoidalar asosida olib borilgan. Bu jarayonda shogirdlarni jamoa bo‘lib o‘qitish, ular bilan birga va yakka tartibda ishlash muhim hisoblangan.

Yevropada bu davrlarda ota-onasi tomonidan ma’qullangan qobiliyatli va odatda o‘n yoshga to‘lgan bolalarni taniqli rassomlarga shogirdlikka berganlar, u yerda shogirdlar tasviriy san’atning siru asorlarini yaqin uch yil davomida o‘rganishgan. Golland rassomi Rembrandning 40 ga yaqin shogirdlari bo‘lgani tadqiqotchilarga ma’lum. Mashhur rassomlardan Chyennino Chyennini, Leon Batista Alberti, Veroko, Mikellanjelo, Leonardo da Vinchi, Albrext Dyurer, aka-uka Karrachilar yaratgan o‘qitish tizimida o‘quv materiallarini tez o‘zlashtirish, o‘quvchilarni ilmiy bilimlar, muntazam mashq, qonun

va qoidalar asosida rasm ishlash malakalarni hosil qilish asosiy o‘rinni egalladi. Bu tamoyillar o‘sha davrda xam differensial yondashuvni rivojlanganini ko‘rishimiz mumkin.

O‘sha davrlarda xam differensial yondashuv asosida bo‘lajak rassomlarni o‘qitish ustozning oddiy topshiriqlardan shogirdining qobilyatini, aniqlab shunga asta-sekinlik bilan tasviriy san’at sir asrorlarini o‘rgatib kelganligini ko‘ramiz. Shu ma’noda o‘quvchining individual xususiyatlaridan kelib chiqib, oddiyroq ijodiy ishlar ishlash topshirilgan. Keyinchalik tajribali rassomlarning ijodiy ishlaridan nusxa ko‘chirish orqali o‘zlarini rivojlantirib borganlar. Rassomlar tilida shunday yozilmagan qonun qoidalar borki uni so‘z bilan tariflash qiyin bo‘ladi. Masalan rang ko‘rish qobiliyati oddiy insonlar ko‘rgandan ko‘ra rassom uni boshqacha obrazda ko‘rish, yani bir daraxtni oladigan bo‘lsak quyosh nuri tushib turgan tomonida issiq ranglar, soya tomonida esa sovuq ranglarni ko‘ra olishi muhim. Bu esa ustozning mahorati va o‘qitish metodika asosida differensial yondashuv takomillashtirilgan.

Tarixdan ma’lumki tasviriy san’atda rassom-pedagoglar o‘zlarining asarlarini yaratishda nafaqat og‘zaki tushuntirib, balki o‘quvchi-shogirdlariga individual yondashib, birgalikda amaliy tarzda ishlab ko‘rsatganlar, bunda o‘quvchi o‘z ko‘zi bilan asarning yaratilish bosqichlarini kuzatgan. O‘sha davrning rassomlari o‘zlarining ilmiy qo‘lyozmalarida ta’limda bu masalalar prinsiplarini qo‘llash, uning samarasi haqida qisman yoritib o‘tgan. Masalan, Chyennino Chyennini shunday yozgan: “Ko‘pchilik tasviriy san’atni ustozsiz o‘rgandik desalar, sen ularga aslo ishonma, misol tariqasida shu kitobchani o‘qib chiq; kechayu-kunduz o‘qib o‘rgansang ham, ammo ustoz ko‘rmasang, o‘rganib o‘qib bo‘lganingdan so‘ng ham sen ustozlar qatoridan joy ololmaysan”. Yuqorida ustozning keltirilgan fikridan xulosa qilsak, o‘rganuvchi talaba qachonki amaliy tarzda tasviriy san’atning qonun-qoidalarini ko‘rsagina nazariyani hayoti faoliyatida qo‘llay olishi mumkin deyilgan. Bu esa ustozdan har bir talaba bilan individual xususiyatlarini hisobga olib ta’lim jarayonini olib borish demakdir.

Tarixiy manbalarni ko‘rganimizda mashg’ulotlar jarayonida talabalarga differensial yondashuv tasviriy san’atning mazmunini o‘qitish rassom-pedagoglarning asosiy maqsadiga aylangan. Differensial yondashuv masalasi asosan, ikki yo‘nalishda olib boriladi: birinchisi, masalani pedagog-rassom amaliy namoyon etib, og‘zaki tushuntirib berar, ikkinchisi o‘quvchiga amaliy ko‘rsatilmasdan faqat og‘zaki tushuntirilar va izohlab berilar edi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, bu ikki yo‘nalishni bir-biridan ajratib yoki qarama-qarshi qo‘yish mumkin emas. Chunki u yoki bu yondashuvda o‘quvchining qobiliyati va layoqati hisobga olinib kelingan hamda tushuntirilayotgan materialning murakkabligiga bog‘liq bo‘lgan.

XX asr boshlarida bolalar tasviriy ijodi borasida biogenetik nazariya yuzaga keldi. Bu borada nemis olimi G.Kershenshteyner, rus san’atshunosi A.Bakushinskiy, amerikalik J.Dyupyuilar faollik ko‘rsatdi. Ularning fikriga qaraganda bolalar badiiy ijodiga aralashmaslik kerak. Ular erkin ijod qilishlari lozim. Ularning ijodiga aralashib ta’limni tezlashtirib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham yosh xususiyatiga mos xolda bosqichma-bosqich topshiriqni o‘zlashtirib boradi. Har bir bosqichda bolaning fikrlari, his-tuyg‘ularini xisobga olib o‘zlashtirish jarayonini nazoratga olish muhim xisoblanadi. Shuning uchun bolalarning ijodiga rahbarlik qilish, aralashish jinoyatdir deb yozdi. Keyinchalik bu g‘oya “Erkin tarbiya” nomini oldi.

Tasviriy san’at fani bo‘yicha o‘quvchilarni tabaqalashtirib o‘qitish, uning respublikamiz ta’lim tizimiga mos keladigan dastlabki ilmiy-nazariy asoslarining ilk kurtaklarini pedagogika fanlari doktori, professor R. Hasanov ilmiy tadqiqotlar olib borgan .

Tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan ta’limga doir angliyalik B.Kerollning o‘qitish modeliga asoslangan B.Blumning pedagogik qarashlari mutaxassislar e’tiborini o‘ziga tortmoqda. Mazkur nazariyaga ko‘ra, aqliy jihatdan qobiliyatli yoki bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarni tabaqalashtirib o‘qitishning asosini ta’lim uchun ajratilgan vaqt hal qiladi. Hamma gap bolalarning har biri bilan alohida ishlash va ularga e’tiborni kuchaytirish deb hisoblaydilar.

Tabaqalashtirilgan ta’lim asosida o‘quvchilar tanlangan mutaxassisligi bo‘yicha chuqur bilim asoslarini egallashadi va amaliy malakalarga ega bo‘lishadi. Tabaqalashtirilgan ta’lim kasb tanlashning asosi hisoblanadi va o‘quvchilarning o‘z qiziqish va moyilliklari asosida kasb tayyorgarligi sirlarini egallashlarida muhim o‘rin tutadi”. Ushbu qarashda o‘quvchilarni tabaqalashtirishda asosiy mezon sifatida ularning qaysi predmetga qiziqishlari yuqori ekanligi hamda bilimlarni o‘zlashtirish imkoniyatlari tanlab olingan. Aynan bu yondashuv bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini differensial asosida rivojlantirishga asos bo‘ladi.

Fransiya umumiy o‘rta ta’lim maktablarida individual o‘qitish o‘ziga xos ravishda rivojlanmoqda. Mamlakat pedagog-olimlarining fikrlariga qaraganda bunday ta’lim turining Fransiyada taraqqiy etishiga asosiy sabab o‘quv materiallarining ko‘pchilik o‘quvchilar tomonidan yaxshi o‘zlashtirilmayotganligi hisoblanar ekan. Taniqli fransuz pedagogi R. Dottrens tomonidan ishlab chiqilgan dasturlarda o‘quvchilarning aqliy qobiliyatlari, ularning ish tezligi, ritmi, charchoqqa bardoshliligi, chidamliligi, qiziqishlari hisobga olinib, individual o‘qitishga alohida e’tibor berilgan. Ayrim hollarda topshiriqlarni o‘quvchilarning o‘zlari tanlashlariga ham imkon beriladi. Loyiha muallifi o‘quvchilarning individual ishlariga rahbarlik qilishning ikki yo‘lini sinovdan o‘tkazgan. Ulardan biri, minimum dasturni amalga oshirishga qaratilgan bo‘lsa, ikkinchisi qobiliyatli o‘quvchilarning bilimlarini boyitish, ularni murakkab va ijodiy topshiriqlar orqali rivojlantirishni nazarda tutadi.

S.Qoraev differensial ta’lim jarayonida o‘quvchilarning mustaqil ishlaridan foydalanishga alohida e’tibor qaratadi va o‘quvchilarni tabaqalashtirishda quyidagi xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiq ekanligini ko‘rsatadi:

– mustaqil faoliyatida o‘quvchilarning o‘ziga xos individual xususiyatlari;

– fanlarga munosabati, layoqatliligi;

– boy dunyoqarashi va intellektual xususiyatlari, ijodiyligi;

– mustaqil bilim olish ko‘nikmalarining shakllanganligi;

– o‘z faoliyatiga ijodiy yondasha bilishi, fan mashg’ulotlari bo‘yicha mustaqil shug’ullana olishi;

– ularda fanga oid bilim, ko‘nikma va malakalarning mavjudligi, ularning mustaqil ishni qiziqib bajarishi;

– faolligi, tashabbuskorligi, ijodkorligi kabilar. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarda hayoti davomida faoliyatida bu tamoyillarni qo‘llay olsagina jamiyatimizga kerakli mutaxassis tayyorlashga zamin bo‘la oladi.

Individuallashtirilgan ta’lim bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan ikkinchi bir pedagog olim R. Genening nazariyasi ko‘pchilik mutaxassislar tomonidan ma’qullanmoqda. Bunda bloklar, mavzular va kichik mavzularning maqsadi, vazifalari belgilab olinadi, so‘ngra testlar yordamida o‘quvchilarning dastlabki bilim va malakalari aniqlanadi. Masalan, tasviriy san’atdan individual o‘qitishga mo‘ljallangan dasturlarda tez-tez testlar o‘tkazib turilishi ham qayd qilinadi. Testlar yordamida olingan natijalarga ko‘ra o‘quvchilar o‘quv materialining 85 foizini o‘zlashtirsalar, navbatdagi o‘quv materiallarini

o‘rganishga o‘tishlari mumkin. Aks holda, o‘quvchi o‘zlashtirilmay qolgan materiallar bilan shug‘ullanishni davom ettiraveradi. O‘quvchilarga yuqori, o‘rta va quyi murakkablikdagi vazifalar berish nazarda tutiladi va o‘quvchilar bilan individual ishlashning quyidagi turlari tavsiya etiladi:

1. Mustaqil ish. Ta’limning bu shaklida o‘quvchi o‘quv materialini ham, uni o‘rganish yo‘llarini ham o‘zi tanlaydi. O‘qituvchi esa o‘quv materialini tavsiya etadi va o‘quvchilarga tegishli maslahatlarni beradi.

2. O‘quv materialini o‘zini-o‘zi boshqarish asosida o‘rganish. Bunda o‘quv materialini o‘rganish va uning maqsadi o‘qituvchi tomonidan belgilanadi. O‘quv materialini o‘rganish uslubi o‘quvchi tomonidan tanlanadi.

3. O‘rganish uchun mo‘ljallangan ta’lim mazmuni va uni o‘rganish vaqtini o‘quvchining o‘zi tanlaydi. Uni o‘zlashtirish yo‘llari o‘qituvchi tomonidan belgilanadi.

4. O‘quv materiali o‘quvchi tomonidan aniqlanadi. Bunda o‘quvchi o‘quv materiali, uni o‘zlashtirish tartibi, ketma-ketligi, o‘rganish tezligi, o‘z faoliyati natijalarini o‘zi baholashi, maqsadni tanlashi nazarda tutiladi.

Ma’lumki pedagogikada ta’limni individuallashtirish va differensiallashtirish tushunchalari birga ishlatiladi. Ba’zi manbalarda ushbu tushuncha umumiy holda ham qo‘llaniladi. Ushbu tushunchalarni pedagogik nuqtai nazardan farqlab ko‘rsatadi. Uningcha, ta’limni individuallashtirish bu – o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning qaysi xususiyati bo‘lishidan qat’iy nazar ta’limning barcha shakl va metodlarida ularning individual xususiyatlarini inobatga olishdir.

Ta’limni differensiallashtirish esa bu o‘quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olishning shunday shakliki, unda o‘quvchilar ma’lum bir xususiyatlariga ko‘ra guruhlarga ajratiladi va alohida tahsil oladi, odatda bunday ta’lim jarayoni bir nechta o‘quv rejasi va dasturi asosida amalga oshiriladi.

Demak, differensial ta’lim bu – talabalarning mashg’ulotlar jarayonida muhim bo‘lgan umumiy qonun-qoidalariga ko‘ra ajratilgan bir xil guruhlari bilan olib boriladigan ta’limning tashkiliy shakli talabalarning muhim didaktik xususiyatlariga ko‘ra tabaqalashtirilgan guruhlari uchun o‘quv materialini moslashtirishni nazarda tutuvchi pedagogik tizim bo‘limi.

Tasviriy san’atda differensial ta’lim tushunchasi ta’limga differensial yondashuv muammosini o‘rganishni taqozo etadi. Tasviriy san’at mashg’ulotlar jarayonida differensinl yondashuv bu - turli tipdagi guruhlar uchun uning kontingentining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish maqsadida turlicha ta’lim vaziyatini yaratish; ya’ni bilamizki tasviriy san’atda boshqa fanlardan farqli tomonini ham hisobga olib o‘quv, metodik, boshqaruv pedagogik va psixologik mashg’ulotlar tizimini tashkil etishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bulatov S. S. Ustoz va shogird odobi. – Toshkent: Nizomiy nom. TDPU, 2012. – Metodik tavsiyanoma. – 210 b.

2. Hasanov R. Tabaqalishtirilgan ta’lim. Muammo va yechim // Ma’rifat gazetasi. – 2003. – 15 noyabr. – S. 8–9.

3. Usmonov O. Komoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi. – Toshkent: Fan, 1997. – 256 b.

4. Yermolayeva-Tomina L. B. Psixologiya xudojestvennogo tvorchestva: Uchebnoye posobiye dlya vuzov. – M.: Akademicheskiy Proyekt, 2003. – 304 s.

Zabarjat ABRALOVA,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, katta o‘qituvchi

INNOVATSION TA’LIM SHAROITIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA BOSHQARUVCHILIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada innovatsion ta’lim sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarda boshqaruvchilik kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy ta’lim tizimida pedagog ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, strategik rejalashtirish va natijalarni baholash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi, boshqaruvchilik kompetensiyasining tarkibiy komponentlari aniqlashtirilib, uni rivojlantirish mexanizmlari yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. Innovatsion ta’lim, boshqaruvchilik kompetensiyasi, pedagogik menejment, kompetensiyaviy yondashuv, liderlik, raqamli ta’lim.

В статье проанализированы теоретические и практические аспекты формирования управленческих компетенций у будущих учителей в условиях инновационного образования. Также в современной системе образования педагог должен обладать навыками эффективной организации образовательного процесса, стратегического планирования и оценки результатов, определены структурные компоненты управленческой компетенции и освещены механизмы ее развития.

Ключевые слова. Инновационное образование, управленческая компетенция, педагогический менеджмент, компетентностный подход, лидерство, цифровое образование.

The article analyzes the theoretical and practical aspects of the formation of managerial competencies in future teachers in the context of innovative education. Also, in the modern education system, the teacher has the skills of effective organization of the educational process, strategic planning and evaluation of results, the structural components of managerial competence are clarified, and the mechanisms for its development are highlighted.

Key words. Innovative education, managerial competence, pedagogical management, competency-based approach, leadership, digital education.

Jahon ta’lim makonida kechayotgan global o‘zgarishlar, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi va ta’lim sifatini baholash tizimlarining takomillashuvi pedagog kadrlar tayyorlash mazmuniga yangi talablarni qo‘ymoqda. Zamonaviy o‘qituvchi faqat bilim yetkazuvchi emas, balki ta’lim jarayonini samarali tashkil etuvchi, uni boshqaruvchi va natijalarini tahlil qiluvchi mutaxassis sifatida shakllanishi zarur. Shu jihatdan bo‘lajak o‘qituvchilarda boshqaruvchilik kompetensiyalarini shakllantirish pedagogik ta’limning strategik yo‘nalishiga aylanmoqda.

Boshqaruvchilik kompetensiyasi pedagogik menejmentning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u ta’lim jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, nazorat qilish va tahlil qilish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu kompetensiyaning shakllanishi pedagogning kasbiy mustaqilligi, qaror qabul qilish qobiliyati va jamoada liderlik salohiyatini belgilaydi. Shuningdek, bu kompetensiya ta’lim muassasasida sifat menejmentini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Innovatsion ta’lim sharoitida boshqaruvchilik kompetensiyasi quyidagi mazmun-strukturaviy komponentlar orqali namoyon bo‘ladi: strategik, tashkiliy, kommunika-

tiv, refleksiv va raqamli. Strategik komponent ta’lim maqsadlarini belgilash, rivojlanish tendensiyalarini hisobga olish va uzoq muddatli rejalashtirishni qamrab oladi. Tashkiliy komponent ta’lim jarayonini samarali yo‘lga qo‘yish, o‘quv faoliyatini muvofiqlashtirish va resurslardan oqilona foydalanish bilan bog‘liq. Kommunikativ komponent jamoaviy ishlash, hamkorlik va ijtimoiy munosabatlarni samarali boshqarishni nazarda tutadi. Refleksiv komponent esa pedagogning o‘z faoliyatini tahlil qilishi va uni takomillashtirishga qaratilgan ichki mexanizm hisoblanadi. Raqamli komponent zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, ta’lim jarayonini raqamli muhitda boshqarish va ma’lumotlar asosida qaror qabul qilish qobiliyatini ifoda etadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy pedagogik tayyorgarlikda boshqaruvchilik ko‘nikmalari ko‘proq nazariy xarakterga ega bo‘lib, amaliyot bilan yetarlicha integratsiya qilinmaydi. Natijada bo‘lajak o‘qituvchilarda strategik fikrlash va tahliliy yondashuv ko‘nikmalari to‘liq shakllanmay qoladi. Innovatsion ta’lim texnologiyalari ushbu muammoni bartaraf etish imkonini beradi. Loyiha asosida o‘qitish talabalarni rejalashtirish va natija uchun javobgarlik hissiga o‘rgatadi. Keys-tahlil usuli real pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish orqali boshqaruv qarorlarini qabul qilish tajribasini shakllantiradi. Simulyatsion mashg‘ulotlar esa murakkab boshqaruv vaziyatlarini modellashtirish orqali amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlaydi. Raqamli ta’lim muhiti alohida ahamiyatga ega. Onlayn platformalar, ta’lim analitikasi va elektron monitoring tizimlari pedagogning boshqaruvchilik faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv (data-driven management) zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarga ega bo‘lishini taqozo etadi. ta’lim sohasida raqamli transformatsiya jarayonlari jadallik bilan kechmoqda. Masofaviy ta’lim platformalari, sun’iy intellekt elementlaridan foydalanish, ta’lim analitikasi hamda kompetensiyaviy baholash tizimlari keng joriy etilmoqda. OECD va UNESCO hisobotlarida ta’kidlanishicha, zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchining boshqaruvchilik va liderlik kompetensiyalari ta’lim sifati hamda institutsional barqarorlikning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Xususan, Finlyandiya, Singapur va Janubiy Koreya ta’lim tizimlarida pedagoglarni tayyorlash jarayonida strategik fikrlash, jamoaviy boshqaruv va data-driven qaror qabul qilish ko‘nikmalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Yevropa Ittifoqi davlatlarida esa “instructional leadership” va “educational management” tushunchalari pedagog tayyorgarligining majburiy komponenti sifatida joriy etilgan. Bu tajriba shuni ko‘rsatadiki, boshqaruvchilik kompetensiyalarini erta bosqichdan shakllantirish o‘qituvchining kasbiy mustaqilligini oshiradi va ta’lim natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Biroq milliy amaliyotda bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Pedagogik ta’lim dasturlarida boshqaruvchilik kompetensiyalari tizimli va maqsadli shakllantirilmayapti. Ko‘p hollarda boshqaruv masalalari nazariy fanlar doirasida cheklanib, amaliy treninglar va modellashtirilgan vaziyatlar yetarli darajada qo‘llanilmaydi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning strategik fikrlash va ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish ko‘nikmalari yetarli darajada rivojlanmagan. Raqamli kompetensiyalar va boshqaruv funksiyalari o‘rtasidagi integratsiya ham sust kechmoqda. Shu sababli xalqaro ilg‘or tajribani milliy pedagogik ta’lim tizimiga adaptatsiya qilish, boshqaruvchilik kompetensiyalarini shakllantirishni kompetensiyaviy va innovatsion yondashuv asosida tizimlashtirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Ilmiy tahlil asosida boshqaruvchilik kompetensiyalarini shakllantirish jarayonini tizimli tashkil etish zarurligi asoslandi. Bu jarayon diagnostika, rivojlantirish va baho-

lash bosqichlarining o‘zaro uyg‘unligida amalga oshirilishi lozim. Diagnostika bosqichi talabalar boshqaruv salohiyatini aniqlashga xizmat qiladi. Rivojlantirish bosqichida innovatsion metodlar orqali kompetensiyalar shakllantiriladi. Baholash bosqichida esa natijalar tahlil qilinib, kamchiliklar bartaraf etiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, innovatsion ta’lim muhitida boshqaruvchilik kompetensiyalarini maqsadli rivojlantirish pedagogning kasbiy samaradorligini oshiradi, ta’lim sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va ta’lim muassasasida barqaror boshqaruv muhitini shakllantiradi. Shu bilan birga, mazkur kompetensiyalar o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy o‘sishini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Bugungi kunda ta’lim sohasida raqamli transformatsiya jarayonlari jadallik bilan kechmoqda. Masofaviy ta’lim platformalari, sun’iy intellekt elementlaridan foydalanish, ta’lim analitikasi hamda kompetensiyaviy baholash tizimlari keng joriy etilmoqda. Ta’lim muassasalarida sifat menejmenti, natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv va data-driven qaror qabul qilish mexanizmlari ustuvor yo‘nalishga aylanmoqda. Biroq amaliyotda bir qator muammolar saqlanib qolmoqda.

Avvalo, pedagogik ta’lim dasturlarida boshqaruvchilik kompetensiyalari tizimli va maqsadli shakllantirilmayapti. Ko‘p hollarda boshqaruv masalalari nazariy fanlar doirasida cheklanib, amaliy treninglar va modellashtirilgan vaziyatlar yetarli darajada qo‘llanilmaydi. Ikkinchidan, bo‘lajak o‘qituvchilarning strategik fikrlash va ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish ko‘nikmalari past darajada shakllanmoqda. Uchinchidan, raqamli kompetensiyalar va boshqaruv funksiyalari o‘rtasida integratsiya yetarlicha ta’minlanmagan.

Shuningdek, innovatsion ta’lim sharoitida pedagogdan liderlik, jamoaviy boshqaruv va kommunikativ madaniyat talab etilsa-da, ushbu kompetensiyalar ko‘pincha shaxsiy sifat sifatida qaralib, kasbiy tayyorgarlik jarayonida maqsadli ravishda rivojlantirilmaydi. Natijada ta’lim jarayonini samarali tashkil etish va uni strategik boshqarishda qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Mazkur kamchiliklar bo‘lajak o‘qituvchilarda boshqaruvchilik kompetensiyalarini innovatsion muhit talablari asosida shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi. Bu esa ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va uning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida ta’kidlash mumkinki, innovatsion ta’lim sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarda boshqaruvchilik kompetensiyalarini shakllantirish zamonaviy pedagogik ta’limning muhim shartidir. Kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion texnologiyalar va amaliy yo‘naltirilgan ta’lim modellari uyg‘unligi ushbu jarayon samaradorligini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). Ta’lim tizimini yanada rivojlantirishga oid qaror va farmonlar. Toshkent.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. (2022). Pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish konsepsiyasi. Toshkent.

3. Abdullayeva, M. (2021). Pedagogik menejment asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya.

4. OECD. (2019). Future of Education and Skills 2030. Paris: OECD Publishing.

5. UNESCO. (2021). Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. Paris: UNESCO.

6. Hallinger, P. (2011). Leadership for learning. Journal of Educational Administration, 49(2), 125–142.

Muxlisa BOXODIROVA,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti,
tayanch doktorant

MATN USTIDA ISHLASH ORQALI BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishning faoliyatli xususiyatlari, o‘qish kompetensiyasini, og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish bo‘yicha metodist, pedagog va psixolog olimlarning qarashlari keltirilib, ularning fikrlari tahlil qilingan.

Tayanch so‘zlar. Maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, matn ustida ishlash, o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalari, ilmiy tushunchalar, nazariy asoslanishlar qarashlar, subyektiv munosabat.

В данной статье представлены взгляды методологов, педагогов и психологов на развитие навыков чтения, устной и письменной речи, а также особенности деятельности будущих учителей начальной школы по развитию речевых компетенций учащихся посредством работы с текстом, и проанализированы их мнения.

Ключевые слова. будущие учителя начальной школы, работа над текстом, речевые компетенции учащихся, научные концепции, теоретические основы, взгляды, субъективное отношение.

This article presents the views of methodologists, educators and psychologists on the development of reading, oral and written speech skills, as well as the specifics of the activities of future primary school teachers in developing students' speech competencies through working with text, and analyzes their opinions.

Key words. Future primary school teachers, work on text, students’ speech competencies, scientific concepts, theoretical foundations, views, subjective attitude.

Oliy ta’lim tizimida fanlararo integratsiya o‘qitish tizimini modellashtirish, zamonaviy tendensiyalar asosida uni modernizatsiya qilish va ilg‘or texnologiyalar, innovatsion metodlar asosida darslarni tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda talaba yoshlarning matn ustida ishlash, kontekstli yondashuvga asoslangan holda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda ta’lim mazmunini tubdan yangilash ko‘nikmasining amaliq tadbig‘i samarali natija beradi. Shuningdek, boshlang‘ich ta’lim tizimida o‘qitishning ustuvor va didaktik tamoyillariga tayanib pedagogik imkoniyatlarga tayangan holda ta’limiy mexanizmlarni uzluksiz takomillashtirish ulardagi zamonaviy-ilmiy, kommunikativ-pragmatik yondashuvlarni o‘stirishga xizmat qiladi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari tahliliy o‘rganilgan**.** Bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish, matnni o‘qib tushunish va undan mantiqiy subyektiv xulosa chiqarishga yo‘naltirish o‘qituvchilar oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Shu bois darslarni o‘quv adabiyotlari, elektron resurslar, vizual materiallar, innovatsion metodlar va zamonayiy, interfaol texnologiyalar asosida tashkil qilish asosiy o‘rin egallaydi. Bunda ularning analitik-sintetik faoliyatini rivojlantirish asosli funksiyadir. Bu jihat xalqaro miqyosida ham izchil davomiy jarayon-

lardandir. “Xalqaro miqyosda 2001-yildan boshlab izchil ravishda har besh yilda bir marta o‘tkazilib kelinayotgan PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study - Xalqaro o‘qish savodxonligini o‘rganish taraqqiyoti) dasturi esa ellikka yaqin davlatlarda o‘quvchilarning kitobxonlik tajribasi hamda axborotlardan maqsadli foydalanish malakalariga ega bo‘lishlari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi”[1]. Bu kabi dasturlarning amalga oshishi hamda o‘quvchilarda kitobxonlikka bo‘lgan qiziqishini orttirish va uning samaradorligini, o‘sish dinamikasini tubdan oshirishga yordam beradi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda o‘qish kompetensiyasining muntazam takomili ularning fikrlash, so‘zlash, munosabat bildirish, mushohada qilish qobiliyatlariga ta’sir ko‘rsatadi. “O‘qish jarayonining boshlanishi, o‘rtasi va oxirida o‘quvchi til ko‘nikmalarining, kognitiv va metakognitiv strategiyalar hamda mazmun shakllantirishda birlamchi bilim va ko‘nikmalar majmuasidan foydalanadi”[2].

O‘qish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari egallangan lisoniy sath birliklaridan, o‘quv-bilish, kognitiv ko‘nikmalariga tayanadi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun asosiy vositalardan biri kitob hisoblanib, uni o‘qishga qiziqtirish va tahliliy faoliyatga o‘rgatish zarur. M.S.Ivanova esa o‘z maqolasida mashhur pedagog V.A.Suxomlinskiyning kitob o‘qishning ahamiyati haqidagi fikrini keltirib o‘tgan: “Kitob bolalarning ma’naviy hayotida katta rol o‘ynaydi, faqat qachonki, bola yaxshi o‘qiy olsa. “Yaxshi o‘qish” deganda nima tushuniladi? Bu avvalo, eng oddiy ko‘nikma – o‘qish texnikasini o‘zlashtira olishdir”[3]. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o‘qish ko‘nikmasi muayyan davr mobaynida o‘qish texnikasini egallashga yordam beradi. “Endilikda o‘quvchilardan ravon o‘qish va asosiy tushunish ko‘nikmasi orqali tushungan yoki idrok etganlarini yangi vaziyatlar yoki loyihalarga nisbatan qo‘llay olish qobiliyatini namoyon etishga o‘tishni talab etilmoqda”[4]. Xususan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni o‘qish mahsuli bilan o‘lchanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘qish mahsuli doirasida muayyan tushunchalarning ma’nolarini, qo‘llanilish jihatlarini, o‘zaro birikish aspektlarini o‘rganadilar, shu jarayonlar orqali o‘quvchilarda idrok qilish, tafakkur qilish davomiyligi ta’minlanib boradi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi malakalar quyidagilar:

– boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishiga xizmat qiluvchi ma’lumotlarning, axborotlarning talaba tomonidan egallanishi;

– talabaning o‘quvchi uchun tanlagan o ‘qish materiali uning yoshiga mos bo‘lishi;

– talabaning o ‘quvchi matnni o ‘qishdagi talablarga rio qilishini nazorat qilishi; matn mazmunini o ‘quvchilar bilan birgalikda interaktiv tahlil qilishi;

– boshlang‘ich sinf o‘quvchisini mustaqil matn yaratishga o‘rgatishi.

---

[1] Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. –T.:-Noshir, 2009. -352b

[2] Беленькая Л.И. Ребенок и книга. О читателе восьми - девяти лет / Л.И. Беленькая. - 2-е изд. - М. : ВЦХТ, 2005. - 144 с.


[3] Иванова М.С. Формирование у учащихся эмоциально-ценностного отношенийа к творчеству А.С.Пушкина // Сборник “Материалў Международной научной конференции “А.С.Пушкин и мировайа култура””. –М.: МГУ им. М.В.Ломоносова,1999. –S.260

[4] O‘zbek tilining izohli lug‘ati // 5 jildli. To‘rtinchi jild. A.Madvaliev tahriri ostida. Tahrir hay’ati: E.Begmatov va boshq. – T.: “O‘ME” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 606 b.

“O‘qish savodxonligi tushunish va shaxs tomonidan qadrlanadigan va yoki jamiyat tomonidan talab etiladigan barcha yozma til shakllaridan foydalana olish qobiliyatidir. O‘quvchi turli shakldagi matnlardan mazmun hosil qiladi. Ular o‘rganish, maktab va kundalik hayotda o‘zlari kabi boshqa o‘quvchilar jamoasiga qo‘shilish va vaqtini samarali o‘tkazish uchun o‘qiydilar”[5].

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi omillar, baholash mezonlari, bosqichli ko‘rsatkichlar dinamikasiga doimo strategik maqsadlar qo‘llash asosli. “O‘qish kompetensiyasining to‘rtta asosiy vazifasi bo‘lib, ular quyidagilar: matnni o‘qish va tushunishning umumiy madaniy ko‘nikmalarini egallash; nutq, yozma va kommunikativ madaniyatni egallash; badiiy adabiyotda aks ettirilgan voqelikka estetik munosabatni tarbiyalash; kichik o‘quvchining axloqiy ongini va estetik didini shakllantirish, asarlarning ma’naviy mohiyatini tushunish”[6].

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish omillari



“O‘qish texnikasini egallashda takror o‘qish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayrim o‘quvchilar u yoki bu matnni bir necha marta o‘qishga harakat qiladi. O‘qish faoliyatiga qiziqish, uning mazmuniga ham qiziqishni vujudga keltiradi, bilim olish ehtiyojini tug‘diradi va o‘qish motivlarini tarkib toptiradi”[7].

“Metodist-olimlarning fikricha, o‘qish matndan axborotni aniqlash, faol qayta ishlash va anglashdan iborat bo‘lgan nutqiy faoliyat ko‘rinishidir. To‘g‘ri, matnni o‘qish unda bayon etilgan axborotni aniqlash hisoblanadi. Biroq bu uning o‘ziga xos tavsifi emas. Chunki umuman nutqni eshitish, hikoya qilingan yoki kimdir ovoz chiqarib o‘qiganini tushunish ham axborotni aniqlash, faol qayta ishlash, anglashdir. Demak, o‘qishning muhim xususiyati axborotni olishda emas, balki axborotni olish qanday asosda kechganligidadir. O‘qish jarayoni matn bilan chambarchas bog‘liq. Hatto eng yaxshi o‘qiydigan o‘quvchi ham qiyin so‘z yoki murakkab matnga duch kelsa, qiyinchilik bilan sekin

[5] Elley W.B (1992). How in the world to students read? IEA study of reading literacy. The hague, Netherland: International Assocation for the Evalution o Educational Achievement

[6] Примерные программы по учебным предметам начальная школа. В 2 ч. Ч. 1 / Ред. Л.П. Савельева. - 5-е изд. - М. : Просвещение, 2011. - 401 с.

[7] Ғозиев Э. Психология / Ёш даврлари психологияси. – Т.: Ўқитувчи, 1994. – 224 б.

o‘qiy boshlaydi”[8].

“Matnni o‘qish va tushunish jarayonida, sinfdagi o‘quvchilar turli xil o‘qish tezligiga ega ekanligini yodda tutish kerak. Shuning uchun, bir xil hajmdagi matndan parchani so‘ramaslik kerak va shu vaqt oralig‘iga e’tibor qaratish yaxshiroqdir. Yangi hikoya boshlanganidan so‘ng o‘qituvchi o‘qiydi va bolalar ongli ravishda tushunishadi, o‘qituvchi barchaga bir vaqtning o‘zida o‘qishni boshlashni va uni bir daqiqaga davom ettirishni taklif qiladi. Bir daqiqadan so‘ng, o‘quvchilarning har biri u qaysi so‘zni o‘qiganini payqadi. Keyin o‘sha matnning ikkinchi parchasi o‘qiladi. Bunday holda, o‘quvchi yana matnni va uni birinchi o‘qishning natijalari bilan taqqoslaydi. Tabiiyki, ikkinchi marta u bir nechta so‘zlarni ko‘proq o‘qidi. O‘qish sur’atining o‘sishi o‘quvchilarning ijobiy his-tuyg‘ularini uyg‘otadi, ularda yana o‘qish uchun motiv oshib boradi. Biroq, bir xil parchani uch martadan ko‘proq o‘qimaslik kerak. Ovoz chiqarib o‘qish tezligini bir vaqtning o‘zida tez rivojlantirishga o‘rganish kerak”[9]. Matnni o‘qish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish tezligi takror o‘qish davomida oshadi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish natijasida boshlang‘ich sinf o‘quvchiilarining to‘g‘ri so‘zlash adabiy til kompetensiyalariga, lingvistik malakalarga asoslanib mazmunli muloqat qilish, ko‘proq kitob mutolaa qilish ko‘nikmalari yanada rivojlanib borishiga zamin yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009. -352b

2. Беленькая Л.И. Ребенок и книга. О читателе восьми - девяти лет / Л.И. Беленькая. - 2-е изд. - М. : ВЦХТ, 2005. - 144 с.

3. Иванова М.С. Формирование у учащихся эмоциально-ценностного отношенийа к творчеству А.С.Пушкина // Сборник “Материалў Международной научной конференции “А.С.Пушкин и мировайа култура” –М.: МГУ им. М.В.Ломоносова,1999. –S.260

4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati // 5 jildli. To‘rtinchi jild. A.Madvaliev tahriri ostida. Tahrir hay’ati: E.Begmatov va boshq. – T.: “O‘ME” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 606 b.

5. Elley W.B (1992). How in the world to students read? IEA study of reading literacy. The hague, Netherland: International Assocation for the Evalution o Educational Achievement

6. Примерные программы по учебным предметам начальная школа. В 2 ч. Ч. 1 / Ред. Л.П. Савельева. - 5-е изд. - М. : Просвещение, 2011. - 401 с.

7. Sariyev Sh.U. Boshlang’ich sinf o’qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o’stirish nazariyasi va amaliyoti(1-,2-sinf materiallari misolida). Ped.fan.fals…diss. Toshkent, 2020. -44b.

8. Nisanbayeva A.Q. O‘zbek tili darslarida matn vositasida o‘quvchilar nutqini o‘stirishning metodik asoslari. (Ta’lim qozoq tilida olib boriladigan maktablar misolida): ped. fan. nomz. diss. –T.: TDPU, 2008. –162 b.

[8] Sariyev Sh.U. Boshlang’ich sinf o’qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o’stirish nazariyasi va amaliyoti(1-,2-sinf materiallari misolida). Ped.fan.fals…diss. Toshkent, 2020. -44b.

[9] Nisanbayeva A.Q. O‘zbek tili darslarida matn vositasida o‘quvchilar nutqini o‘stirishning metodik asoslari. (Ta’lim qozoq tilida olib boriladigan maktablar misolida): ped. fan. nomz. diss. –T.: TDPU, 2008. –162 b.

Shokir OCHILOV,
Navoiy davlat universiteti, "Texnologik ta'lim" kafedrasi mudir,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

TEXNOLOGIYA FANIDA O'QUVCHILARGA SUV TEJOVCHI QURILMALARNI FANLARARO O'QITISH METODIKASI

Annotatsiya

Maqolada o'quvchilarga suv omborlaridagi suv zahiralarini mineralligini boyitish, tuz va turli xil kimyoviy ishqorlarni tindirish usullari ishlab chiqilgan. Shuningdek, ekinlarni sug'orish usullari egatlab, yo'laklab bostirib sug'orish usullari hamda zamonaviy texnologiyalar asosida tomchilatib va yomg'irlatib sug'orishning effektiv tamonlari tushuntirilgan. Muallif suv tejovchi qurilmalarni ongli ravishda ishlatish, ular bo'yicha tajribalar o'tkaza olish va fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar bergan.

Tayanch so'zlar. Suv omborlari, mineralligi, tuz, kimyoviy ishqorlar, sug'orish usullari, z amonaviy texnologiyalar, evtrofikatsiyasi, tomchilatib so'g'orish, yomg'irlatib so'g'orish, sug'or ish effekti, kompetensiya, ekologik muammo, global isish, bug'lanish.

В статье разработаны методы обогащения минерализации запасов воды в водохранилищах, отстаивания солей и различных химических щелочей. Также были объяснены методы полива сельскохозяйственных культур, методы бороздкового и бороздкового орошения, а также эффективные аспекты капельного и дождевального орошения на основе современных технологий. Автор дал рекомендации по осознанному использованию водосберегающих устройств, проведению экспериментов по ним и развитию научных компетенций.

Ключевые слова. Водоемы, минеральность, соль, химические щелочи, методы орошения, современные технологии, эвтрофикация, капельное орошение, дождевое орошение, ирригационный эффект, компетентность, экологическая проблема, глобальное потепление, паровой контакт.

The article provides readers with methods for enriching the mineral content of water reserves in reservoirs and clarifying salts and various chemical alkalis. Also, the effective aspects of drip and sprinkler irrigation based on modern technologies, as well as furrow and strip irrigation methods for irrigating crops, are explained. The author gave recommendations on the conscious use of water-saving devices, the ability to conduct experiments on them, and the development of scientific competencies.

Key words. Reservoirs, minerality, salt, chemical alkalis, irrigation methods, modern technologies, eutrophication, drip irrigation, rain irrigation, irrigation effect, competence, environmental problem, global warming, steam contact.

Bugungi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan fan, texnika, taraqqiyot yutuqlari va rivoji insoniyat uchun turmush sharoitini yaratgan bo'lsa-da, ikkinchi tamondan ekologik muammolarga duch kelmoqda. Ekologik muammolarga iqlimning o'zgarishi, turli xil kasalliklarning kelib chiqishi bilan birga qurg'oqchilik (cho'llanish) ham eng havfli ekologik muammolardan biri hisoblanadi. O'rta Osiyo mamlakatlarida haroratning ortishi, yog'ingarchiliklarning kam bo'lishi o'z-o'zidan suv muammosini keltirib chiqarmoqda.

Hozirgi kunda yer yuzida global havo haroratining isishi tuproqdan suvning ko'p bug'lanishiga olib kelinayotgan bir paytda qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orishda suvni


tejovchi usullardan foydalanish davr talabidir. So‘nggi yillarda mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi yerlarining samaradorligini, jumladan suvni tejaydigan texnologiyalarni qo‘llashga alohida e’tibor qaratilmoqda. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi “Qishloq xo’jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi PQ-144-son qarorining 3-bandida:

suvni tejaydigan tizimlar, birinchi navbatda, yirik suv uzatish va suv chiqarish tarmoqlarining bosh qismida joriy etilishi lozimligini inobatga olgan holda “bir kanal – bir tizim” tamoyili asosida joylashtirilishiga;

ekin maydonlarining mavjud infratuzilmasidan kelib chiqqan holda doimiy ravishda uzluksiz elektr energiyasi va suv bilan ta’minlash imkoni mavjudligiga e’tibor qaratilsin.

Mamlakatimizda zamonaviy texnologiyalar asosida daraxt va o‘simliklarga suvni tejash maqsadida tomchilatib va yomg‘irlatib sug‘orish ishlari olib borilmoqda. Shu maqsadda, umumta’lim maktab o‘quvchilariga suvdan to‘g‘ri va maqsadli foydalanish texnologiyalarini o‘qitish zaruriyati paydo bo‘lmoqda. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari tomonidan suv xo‘jaligi tashkilotlarining sug‘orish quduqlari va vertikal drenaj quduqlaridan qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orish uchun foydalanishga suvni tejaydigan texnologiyalarni qo‘llash sharti bilan ruxsat etilishi ma’lumot uchun qabul qilinishi kabi vazifalar belgilab berilgan.

Ekinlarni sug‘orishda suv tejovchi qurilmalardan foydalanishni fanlararo aloqadorlikda STEAM ta’lim texnologiyasi asosida o‘qitishning tanlash modeli tuzib olindi (1-rasmga qarang).



1-расм. *Ekinlarni sug‘orishda suv tejovchi qurilmalarni tanlash modeli*

VII-sinf Texnologiya fanida “Qishloq xo‘jaligi texnologiyasi” yo‘nalishida “O‘g‘it solishda ishlatiladigan mashinalar, Ekinlarni sug‘orishda ishlatiladigan moslama va mashinalar”, “Ekinlarni sug‘orish usullarini o‘rganish” mavzularini o‘qitishda o‘quvchilarga yerlarni tomchilatib, yomg‘irlatib va an’anaviy sug‘orish usullarini tushuntirish zaruriyati paydo bo‘lmoqda. An’anaviy usullarga ya’ni egatlab, yo‘laklab bostirib sug‘orish - qator oralariga ariqlar hosil qilgan holda sug‘orishlar kiradi. Bunday sug‘orishlar suvni juda

katta miqdorga isrof qilishga olib kelmoqda. Zamonaviy texnologiyalar asosida tomchilatib va yomg‘irlatib sug‘orish effekti yuqori samara bermoqda. Bunda minerallarga boy bo‘lgan suvni kechqurun tomchilatib sug‘orilishi kunduz kunlari keraklicha issiqlikni olishiga sabab bo‘ladi. Bu esa yer usti sug‘orishga qaraganda kam suv tejashi, vaqtdan unumli foydalanishi mevali daraxtlar va o‘simliklarning hosilini oshishiga sababchi bo‘ladigan omillardan biri hisoblanadi.

Aholi sonining ko‘payishi va iqlim o‘zgarishining og‘ir oqibatlari qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga bosimni kuchaytirib, barqaror amaliyotlarni aniqlash va targ‘ib qilish zaruratini keltirib chiqardi. Quvonarlisi, sug‘orish, o‘g‘itlar, serhosil urug‘lik navlari va boshqa texnikalardan foydalanish orqali qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini izchil yaxshilash mumkin. Ammo shuni ta’kidlash kerakki, ushbu manbalardan ortiqcha foydalanish salbiy ekologik va ijtimoiy ta’sirlarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, azotli o‘g‘itlardan ortiqcha foydalanish yer osti suvlarining ifloslanishi, chuchuk suvning evtrofikatsiyasi va boshqalar kabi istalmagan ekologik oqibatlarga olib kelishi mumkin. Aholi sonining oshib borishi chuchuk suv resurslariga ehtiyoj ko‘payotgani bildirsa, suvning tanqisligi esa global muammoga aylanib bormoqda. Iqlimning o‘zgarishi biosferaning o‘zgarishiga olib keladi. Aqlli inson o‘z taraqqiyotida biosferaning o‘zgarishi inson tomonidan boshqariladigan yangi sifat holati noosferaga o‘tishi muqarrarligini ko‘rsatadi.

O‘simliklarni tomchilatib yoki yomg‘irlatib sug‘orishning asosiy maqsadlari ildiz zonasi yaqinida suv tanqisligini kamaytirish, bug‘lanishni kamaytirish va suvdan foydalanishni kamaytirishdir. Tomchilatib yoki yomg‘irlatib sug‘orishni qo‘llash usullari rivojlangan mamlakatlarda tomchilatib sug‘orish uskunalari bilan sug‘orilgan ekinlarning afzallik tamonlari o‘rganildi. Tomchilatib yoki yomg‘irlatib sug‘orish texnologiyasi ekinlarning o‘sishi, fiziologiyasi, sifati, hosildorligi va suvdan foydalanish samaradorligiga ta’siri umumlashtirildi. O‘quvchilarga tomchilatib sug‘orish texnologiyasi ekinlarning ildiz rivojlanishiga sababchi bo‘ladigan organik o‘g‘itlar olish haqida fanlararo o‘qitishda STEAM ta’lim texnologiyasi asosida topshiriqlar majmuini dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda interaktivlik mezonlari orqali takomillashtirildi.

Ekinlarni sug‘orishda suv tejovchi qurilmalardan foydalanish texnologiyalariga quyidagi mexanizmlarini ko‘rib chiqamiz:

Ekinlarni sug‘orishning bosimli suvni saqlash usullarini o‘quvchilarga STEAM ta’lim texnologiya asosida tushuntirish maqsadga muvofiqdir. Qishloq xo‘jalik ekinlarini sug‘orishni ikki ko‘rinishda amalga oshirish mavjud. Bularning birinchisi suvning o‘z og‘irligi tufayli suvni saqlovchi suv ombor (Hovuz) lari yuzasi bo‘ylab og‘irligi tufayli harakatlanishi yordamida amalga oshiriladigan o‘zi o‘qar (gravitatsion) sug‘orish bo‘lsa, ikkinchisi suvni zamonaviy qurilmalar yordamida yuqori bosimda yetkazib berishga asoslangan bosimli sug‘orishdir. Ekinlarni bosimli sug‘orish usullari suvni quvur va shlanglar yordamida bevosita ekinlarning joylashgan nuqtalariga yetkazib berishga mo‘ljallangan muhandislik usullari sanaladi. Bosimli sug‘orish usullari safiga tomchilatib, yomg‘irlatib va gidroponika usullarida sug‘orish kiradi.

O‘quvchilarga ekinlarni sug‘orishda suv tejovchi qurilmalarnini tushuntirishdan oldin suv zahirasi (mineralligi) ni tushuntirish maqsadga muvofiqdir. Geografiya fanida tuproqlarning erroziyasi, garmsel va shamollarning yo‘nalishlari, kimyo fanida kimyoviy o‘g‘itlar tarkibidagi turli moddalarning tuproqlar qatlamini ifloslashi va uning oldini olish chora tadbirlari, biologiya fanida o‘simliklarning rivojlanishida xlorofil donachalarning o‘rni, fizika fanida bosim (gidravlik, gidrodinamik, gidrostatik bosimlar), harorat, kapillyar naylar, suyuqlikning sirt taranglik koffisiyenti, yorug‘lik tabiati mavzulari o‘rganiladi. Ushbu

fanlarda o‘zlashtirgan bilimlarga asoslangan holda suv omborlarida suvning mineralligini oshirishda ko‘proq organik o‘g‘itlardan foydalanishni tavsiya qilish lozim. Suv omborida mavjud og‘ir suv, tuz va har xil kimyoviy ishqorlarni Quyoshdan kelayotgan ultrabinafsha nurdan tortib infraqizil nurlar tuz va har xil kimyoviy ishqorlarni parchalaydi va ushbu moddalarning cho‘kish ehtimoli oshadi. Natijada evtrofikatsiya - suv havzalarining biologik mahsuldorligini oshirish bilan birga suv havzalarining ozuqa moddalari bilan to‘yinganligi oshadi. Bu organik o‘g‘itlarga boyitilgan yengil suvni ekinlarga kechqurun suv tejovchi mexanizmlar yordamida sug‘orish maqsadga muvofiq. O‘quvchilarga o‘simliklarni rivojlanishiga asosan quyidagi moddalar muhimligi tushuntiriladi. Bularga harorat, yorug‘lik va suv. O‘simliklarni kechqurun sug‘orish birinchidan issiqlikdan suv bug‘lanishi kamayadi, tuproqning namlanishi oshadi. Ikkinchidan o‘simlik kechqurun sug‘orish amali bajarilsa, kunduz kuni keraklicha harorat va yorug‘likni o‘ziga oladi.


O‘quvchilarga egatlab va yo‘laklab bostirib sug‘orishdan tomchilatib sug‘orishning afzalligini tushuntirish maqsadga muvofiqdir.

– Egatlab sug‘orish yer yuzasidan sug‘orishning eng takomillashgan usuli bo‘lib, nishobligi 0,001 dan 0,05 gacha bo‘lgan yerlarda yetishtirilayotgan qator oralari chopiq qilinadigan ekinlarni asosiy sug‘orish usuli hisoblanadi. Bu usul bog‘ va uzumzorlar, ayrim hollarda yoppasiga ekilgan ekinlarni sug‘orishda qo‘llaniladi.

– Yo‘laklab bostirib sug‘orishda suv dalaga yo‘laklar orqali yoppasiga bostirib beriladi. Yo‘lak bo‘ylab suv qatlami tuproq sathidan 2–3 sm qalinlikda harakat qilishi jarayonida tuproqqa singib, uni namiqtiradi. Bunday sug‘orish ko‘ndalang nishobligi 0,015 dan kichik bo‘lgan yerlarda nam to‘plash maqsadida hamda ekishdan oldin sug‘orishlarda, yoppasiga ekilgan boshoqli, dukkakli don va yem-xashak ekinlarini, ayrim hollarda bog‘ va tokzorlarni sug‘orishda qo‘llaniladi.

Egatlab va yo‘laklab bostirib sug‘orishda suv nisbatan ko‘p ishlatiladi, tuproq erroziyasi kuzatiladi. Oqova suvlar bilan turli xil begona o‘tlarning urug‘larni kelishi natijasida o‘simliklarga salbiy ta’sir ko‘rsatishi tushuntiriladi. Tomchilatib sug‘orilganda suv tejaladi. Suv dalaning faqat ekinlar ildizi joylashgan qismiga beriladi, sug‘orishga o‘simlikning talabiga mos miqdordagi suv beriladi, tuproqdan suv kam bug‘lanadi, suv tuproqqa singib ketmaydi, oqavaga suv chiqmaydi. Tomchilatib sug‘orilganda boshqa sug‘orish usullariga nisbatan ekin va tuproq turiga qarab 20 foizdan 60 foizgacha suv tejaladi. Ushbu jarayonlarni quyidagi rasmda ko‘rsatilgan (2-rasmga qarang).

Tomchilatib sug‘orilganda o‘g‘itlar kam ishlatiladi, samarasi esa ortadi. O‘g‘itlar o‘simlikning ildiziga yetkazib berilganligi bois uning hosilni shakllantirishdagi ishtiroki keskin ortadi, ya’ni berilgan o‘g‘itning samaradorligi ortadi. Ekinning suv bilan berilgan o‘g‘itni o‘zlashtirishi 90 foizdan yuqori bo‘ladi, o‘g‘it tuproqqa solinganda esa ekinga o‘g‘itning 30-40 foizigina yetib boradi. Yil davomida beriladigan o‘g‘itlar miqdori 30 foizga kam bo‘ladi. O‘suv davrida o‘g‘it berish uchun texnika umuman ishlatilmaydi. Sug‘orish suvi bosim ostida quvurlar orqali har bir o‘simlikka yoki o‘simliklar qatoriga yetkazilib, vegetatsiya davrida o‘simlikning suvga bo‘lgan talabini ta’minlab turadi. Bu usulda suv bilan birgalikda mineral o‘g‘itlar eritilgan holda tuproqqa beriladi. Tomchilatib sug‘orish tizimi o‘simlikning suvga bo‘lgan ehtiyojiga teng miqdordagi suvni zarur muddatda uning ildiz qatlamiga yetkazib berishga mo‘ljallangan bo‘lib, sug‘orishda ya’ni mineral o‘g‘itlarni sug‘orish suvi bilan erigan holda qo‘llash, azotli o‘g‘itlarni 44-57 foizga tejash imkoniyatini berilishi aniqlangan. Tomchi holatida o‘simlik ildiz qatlamiga berilgan suv kapillyarlar bo‘yicha tuproq qatlamiga singib boradi. Bunda gravitatsiya kuchining ta’siri juda kam bo‘ladi. Namlanish ko‘proq kapillyar kuchlar ta’sirida amalga oshadi.



2-rasm. *Tomchilatib sug‘orishining egatlab va yo‘laklab bostirib sug‘orishdan farqi*

Tomchilatib sug‘orishning afzalliklari quyidagilardan iborat:

Qo‘l mehnati kamayadi;

Yonilg‘i moylash resurslari sarfi kamayadi;

Tuproq eroziyasi bartaraf qilinadi;

Yer osti suvlari sathi ko‘tarilmaydi;

Sug‘orilayotgan maydonning meliorativ holati yaxshilanadi.

Bu mavzularni fanlararo bog‘lanish orqali o‘qitishda ekinlarning ildiz qatlamiga oz miqdorda mos o‘g‘it yetkazib berish orqali tomchilatib sug‘orish suvi kam bo‘lgan sharoitda ekinlar tomonidan o‘g‘itning so‘rilishini va undan foydalanishini oshiradi, shu bilan tuproq sho‘rlanishini kamaytiradi. Qurg‘oqchil va yarim qurg‘oqchil hududlarda suv ta’sirini yumshatish uchun suvdan foydalanish samaradorligi yuqori bo‘lgan tomchilatib sug‘orish keng qo‘llaniladi. Biroq, ildiz zonasida tuzning to‘planishi hali ham tuproqning asosiy materiallaridan meros bo‘lib qolgani o‘rganiladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarda tomchilatib sug‘orish texnologiyasi ekinlarning o‘sishini yaxshilash, suvdan foydalanish samaradorligini oshirish va suv tanqisligini kamaytirish bilan birga o‘g‘itlar sho‘rlanishi va tuproq sho‘rlanishini kamaytirish bo‘yicha bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalari rivojlanadi.

Fodalanilgan adabiyotlar

1. Eshniyozov O. E., Bobomirzayev P. X., Bobokulov Z. R., Ochilov Sh. B. Qishloq xo’jaligi ishlarini tashkil etish texnologiyasi // O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021. – 250 b.

2. Ochilov Sh. B., Turdiqulov E. O., Musayeva M. E., Norboyev A. G. O‘quvchilarga ijtimoiy ekologiyadan ta’lim berish texnologiyalari // Metodik qo‘llanma. – Toshkent: O‘zPFITI, 2014. – 160 b.

3. Ochilov Sh. B. Bug‘lanish va kondensatsiya mavzusini o‘qitishda ekologik tushunchalarni shakllantirish // J. Fan va jamiyat. – Navoiy, 2017. – №1. – B. 68.

4. Ochilov Sh. B., Xudoyberdiyev E. N., Xudoyberdiyev E. M. Kasbiy ta’limda fanlararo bog‘lanish va ekologik ta’lim // Oliy va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limida aniq va tabiiy fanlarning o‘zaro aloqadorlik va uzviyligi masalalari. – Qoraqalpog‘iston, 2014. – B. 84–85.

Saodat MAXKAMOVA,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, dotsent

BO‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHILARINI QALAM TASVIR FANIDA GRAFIK RASSOMLAR ISHLARINI BADIIY TAHLIL QILISHGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining qalamtasvir fanida grafik rassomlar ishlarini badiiy tahlil qilish faoliyatiga tayyorlashning dolzarb masalalari yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. Qalam, pero, tush, sangina, sous, eskiz, tahlil, san’at, badiiy asar, portret, natyurmort, etyud, qoralamalar, garmoniya, ijodiy obraz, grafika, amaliy san’at.

В данной статье рассматриваются актуальные вопросы подготовки будущих преподавателей изобразительных искусств к деятельности по художественному анализу работ графиков в области рисунка пером и тушью.

Ключевые слова. Карандаш, перо, туш, сангина, соус, эскиз, этюд, наброски, гармония, художественный образ, графика, декоративно-прикладное искусство.

This article examines current issues in the preparation of future fine arts teachers for artistic analysis of graphic artists’ works in the field of pen and ink drawing.

Key words. Pencil, pen, ink, sanguine, sauce, sketch, study, outlines, harmony, artistic image, graphics, decorative and applied arts.

Hozirgi globallashuv davrida, yangicha fikrlaydigan zamon talabiga mos farzandlarni etishtirishda, jahonning rivojlangan davlatlari qatoriga qo‘shilishida yoshlarning madaniyati-ma’rifati, san’ati va dunyoqarashlarining o‘rni beqiyosdir. Bu borada yoshlarimiz ma’naviyati va madaniyatini boyitishda, estetik dunyoqarashini shakllantirishda tasviriy san’at muhim o‘rin tutadi. Bugungi kunlarda har bir sohada bo‘lgani kabi tasviriy san’at sohasida ham keng o‘zgarishlar, rivojlanishlar paydo b‘lmoqda.

Bu borada eng dolzarb masala, bu QS, THE, ARWU xalqaro reytinglarda TOP-300 talikka kirgan OTMlar tajribasi asosida takomillashtirilgan bakalavr ta’lim yo‘nalishi uchun fan dasturlari yaratish va shu dastur bo‘yicha uslubiy qo‘llanma, o‘quv qo‘llanma, darslik, elektron darsliklar yaratilishi va undan talabalarning keng foydalanishlari, fanlarni o‘rganishlari mumkinligi, ushbu fanlarni kimlar o‘qitishi, dastur davomida qanday bilim, ko‘nikma va mahoratlarga ega bo‘lishi haqidagi muhim masalalardan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son farmoni “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida bo‘lib, unda Ta’lim tizimi islohotlari bandining 6-qismida Professional ta’lim tizimini rivojlantirish orqali o‘quvchilarni zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga o‘rgatish va 7-qismida Oliy ta’lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish haqida vazifalar belgilab berilgan. Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli

iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash maqsadida o'quv adabiyotlarni yangi avlodini yaratishda muhim vazifalar belgilab berilgan.

Ta'limda shaffoflikka erishish ECTS kredit-modul tizimi talabalarning ta'lim jarayonlariga taaluqli bo'lgan barcha ma'lumotlarni talabalarga oldindan, tushunarli, to'liq va shaffof tarzda etkazishni talab qiladi.

Qalamtasvir darslari talabalarining fazoviy tassavurlarini, badiiy ijodkorligini, pedagogik faoliyati va kreativligini o'stirishda katta ahamiyatga ega deb hisoblanadi. Bo'lg'usi rassom-o'qituvchilar, qalamtasvir fanining tasviriy vositalari to'g'risida muhim ma'lumotga ega bo'lishi, turli buyumlarning o'ziga hos xususiyatlari va ulardan foydalanish usullarini mukammal egallashlari zarur. Bo'lajak o'qituvchi QS, THE, ARWU xalqaro reytinglarda TOP-300 talikka kirgan OTMlar tajribasi asosida o'quv vazifalarni turli qalamlar, ko'mir yoki sangina bilan ijod qilish malakasiga ega bo'lish bilan birga, shu sohadagi nazariy hamda amaliy bilimlarini o'quvchilarga yetkaza olishi ham kerak. Qalamtasvir fani talabalarni natyurmort, portret, maishiy, botal, manzara janrlari haqidagi nazariy, amaliy, metodik bilimlarni keng va atroflicha takomillashtirish uchun qator darslik, o'quv qo'llanmalar yaratilishini taqazo etmoqda. Qalamtasvir fanida qator vazifalar ya'ni oddiy geometrik jismdan tashkil topgan natyurmort qalamtasvirini ishlashdan boshlab, gipsdan yasalgan bosh, niqob va yarim gavda, to'liq gavda kabi o'quv vazifalarni metodik ketma-ketlik bilan murakkablashtirib borishi, shakli, tuzilishi va materiali har hil bo'lgan bir necha buyumlardan iborat natyurmortlar tuzish usullari, ularni badiiy tasvirlash sirlarini o'rgatishda ishonchli va sinalgan yo'l hisoblanadi. Shu o'rinda qalamtasvir fani natyurmort, portret, gavda, haqidagi ma'lumotlarni talabalarga oldindan, tushunarli, to'liq va shaffof tarzda yetkazishni maqsad qilib qo'yadi.

O'zbekiston grafika san'ati rivojlanishini o'rganishda quyidagi omillarga e'tibor qaratish zarur:

– jarayonning samaradorligini ta'minlashda O'zbekiston grafika san'ati tahlilining ahamiyati;

– O'zbekiston grafika san'ati tahlilining harakatlarini shakllantirish;

– tasviriy san'at dars va darsdan tashqari jarayonning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi, mustaqil o'quv jarayonlarda shaxsga yo'naltirilgan ta'limni o'ziga hos ahamiyati va zaruriyati;

– O'zbekiston grafika san'ati tahlilining o'quv jarayonlarning natijaviyligini ifodalash;

– O'zbekiston grafika san'ati tahlilini o'quv mashg'ulot jarayonlari samadorligining mativlashtirishga bog'liqligi;

– korrupsiyaga qarshi kurashning grafika san'atida ifodalanishi.

Ma'lumki grafika san'atining katta tarmog'i hisoblanuvchi plakat janri o'zining qiziqarliligi bilan alohida ajralib turadi. U ommaviy targ'ibot va tashviqot ishlarida juda qo'l keladigan, keng ma'lumotlarni odamlarga tez, rangdor qilib tasviriy vositalar orqali yetkazish vositasidir. Plakat san'atining murakkablik tomonlari ham bor. U mavzuni yoritib berishda tasviriy vositalarni lo'nda, tushunarli, aniq qilib qo'llashni taqozo etadi. Bunda albatta kompozitsiya yechimi puxta, har tomonlama o'ylab hal etilgan bo'lishi zarur. Plakatning qulayligi shundaki, uni ishlash jarayonida boshqa tasviriy san'at turlaridagidek ko'p vaqt talab etilmaydi, ba'zan uni juda tezlik bilan ishlashga to'g'ri keladi. Bundan plakat ishlash oson ekanda, degan tushuncha kelib chiqmasligi kerak, albatta. Bu san'atning murakkablik tomonlarini u bilan jiddiy shug'ullanib ko'rgan odam yaxshi biladi. Plakat ishlash uchun avvalambor mavzu aniq qilib o'ylab olingan bo'lishi

kerak. Buning uchun esa fikrlash, kompozitsiya yechimini topish uchun salohiyat va bilim kerakligi sir emas.

Plakat mavzulari, shuningdek nima maqsadda yaratilganligi bilan bir necha turlarga ajratiladi. Ular: badiiy tijorat-reklama, chorlov-afisha, siyosiy-ijtimoiy, foto, yozuvli ko‘rgazma qurol sifatida qo‘llanadigan plakatlar va shuningdek yana bir qancha tularga bo‘linadi. Ularning nima maqsadda ishlanganligi mavzusidan aniqlanib turishi kerakligi plakat san’atining bosh, zarur talabi desak yangilishmaymiz.

O‘z mavzusiga ko‘ra plakatlar ekologiya, tibbiyot, hajviy-satirik, chaqiriq, targ‘ibot-tashviqot yo‘nalishlarida ishlanishi mumkin. Plakatda mavzuning dolzarbligi darajasi ham juda muhim shartlardan hisoblanadi. Chunki hammani bezovta qilib turgan mavzulardagi san’at asari darhol ilg‘ab olinadi. Shunday plakat namunalari o‘z o‘rnini, vazifasini topib odamlarga yaxshi xizmat qilishi ma’lum.

Plakat ham barcha san’at turlaridagidek kompozitsiyaning umum joriy etilgan qonun-qoidalari asosida izlanishlar bilan yaratiladi. Unda ham kompozitsiya markazi, rang yechimi, chiziqlar va asar barcha tomonlarining o‘zaro munosabatlari, muvozanati muhim komponentlardandir. Yana shuni ham aytish kerakki, ba’zan umuman yozuvsiz faqat tasvirdan iborat bo‘lishi, shunda ham yaxshi tugal mazmun kasb etishi, tushunarli ifoda topgan bo‘lishi mumkin. Bunda albatta uning kompozitsiyaviy yechimi sifati, muallifning topqirligi va qobiliyati, bilim darajasi rol o‘ynaydi desak to‘g‘ri bo‘ladi. Ma’lumki shunday o‘z yechimini yaxshi topgan plakatlar e’tirof etiladi va badiiy plakatlar sirasiga mansub bo‘ladi. Uni chizishda rassom kompozitsiyani yuzaga chiqarishi uchun yaxshi nazariy, shuningdek amaliy bilim-ko‘nikmalarga ega bo‘lishi talab etiladi. Ishlashni maqsad qilgan odam, u rassommi yoki talabami bundan qat’iy nazar sifatli – uquvli realistik tasvirni yaxshi chiza olishi kerak. Bu holda tajriba ham rol o‘ynaydi. Rassom har qancha usta bo‘lmasin agar fikrlay olmaydigan bo‘lsa plakat yarata olmaydi. Chunki unda mavzuni topish va badiiy tarzda ifoda eta olish juda muhimdir. Shu sababdan plakat yaratuvchi rassomlar unchalik ko‘pchilikni tashkil etmaydi. Mamlakatimizdagi rassomlarning eng taniqli vakillari qatoriga F.Kagarov, D.Maxotin, A.Balkanov, R.Aliev, N.Ten, M.Gromiko, N.Hakimov, E.Abdullaev, V.Dumkin, N.Husanov,B.Jalolov, L.Ibragimov, R.Xalilov va boshqa bir necha o‘nlab rassomlarni kiritishimiz mumkin. Ayrim rangtasvirchi rassomlar ham ba’zan asarlarini yaratib turishlari ma’lum.

Plakat ishlashda yozuv harflarini chiroyli qilib bajarish katta ahamiyatga ega. Chunki o‘ylab topilgan qisqacha ibora ham chiroyli, ko‘zga tashlanuvchi harflar bilan bitilsa albatta, asar mazmunining badiiy qimmatini oshirish uchun xizmat qiladi. Ammo harflarni sifatli bajarish ham oson emas, buning uchun rassom ma’lum tayyorgarlikka ega bo‘lishi kerak. Plakat kompozitsiyasini ishlashda bo‘yoqlardan unumli foydalanish katta ahamiyat kasb etuvchi omildir. Rang yordamida plakatni ko‘zga tashlanuvchanligi hamda yaxlitligi ta’minlanadi. Mazmun, mohiyati yoritiladi. Shunga yarasha ranglar bachkanalikdan holi, serma’no bo‘lishi lozim. U asosida plakatdagi eng zarur tasvirlar bo‘rttirilib aks ettiriladi. Shunga yarasha tomoshabin e’tiborini tortadi, o‘ziga jalb qiladi.

O‘zbek grafika san’ati o‘rta asr miniatyuralaridan zamonaviy avangardgacha rivojlangan boy san’at yo‘nalishi hisoblanadi. Bu sohaga kitob illyustratsiyalari bilan mashhur bo‘lgan ustalar ham, noyob molbert varaqlarini yaratganlar ham kirgan.

1. Klassikalar va asoschilar (XX asr)

Bu rassomlar Yevropa uslubiga sharqona koloritni mahorat bilan uyg‘unlashtirib, o‘zbek grafika san’atining qiyofasini shakllantirdilar. Iskandar Ikromov o‘zbek grafika san’atining patriarxi va kitob dizayni ustasi. U Alisher Navoiy va boshqa sharq adabiyoti

klassiklari asarlari uchun klassik illyustratsiyalar yaratdi.Vladimir Kaydalov linogravyura va yog‘och o‘ymakorligi ustasi. U o‘zining portret seriyalari (masalan, Hamza portreti) va Farg‘ona kanali qurilishiga bag‘ishlangan asarlari bilan mashhur. Varsham Eremyan o‘rta asrning asosiy grafika rassomlaridan biri, qalamtasvir va akvarel ustasi bo‘lib, eski Toshkent va kundalik hayot tasvirlari ustida ko‘p ishlagan. Konstantin Basharov sanoatlashtirish va oddiy ishchilar hayotiga bag‘ishlangan dinamik grafik turkumlari bilan mashhur.

2. ‘‘Oltin fond’’ ustalari (XX asrning ikkinchi yarmi)

Bu davrda grafika san’ati yanada falsafiy va eksperimental tus oldi.

Medaat Kagarov ajoyib grafika rassomi edi. Uning asarlari (litografiyalar, gravürlar) ko‘pincha mifologiya, dasht afsonalari va falsafiy mulohazalarga bag‘ishlangan. Asosiy turkumlar: ‘‘Dasht’’ va ‘‘Sharq afsonalari’’. Viktor Apuxtin murakkab, intellektual grafika san’ati ustasi edi. Uning rasmlari ko‘pincha shifrlangan xabarlarga yoki teatrlashtirilgan sahnalarga o‘xshaydi; u falsafiy she’riyatni faol ravishda tasvirlagan. Marat Sodiqov - akvarel rassomi, uning asarlari qadimgi o‘zbek shaharlarining (Buxoro, Samarqand, Xiva) yorug‘ligi va atmosferasini aks ettirish uchun mezon sifatida tan olingan.

3. Zamonaviy rassomlar (XX asr oxiri – XXI asr)

Zamonaviy rassomlar ko‘pincha grafika, rassomlik va amaliy san’at chorrahasida ishlaydi. Lekim Ibragimov dunyoga mashhur rassom. Uning grafikasi (ko‘pincha qog‘oz yoki kanvasda aralash materiallar yordamida yaratilgan) tosh rasmlari va qadimiy freskalarning estetikasini aks ettiradi. U o‘zining ‘‘Ming farishta va bitta rasm’’ loyihasi bilan mashhur. Anvar Mamadjanov gravür va grafik chizish ustasi. Uning asarlarida xalq hayoti, folklor sahnalari va me’moriy motiv manzaralari puxta tasvirlangan. Bobur Ismoilov – Rassom sifatida ko‘proq tanilgan bo‘lsa-da, uning grafikasi ajoyib teatrallik va syurrealizmga ega. Uning siyoh chizmalari inson taqdiri haqidagi hikoyalardir. Jahongir Boboqulov yosh avlod vakili bo‘lib, faol ravishda rasm chizish bilan shug‘ullanadi va ko‘pincha psixologik portretga murojaat qiladi.

4. Miniatyura ustalari

Biz grafikani asl sharqona ma’noda - miniatyura san’atida unutmasligimiz kerak. Kamoliddin Behzod afsonaviy o‘rta asr ustasi bo‘lib, uning nomi bilan Toshkentdagi Milliy san’at va dizayn instituti nomlangan. Shomahmud Shohahmedov Buxoro va Samarqand miniatyuralari an’analarining zamonaviy vorisi hisoblanadi. Grafik rassomlar ijodini tahlil qilar ekan bo‘lajak Tasviriy san’at o‘qituvchilari rassom, haykaltarosh, grafik rassomlar ishlarini bir nech bosqichda tushunib tahlil qilish kerak.

METODLAR. Qalamtasvir darslarida talabalarga grafik rassomlar asarlarini o‘rgatish tahlil qilish ulardagi bilim , ko‘nikma va malakalarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o‘rinda ta’kidlash mumkinki, an’anaviy darslarda talaba 20 daqiqadan so‘ng e’tibori susayadi va ma’lumot qabul qilish darajasi pasayadi. Kredit modul tizimida mutaxasislik fanlariga ajratilgan soatlar keskin qisqarib, nazariy darslar kamaygani, amaliy mashg‘ulot davomida esa zarur nazariy bilimlarni talabalarga yetkazishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni taqazo qilmoqda. Bunga misol qilib interfaol metodlardan foydalanish, viktorina, test, pazl, krossvord kabi usullardan foydalanish yaxshi samara beradi. Tadqiqotimiz davomida o‘tkazilgan so‘rovnoma va tahlil, metodlar shundan dalolat beradiki. Ta’lim texnologiyalaridan dars jarayonida foydalanish ta’lim sifatini yanada yaxshilaydi. Fikrimizni isboti uchun bir necha usullarini ko‘rib chiqsak:

Viktorinalarni Power Point, Aha slides, Canva kabi programma yoki saytlardan foydalanish bir qator qulayliklar va noqulayliklarni keltirib chiqaradi, ta’lim dargohining


xususiyatlaridan kelib chiqib, ya’ni o‘quv auditoriyada elektron doska, proyektor, internet, kompyuter bilan jihozlangan bo‘lsa bu maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Masalan: Pover point dasturi juda qulay, internet kerak emas va talabalardan ham telefon talab qilmaydi, kamchiligi guruh umumiy baholanadi. Ahaslides sayti orqali viktorina tashkil etilsa har bir talabani alohida baholash imkoni paydo bo‘ladi, kamchiligi internet bo‘lishi kerak, har bir talaba internetga ulanadigan va sensorli telefondan foydalanishi kerak. Canva tayyor shablonlar, rang barang viktorina uchun slaydlar o‘zi yaratib beradi ishlash oson lekin auditoriyada internet bo‘lmasa ochilmay ishlamay qolishi mumkin. Yuqoridagilardan shunday xulosa qilish mumkin, Ahaslides, Canva yorqin, tayyor shablon, formalari bor ishlash qulay, imkoniyatlari keng lekin internet bo‘lishi kerak va oylik obuna olish kerak. Pover Point dasturi hamma kompyuterda bor ishlash oddiy, har bir sahifa ustida uzoq vaqt ishlashga qaramay ko‘p yillar xizmat qiladi barcha qurilmalarga tushadi, dars jarayonida ishlatish onson.

Quyida bitta viktorina namunasini ko‘rib chiqamiz:

Birinchi sahifasiga tasviriy san’atni: janrlar, rassomlar, asarlar, san’at kabi guruhlarga ajratamiz va har bir guruhga 100 dan 500 gacha qiyinlik darajasiga qarab muammoli, rasmli, jumboqli, qiziqarli faktlar bilan, hayotga bog‘lagan holda joylashtirib chiqamiz. Viktorinani o‘tkazish jarayonida guruh 2 kichik guruhga bo‘linadi, sardorlar tayyorlanadi va kim birinchi boshlashi belgilab olinadi. Sinf taxtasiga guruhlar nomi yozilib ostidan to‘plagan ballari yozib boriladi, yutgan guruh talabalariga faolliklariga qarab ball beriladi.

Bu usul darsning boshida yoki oxirida o‘tkazilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Talabalar faollashib dars sifati oshadi o‘yinga asoslangan ta’lim orqali talabalar bilimini oshirishga erishiladi.







Qalamtasvir darslari orqali grafik rassomlar ijodini darsda talabalarni faollashtirish uslubi orqali tashkil etishda mental xarita uslubidan foydalansa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Aqliy xarita, mental xarita, aqliy diagramma yoki fikrlash xaritasi – bu usul ko‘p nomlar bilan atalishi mumkin, ammo u har doim butun va uning qismlari o‘rtasidagi tizimli aloqalarni aks ettiruvchi ma’lumotlarning vizual tasviridir. Bunday diagramma markaziy g‘oya, konsepsiya, mavzu yoki muammo atrofida qurilgan bo‘lib, undan bog‘liq g‘oyalar ajralib chiqadi. Aqliy xaritalar har qanday materialni – oddiy bibliografiyadan tortib o‘quv dasturigacha – tuzish uchun ishlatilishi mumkin.

Usulning zamonaviy shaklidagi muallifi va ‘‘aqliy xarita’’ atamasining o‘zi 1974-yilda teleko‘rsatuvda aqliy xaritani namoyish etgan britaniyalik psixolog Toni Buzan hisoblanadi. Biroq, axborot bilan ishlashning bu usuli ildizlari milodiy III asrga borib taqaladi: yunon neoplatonist faylasufi Porfiriy Aristotelning ‘‘Kategoriyalar’’ asariga bergan sharhida grafik daraxt diagrammasidan foydalangan.

Qalamtasvir fani – Barcha tasviriy san’at turlarining asosi.

1. Nazariy asoslar:

Perspektiva: chiziqli va havo perspektivasi, ufq chizig‘i, nuqtalar

Kompozitsiya: format tanlash, muvozanat, markazni aniqlash, masshtab.

Konstruksiya: predmetning ichki tuzilishi, ‘‘shaffof’’ chizish.

Proportsiya: qismlarning bir-biriga va butunga nisbati (oltin kesim).

2. Texnik vositalar va materiallar

Qalamlar: yumshoqlik darajalari (H – qattiq, HB – o‘rtacha, B – yumshoq).

Qog‘oz: fakturasi (silliq, g‘adir-budur), zichligi.

Yordamchilar: o‘chirg‘ich (klyachka), shtrixlash uchun asboblar, molbert (planshet).

3. Yorug‘-soya (nur-soya) qonuniyatlari

Nur (Svet): eng yorug‘ qism.

Yarim soya (Poluten): nurdan soyaga o‘tish qismi.

Xususiy soya (Sobstvennaya ten): Buyumning o‘zidagi soya.

Refleks: Soyadagi qaytgan nur.

Tushuvchi soya (Padayushaya ten): predmetdan sirtga tushgan soya.

Blik: eng yorqin nuqta (ayniqsa yaltiroq sirtlarda).

4. Tasvirlash bosqichlari

Joylashtirish: varaqqa umumiy shaklni belgilab olish.

Konstruksiya: geometrik tahlil va qurish.

Detallashtirish: shakllarni aniqlashtirish.

Ton berish (Shtrix): hajm berish va moddiyashtirish.

Umumlashtirish: yakuniy xulosaga kelish, urg‘ularni qo‘yish.


5. Obyekt turlari

Geometrik shakllar: kub, shar, silindr, piramida.

Gipsli modellar: sokratiy boshlar, antik haykallar, rozetkalar.

Natyurmort: maishiy buyumlar, mato (drapirovka).

Plastik anatomiya: inson tanasi, skelet, mushaklar, portret.



Shu ko‘rinishda mental xarita yaratish talabaning iqtidorini oshiradi

Aqliy xaritalardan foydalanish imkoniyatlari faqat o‘qituvchining maqsadlari va tasavvuriga bog‘liq. Bu usul o‘qituvchilar, murabbiylar, murabbiylar va metodistlar uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Talabalarni aqliy xaritalar bilan tanishtirib va ularni ma’lumot to‘plash va tartibga solish uchun (masalan, hisobotlar, insholar va kurs ishlarini tayyorlashda) ulardan foydalanishga undash kerak. Aqliy xaritalar ma’ruzalar paytida yozuvlar olish va kitoblardan muhim fikrlarni ta’kidlash uchun ham samarali.

Aqliy xarita hamkorlikdagi loyiha ishlari uchun ham foydalidir: undan jamoa a’zolariga rollar va majburiyatlarni belgilash uchun foydalanish mumkin. Biroq, muddatlarni vizualizatsiya qilish uchun qo‘shimcha vositadan foydalanish kerak bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF–158-son Farmoni.

2. Maxkamova S. Tasviriy san’at asarlarini badiiy tahlil qilishda rassom Kamoliddin Behzod ijodidan foydalanish masalalari // Journal of Culture and Art. 2023. 1(8). B. 107–114. URL: https://imfaktor.com/index.php/jocaa/article/view/767

3. Maxkamova S.B. Роль и значение композиции в изобразительном искусстве в формировании профессиональной компетентности будущих учителей изобразительного искусства // Innovative Development in Educational Activities. 2023. 2(7). S. 222–230. URL: https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/1017

4. Talipov N. Talabalarni qisqa muddatli ranglavhalar ishlashga o‘rgatishning muhim omillari // Journal of Culture and Art. 2024. 2(2). B. 17–22. URL: https://imfaktor.com/index.php/jocaa/article/view/990

5. Махкамова Саода Бахтияровна. Педагогические условия подготовки будущих преподавателей изобразительных искусств к художественному анализу произведений Чингиза Ахмарова // IQRO Indexing. 2026. 19(02). S. 387–392. URL: https://worldlyjournals.com/index.php/IFX/article/view/23238

Gulnora G‘ANIYEVA,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, mustaqil izlanuvchi,
Toshkent shahar, Yashnobod tumani, 244-umumiy o‘rta ta’lim maktabi, boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARIGA MATN TAHLILINI AMALGA OSHIRISH BO‘YICHA METODIK TAVSIYALAR

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari bugungi kunda matn tahlilini zamonaviy dasturlar orqali amalga oshirishi muhimligi, innovatsion metodlardan, o‘yin texnologiyasidan hamda dalillarga asoslangan ta’lim texnologiyasidan foydalanish o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi oshirilishiga yordam berishi haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so‘zlar. Matn tahlili, dalillarga asoslangan ta’lim, didaktik tamoyil, baholash, innovatsion metodlar, muammoli vaziyat, integratsiya, formative baholash.

В данной статье рассматривается важность проведения анализа текста будущими учителями начальной школы с использованием современных программ, а также применение инновационных методов, игровых технологий и научно обоснованных образовательных технологий для повышения уровня грамотности учащихся.

Ключевые слова. Анализ текста, научно обоснованное образование, дидактические принципы, оценка, инновационные методы, проблемные ситуации, интеграция, формирующая оценка.

The following article discusses the importance of prospective primary school teachers conducting text analysis using modern programs. It also considers how the use of innovative methods, game-based technologies, and evidence-based education technologies helps to improve students’ reading literacy.

Key words. Text analysis, evidence-based education, didactic principles, assessment, innovative methods, problem situations, integration, formative assessment.

O‘zbekistonda olib borayotgan ilmiy tadqiqotimizning asosiy maqsadi bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari hamda o‘quvchilarini intellektual rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirib, didaktik imkoniyatlarni, metodlarni aniqlab, uni pedagogik jarayonga tatbiq etishdan iborat. Hozirgi vaqtda bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari metodik tayyorgarligini takomillashtirishda, o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o‘z o‘rnida foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bu, ayniqsa, matn tahlilini amalga oshirish jarayonida juda zarur. O‘qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligi ularning kasbiy faoliyatga doir bilimlar, ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, o‘z-o‘zini rivojlantirish kabi asosiy kasbiy faoliyat sohalarida kasb etadi. Bu esa o‘z navbatida, o‘qituvchining o‘z fanini o‘qitishga doir bilimlarini mukammal bilishi va harakatga keltirishi, ta’lim jarayonini loyihalash, tashkil qilish va baholash uchun zarur bo‘lgan tayanch kompetensiyalarni egallashi, shuningdek, o‘qitish va tarbiyalash jarayonini ta’lim sohasidagi innovatsion ilmiy yutuqlar, zamonaviy pedagogik va axborot komunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etish, uzluksiz va tizimli o‘z-o‘zini rivojlantirishni talab etadi. Zamonaviy jamiyatdagi tub o‘zgarishlar oliy ta’limni sezilarli darajada qayta yo‘naltirishni, ta’lim shakllari,

vositalari va usullarini optimallashtirishni, mutaxassislar tayyorlash samaradorligini oshirishning yangi usullarini izlashni talab qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-apreldagi PQ-128-son qarorida ta’lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan tahliliy va amaliy tadqiqotlar o‘tkazish, ta’lim jarayonida jahon ilm-fani va texnologiyalari yutuqlaridan keng foydalanish bo‘yicha ilmiy ishlanmalar va tavsiyalar tayyorlash vazifasi belgilangan. Bugungi kunda ta’lim tizimi tubdan o‘zgarib bormoqda. Endi savol shunday: biz nimani o‘qityapmiz emas, balki qanday natijaga erishyapmiz?

Ana shu savolga aniq, asosli va ishonchli javob berish dalillarga asoslangan baholashning bosh maqsadidir. Chunki dalil – bu taxmin emas, dalil – bu haqiqat. Haqiqat esa sifatli ta’limning eng mustahkam poydevoridir.

Baholash tizimidagi zamonaviy tendensiyalar bizdan faqat reyting va ball bilan cheklanib qolmaslikni, balki o‘quvchining real kompetensiyasi, tanqidiy fikrlashi, ijodkorligi va hayotiy ko‘nikmalarini aniqlashni talab etmoqda.

Shu bilan birga, mavjud muammolar subyektivlik, eskirgan yondashuvlar va raqamli imkoniyatlardan yetarlicha foydalanmaslik barchamizni chuqur o‘ylashga undaydi. Bizning asosiy vazifamiz oliygoh auditoriyalaridanoq talabalarda baholash savodxonligini shakllantirishdir. Zero, o‘qituvchi o‘quvchining bilimini shunchaki raqamlar bilan emas, balki aniq dalillar va tahlillarga tayanib baholashni o‘rganishi kerak.

Har bir o‘qish savodxonligi darsini tashkil qilishda o‘qituvchi o‘z pedagogik mahorati va va nazariy bilimlariga asoslangan holda, darsni oldindan rejalashi talab etiladi. Dalillarga asoslangan ta’lim – bu o‘qitish jarayonida qarorlarni ilmiy tadqiqotlar, tajriba natijalari va o‘quvchi kuzatuvlari asosida qabul qilish tizimidir.

Didaktik tamoyillar o‘qituvchiga dars jarayonini rejalashtirishda ilmiy ishonchli asos beradi. Didaktik tamoyillar 5 ta asosiy tamoyilni o‘z ichiga oladi. Matn tahlilida, ya’ni o‘qib tushunishni rivojlantirishga xizmat qiluvchi 5 ta asosiy tamoyilni ko‘rib chiqamiz:

1-tamoyil: Mazmunli va funksional kontekstda o‘qish. O‘qish faoliyati real hayotga yaqin bo‘lsa, o‘quvchi matnga chuqurroq kirishadi.

Darslarda real hayotiy matnlar (xatlar, reklama, e’lon, blog posti)dan foydalaniladi. O‘qish maqsadi aniq bo‘lsin: “Bu matndan nimani bilib olaman?”

Masalan, 4- sinf o‘qish savodxonligi darsligining 3-qismida berilgan “Suvda xotira bor” matni asosida tahlil qilinsa, bu tamoyilga asosan matn o‘qilgach, o‘quvchilar “Olimlar olib borgan tadqiqotlarini yozing” topshirig‘ini bajaradi. O‘quvchilar aynan matnda keltirilgan tadqiqotlarni aniqlab yozib berishi kerak bo‘ladi. Matn mazmunini tushunish darajasi ilmiy matnni tahlili amalga oshiriladi.

Baholash:

O‘quvchi matndan foydalangan holda amaliy fikr bildira oladimi – kuzatish orqali aniqlanadi.

2-tamoyil: Matnlarni chuqur tahlil qilish

O‘qish – bu faqat o‘qib chiqish emas, balki matnni tahlil qilish, taqqoslash, savol berish va xulosa chiqarishdir.

Kichik guruhlarda o‘qish (savol beruvchi, xulosalovchi, so‘z yasovchi rollari).

“Nima uchun?”, “Agar…” kabi savollar orqali chuqur tahlilga undash.

Masalan, badiiy hikoyadan so‘ng “Qahramonning o‘rnida bo‘lsangiz, qanday yo‘l tutardingiz?” savoliga javob so‘rash orqali o‘quvchining tahliliy fikri, sabab-oqibatni izohlash qobiliyati tahlil qilinadi.

3-tamoyil: O‘qish strategiyalari bo‘yicha aniq ko‘rsatma

O‘quvchi matnni tushunish uchun ongli strategiyalarni qo‘llaydi.

“Ovoz chiqarib o‘ylash” metodidan foydalanish (o‘qituvchi fikrlash jarayonini namoyon etadi).

Strategiyalar: savol berish, xulosa chiqarish, vizualizatsiya, qayta o‘qish, asosiy fikrni ajratish.

Masalan, matnni o‘qishdan oldin – “Bu matn sarlavhasiga qarab nimalarni kutyapsiz?” deb so‘rash bilan o‘quvchi strategiyani mustaqil qo‘llay olishi dars davomida og‘zaki kuzatish orqali baholanadi.

4-tamoyil: O‘qish ta’limini boshqa fanlar bilan integratsiya qilish

O‘qish – barcha fanlar uchun asosiy ko‘nikma. O‘qish darsida matematika, tabiiy va tarixiy matnlar bilan ishlashda boshqa fanlar bilan integratsiya qilish orqali ko‘nikmalar rivojlantiriladi.

Masalan, “O‘qib bilamiz – o‘lchaymiz – chizamiz”, ya’ni dars davomida 4-sinf o‘qish savodxonligi darsligi 3-qismidagi “Tog‘ qayerdan paydo bo‘lgan?” matni misolida ko‘rib chiqsak, o‘quvchi matn bilan tanishtirilganda, tabiiy fanlar bilan bog‘liq savollar bilan ishlanadi.

Bunda “Yer yuzi dastlab qanday tuzilishda bo‘lgan?”,

“Globusda tog‘lar qanday rangda tasvirlanadi?”

“Eng baland cho‘qqi nomi nima?” kabi savollar bilan o‘quvchilarning aynan tabiiy fanda o‘zlashtirgan bilimlarini eslay olishga zamin yaratadi. O‘quvchi boshqa fanlardagi bilimni matnga qo‘llay olishi – amaliy ishlar orqali aniqlanadi.

5-tamoyil: O‘qib tushunish va monitoring

Baholash faqat natijani emas, jarayonni ham o‘lchaydi.

Formativ baholash: suhbat, yozma javob, “Fikrimni yakunlayman…” iboralari orqali amalga oshirilishi mumkin. Aynan yakuniy baholash - test, loyiha, matn tahlili nazorat turlari bilan amalga oshirilishi mumkin.

Masalan, o‘quvchi “Men o‘qigan matndan shuni angladim…” deb yozib yakunlaydi.

Dalillarga asoslangan didaktik yondashuvlar o‘qituvchini tajriba va taxminlardan dalil va tahlilga olib o‘tadi.

Natijada o‘quvchi matnni mazmunan tushunadi, fikrini asoslaydi, va o‘z o‘qish jarayonini boshqara oladi.

Shundan kelib chiqib, bo‘lajak mutaxassislarni innovatsion faoliyatga tayyorligi deganda, biz shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, innovatsiya sohasidagi o‘zaro bog‘liq kasbiy va maxsus bilim va ko‘nikmalarning majmuini tushunamiz, ular yangicha usulda ta’lim olish va ta’lim berish hamda faoliyat yuritish, ushbu faoliyat turiga mos aniq kompetentliklarni ko‘zda tutadi. Dalillarga asoslangan ta’lim qat’iy qoidalar to‘plami emas, balki qarorlar qabul qilishga yordam beradigan vositadir. Bu o‘qitishning mukammalligi va tajribasining o‘rnini bosmaydi, lekin o‘qituvchilarga tanlagan usullari o‘quvchilarga chindan ham yordam berishiga ko‘proq ishonch bag‘ishlaydi. Tanlangan usul samarali bo‘ladimi yoki yo‘qmi, deb doimo shubha qilish o‘rniga, biz uning ish berishiga deyarli ishonch bilan amin bo‘lishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan, bo‘lsak, bugungi Yangi O‘zbekistonda yangicha yondashuvlar, ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanib o‘qitish tizimini tashkil qilish o‘quvchilarida matn tahlilini amalga oshirishda dolzarb vazifa sifatida qaraladi va buni amalga oshirishda yuqorida keltirilgan tavsiyalarni qo‘llab o‘qish savodxonligi darslarini takomillashtirib, o‘quvchilarning fikrlash qobilyatlarini rivojlantirib borsak, albatta, ko‘zlangan maqsadga birgalikda erishamiz va jamiyatda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga zamin ya-

ratgan bo‘lamiz. Shuningdek, innovatsion metodlarni qo‘llagan holda darslarni tashkil qilish bilan o‘quvchilar matnni faqat yodlash emas, balki tushunish, qo‘llash va tahlil qilishni o‘rganadi. Dars jarayoni faol, qiziqarli va izchil bo‘ladi. Har bir o‘quvchi o‘z imkoniyatiga ko‘ra bosqichma-bosqich rivojlanadi. Mustaqil fikrlash, ijodkorlik, mantiqiy tafakkur shakllanadi. O‘quvchilarni ko‘p darajali savollar bilan o‘ylashga majbur qiladi. Biz bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilariga yuqoridagi tavsiyalarga asoslanib, matn tahlilini amalga oshirib borishni tavsiya etamiz hamda darslarning samarali va mazmunli o‘tilishiga ishonamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xidoyatov E.D., Matn va talqin: O‘quv qo’llanma. –T., 2005.
2. Musaxonova G. M., Innovatsion pedagogika: O‘quv qo‘llanma – T., 2022.
3. Ismoilov A.A., Tog‘ayeva G., Akbarova S., Asqarova D. Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonligini baholash: Metodik qo‘llanma. – T., 2019.
4. Aydarova U. B., Azizova N. K., O‘qish savodxonligi II qism: Darslik. –T., 2023.
5. Aydarova U. B., Azizova N. K., O‘qish savodxonligi III qism: Darslik. –T., 2023.

Sevara BEGIMQULOVA,
Jizzax viloyati, Do‘stlik tumani, 1-umumiy o‘rta ta’lim maktabi,
biologiya fani o‘qituvchisi

BIOLOGIYA DARSLARIDA LOYIHAVIY TA’LIMNING YANGICHA KO‘RINISHI

Annotatsiya

Maqolada biologiya darslarida loyihaviy ta’limning yangicha yondashuvlari tahlil qilinib, o‘quvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini, mustaqil fikrlashni va ekologik madaniyatni shakllantirishda zamonaviy loyihaviy metodlarning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, fanlararo integratsiya, STEAM raqamli texnologiyalar, ekologik va tadqiqotga yo‘naltirilgan amaliy biologik innovatsion loyihalardan foydalanish imkoniyatlari ochib beriladi va maktab amaliyotida sinovlardan o‘tgan samarali loyihaviy ishlar misollar bilan bayon etiladi.

Tayanch so‘zlar. Loyihaviy ta’lim, biologiya darsi, innovatsion metodlar, ekologik tarbiya, tadqiqot faoliyati.

В статье анализируются новые подходы к проектному обучению на уроках биологии, освещается значение современных проектных методов в формировании у учащихся исследовательских навыков, самостоятельного мышления и экологической культуры. Также раскрываются возможности использования междисциплинарной интеграции, STEAM цифровых технологий, экологических и научно-ориентированных прикладных биологических инновационных проектов, а также на примерах эффективных проектных работ, апробированных в школьной практике.

Ключевые слова. Проектное обучение, урок биологии, инновационные методы, экологическое воспитание, исследовательская деятельность.

The article analyzes new approaches to project-based learning in biology lessons and highlights the importance of modern project methods in developing students’ research skills, independent thinking, and ecological culture. Also, the possibilities of using interdisciplinary integration, STEAM digital technologies, environmental and research-oriented applied biological innovative projects are revealed, and effective project work, tested in school practice, is described with examples.

Key words. Project-based learning, biology lesson, innovative methods, environmental education, research activities.

Bugungi kunda ta’lim tizimida o‘quvchini faqat bilim oluvchi emas,balki mustaqil fikrlovchi, tadqiqot va muammoni yecha oladigan shaxs sifatida shakllantirish asosiy vazifalardan biridir. Biologiya fanini o‘qitishda an’anaviy yondashuvlar o‘quvchilarning fanga bo‘lgan yangicha qarash va qiziqishlarini to‘liq qondira olmayapti.Ta’lim tizimida o‘quvchilarning faqat bilimini emas, balki ularning amaliy ko‘nikma, mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarda yechim topa olish qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Fan-texnika taraqqiyoti,ekologik muammolarning keskinlashuvi va hayot tarzi bilan bog’liq uzviy bilimlarga ehtiyoj biologiya fan ta’limida yangi pedagogik yondashuvlarni joriy etishni taqozo etmoqda. Shunday innovatsion yondashuvlardan biri bu – loyihaviy ta’limdir. An’anaviy darslarda ko‘proq nazariy bilimlarga urg’u berilgan bo‘lsa,loyihaviy ta’lim o‘quvchini amaliy faoliyatga emas,real hayotiy muammolarni o‘rganishga yo‘naltiradi. Natijada o‘quvchilar fanlarni alohida emas, balki integratsiyalashtirilgan holda o‘zlashtiradi.

Loyihaviy ta’lim biologiya darslarida o‘quvchini tayyor bilim oluvchi emas, balki muammoni yechuvchi,tadqiqotchi va tashabbuskor shaxs sifatida shakllantiradi. Ushbu metod orqali o‘quvchilar real hayotiy muammolarni biologik bilimlar asosida tahlil qilish,tajriba o‘tkazish va xulosalalar chiqarishga o‘rganadi.

Biologiya fanida bu usul:

– murakkab tushunchalarni oson anglash;

– tajriba va kuzatish ko‘nikmalarini shakllantirish;

– ekologik madaniyatni shakllantirish;

– fanlararo integratsiyani kuchaytirishga xizmat qiladi.

Biologiya darslarida loyihaviy ta’limning ahamiyati

– biologiya tushunchalarni chuqur va ongli o‘zlashtirish;

– o‘quvchilarda ekologik madaniyat va tabiatga ma’suliyatli munosabatni shakllantirish;

– ilmiy tadqiqot ko‘nikmalarini shakllantirish;

– jamoada ishlash va muloqot kompetensiyalarini oshirish.

Biologiya darslarida loyihaviy ta’limning yangicha ko‘rinishi sifatida ekologik, laboratoriya-amaliy, raqamli va STEAM yo‘nalishidagi loyihalar alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, “Maktab hududining biologik xilma-xilligini aniqlash”, “Chiqindilardan biogumus tayyorlash”,”O‘simliklarning o‘sish va rivojlanishiga turli omillarning ta’siri”, “Mini issiqxona”, “Zaharli gazlarni kamaytirish”kabi loyihalar o‘quvchilarning bilimlarini amaliyot bilan uyg’unlashtiradi va ularning muhofazasi bo‘yicha takliflar ishlab chiqarilishiga yordam beradi.

Maktabimizda o‘tkazilgan tajriba asosida 8-9-sinf o‘quvchilari bilan amalga oshirilgan “Mini-issiqxona-ekologik yechim”,”Mahalliy o‘simliklar monitoringi” loyihalari yuqori samaradorlik ko‘rsatdi. Ushbu loyiha davomida o‘quvchilar urug’ ekish,kuzatuvlar olib borish,natijalarni jadval va diagrammalar orqali tahlil qilishni o‘rgandilar. Natijada o‘quvchilarning biologiyaga bo‘lgan yangicha dunyoqarash va qiziqishlari oshdi.Darsdagi faolligi 30-35 foizga sezilarli darajada ko‘tarildi. Masalan, “Mini-issiqxona-ekologik yechim ” mavzusida o‘tkazilgan loyiha ishi

Yo‘nalishi: Ekologiya va biologiya

Loyiha turi: Amaliy-ekologik loyiha

Bajaruvchi: 8-sinf Eko taraqqiyot guruhi o‘quvchilari

Rahbar: Begimqulova Sevara

Bajarilish muddati: 1-2 oy

Amalga oshiriladigan joy: 1-maktab hududi

Loyihaning dolzarbligi

Bugungi kunda ekologik muammolar, iqlim o‘zgarishi va yashil hududlarning qisqarishi dolzarb masalalardan biridir. Ayniqsa, shahar va maktab hudularida o‘simliklarni yetishtirish imkoniyati cheklangan. Shu sabali mini issiqxonalar ekologik toza mahsulot yetishtirish, tabiatni muhofaza qilish va o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Mini issiqxona kam joy egallaydi, kam harajat talab qiladi va yil davomida o‘simlik yetishtirish imkonini beradi.

Loyihada qo‘llaniladigan metodlar: Kuzatish, tajriba o‘tkazish, taqqoslash, ekologik tahlil, natijalarni qayd etish.

Mini issiqxona tuzulishi

– karkas (yog‘och yoki metall)

– shaffof qoplama (plyonka yoki plastik)

– tuproq yoki biogumus
-sug'orish tizimi (tomchilatib)
-shamollatish teshiklari

Qayta ishlatilgan plastik idishlardan foydalanish loyiha ekologik ahamiyatini yanada oshiradi.

Amaliy qism (tajriba jarayoni)

Issiqxonada quyidagi o'simliklar ekiladi:
– pomidor
– bodring
– ko'katlar

Tajriba bosqichlari:
Tuproq tayyorlanadi
Urug'lar ekiladi
Har kuni namlik va harorat kuzatiladi
O'sish jarayoni kundalikka qayd etiladi.

Kutilayotgan va olingan natijalar
O'simliklarning tez va sog'lom o'sishi
Hosildorlikning oshishi
Suv sarfining kamayishi
O'quvchilarda ekologik ma'suliyatni shakllantirish

Tajribaga ko'ra,ochiq maydonga nisbatan issiqxonada o'sish 20-30% tezroq bo'ldi.

Loyihaning ekologik ahamiyati
Yashil hududlarni kengaytiradi;
Kislorod miqdorini oshiradi;
Ekologik toza mahsulot yetishtiriladi;
Chiqindilarni qayta foydalanishga o'rgatadi.

Mini issiqxona-bu kichik hajmli,ammo katta ekologik foyda keltiradigan yechimdir. Ushbu loyiha biologiya va ekologiya fanlarini amaliyot bilan bog'lab,o'quvchilarning tabiatga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartiradi.

Loyihaviy ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish ham muhim hisoblanadi.O'quvchilar prezentatsiya, video hisobot, elektron poster va infografikalar orqali o'z loyihalarini himoya qiladilar.Bu esa ularning kommunikativ va axborot kompetensiyalarini oshirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, biologiya darslarida loyihaviy ta'limning yangicha ko'rinishlari o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi, ekologik ma'suliyatini oshiradi va ularni kelajak kasbiy faoliyatiga tayyorlaydi. Ushbu metod biologiya fanining ta'limdagi samaradorligini sezilarli darajada oshishiga muhim pedagogik vosita bo'lib xizmat qiladi va ularning ijodiy, intellektual salohiyatini rivojlantirishga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Smith J. Project-Based Learning in Biology Education. – New York: Academic Press, 2018.

2. Karimova L. Innovative Teaching Methods in Biology. – Toshkent: Uzbekistan Publishing House, 2020.

3. Polat E. S. Loyihaviy ta'lim texnologiyalari. – Moskva, 2015.

4. Abdullayev A. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.

5. Zunnunov A. Biologiya ta'limida zamonaviy metodlar. – Toshkent, 2020.

Ma'mura MAHMUDOVA,
Toshkent viloyati, Bo'ka tumani, 31-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi,
oliy toifali boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI KREATIV QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIMIY O'YINLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarda kreativ fikrlash, keng dunyoqarash, ijodiy yondashish, hozirjavoblik, jamoaviy faollik, tasavvur va tafakkurni rivojlantirish haqida fikr yuritilan. Shuningdek, metodik tavsiyada interfaol metodlardan foydalanish usullari, ta'limiy ahamiyati va 4K modeliga asoslangan holda o'quvchilarga zamonaviy bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiyalarni singdirishga yordam berishi yoritilgan.

Tayanch so'zlar. 4K modeli, kreativlik, kommunikatsiya, kollaboratsiya, kritik fikrlash, ko'nikma, texnika taraqqiyoti.

В статье обсуждается развитие творческого мышления, широкого мировоззрения, творческого подхода, сообразительности, коллективной активности, воображения и мышления у учащихся начальной школы. Также в методической рекомендации освещены методы использования интерактивных методов, их образовательное значение и то, что они помогают учащимся приобретать современные знания, умения, навыки и компетенции на основе модели 4K.

Ключевые слова. Модель 4K, креативность, коммуникация, коллаборация, критическое мышление, навыки, технический прогресс.

The article discusses the development of creative thinking, a broad worldview, a creative approach, quick-wittedness, collective activity, imagination, and thinking in primary school students. Also, the methodological recommendation highlights the methods of using interactive methods, their educational significance, and the fact that they help students acquire modern knowledge, skills, abilities, and competencies based on the 4K model.

Key words. 4K model, creativity, communication, collaboration, critical thinking, skills, technical progress.

Boshlang'ich ta'lim bolaning o'qishga bo'lgan ijodiy munosabati,o'qish savodxonligi, turli ma'lumotlar bilan ishlash, olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish,mantiqiy va erkin fikrlash,o'z-o'zini boshqarish,jamoada o'zini tuta bilish,yozma, og'zaki muloqot madaniyat qoidalarini egallash,chet tillarini puxta o'rganish, ta'lim poydevorini mustahkamlashdagi muhim bosqichdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim samaradorligini oshirish har bir o'qituvchining bosh g'oyasi hisoblanadi. Dars jarayonida uchragan qiyinchiliklarni ta'limiy o'yinlar orqali bartaraf etish mumkin. Bu jarayonda bola o'zi bilmagan holda yangi mavzuni o'zlashtirib boradi. Natijada esa metodika va fan-texnika taraqqiyoti o'quvchilarning aqliy qobilyat darajasi va psixologiyasi o'zgarib borishida o'z ifodasini topadi.

Bugungi kun ta'limi zamonaviy metodikalarga asoslanishni taqozo qilmoqda, chunki zamonaviy metodikalar o'quvchilarning aqliy zakovati, erkin fikrlashi, mustaqil faoliyat ko'rsatishini ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Ammo o'z o'rnida shuni ta'kidlab o'tish joizki, zamonaviy metodikalarni o'z o'rnida qo'llamaslik yoki

behuda qo‘llash darsni samarasiz bo‘lishiga olib kelishi mumkin. O‘qituvchi endigina ish boshlagan bo‘lishi, yoki ko‘p yillik tajribaga ega bo‘lishidan qat’iy nazar har doim o‘quv tizimini takomillashtirishning yangi usullarini izlaydi. Darsga kirishdan oldin har bir o‘qituvchi “Nimani o‘qitaman?”. ”Qanday o‘qitaman?” degan savollarga javob bera olishi kerak. Samarali ta’lim beradigan o‘qituvchi bo‘lish uchun bolalarni o‘rganish va o‘qitishga bo‘lgan ishtiyoqning o‘zigina yetarli emas.

Kreativlik (inglizcha ”creative” yaratuvchi, ijodkor) - shaxsning yangi g‘oyalarini ishlab chiqishga tayyorligini tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma’nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi.

Barchamizga ma’lumki, hozirgi kunda bolalar psixologiyasiga zamonaviy gadjetlar yomon ta’sir o‘tkazyapti. Hattoki, 1-sinfga endigina qabul qilingan bolalar ham zamonaviy gadjetlardan bemalol foydalana olishadi. Qolaversa, bola maktabgacha ta’lim muassasidan maktabga kelgach, moslashishi qiyin bo‘ladi. Birinchi navbatda biz har bir bolaning individual, o‘ziga xos bo‘lgan imkoniyatlarini o‘rganib chiqishimiz kerak. Qaysidir bola o‘qishda zo‘r, qaysidir bola esa matematikadan zo‘r, qaysidir bola esa rasm chizishda zo‘r bo‘lishi mumkin. Ota-onalar bilan hamkorlik ham bu jarayonda muhim o‘rin tutadi. Darslarni o‘yin shaklida tashkillash esa o‘quvchilarni darsga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi. Bunday bolalarga dars berishning o‘zi bo‘lmaydi. Shunday ekan, biz o‘qituvchilardan har bir darsimizga puxta tayyorlanish, o‘zgacha yondashish, zamonaviy metodikalar ishlab chiqish, bor metodikalardan o‘rinli foydalanish talab etiladi.



Mazkur o‘quv yilda boshlang‘ich sinflarda mutlaqo yangi metodika asosida yaratilgan darsliklar bo‘yicha o‘qitish yo‘lga qo‘yildi. Prezident ta’kidlaganidek, bolalarimiz maktabdan ona tili va chet tillarini puxta o‘zlashtirib, kompyuterda ishlashni o‘rganib chiqishi zarur. Farzandlarimizni kasb -hunarlarga, san’at va madaniyatga qiziqtirishimiz, o‘quvchilarda erkin, tanqidiy va kreativ fikrlashni, jamoada ishlash va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish zarur odatda XXI asr ko‘nikmalari 4K deb atalishiga ko‘p bora guvoh bo‘lganmiz. Hozirgi kunda ta’lim jarayonida 4K kommunikatsiya, kollaboratsiya, kreativ fikrlash va kritik fikrlashdan iboratligi hech kimga sir emas.

Hozirda ona tilini o‘qitish o‘quvchida to‘rtta lingvistik ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Ya’ni o‘quvchining eshitib tushunish, o‘qib tushunish, og‘zaki va yozma nutq malakasini umumiy holda rivojlantirish eng dolzarb jihat sanaladi. Qolaversa, fan-

lararo integratsiya bugungi ta’limning asosini tashkil etmoqda. O‘zaro bog‘liqlik ta’lim jarayonida o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga erishish vositasigina emas, balki aniq pedagogik vositalarni shakllantirish, bilim, malaka, munosabatlar asosida fan tizimlarini belgilashda muhim omillardan biridir. Fanlararo bog‘liqlik ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lib, ta’lim sifatini oshirishga, darslarning qiziqarli, mazmunli, tushunarli, noan’anaviy bo‘lishga xizmat qiladi. Milliy o‘quv dasturi asosida yaratilgan darsliklarda fanlararo integratsiya shunday shakllantirilganki, o‘quvchi ehtiyoj sezadigan har qanday fan doirasida mavzular shakllantirilib, ularda til birliklaridan qanday foydalanish, nimalarga e’tibor berish kerakligiga ahamiyat berilgan.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ongida g‘oliblikka erishish istagi anchagina yuqori bo‘ladi. Agar o‘qituvchi sinf o‘quvchilari orasida, qolaversa,sinflar kesimida sog‘lom raqobatni vujudga keltira olsa, ushbu raqobat natijasida yuzaga kelgan intilish, albatta, ijobiy natijaga olib kelishi, shubhasiz. Shuning uchun ham darslarni musobaqa tarzida tashkillash, mantiqiy, tezkor savol- javoblar o‘tkazish, o‘quvchilarning harakat va intilishlarini ikki-uch barobarga oshishiga xizmat qiladi.

Ta‘lim olish jarayoni ham aqliy, ham axloqiy zehnni birgalikda rivojlantirish, bilim, ko‘nikma va malaka hosil qilib,hayotda qo‘llay olish, o‘quvchilarning yozma va og‘zaki nutqini o‘stirish, bilish faolligini oshirishdan iboratdir. Buning uchun o‘quvchilarni o‘ylashga, fikrlashga,muhokama va mulohaza yuritishga, xulosa chiqarishga o‘rgatadigan samarali metod va usullardan foydalanish talab etiladi.

Dars jarayoni uchun muayyan bir o‘yin tanlar ekanmiz, albatta, u dars mavzusi, o‘quvchi yoshiga mos kelishi kerak. Bu ta‘lim sifatini va mazmunini oshirishga, tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Barcha dars jarayonlarida foydalanish uchun ta‘limiy o‘yinlardan namunalar.

1.“TOK BOR” ta‘limiy o‘yini.

Hozir zamonimiz jadal rivojlanib bormoqda. Elektromobil (akkumulyatorlar batareyasi o‘rnatilgan bir yoki bir necha elektr dvigatel yordamida harakatlanadigan) avtomobillarning juda ham ko‘p turi mamlakatimizga kirib kelyapti. Bu ta‘limiy o‘yinda o‘quvchilar avtomobillarni bilimi orqali quvvatlantirishi kerak.

Maqsad: O‘quvchilarda kreativ fikrlash, kollaboratsiya va kommunikativlik ko‘nikmalarini shakllantirish, hayotiy kompetensiya, guruhlarda va tezkorlikda ishlash malakalarini rivojlantirish.

Foydalanish tartibi: Bu ta‘limiy o‘yin barcha fanlardan hamda darsning (o‘tilgan mavzuni so‘rash,yangi mavzuning bayoni,yangi mavzuni mustahkamlash)bosqichlarida qo‘llash maqsadga muvofiq.

Sinfdagi o‘quvchilar guruhlarga bo‘linadi. Har bir guruhga elektromobil tasviri tushirilgan list tarqatiladi. List ichiga mavzu doirasida muammoli vaziyat yoziladi. Doskaga “Tokbor” yozuvi yozilgan elektro -quvvatlantirgich uchun rasm ilinadi. Qaysi bir guruh shartni birinchi va to‘g‘ri bajarsa o‘z elektromobilini quvvatlantiradi va yuqori ball oladi. Elektromobil avtomobili metodidan kelib chiqib yana boshqa sodda metodlar yaratish mumkin. Masalan, ovchi daraxtdagi 9 ta qushdan 1 tasini otib tushirdi. Nechta qush qoldi.

Bu topshiriq soddaga o‘xshaydi, lekin o‘quvchini o‘ylashga undaydi. Shoshilgan o‘quvchi darrov 8 ta deydi, kamdan kam hollarda o‘q ovozidan qolgani uchib ketadi, faqat 1 ta o‘lgani qoladi deydi. Bu metod orqali o‘quvchining qobiliyat darajasini bilib olsak bo‘ladi.

2. “Bankka omonat qo‘y” metodi.

Maqsad: O‘quvchilarning aqliy qobilyatini rivojlantirgan holda barcha fanlardan hayotiy kompetensiyalarini shakllantirish.

Foydalanish tartibi: Dastavval o‘quvchilarga bank haqida ma‘lumot beriladi.Bankka qo‘yilgan omonat yildan yilga ko‘payishi tushuntiriladi. Ular ham qancha ko‘p o‘qisa bilimi ortib borishi taqqoslanadi. Ona tili dasrlarida so‘z turkumlari mavzusida qo‘llaymiz.

O‘quvchilarga pul ko‘rinishida kartochkalar beriladi, so‘z turkumlariga oid so‘zlar bo‘ladi (kitob,kamalak,katta,chiroyli,beshta,uchinchi,yozdi,kuldi). Doska yoniga 4 ta quti qo‘yiladi va uning pul tushadigan teshigi bo‘ladi. Quti ustiga 1-g‘azna ot so‘z turkumi, 2-g‘azna sifat so‘z turkumi, 3-g‘azna son so‘z turkumi, 4-g‘azna fe’l so‘z turkumi degan yozuv yoziladi. O‘quvchilar qo‘lidagi pullarini o‘z g‘aznasiga to‘g‘ri joylashi kerak. To‘g‘ri bajargan o‘quvchi rag‘batlantiriladi.

Bu metodni matematika darsida ham qo‘llash mumkin. O‘lchov birliklari va shunga o‘xshash boshqa mavzularda. Tabiiy fanlarda ham foydali qazilma boyliklaridan tayyorlanadigan materiallar mavzusida ham bu metoddan foydalanish o‘rinli. Bu metoddan barcha fanlarda foydalanish samarali. Bir vaqtda hamma o‘quvchi qatnashadi, kim mavzuga tushunib, kim tushunmagani ko‘rinadi.

3. “Men uddalayman” metodi.

Bu metodni ham barcha fanlardan qo‘llash tavsiya etiladi.Metodni guruhlarda, yakka tartibda mavzudan kelib chiqib qo‘llash mumkin.

Maqsad: O‘quvchilarni o‘ziga bo‘lgan ishonchini,dunyoqarashini,ongli fikrlash qobiliyatini shakllantirish. Estetik,psixologik tarbiya berish.

Foydalanish tartibi: Bu metodni o‘tkazish uchun mavzuga oid biror predmet tanlab olinadi. Berilayotgan savollarga, muammoli topshiriqlarga yoki darsning qismlariga moslab bo‘laklarga bo‘linadi. O‘quvchilar topshiriqni bajarish jarayonida qismlarni yig‘ish orqali mavzuga oid predmet shaklini hosil qiladi. Matematika darslarida yondosh mavzuni, ona tilidan mashqda berilgan predmetni, o‘qish savodxonligi darslarida hikoya qahramonlarini tanlab olish maqsadga muvofiq. Buni mavzu doirasida turli xil o‘tkazish mumkin.Yumshoq o‘yinchoqlarni qismlarga bo‘lib ilgak tugma yoki nina ip orqali javobiga qarab birlashtirish mumkin.

Yuqorida keltirilgan metodlar o‘quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini, dunyoqarashini kengaytiradi. O‘z fikrlarini mustaqil, erkin va faol bayon qila olish ko‘nikmalarini shakllantiradi. O‘quvchilarni barcha fanlarga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytiradi. Murakkab mavzularni tez va oson tushunish imkoniyatini yaratadi. Ulardagi kompetensiyani rivojlantiradi. Hozirgi kunda pedagogik texnologiyalar va axborot resuruslari rivojlangan bir paytda, o‘quvchilarga an‘anaviy usulda ta‘lim berish o‘rniga, o‘quvchilarni o‘qishga qiziqtirish,yangiliklarni o‘z vaqtida berish, 4k modelini hayotiy tadbiq etish uchun yuqoridagi noan’anaviy usullardan foydalanish darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pedagogik atamalar / M. Odilova, D. Jabbarova, S. Jo‘rayev. Namangan, 2023. 37 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Boshlang‘ich ta’lim jurnali. Toshkent, 2019. 11-son.

4. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar / T. G‘offorova. Toshkent, 2011.

5. O‘qish savodxonligi. 3-sinf / Toirova M.E. – Toshkent, 2023.

6. Ona tili. 3-sinf / U.B. Aydarova, D.Sh. Yuldasheva. –Toshkent, 2023.

Nargiza SUYUNOVA,
Toshkent davlat texnika universiteti, tayanch doktorant

O‘QUVCHILARNING MANTIQIY VA TANQIDIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqolada maktab yoshidagi o‘quvchilarda mantiqiy fikrlashning ko‘plab xususiyatlari muhokama qilinadi. Unda nazariy asoslar, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishdagi to‘siqlar, yoshga mos o‘qitish strategiyalari, ularni global miqyosda amalga oshirish va ta’lim siyosatining roli o‘rganiladi. Shuningdek, mantiqiy fikrlashni milliy o‘quv dasturlariga integratsiya qilish uchun bir necha takliflar berilib, kelajakdagi tadqiqotlar uchun yo‘nalishlar belgilangan. Bundan tashqari, mantiqiy fikrlashni kuchaytiradigan tadqiqotga asoslangan o‘rganish, hisoblash fikrlashi va fanlararo integratsiya kabi pedagogik strategiyalar muhokama qilinadi.

Tayanch so‘zlar. Mantiqiy fikrlash, tanqidiy fikrlash, raqamli texnologiyalar, interaktiv ta’lim, virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar, ta’limda raqamlashtirish, kognitiv ko‘nikmalar, metakognitiv strategiyalar.

В данной статье рассматриваются многочисленные характеристики логического мышления у учащихся школьного возраста. В ней рассматриваются теоретические основы, препятствия к развитию логического мышления, стратегии обучения, соответствующие возрасту, их глобальная реализация и роль образовательной политики. В ней также дается несколько предложений по интеграции логического мышления в национальные учебные программы и определяются области для будущих исследований. Развитие логического мышления в глобальном масштабе имеет решающее значение для подготовки учащихся к 21 веку. Поэтому в статье подчеркиваются концептуальные различия и взаимосвязи между логическим и критическим мышлением, а также проливается свет на их философские и психологические основы. Кроме того, в статье обсуждаются педагогические стратегии, которые развивают логическое мышление, такие как исследовательское обучение, вычислительное мышление и междисциплинарная интеграция.

Ключевые слова. логическое мышление, критическое мышление, цифровые технологии, цифровое образование, интерактивное обучение, виртуальные лаборатории, симуляции, инновации в образовании, цифровизация в образовании, когнитивные навыки, педагогические условия, качество образования, метакогнитивные стратегии.

This article discusses the many characteristics of logical thinking in school-age students. It examines the theoretical framework, barriers to the development of logical thinking, age-appropriate teaching strategies, their global implementation, and the role of educational policy. It also provides several suggestions for integrating logical thinking into national curricula and identifies areas for future research. Developing logical thinking globally is critical to preparing students for the 21st century. Therefore, the article highlights the conceptual differences and interrelationships between logical and critical thinking, and sheds light on their philosophical and psychological foundations. In addition, the article discusses pedagogical strategies that enhance logical thinking, such as inquiry-based learning, computational thinking, and interdisciplinary integration.

Key words. Logical thinking, critical thinking, digital technologies, digital education, interactive learning, virtual laboratories, simulations, innovations in education, digitalization in education, cognitive skills, pedagogical conditions, quality of education, metacognitive strategies.

Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalar jamiyatning barcha jabhalariga tez sur'atda kirib kelmoqda. Ayniqsa, ta'lim sohasida ushbu texnologiyalardan samarali foydalanish o'quv jarayonini yanada interaktiv, qiziqarli va mantiqiy tarzda tashkil etish imkonini beradi. Bunda, matematika darslarida onlayn platformalar va turli dasturlar orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelmoqda.Nafaqat matematika, balki boshqa aniq va gumanitar fanlarni o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.Bugungi globallashuv sharoitida bilim olish, olingan bilimlarni tahlil qilish, baholash va yangi yondashuvlarda qo'llash ko'nikmalari ham tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada matematika turli muammolarni hal qilishda mantiqiy fikrlashni talab qiladigan fan sifatida o'quvchilarga mustaqil qarorlar qabul qilishni va muammolarni hal qilishda tanqidiy yondashuvdan foydalanishni o'rgatadi.

Zamonaviy jamiyatning jadal rivojlanishi, axborot texnologiyalari va raqamli vositalarning kundalik hayotga chuqur kirib borishi ta'lim sohasida ham tub o'zgarishlarni talab qiladi. Ayniqsa, umumta'lim maktablarida o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirish, mustaqil va tanqidiy fikrlashni shakllantirish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biridir.Matematika esa o'z tabiatiga ko'ra mantiqiy tahlil, abstrakt fikrlash, isbotlash va modellashtirish kabi aqliy faoliyatlarni rivojlantiradi. Lekin, an'anaviy o'qitish usullaribarcha o'quvchilarni faol jalb qila olmaydi. Bu holda raqamli texnologiyalar interaktivlik, vizualizatsiya, modellashtirish, o'yinga asoslangan o'rganish elementlari va individuallashtirilgan yondashuvlarni ta'minlaydi, o'quvchini darsga faol ishtirokchi sifatida jalb qiladi.

Ta'limda tanqidiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish bugungi kunda xalqaro ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib kelmoqda. YUNESKO va OECD kabi tashkilotlar mantiqiy fikrlash, muammolarni hal qilish va mustaqil qarorlar qabul qilishni ta'lim tizimini isloh qilishda XXI asr ko'nikmalaridan biri sifatida targ'ib qilmoqdalar. Xususan, OECDning "Education 2030" dasturi raqamli kompetensiyalar, tanqidiy va ijodiy fikrlash hamda ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni ta'lim mazmunining ajralmas qismi sifatida belgilaydi.

Mantiqiy va tanqidiy fikrlashning asosiy farqlari va mazmun-mohiyatlariga to'xtaladigan bo'lsak, bu tushunchalar ko'p hollarda sinonim sifatida ishlatiladi, lekin ular orasida sezilarli farqlar mavjud. Mantiqiy fikrlash – bu insonning muammolarni hal qilish, sabab va oqibatni aniqlash va dalillarga asoslanib tizimli va to'g'ri xulosalar chiqarish qobiliyatidir. Uning asosiy xususiyatlari deduktiv va induktiv fikrlash; sabab va oqibat tahlili; formulalar, sxemalar, algoritmlarga asoslangan fikrlash; matematik fikrlashdir. Masalan, "Agar barcha suvda yashovchi hayvonlar o'lgan bo'lsa va Amur dengizda yashovchi baliq turi bo'lsa, u holda Amur ham o'lgan". Ushbu fikrlash shakli deduktiv mantiqqa asoslanadi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, dastlab antik davr faylasuflari - Aristotel, Stoiklar - mantiqiy fikrlashni asoslab berishgan, keyinchalik Bul va Frege uni matematik mantiq orqali rivojlantirgan. Bunda, matematika, informatika, fizika kabi aniq fanlar mantiqiy fikrlash bilan chambarchas bog'liqbo'lib, ijtimoiy va gumanitar fanlar rivojiga tanqidiy fikrlash o'z hissasini qo'shgan. "Mantiq - bu bizga to'g'ri xulosalar chiqarishni o'rgatadigan fikrlash qonunlari haqidagi fan", deydi Boole G, 1854 "Fikrlash qonunlari" asarida. Tanqidiy fikrlash - bu insonning mavjud fikrlar, g'oyalar va dalillarni tahlil qilish, ularni baholash, ularga oqilona shubha bilan yondashish va muqobil yechimlarga o'tish

qobiliyatidir. Uning asosiy xususiyatlari dalillarni tahlil qilish va baholash; yolg‘on dalillarni tan olish va yo‘q qilish; turli gipotezalarni taqqoslash; “Nima uchun?”, “Rostdan ham shundaymi?” kabi savollarni berishdir. Masalan, “Bu dori bemorlarning 95 foiziga yordam berdi.” Tanqidiy fikrlash jarayonida quyidagi savollar beriladi: “Qaysi tadqiqotga asoslangan? Nima uchun u qolgan 5 foizga yordam bermadi? Balki bu plasebodir?”. Ushbu savollar natijasida eng maqbul va aniq xulosalar chiqariladi. Tanqidiy fikrlashga oid qarashlar zamonaviy psixologlar va o‘qituvchilar - Jon Dewey, Robert Ennis, Richard Pol va Linda Elder asarlarida chuqur yoritilgan. Ulardan biri, Facione, shunday deydi: “Tanqidiy fikrlash - bu dalillar sifatini tahlil qilish va to‘g‘ri qarorlar qabul qilish san’atidir.”

Mantiqiy fikrlash ko‘pincha fanlararo integratsiyada matematika va aniq fanlar bilan cheklanadi. Biroq, tarixiy dalillarni sharhlash va adabiyotlarni tahlil qilish orqali biz mantiqiy muammolar barcha fanlar uchun zarur bo‘lgan tizimli fikrlashni rivojlantirishini aniqlashimiz mumkin. Bu g‘oya ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda ilgari suriladi. Misol uchun, Finlandiya milliy o‘quv dasturida fanlar bo‘yichatanqidiy va mantiqiy fikrlashni o‘z ichiga olgan ko‘plab kompetensiyalarga urg‘u beriladi. Ochiq tadqiqotlar va individuallashtirilgan o‘qitish, asosiy tamoyillar hisoblanadi. Singapurning “Fikrlovchi maktablar, o‘rganuvchi millatlar” tashabbusi milliy baholashlarda tanqidiy fikrlashni yuqori darajaga olib chiqqan. O‘quv dasturlarida fikrlash va metakognitiv strategiyalar bo‘yicha aniq ko‘rsatmalar mavjud (Tan, 2016). Garvardning “Project Zero” kabi dasturlari mantiq va mulohaza yuritishni rag‘batlantiruvchi protseduralar orqali “visible thinking”ni rivojlantirishga qaratilgan. Bundan tashqari, STEAM tashabbusida boshlang‘ich ta’limda kodlash va robototexnikaga tobora ko‘proq urg‘u berish maqsad qilingan. Milliy ta’lim siyosati (NEP) 2020 yodlashdan tanqidiy va mantiqiy fikrlashni o‘z ichiga olgan kompetensiyaga asoslangan ta’limga o‘tishni talab qiladi. Biroq, qishloq hududlarda resurslar nomutanosibligi tufayli bu ishlarni amalga oshirishda qiyinchiliklar saqlanib qolmoqda.

Texnologiyalarga asoslangan moslashuvchan baholash platformalari mantiqiy fikrlash vazifalarini individual o‘quvchilar darajasiga qarab farqlashga yordam beradi. Milliy o‘quv dasturlari mantiqiy fikrlashni tizimli ravishda joriy etish uchun ta’lim siyosatida asosiy kompetensiya sifatida mantiqiy fikrlashni qo‘yishadi hamda kognitiv va tanqidiy fikrlash pedagogikasi bo‘yicha o‘qituvchilarni tayyorlashni taklif qiladi.

Raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilar katta hajmdagi axborotga duch kelishadi, ammo bu axborotni tanqidiy baholash, ishonchli manbalarni ajratish, mantiqiy izchillikda tahlil qilish ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmagan. Raqamli texnologiyalar yordamida mantiqiy operatsiyalarni (tahlil, sintez, umumlashtirish, klassifikatsiya) rivojlantirish, tanqidiy fikrlashning asosiy komponentlarini (dalillarni baholash, xulosalar chiqarish, muqobil yechimlarni izlash) mustahkamlash uchun maxsus pedagogik sharoitlar yaratish zarurati yuzaga keladi.

Ushbu vaziyat raqamli texnologiyalar vositasida o‘quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning ilmiy asoslangan, tizimli konsepsiyasini ishlab chiqish zaruriyatini belgilaydi. Bunday konsepsiya pedagogik jarayonning maqsadlari, mazmuni, metodlari va shakllari hamda raqamli ta’lim vositalari o‘rtasida mantiqiy bog‘liqlikni ta’minlashi, turli yoshdagi o‘quvchilarning psixologik-pedagogik xususiyatlarini hisobga olishi lozim.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar va fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish muammolari alohida-alohida o‘rganilgan, biroq ularning o‘zaro integratsiyasi, ayniqsa mahalliy ta’lim sharoitida, yetarli darajada tadqiq etilmagan. Xorijiy tajribani moslashtirishda milliy ta’lim tizimining o‘ziga xos

xususiyatlari, madaniy kontekst va mavjud ta’lim infratuzilmasi imkoniyatlarini hisobga olish zaruriyati mavjud.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar vositasida mantiqiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning samaradorligini baholash mezoni va diagnostika vositalarini ishlab chiqish, o‘quv jarayonida hosil bo‘lgan natijaviy ko‘rsatkichlarni monitoring qilish tizimini joriy etish zarurati ham dolzarb masala hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan mulohazalardan kelib chiqib, umumta’lim maktablarida raqamli texnologiyalar vositasida o‘quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish, pedagogik sharoitlarni aniqlash va metodikasini takomillashtirish zamonaviy ta’lim nazariyasi va amaliyoti uchun dolzarb ilmiy-amaliy muammo hisoblanadi. Ushbu muammoni hal etish ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarni zamonaviy raqamli jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlash hamda milliy ta‘lim tizimini xalqaro standartlar darajasiga ko‘tarish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, mantiqiy fikrlash o‘quvchilarga masalalarni algoritmik tahlil qilish va matematik isbotlash kabi ko‘nikmalarni beradi. Bu matematikani, dasturlash va ilmiy mantiq asoslarini o‘rganishda muhim hisoblanadi. Boshqa tomondan, tanqidiy fikrlash mavzularni chuqur tushunish, o‘z fikrini asoslash va qarama-qarshi nuqtai nazarlarni taqqoslash imkonini beradi. Bu adabiyot, tarix va huquq kabi fanlarda, shuningdek, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish uchun zarurdir.

Mantiqiy va tanqidiy fikrlash tug‘ma fazilatlar emas, balki o‘rgatilishi lozim bo‘lgan ko‘nikmalardir. Ularning rivojlanishi o‘quvchilarni tez o‘zgarib borayotgan dunyoda ma’lumotlarni tahlil qilish, murakkab muammolarni hal qilish va to‘g‘ri qarorlar qabul qilishga tayyorlash uchun juda muhimdir. To‘siqlarni olib tashlash va tadqiqotga asoslangan amaliyotlarni joriy etish orqali o‘qituvchilar mantiqan fikrlaydigan, axloqiy yo‘l tutadigan va jamiyatga mazmunli hissa qo‘shadigan o‘quvchilar avlodini tarbiyalashlari mumkin.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, mavjud tadqiqotlarda asosan raqamli texnologiyalarning texnik jihatlari yoki fikrlash ko‘nikmalarining umumiy pedagogik masalalari ko‘rib chiqilgan, ularning o‘zaro ta’siri, pedagogik integratsiyasi va kompleks rivojlantirish texnologiyasi yetarlicha ishlab chiqilmagan. Shuningdek, turli yosh guruhlariga mos raqamli ta‘lim muhitini loyihalash, mantiqiy va tanqidiy fikrlashni bosqichma-bosqich rivojlantirish, shuningdek, natijaviylikni baholash mexanizmlari to‘liq o‘rganilmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yunusova M. H. Matematika ta’limida raqamli texnologiyalardan foydalanish usullari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021. – 136 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 204. 22–2026 yillarda Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi PF–60-son Farmoni. – Toshkent, 2022.

3. Peter A. Facione. Critical Thinking: What It Is and Why It Counts. – Insight Assessment, 2011. – 27 p.

4. Pasi Sahlberg. Finnish lessons: What can the world learn from educational change in Finland? – New York: Teachers College Press, 2011.

5. Suyunova N. A. O‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish vositalari va usullari // Tafakkur ziyosi. – 2025. – 3-son. – 243–246-b.

6. Suyunova N. A. Enhancing logical thinking in school students: strategies, challenges, and future directions // Science and Innovation: International Scientific Journal. – 2025. – 4-jild, 9-son. – 165–169-b. – ISSN 2181-3337.

Mushtariy RAXIMOVA,
Andijon davlat pedagogika instituti, assistent o‘qituvchi

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA “VARK” (VISUAL, AUDITORY, READ/WRITE, KINESTHETIC) MODELI ASOSIDA MULTIMODAL TA’LIMNI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinf ona tili ta’limini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish zarurati asoslab beriladi hamda o‘quvchilarning individual idrok xususiyatlarini hisobga olishda multimodal ta’lim konsepsiyasining ahamiyati yoritiladi. VARK (Visual, Aural, Read/Write, Kinesthetic) modeli ona tili darslarini loyihalashda samarali metodik vosita sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek, boshlang‘ich ta’lim amaliyotida uchraydigan bir xil metodga tayanish muammosi, o‘quvchilarning idrok tezligi va o‘rganish uslublaridagi farqlar, dars dizaynini turli kanallar asosida tashkil etish zarurati ko‘rsatib beriladi. Muallif VARK modelini o‘quvchini qat’iy toifalash vositasi emas, balki darsni multimodal asosda rejalash metodologiyasi sifatida qo‘llash ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Tayanch so‘zlar. VARK modeli, multimodal ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, ona tili metodikasi, dars dizayni, o‘rganish uslublari, pedagogik yondashuv, individual farqlar, o‘quv motivatsiyasi, kompetensiyaviy yondashuv.

В статье обосновывается необходимость организации обучения родному языку в начальных классах на основе современных педагогических подходов, а также освещается значение концепции мультимодального обучения с учетом индивидуальных особенностей восприятия учащихся. Модель VARK (Visual, Aural, Read/Write, Kinesthetic) анализируется как эффективное методическое средство при проектировании уроков родного языка. Также показана проблема опоры на один и тот же метод, встречающаяся в практике начального образования, различия в скорости восприятия учащихся и методах обучения, необходимость организации дизайна урока на основе различных каналов. Автор научно обосновал использование модели VARK не как инструмента строгой категоризации учащихся, а как методологии планирования урока на мультимодальной основе.

Ключевые слова. Модель VARK, мультимодальное образование, начальное образование, методика родного языка, дизайн урока, методы обучения, педагогический подход, индивидуальные различия, учебная мотивация, компетентностный подход.

The article substantiates the need to organize primary school native language education based on modern pedagogical approaches and highlights the importance of the concept of multimodal education in taking into account the individual perceptual characteristics of students. The VARK (Visual, Aural, Read/Write, Kinesthetic) model is analyzed as an effective methodological tool in the design of native language lessons. Also, the problem of relying on the same method encountered in primary education practice, differences in the speed of students’ perception and learning styles, the need to organize lesson design based on different channels are shown. The author scientifically substantiates the application of the VARK model not as a tool for strictly categorizing students, but as a methodology for planning lessons on a multimodal basis.

Key words. VARK model, multimodal education, primary education, native language methodology, lesson design, learning methods, pedagogical approach, individual differences, learning motivation, competency-based approach.

Har bir davr ta’lim oldiga o‘z vazifasini qo‘yadi. Bir necha o‘n yil avval o‘quvchi uchun “bilim” ko‘proq tayyor axborotni yodlab olish bilan ifodalangan bo‘lsa, bugungi sharoitda axborot oqimining keskin ortishi, raqamli muhit, turli formatdagi matnlar (qisqa xabar, izoh, video osti matni, jadval, rasmli ko‘rsatma, interaktiv topshiriq) bilan yashash zarurati ta’lim natijalarini boshqacha talqin qilishni talab etmoqda. Endilikda o‘quvchi faqat “o‘qiy olishi” emas, balki matnni tushunishi, tahlil qilishi, xulosa chiqarishi, fikrini og‘zaki va yozma ifodalashi, o‘z fikrini dalillashi, axborotni turli ko‘rinishda qabul qilib, uni qayta ishlashi lozim. Ayniqsa boshlang‘ich sinf bosqichida ona tili fanining mazmuni o‘quvchining keyingi ta’lim yo‘lini belgilab beradigan tayanch kompetensiyalarni (o‘qish, yozish, nutq, mantiqiy fikrlash, muloqot) shakllantiradi. Shu sababli ona tili darslarini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish nafaqat metodik masala, balki ijtimoiy zaruratga aylanmoqda.

Boshlang‘ich ta’lim amaliyotida ko‘p uchraydigan muammolardan biri shundaki, dars jarayonida “bir xil tushuntirish – bir xil mashq – bir xil tekshiruv” sxemasi ustun bo‘lib qoladi. Bunda sinfdagi o‘quvchilar o‘rtasidagi tabiiy farqlar (idrok tezligi, diqqat barqarorligi, eslab qolish turi, qiziqish yo‘nalishi, faollik shakli) yetarli hisobga olinmaydi. Natijada ayrim o‘quvchilar ko‘rgazmali tayanchga ehtiyoj sezsa, ayrimlari eshitib anglash orqali tez o‘zlashtiradi; boshqalari o‘qib-yozib mustahkamlashni xush ko‘rsa, yana bir qismi amaliy harakat, o‘yin, modellashtirish orqali “tushunib oladi”. Demak, ona tili darsida bitta kanalga tayanish (faqat og‘zaki izoh yoki faqat yozma mashq) o‘quvchilarning bir qismini “chetda qoldirish” xavfini kuchaytiradi; bu esa o‘zlashtirish tafovutlari, ishtirok pasayishi va bilishga qiziqishning so‘nishiga olib keladi.

Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun ona tili darsini samarali tashkil etish – faqat darslik materialini bilish emas, balki o‘quv materialini turli yo‘l bilan taqdim etish, o‘quvchini faol ishtirokga jalb qilish, mavzu mohiyatini “turli kirish yo‘llari” bilan ochib berish, o‘zlashtirishni mustahkamlash va baholashni differensial tashkil etish demakdir[1]. Ya’ni bo‘lajak o‘qituvchini tayyorlash jarayonida metodik tayyorgarlik “faqat usullar ro‘yxati” bilan cheklanmay, balki o‘qitish dizayni (darsni loyihalash) darajasiga ko‘tarilishi zarur.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar ichida o‘quvchi farqlarini hisobga olishning aniq, amaliy va tushunarli mexanizmlaridan biri – multimodal ta’lim konsepsiyasidir. Multimodallik g‘oyasi o‘quv materialini bir vaqtning o‘zida yoki ketma-ket bir necha kanalda (ko‘rish, eshitish, o‘qish-yozish, amaliy harakat) berish orqali o‘quvchining idrokini faollashtirishga tayanadi. Bu yondashuvning nazariy ildizlari turlicha bo‘lsa-da, amaliy pedagogikada ko‘p qo‘llanadigan modellardan biri sifatida VARK (Visual, Aural, Read/Write, Kinesthetic) alohida ajralib turadi. VARK modeli o‘quvchining axborotni qabul qilishdagi ustun yo‘nalishlarini ko‘rsatadi hamda o‘qituvchiga darsni turli formatda tashkil etish zaruratini “oddiy va amaliy til”da tushuntirib beradi[2].

VARK modelining g‘oyaviy asosi shundan iboratki, inson axborotni qabul qilish va qayta ishlashda ko‘pincha ma’lum modal resurslarga suyanadi: kimdir ko‘rgazmali materiallar (rasm, sxema, jadval, rangli ajratish) orqali tezroq anglaydi; kimdir eshitish (izoh, suhbat, muhokama, audio matn) orqali; boshqasi o‘qish va yozish orqali; yana

[1] Berdikulova, N.E. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda innovatsion va integratsion texnologiyalarni takomillashtirish: PhD dissertatsiyasi avtoreferati. — Samarqand: Samarqand davlat universiteti, 2023. — B. 8–12 (bo‘lajak o‘qituvchi tayyorlashda innovatsion yondashuvlar zarurati).

[2] Fleming, N.D.; Mills, C. Not Another Inventory, Rather a Catalyst for Reflection // To Improve the Academy. — Stillwater (OK): New Forums Press, 1992. — B. 137–155.

boshqasi amaliy harakat (tajriba, modellashtirish, o‘yin, predmetli manipulyatsiya) orqali. VARK yondashuvi o‘qituvchini “hamma bir xil o‘rganadi” degan soddalashtirilgan tasavvurdan chiqarib, dars dizaynini o‘quvchi ehtiyojlariga moslashtirishga undaydi. VARK savolnomasi va unga bog‘liq tavsiyalar o‘qituvchi hamda o‘quvchi uchun refleksiya vositasi sifatida ishlab chiqilgan bo‘lib, u “o‘zim qanday o‘rganaman?” savoliga amaliy javob topishga yordam beradi[3].

Biroq VARKni qo‘llash masalasida ilmiy adabiyotlarda muhim eslatma mavjud: “learning styles” g‘oyasini shaxsni qat’iy toifalash, ya’ni “bu bola faqat vizual” degan tarzda rigid ajratish ilmiy jihatdan har doim ham to‘liq tasdiqlanmaydi. Aksincha, ko‘plab tadqiqotlar o‘quvchilarning katta qismi multimodal ekanini, ya’ni bir nechta kanaldan foydalanishini ko‘rsatadi. Shuningdek, “diagnostika qilindi – moslab o‘qitildi” degan oddiy sxema har doim ham kutgan natijani bermasligi, ilmiy tekshiruvlar qat’iy metodologiya talab qilishini ta’kidlaydi.4Shu sababli ushbu tadqiqotda VARK modeli “o‘quvchini yorliqlash” vositasi sifatida emas, balki ona tili darsini multimodal dizayn qilish (darsni turli kanalda rejalash, topshiriqlarni V–A–R/W–K bo‘yicha balanslash, o‘quvchini qiziqtirishni kuchaytirish) uchun metodik asos sifatida qaraladi.

Aynan ona tili darslari VARK modeli uchun tabiiy mos maydon hisoblanadi. Chunki ona tili darsida: (1) grafika va imlo (harf–so‘z–gap–matn) ko‘rish kanali bilan bevosita bog‘langan; (2) talaffuz, ohang, eshitib anglash, dialog va nutq eshitish kanalini talab qiladi; (3) o‘qish va yozish faoliyati fan mazmunining asosiy tayanchi; (4) boshlang‘ich sinf didaktikasida esa o‘yin, kartochka bilan ishlash, modellashtirish, guruhlash, “joyiga qo‘yish” kabi kinestetik-amaliy usullar samarali natija beradi. Demak, ona tili darsining o‘zi ichidan VARKning to‘rt kanali uchun tabiiy imkoniyatlar chiqadi; masala – o‘qituvchining ularni to‘g‘ri uyg‘unlashtira olishida.

Bundan kelib chiqadiki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ona tili darslarida VARK asosida o‘qitishni takomillashtirish masalasi ikki qatlamda namoyon bo‘ladi: birinchidan, o‘quvchilar (1–4-sinf)ning idrok va o‘zlashtirish xilma-xilligi; ikkinchidan, bo‘lajak o‘qituvchining darsni multimodal loyihalash kompetensiyasi. Agar birinchi qatlam – tabiiy psixologik-pedagogik holat bo‘lsa, ikkinchi qatlam – oliy pedagogik ta’lim jarayonida maqsadli shakllantiriladigan metodik tayyorgarlik natijasidir. Demak, tadqiqot obyektiv ravishda oliy ta’limdagi metodika, amaliyot va dars dizaynini yangilash zaruratini keltirib chiqaradi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy vazifalaridan biri – o‘quvchini bilishga qiziqtirishdir. Qiziqish esa faqat “qiziqarli mavzu” bilan emas, balki o‘quvchining darsdagi muvaffaqiyat hissi, tushunganini his etishi, faol qatnashishi, “men ham qila olaman” degan ichki ishonchi bilan mustahkamlanadi. O‘quvchi materialni o‘ziga qulay kanal orqali qabul qilsa, tushunish tezlashadi; tushunish esa qiziqishni oshiradi. Shu jihatdan VARK asosida multimodal dars qurilishi qiziqishni “tashqi rag‘bat” bilan emas, balki darsning ichki dizayni orqali kuchaytirishga xizmat qiladi. Qiziqishning bosqich-ma-bosqich shakllanishini tushuntiruvchi nazariyalarda ham o‘quvchini jalb etish (triggered situational interest), uni ushlab turish (maintained), keyin individual qiziqishga aylantirish g‘oyalari ilgari surilgan bo‘lib, dars dizaynining o‘rni alohida ta’kidlanadi[5].

[3] VARK Learn Limited. The VARK Questionnaire (Version 8.02): How Do I Learn Best? — (PDF), 2023. — B. 1–4.

[4] Prithishkumar, I.J.; Michael, S.A. Understanding your student: using the VARK model // Journal of Postgraduate Medicine. — 2014. — Vol. 60, No. 2. — B. 183–186.

[5] Pashler, H.; McDaniel, M.; Rohrer, D.; Bjork, R. Learning Styles: Concepts and Evidence // Psychological Science in the Public Interest. — 2009. — Vol. 9, No. 3. — B. 105–119.

Shuningdek, dars dizaynida bir xil axborotni turli modal ko‘rinishda berish g‘oyasi nafaqat VARK, balki inklyuziv va adolatli ta’limni ko‘zlovchi yondashuvlarda ham tayanch tamoyil sifatida keladi.

Masalan, Universal Design for Learning (UDL) ko‘rsatmalarida axborotni ko‘rish, eshitish va boshqa modal imkoniyatlar orqali teng idrok etish imkonini berish tavsiya qilinadi. Bu holat VARKning amaliy yo‘nalishi bilan mazmunan uyg‘un: o‘qituvchi bir mavzuni faqat bitta ko‘rinishda emas, balki o‘quvchi ehtiyojiga mos bir necha ko‘rinishda taqdim etishi kerak.[6]

Bo‘lajak o‘qituvchini tayyorlash jarayonida VARK asosida metodik tayyorgarlikni shakllantirish uchun eng muhim nuqta – darslik bilan ishlashdir. Chunki amaliyotda o‘qituvchi ko‘p hollarda aynan darslikdagi mavzu, matn va topshiriqlardan kelib chiqib darsni tashkil etadi. Shuning uchun 1–4-sinf ona tili darsliklari bo‘yicha: (a) mavzularni VARK bo‘yicha “kodlash”; (b) har bir mavzu uchun V–A–R/W–K resurslar tanlash; (c) topshiriqlarni multimodal kombinatsiya asosida (V+A; A+R/W; R/W+K; V+A+R/W+K) ishlab chiqish; (d) dars bosqichlarida (motivatsiya–anglash–mustahkamlash–qo‘llash) kanallar balansini saqlash bo‘lajak o‘qituvchining real kasbiy kompetensiyasiga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf ona tili ta’limida VARK modeli asosida multimodal yondashuvni qo‘llash o‘quvchilarning individual idrok xususiyatlarini hisobga olgan holda darslarni samarali tashkil etish imkonini beradi. Ushbu model o‘quvchilarning bilimni turli kanallar orqali qabul qilishiga sharoit yaratib, o‘zlashtirish tafovutlarini kamaytiradi hamda ta’lim jarayonida faol ishtirokni kuchaytiradi.

Multimodal dars dizayni o‘quvchilarda nafaqat bilimlarni mustahkam o‘zlashtirishni, balki o‘qishga qiziqishni oshirish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish va nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, VARK modeli o‘qituvchini darsni turli pedagogik vositalar yordamida loyihalashga undab, ta’lim jarayonini yanada moslashuvchan va samarali qiladi.

Demak, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida multimodal dars dizayni ko‘nikmalarini shakllantirish zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ona tili darslarini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi hamda o‘quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. Boshlang‘ich ta’lim davlat ta’lim standarti. – Toshkent, 2021.

2. Azizxo‘jayeva N.N. pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2006.

3. Musurmonova O. Ta’limda innovatsion yondashuvlar. – Toshkent, 2015.

4. Fleming N.D., Mills C. Not another inventory, rather a catalyst for reflection // to improve the academy. – 1992.

5. Fleming N.D. Teaching and learning styles: vark strategies. – christchurch: n.d. fleming, 2014.

6. Mayer R.E. Multimedia learning. – cambridge university press, 2009.

7. Tomlinson C.A. How to differentiate instruction in academically diverse classrooms. – ascd, 2014.

8. Cast. Universal design for learning guidelines version 2.2. – wakefield, ma, 2018.

[6] 5. Sarp, M.; Okumuş, S. Investigation of VARK Learning Styles of Pre-Service Science Teachers in terms of Various Variables // Eurasian Journal of Teacher Education. — 2025. — Vol. 6, No. 1. — B. 1–17.

Xusniya ERGASHEVA,
Qarshi davlat texnika universiteti, “Umumtexnik fanlar” kafedrasi, assistent

“CASE-STUDY” TEXNOLOGIYASINING OLIY TA’LIM PEDAGOGIKA DARSLARIDA TANQIDIY VA REFLEKTIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI

Annotatsiya

Maqolada oliy ta’lim tizimida, xususan pedagogika fanlari darslarida case-study (keys-stadi) metodologiyasining talabalar tanqidiy va reflektiv fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, case-study usuli talabalarning mustaqil fikrlashini rag‘batlantiradi, muammolarni tahlil qilish va qaror qabul qilish jarayonlarini ta’minlaydi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, pedagogika yo‘nalishidagi darslarda case-study usulini keng joriy etish talabalarning fikrlash ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tayanch so‘zlar. Case-study metodologiyasi, Oliy ta’lim, Tanqidiy fikrlash, Reflektiv fikrlash, Interaktiv ta’lim metodlari.

В данной статье анализируется роль методологии case-study (кейс-стади) в системе высшего образования, в частности в преподавании педагогических дисциплин, в развитии критического и рефлексивного мышления студентов. Ранее проведённые исследования показали, что метод case-study стимулирует самостоятельное мышление студентов, обеспечивает анализ проблемных ситуаций и способствует формированию навыков принятия решений. Согласно результатам исследования, широкое внедрение метода case-study в преподавание дисциплин педагогического направления способствует укреплению мыслительных навыков обучающихся.

Ключевые слова. Методология case-study, высшее образование, критическое мышление, рефлексивное мышление, интерактивные методы обучения.

This article examines the role of the case-study methodology in the higher education system, particularly in pedagogy courses, in fostering students’ critical and reflective thinking skills. Previous studies have shown that the case-study method promotes independent thinking, facilitates problem analysis, and supports decision-making processes. The research findings indicate that the broader implementation of the case-study method in pedagogy-oriented courses contributes to strengthening students’ cognitive and analytical skills.

Key words. Case-study methodology, higher education, critical thinking, reflective thinking, interactive teaching methods.

Tanqidiy fikrlash zamonaviy oliy ta’lim tizimining poydevoriy kompetensiyalaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Ushbu ko‘nikma nafaqat talabaning nazariy bilimlarni anglash darajasini oshiradi, balki ularni mustaqil tahlil qilish, dalillarga asoslangan xulosa chiqarish, qaror qabul qilish va muammolarga innovatsion yondashish qobiliyatini shakllantiradi. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimida ham tanqidiy fikrlashni rivojlantirish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mamlakat ta’lim siyosatida raqobatbardosh, ijodkor, tashabbuskor, erkin fikrlovchi yoshlarni tayyorlash eng muhim ustuvor vazifa etib belgilangan. Shu boisdan, oliy ta’lim muassasalari uchun tanqidiy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladigan samarali pedagogik strategiyalarni amaliyotga tatbiq etish dolzarb masalaga aylangan.

Biroq, an’anaviy o‘qitish usullari – xususan, tinglovchi talabaning passiv ishtiro-

kini ko‘zda tutadigan ma’ruza shaklidagi darslar – talabalar faolligini cheklab qo‘yadi. Bunday yondashuv ko‘pincha tayanch bilimlarni yodlashga asoslanib, tanqidiy-tahliliy fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlarini yetarli darajada ta’minlay olmaydi. Natijada, talabalar real hayotdagi murakkab pedagogik vaziyatlarga yoki professional muammolarga tayyor emasligicha qolish ehtimoli ortadi. Bu esa zamonaviy mehnat bozorining o‘zgaruvchan talablari bilan nomutanosiblikni yuzaga keltiradi.

Shu nuqtayi nazardan, faoliyatga yo‘naltirilgan, muammoga asoslangan o‘qitish texnologiyalari, jumladan case-study (keys-stadi) metodi ayni dolzarb va samarali vosita sifatida e’tirof etiladi. Mazkur metodologiya talabalarning real yoki model holatlarni chuqur o‘rganish, ularni tahlil qilish, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, muqobil yechimlarni ishlab chiqish va ularga nisbatan asosli xulosa qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Case-study texnologiyasi o‘quvchilarning faolligini oshiradi, ular o‘z fikrlarini asoslash, jamoa bilan ishlash va muammoga multidissiplinar yondashish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, case-study metodini tizimli ravishda o‘quv jarayoniga integratsiya qilish nafaqat nazariy bilimlarni puxta o‘zlashtirish, balki tanqidiy va reflektiv fikrlashni rivojlantirishda ham samarali vositaga aylanadi. Ayniqsa, pedagogika kabi ijtimoiy-gumanitar fanlarda bu usul orqali talabalar nazariy konsepsiyalarni amaliy holatlar bilan bog‘lash, o‘z pedagogik qarashlarini mustahkamlash, xatolar ustida refleksiya yuritish va o‘z o‘qituvchilik pozitsiyasini shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Shunday qilib, keys-stadi texnologiyasi, ta’lim jarayonining faollashtiruvchi, tahlilga asoslangan va refleksiya talab qiladigan xususiyatlari orqali, pedagogika yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar fikrlash madaniyatini shakllantirishda kuchli ilmiy-uslubiy resurs sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu sababli, uning ta’limdagi tatbiqi ilmiy izlanishlar orqali asoslab berilishi va amaliy natijalar bilan mustahkamlanishi zarurdir.

Maqsad. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – oliy ta’lim tizimida, xususan pedagogika yo‘nalishidagi darslarda case-study (keys-stadi) metodologiyasidan samarali foydalanish orqali talabalar tanqidiy va reflektiv fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Maqolada ushbu metodning o‘quv jarayoniga integratsiyasi orqali talabalarda mustaqil tahlil qilish, mantiqiy xulosa chiqarish, muammolarni kompleks tahlil etish hamda dalillarga asoslangan qaror qabul qilish kompetensiyalarining qanday o‘zgarishi va rivojlanishi tahlil qilinadi. Shuningdek, case-study yondashuvi yordamida pedagogika fanlarida ta’lim samaradorligini oshirish, talabalarni faol ishtirok etishga undash va ularning shaxsiy professional pozitsiyalarini shakllantirish imkoniyatlari ochib beriladi.

Mavzu bo‘yicha boshqa olimlarning ilmiy asarlari tahlili. Zamonaviy ta’lim jarayonida case-study metodologiyasi ilg‘or pedagogik texnologiya sifatida e’tirof etilib, xalqaro amaliyotda keng qo‘llanilmoqda. Mazkur yondashuv o‘quvchilarda real hayotiy holatlarni tahlil qilish, ularni chuqur anglab yetish, mustaqil qaror qabul qilish va muloqotga kirishish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Xususan, Ashimova va Turexanova (2022) o‘z tadqiqotlarida case-study metodining chet tilini o‘qitishdagi samaradorligini o‘rganar ekan, ushbu yondashuv orqali talabalarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasi an’anaviy metodlarga nisbatan sezilarli darajada kuchayganini aniqlaganlar. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, case-study metodiga asoslangan darslar talabalarda mantiqiy fikrlash, dalillash va mustaqil xulosa chiqarish faolligini oshirgan.

Shuningdek, Liu va Chen (2019) tomonidan o‘tkazilgan harakat tadqiqotida peda-

gogika fakulteti talabalari bilan olib borilgan tajriba asosida case-video materiallari va guruh muhokamalari asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar natijasida talabalarning reflektiv fikrlash darajasi sezilarli darajada o‘zgargani aniqlangan. Statistik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ushbu metodologiya yordamida talabalarning nafaqat fanga bo‘lgan qiziqishi, balki ularning chuqur tahliliy fikrlash qobiliyati ham rivojlangan.

Mahalliy tadqiqotlarda ham case-study metodining ijobiy jihatlari ta’kidlanadi. Jumladan, Ruzikulova (2021) ushbu metodning o‘zbek ta’lim tizimida qo‘llanilish imkoniyatlarini o‘rganib, u o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, o‘rganilgan bilimlarni umumlashtirish, ularni real holatlarda qo‘llay olish qobiliyatini shakllantirishda samarali ekanini ta’kidlaydi. Muallifning fikricha, case-study usuli nafaqat individual fikrlashni, balki jamoaviy muloqot, asosli tahlil va ko‘p yo‘nalishli muhokamalar asosida yechim topish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Shuningdek, xalqaro tajribada – xususan AQSh, Kanada, Janubiy Koreya, Singapur kabi mamlakatlarda – case-study metodidan pedagogika, biznes, huquq, tibbiyot, muhandislik kabi turli fanlarda foydalanilib, ularning asosiy vazifasi talabalarni real muammolarga duchor qilib, tahlil qilish va qaror qabul qilish jarayoniga faol jalb etishdan iborat ekani qayd etilgan. Bu esa ta’limning faollashtiruvchi, muammoli va kompetensiyaga yo‘naltirilgan shaklini yaratadi.

Biroq, O‘zbekiston ta’lim amaliyotida aynan pedagogika fanlari doirasida case-study metodologiyasiga bag‘ishlangan chuqur va tizimli ilmiy-tadqiqot ishlarining yetarlicha emasligi kuzatiladi. Aksariyat ilmiy izlanishlar ushbu metodni fan ta’limi (fizika, kimyo, biologiya) yoki xorijiy tillar ta’limi kontekstida ko‘proq tadqiq etgan. Shu sababli, ushbu maqolada case-study metodining aynan pedagogik ta’limga integratsiyasi, uning tanqidiy-reflektiv fikrlashga ta’siri va u orqali ta’lim samaradorligini oshirish imkoniyatlari o‘ziga xos ilmiy yangilik sifatida ko‘rib chiqiladi.

Ilgari olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, case-study texnologiyasining o‘quv jarayoniga integratsiyasi ko‘proq xorijiy tillarni o‘qitish, iqtisodiyot, huquq, tibbiyot va texnik fanlar doirasida o‘rganilgan. Xususan, bu metoddan ingliz tili va boshqa fanlarda foydalanish bo‘yicha ko‘plab amaliy izlanishlar mavjud bo‘lib, ular talabalarning tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, muloqotga kirishish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishdagi ijobiy natijalarni ko‘rsatgan. Biroq, aynan pedagogika fanlari kontekstida, ya’ni bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy va metodik tayyorgarligi jarayonida case-study metodining samaradorligini o‘rganishga qaratilgan chuqur ilmiy tadqiqotlar, xususan O‘zbekiston oliy ta’lim amaliyotida, hanuzgacha yetarli darajada olib borilmagan.

Mazkur maqolaning ilmiy yangiligi, birinchi navbatda, case-study metodining aynan pedagogika fanlariga joriy etilishini tizimli o‘rganish va uni talabalarning tanqidiy va reflektiv fikrlash kompetensiyalarini shakllantirishdagi ta’siri nuqtai nazaridan baholash bilan belgilanadi. Ushbu maqolada case-study texnologiyasining faqat metodik vosita sifatidagi umumiy imkoniyatlari emas, balki uning O‘zbekiston oliy ta’limi sharoitida, real auditoriyalarda qo‘llanishi hamda bu metod yordamida talabalarda shakllanadigan tahliliy, baholovchi va reflektiv fikrlash mexanizmlari chuqur o‘rganiladi.

Shuningdek, tadqiqotda fikrlash ko‘nikmalarini baholash bo‘yicha ilgari amaliyotda qo‘llanilmagan yangi mezonlar va ko‘rsatkichlar ishlab chiqilishi, ularning asosida tanqidiy-reflektiv fikrlash darajasini aniqlash metodikasi taklif etilishi — mazkur maqolaning ilmiy-nazariy va amaliy yangiligini ta’minlaydi. Mazkur mezonlar asosida olingan natijalar pedagogik ta’limda keys-stadi texnologiyasining o‘quv jarayoniga integratsi-

yasini puxta ilmiy asoslashga xizmat qiladi.

Turli metodlar majmui qo‘llanildi. Ilmiy manbalar tahlili, pedagogik kuzatuv, sinov-suhbat va testlar orqali ma’lumotlar to‘plandi. Masalan, Liu va Chen (2019) case-study metodidan foydalangan holda o‘qituvchilar tayyorlash kursida harakat tadqiqotini o‘tkazgan. Ular case-video va guruh muhokamalari yordamida ta’lim masalalarini tahlil qilib, talabalarning reflektiv fikrlashini rivojlantirishga erishgan. Natijalarni baholash uchun bog‘liq namunalar bo‘yicha t-test singari statistik usullar qo‘llanilib, shuningdek, talabalar yozma izohlar bilan olingan sifatli ma’lumotlar tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari. 1. Kvantitativ natijalar: Liu va Chen (2019) tadqiqotida case-study usuli bilan dars o‘rgatilgan guruhda talabalar o‘qitish masalalariga bo‘lgan xabardorligi an’anaviy usul bilan solishtirganda sezilarli darajada yuqoriroq bo‘lgani aniqlangan (o‘rtacha baho case-study guruhi uchun 4.28, an’anaviy guruhi uchun 3.56; $p<0.001$). Bu farq case-study metodining talabalarda mavzuni anglash va baholash darajasini oshirish ta’sirini ko‘rsatadi. Shuningdek, ko‘plab tadqiqotlarda case-study metodining tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga foydasi ta’kidlangan; masalan, case-study amaliyoti talabalarga murakkab vaziyatlarni o‘rganib, tahliliy va kritik fikrlashni kuchaytirish imkonini beradi.

2. Sifatli natijalar. Talabalarning yozma ishlari tahlili shuni ko‘rsatdiki, case-study materiallari va munozaralar talabalarni an’anaviy ta’lim usullari bilan bog‘liq bo‘lmagan masalalar ustida mulohaza yuritishga undagan. Misol uchun, talabalar ta’lim tizimidagi amaldagi muammolarni va nazariy mavzular bilan bog‘liq tafovutlarni aniqlashga qodir ekanligini bildirishgan. Boshqa tadqiqotlarda ham case-study metodini qo‘llash talabalarda bahs-munozaralar va jamoaviy fikrlash orqali mustaqil xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishi qayd etilgan. Qolaversa, Ashimova va Turexanova (2022) natijalariga ko‘ra, case-study yondoshuvi til saboqlarida talabalarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini yanada oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, case-study (keys-stadi) metodologiyasini oliy ta’limda, ayniqsa pedagogika darslarida tizimli qo‘llash, talabalar tanqidiy va reflektiv fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega. Bu metod o‘qitishning passiv yondashuvdan faol, talaba shaxsiga yo‘naltirilgan interaktiv modeliga o‘tishni ta’minlaydi. Case-study vazifalari real hayotdagi pedagogik muammolarni tahlil qilish, ularga nisbatan dalillangan yondashuvlar ishlab chiqish va alternativ qarorlarni ishlab chiqishga yo‘naltiradi. Bu esa talabalarni chuqur, tizimli va integrativ fikrlashga undaydi.

Metodologiyaning ahamiyatli jihatlaridan biri shundaki, u konstruktivizm, faoliyatga asoslangan o‘qitish, reflektiv yondashuv, muammoli ta’lim, metakognitiv rivojlanish kabi zamonaviy pedagogik konsepsiyalar bilan uzviy bog‘liq holda ishlaydi. Talabalar bilimni tayyor holatda emas, balki faol izlanish, tahlil, bahs-munozara va guruhiy qarorlar orqali o‘zlashtiradilar. Bunday yondashuv ularning kognitiv, affektiv va metakognitiv kompetensiyalarini kompleks rivojlantiradi.

Tadqiqot asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Pedagogika yo‘nalishidagi dars rejalari va o‘quv dasturlariga case-study metodiga asoslangan amaliy mashg‘ulotlarni tizimli integratsiya qilish. Bu orqali darslar kontekstual, interaktiv va real muammolarga yo‘naltirilgan shaklga ega bo‘ladi.

2. Talabalarga real pedagogik holatlar asosida yaratilgan keys-materiallarni taqdim etish va ular asosida tahliliy-topshiriqlar, muqobil yechimlar ishlab chiqishga yo‘naltirilgan faoliyatlarni tashkil etish.

3. Jamoaviy muhokama, debat, rolli o‘yinlar kabi faol metodlardan foydalanish

orqali tanqidiy fikrlash va pozitsion refleksiya ko‘nikmalarini shakllantirish. Bu yondashuv dialogik ta’limni kuchaytiradi va talabalar orasida intersub’ektiv tafakkurni rivojlantiradi.

4. O‘qituvchilar uchun case-study texnologiyasini loyihalash, qo‘llash va baholashga doir maxsus metodik qo‘llanmalar, vebinarlar va seminar-treninglar tashkil etish. Bu ularning kasbiy-pedagogik salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

5. Ta’lim sifatini baholash indikatorlarida tanqidiy va reflektiv fikrlash kompetensiyalarini alohida mezon sifatida belgilash, ularni diagnostik vositalar orqali monitoring qilish va o‘quvchilarning rivojlanishini kuzatib borish.

Umuman olganda, case-study texnologiyasining pedagogik ta’limga joriy etilishi nafaqat talabalarning fanga oid bilimlarini chuqurlashtiradi, balki ularning analitik tafakkuri, ijtimoiy-muloqot kompetensiyasi, muammoli holatlarda navigatsiya qila olish qobiliyati, reflektiv pozitsiyasi va kasbiy refleksiyasi kabi yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa zamonaviy ta’limning asosiy vazifalaridan biri — raqobatbardosh, mustaqil fikrlovchi va muammolarni kreativ hal etuvchi pedagog kadrlarni tayyorlash yo‘lida muhim bosqich hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Liu, W.-Y., & Chen, P. (2019). The Use of the Case Method to Promote Reflective Thinking in Teacher Education. Advances in Social Sciences Research Journal, 6(7), 547-557.

2. Ashimova, N. S., & Turexanova, A. B. (2022). Ispolzovanie metoda “case-study” dlya formirovaniya navykov kriticheskogo myshleniya. InterConf, 177–179.

3. Ruzikulova, N. (2021). Case-study metodi va uning pedogogik imkoniyatlari. Pedagogik mahorat, 3(79), 71-75.

4. Aminov, F. (2021). Critical thinking in higher education. International Journal of Management, 4(3), 4-6.

Sardor ABDUJALOLOV,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi Milliy inistituti, mustaqil izlanuvchi

MILLIY HUNARMANDCHILIK QADRIYATLARI ASOSIDA O'QUVCHILARINING TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada milliy hunarmandchilik qadriyatlarining ta'lim jarayonidagi pedagogik imkoniyatlari hamda ularning o'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqot jarayonida hunarmandchilik faoliyatining iqtisodiy, tarbiyaviy va ijtimoiy ahamiyati ochib berilib, uni ta'lim tizimiga integratsiya qilish orqali o'quvchilarda tashabbuskorlik, mustaqil fikrlash, mas'uliyat va ijodkorlik kabi tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari asoslab berilgan. Shuningdek, hunarmandchilik asosida tashkil etilgan o'quv mashg'ulotlari, amaliy loyihalar va ustoz-shogird an'analarining o'quvchilarning bozor munosabatlariga moslashuvi hamda kasbiy o'zini-o'zi anglash jarayoniga ta'siri yoritilgan.

Tayanch so'zlar. Milliy hunarmandchilik, tadbirkorlik ko'nikmalari, ta'lim jarayoni, milliy qadriyatlar, kasbiy kompetensiya, amaliy faoliyat, ustoz-shogird an'anasi, iqtisodiy tafakkur, innovatsion yondashuv.

В статье научно-теоретически и практически анализируются педагогические возможности ценностей национального ремесленничества в образовательном процессе и их роль в формировании предпринимательских навыков у учащихся. В процессе исследования раскрыта экономическая, воспитательная и социальная значимость ремесленнической деятельности, обоснованы возможности развития у учащихся предпринимательских компетенций, таких как инициативность, самостоятельное мышление, ответственность и творчество, путем ее интеграции в систему образования. Также освещается влияние учебных занятий, практических проектов и традиций наставник-ученик, организованных на основе ремесленничества, на адаптацию учащихся к рыночным отношениям и процесс профессионального самосознания.

Ключевые слова. Национальные ремесла, предпринимательские навыки, образовательный процесс, национальные ценности, профессиональная компетентность, практическая деятельность, традиция наставник-ученик, экономическое мышление, инновационный подход.

The article analyzes the pedagogical possibilities of national craft values in the educational process from a scientific-theoretical and practical point of view, as well as their role in the formation of entrepreneurial skills in students. In the research process, the economic, educational, and social significance of handicraft activities was revealed, and the possibilities of developing entrepreneurial competencies in students, such as initiative, independent thinking, responsibility, and creativity, through its integration into the education system, were substantiated. Also, the influence of training sessions, practical projects, and master-apprentice traditions organized on the basis of crafts on the adaptation of students to market relations and the process of professional self-awareness is highlighted.

Key words. National crafts, entrepreneurial skills, educational process, national values, professional competence, practical activity, mentor-student tradition, economic thinking, innovative approach.

Hozirgi globallashuv va bozor iqtisodiyoti sharoitida ta’lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri o‘quvchilarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. Tadbirkorlik nafaqat iqtisodiy faoliyat turi sifatida, balki shaxsning tashabbuskorligi, mustaqil fikrlashi, mas’uliyatni o‘z zimmasiga ola bilishi hamda innovatsion yondashuvlarga tayyorligi bilan tavsiflanadigan muhim kompetensiya sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, o‘quvchilarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish jarayoni faqat nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, balki milliy madaniyat, tarixiy tajriba va an’anaviy qadriyatlar bilan uzviy bog‘liq holda tashkil etilishi zarur. Aynan milliy hunarmandchilik qadriyatlari ana shunday pedagogik resurs sifatida katta imkoniyatlarga ega.

Milliy hunarmandchilik xalqning asrlar davomida shakllangan mehnat tajribasi, iqtisodiy tafakkuri, estetik qarashlari va ijtimoiy munosabatlarini o‘zida mujassam etgan murakkab ijtimoiy-madaniy hodisa hisoblanadi. Hunarmandchilik faoliyati jarayonida mahsulot yaratish, uning sifatini ta’minlash, bozor talabi va taklifini hisobga olish, xaridor bilan muloqotga kirishish kabi jarayonlar tabiiy ravishda amalga oshiriladi. Bu esa hunarmandchilikni o‘quvchilarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali vosita sifatida qo‘llash imkonini beradi. Chunki tadbirkorlik faoliyatining asosiy tarkibiy qismlari bo‘lgan tashabbuskorlik, riskka moyillik, rejalashtirish, mehnat samaradorligini oshirish va iqtisodiy natijaga yo‘naltirilganlik hunarmandchilik faoliyatida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Pedagogik nuqtayi nazardan milliy hunarmandchilik qadriyatlarining ta’lim jarayoniga integratsiya qilinishi o‘quvchilarda nafaqat kasbiy ko‘nikmalarni, balki shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan fazilatlarni ham rivojlantiradi. Xususan, hunarmandchilik asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida o‘quvchilar mehnatga bo‘lgan ijobiy munosabatni shakllantiradi, sabr-toqat, mas’uliyat, aniqlik va ijodkorlik kabi sifatlarni o‘zlashtiradi. Ushbu sifatlar esa tadbirkorlik faoliyatining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun zarur bo‘lgan muhim shaxsiy kompetensiyalar hisoblanadi. Shuningdek, hunarmandchilik orqali o‘quvchilar milliy qadriyatlarni anglash, ularni asrab-avaylash va zamonaviy sharoitda rivojlantirish zarurligini tushunib yetadilar.

Milliy hunarmandchilik qadriyatlari vositasida tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish jarayoni tizimli yondashuvni talab etadi. Bu jarayonda ta’lim mazmuni, o‘qitish usullari va tashkiliy shakllar o‘zaro uyg‘un holda qo‘llanilishi lozim. Hunarmandchilikka asoslangan amaliy mashg‘ulotlar, ijodiy loyihalar, ustoz-shogird an’analari hamda kichik ishlab chiqarish faoliyatini modellashtirish orqali o‘quvchilarda real iqtisodiy faoliyatga yaqin tajriba shakllantiriladi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning faolligini oshiradi, ularni mustaqil qaror qabul qilishga undaydi va kelgusida tadbirkorlik faoliyatiga ongli ravishda kirib borishlariga zamin yaratadi.

Hunarmandchilik bu – milliy-an’anaviy mayda tovar ishlab chiqarishga asoslangan oddiy va murakkab mehnat qurollari yordamida yoki yakka tartibda, yoki jamoa tarzida qo‘l mehnati mahsulotlarini tayyorlashga asoslangan sanoat turidir.Hunarmandchilik jamiyatlararoyirik sanoat ishlab chiqarish tarmoqlari vujudga kelgunga qadar keng tarqalgan va keyinchalik ham hunarmandchilikning ko‘plab sohalari jamiyat hayotida saqlanib qolgan. Aytish joizki, hunarmandchilik insonning ishlab chiqarish faoliyati orqali vujudga kelib, jamiyat rivojlanishi davomida bosqichma-bosqich ravishda eng qadimiy madaniy va iqtisodiy mashg‘ulotlardan hisoblangan – dehqonchilik va chorvachilikdan ajralib chiqdi va turli ijtimoiy tarixiy davrlar mobaynida ilm-fan va texnika rivoji bilan aloqador holda takomillashdi. Vaqt o‘tishi bilan hunarmandchilik turli

ixtisosliklarga ajralib chiqdi. Jumladan: kulolchilik, duradgorlik, misgarlik, binokorlik, toshtaroshlik, o‘ymakorlik,temirchilik, kashtado‘zlik, ko‘nchilik, tikuvchilik, to‘quvchilik, zargarlik, degrezlik, zardo‘zlik, bo‘yoqchilik, kemasozlik, taqachilik, tunukasozlik kabi kasb-hunarlarni milliy hunarmandchiligimizning eng qadimiy va bebaho turlari safiga kiritishimiz numkin .

Haqiqatdan ham, o‘zbek milliy hunarmandchiligiga, amaliy va badiiy san’at turlari barcha davrlardagidek bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmay kelmoqda. Shu o‘rinda, yoshlarimiz ayniqsa, o‘rta maktab o‘quvchilarida milliyligimizni, milliy qadriyatlarimizni aks ettiruvchi xalq hunarmandchiligi turlarini targ‘ib etish, yoshlarni turli milliy kasb va hunarlarimizni o‘rganishga va o‘z o‘rnida, vaqti kelganda aynan ular milliy kasb-hunarlarimizni o‘sib kelayotgan yosh avlodga o‘rgatishlari lozim. Chunonchi, aynan boshlang‘ich va yuqori sinf o‘quvchilari ushbu yoshlarida milliy hunarmandchiligimizning qaysidir sohasini chuqur o‘rganishlari va albatta, kelajakda ushbu qadriyatlarimizni avlodlarimizga ham o‘rgatishlari eng muhim ustuvor vazifalarimizdan biridir.

Ushbu maqsadni amalga oshirishda muhim omil bo‘layotgan texnologiya darslari shunday tashkil etilishi lozimki, maktabdagi har bir o‘quvchi aynan, texnologiya darsiga kirishga shoshilishi, o‘zitayyorlab kelgan amaliy mehnati mahsulini o‘zgacha tarzda taqdim etishga harakat qilmog‘i lozim. Bunda albatta, yuqori ilmiy va amaliy malakaga ega o‘qituvchiga va bevosita ta’lim oluvchi yoshlarga ham bog‘liqdir. Har bir ta’lim muassasasi texnologiya fan o‘qituvchilari milliy hunarlarning deyarli barchasidan xabardor bo‘lishi, ulardan kamida uch to‘rttasini mukammal tarzda bilmog‘i va o‘quvchilarga ham dars jarayonida ushbu hunarlarni o‘rgatmog‘i maqsadga muvofiqdir. Xususan, bir-biriga bog‘liq bo‘lganduradgorlik, yog‘och o‘ymakorligi va naqqoshlik hunarlarini puxta egallagan o‘qituvchi bemalol o‘z darsini qiziqarli, ko‘rgazmali va amaliy tarzda o‘ta olishi, o‘quvchilarda ushbu kasblarga qiziqishni orttirish bilan birgalikda ularni o‘rganishga ham turtki bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, milliy an’analarimiz va qadriyatlarimizni o‘zids mujassamlashtirgan o‘zbek milliy hunarmandchiligining har bir turini nafaqat jamiyatimiz hayotida va aynan ta’lim tizimida o‘rgatish va o‘rganish biz uchun eng zarur ta’limiy vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodirov B. Kasb-hunar ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: O‘qituvchi.
2. Xo‘jayev A. Milliy hunarmandchilik va xalq amaliy san’ati. – Toshkent: Sharq.
3. To‘raqulov X. Tadbirkorlik faoliyati asoslari. – Toshkent: Iqtisod-Moliya.
4. Islomov Z. Ta’limda kompetensiyaviy yondashuv. – Toshkent.
5. Yunusov R. O‘quvchilarda iqtisodiy tafakkurni shakllantirish metodikasi. – Toshkent.
6. TilavovaM. Texnologiya va uni oqitish metodikasi [Matn] : oquv qo`llanma/ M. Tilavova. -Buxoro: OOO “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona, 2021. –312 b. БК 74.2632.

Doniyor TAJIEV,
Farg'ona davlat universiteti, mustaqil izlanuvchi

O'QUVCHILAR HUQUQIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS PEDAGOGIK, PSIXOLOGIK VA IJTIMOIY JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy qishloq maktablari o'quvchilarining o'ziga xos pedagogik, psixologik va ijtimoiy xususiyatlari va qishloq o'quvchi yoshlarining ta'lim olishga oid huquqlarini ro'yobga chiqarish, ularning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, huquqiy madaniyati va ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya ishlarida saqlanib qolayotgan ayrim kamchilik va muammolari tahlil qilingan. Shuningdek, ta'lim tizimini isloh qilishning hozirgi bosqichida qishloq maktablari o'quvchilarining ta'lim olishga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirish, ijtimoiy-siyosiy va huquqiy bilimlarini kuchaytirish, har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalash jarayonidagi mavjud kamchiliklarni hal qilishga qaratilgan taklif va tavsiyalar bildirilgan.

Tayanch so'zlar. Ta'lim tizimi, umumiy o'rta ta'lim, o'qituvchi, qishloq maktabi, qishloq o'quvchilari, oila, mahalla, mahalliy imkoniyatlar, huquqiy madaniyat, ijtimoiy faollik, oila-mahalla-maktab hamkorligi.

В статье анализируются специфические педагогические, психологические и социальные особенности учащихся современных сельских школ и некоторые недостатки и проблемы, сохраняющиеся в образовательной работе, направленной на реализацию прав сельской учащейся молодежи на образование, развитие их знаний и навыков, повышение правовой культуры и социальной активности. Также на современном этапе реформирования системы образования высказаны предложения и рекомендации, направленные на усиление интереса учащихся сельских школ к получению образования, укрепление их общественно-политических и правовых знаний, решение существующих недостатков в процессе воспитания всесторонне развитой личности.

Ключевые слова. Система образования, общее среднее образование, сельская школа, учитель, сельские ученики, семья, махалля, местные условия, правовая культура, социальная активность, взаимодействие "семья-махалля-школа".

The article analyzes the specific pedagogical, psychological, and social characteristics of students in modern rural schools and some shortcomings and problems remaining in educational work aimed at realizing the rights of rural student youth to education, developing their knowledge and skills, and increasing their legal culture and social activity. Also, at the present stage of reforming the education system, proposals and recommendations were made aimed at increasing the interest of rural schoolchildren in education, strengthening their socio-political and legal knowledge, and addressing existing shortcomings in the process of educating them as comprehensively developed individuals.

Key words. Education system, compulsory secondary education, rural school, teacher, rural students, family, makhalla (local community), local conditions, legal culture, social activity, "family-makhalla-school" cooperation system.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari ta'lim tizimining eng muhim bo'g'ini hisoblanadi, aynan maktab ta'limining sifati va qulayligi davlatning rivojlanish istiqbollarini aks ettirib, yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun zamin yaratadi. O'zbekistonda ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida ta'lim sifatini oshirish, jumladan,

maktab o‘quvchilarining sifatli ta’lim olishlari, zamonaviy va mehnat bozorida raqobatbardosh kasblarni egallashlari uchun teng imkoniyatlar yaratish, ularning ijtimoiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish davlat siyosatining ustivor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining birinchi moddasida “O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat” deb belgilanishi[1] jamiyatda qonun ustivorligini ta’minlash va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan amaliy ishlarning muhim huquqiy poydevori hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmonida bu sohadagi dolzarb vazifalar belgilanib, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish ‘‘shaxs – oila – mahalla – ta’lim muassasasi – tashkilot - jamiyat’’ tamoyili bo‘yicha tizimli va uzviy tashkil etilishi lozimligi ko‘rsatilgan.

Huquqiy, demokratik jamiyat fuqarolarning yetarli darajada huquqiy madaniyatga ega bo‘lishini, o‘z huquq va majburiyatlarini bilishni, amaldagi qonun hujjatlariga ongli ravishda amal qilishni talab qiladi. Shunga qaramay bu sohada bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan, yoshlar va umumta’lim maktablari o‘quvchilarining huquqiy madaniyat darajasi past darajada qolayotgani, qonunlarni yaxshi bilmaslik yoki huquqiy nigilizm oqibatida o‘z huquqlarini himoya qila olmaslik, turli huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘yish singari holatlar shunday muammolardan sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son Farmoni[2] bilan tasdiqlangan. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Konsepsiyasida o‘quvchilarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga to‘sqinlik qiluvchi muammo va kamchiliklar qatorida:

– ta’lim tizimida o‘quvchilarning huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirish ishlari tizimli va uzviy tashkil etilmaganligi, ta’lim muassasalarida huquqiy axborotlarni yetkazishning ta’sirchan mexanizmi shakllantirilmaganligi;

– shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash g‘oyalarini o‘quvchilar ongiga yetarli darajada singdirilishida pedagogik-psixologik manbalar yetarli emasligi, ta’lim jarayonlari huquqiy tarbiya bilan uyg‘un olib borilmayotganligi;

– huquqiy madaniyatni yuksaltirishga doir tadbirlarni tashkil etishda fuqarolik jamiyati institutlari bilan samarali hamkorlik tizimi yaratilmaganligi, huquqiy tadbirlar hamon an’anaviy usullarda, oddiy uchrashuvlarni o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshirilib kelinayotganli va bu borada targ‘ibotning innovatsion usullaridan foydalanilmayotganligi singari holatlar ko‘rsatib o‘tilgan.

Ta’lim muassaslarida o‘quvchilarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish bilan bog‘liq bunday muammolar ob’ektiv va subyektiv sabablarga ko‘ra qishloq hududlarida joylashgan umumta’lim o‘rta maktablarida ayniqsa yaqqol ko‘rinadi.

Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 2024/2025-o‘quv yili boshida mamlakatimizda umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari soni 10 943 tani tashkil etgan. Ularning 1 440 tasi shahar, 981 tasi tuman markazlari, 7 128 tasi qishloq hududlarida, shuningdek 614 tasi olis hududlarda joylashgan. Mamlakatdagi umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida tahsil olayotgan

[1] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. https://lex.uz/docs/6445145

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”, https://lex.uz/ru/docs/4149765

o‘quvchilar soni 6 million 776 ming nafardan oshgan3. 2025-yilning birinchi yarmida 68 ta yangi maktablar qurilgan bo‘lib, ularning 34 tasi qishloq hududlarida joylashgan. Hozirgi vaqtda jami o‘qituvchilarning yarmidan ko‘pi qishloq maktablarida dars berishmoqda[4]. O‘rta umumta’lim maktablarining 60 foizdan ortig‘i qishloq hududlarida faoliyat yuritishi qishloq maktablarida ta’lim sifati, o‘qituvchilar malakasini uzluksiz oshirib borish, maktab infratuzilmasini takomillashtirishni talab qiladi.

Qishloq o‘quvchi yoshlarining pedagogik, psixologik va ijtimoiy xususiyatlari, birinchi navbatda, ular yashab, ta’lim olayotgan hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga, ijtimoiy infrastruktura, ta’lim, madaniyat, ommaviy sport muassasalari holatiga bog‘liq. Qishloq hududlarining ijtimoiy rivojlanishida saqlanib qolayotgan bir qator muammolar qishloq maktablari faoliyati, qishloq o‘quvchi yoshlarining bilim darajasi, ijtimoiy faolligi, huquqiy madaniyatiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Shu sababli ham, keyingi yillarda qishloq hududlarini har tomonlama rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Qisqa va o‘rta muddatga mo‘ljallangan davlat dasturlari doirasida qishloq aholisi turmush farovonligini oshirish, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan xizmatlarni tubdan yaxshilashga e’tibor qaratish, jumladan, yangi ta’lim muassalarini qurib, ishga tushirish, mavjud maktablarni rekonstruksiya qilish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga qaratilgan amaliy ishlar olib borilmoqda[5].

Ma’lumki, qishloq o‘quvchi yoshlarining pedagogik xususiyatlari ularning qishloq hududida yashashi bilan bog‘liq bo‘lgan psixologik va ijtimoiy rivojlanishi, ta’lim olishidagi o‘ziga xosliklarda namoyon bo‘lib, ular qatorida quyidagi omillarni ko‘rsatish mumkin:

- qishloq maktablarining moddiy-texnika bazasi cheklagangani, madaniy va ta’lim markazlaridan uzoqligi, malakali o‘qituvchilar yetishmasligi o‘quvchilarning sifatli ta’lim olishida muammolarni keltirib chiqaradi, ularning ta’lim olishga bo‘lgan qiziqishini pasaytirib, zamonaviy kasb va ko‘nikmalarni egallashiga to‘sqinlik qiladi;

– qo‘shimcha ta’lim olish muassasalari, xorijiy tillar va alohida fanlarni o‘rgatish, oliy o‘quv yurtlariga tayyorlashga ixtisoslashgan o‘quv markazlarining yo‘qligi yoki talab darajasida emasligi pedagogik jarayonda o‘qituvchidan ko‘proq mahorat talab qiladi;

– qishloq turmush tarzi, ijtimoiy makonning chegaralangani, o‘quvchilarning ijtimoiy aloqalari tor doirada cheklangani ularning dunyoqarashi va ijtimoiylashuviga salbiy ta’sir ko‘rsatadi;

– o‘quvchilarning kundalik uy-ro‘zg‘or yumushlari bilan ko‘p vaqt band bo‘lishi, jumladan, uy hayvonlarini boqish, tomorqa ishlariga yordamlashish zarurati ularning darsdan bo‘sh vaqtlarida mustaqil o‘qish va o‘z ustida ishlash imkoniyatini cheklaydi;

– qishloq yoshlari ko‘zi oldida o‘ziga namuna bo‘ladigan hayotiy misollarga kam duch kelishi ularning o‘z bilimlarini oshirish, ta’lim olish va rivojlanishiga qaratilgan shaxsiy talablarini pasayishiga olib keladi.

Ta’kidlash lozimki, mazkur mavzudagi pedagogika va psixologiyaga oid ilmiy adabiyotlar tahlili qishloq maktablariga xos bo‘lgan yuqorida ko‘rib chiqilgan muammo va kamchiliklar, qishloq o‘quvchi yoshlarining pedagogik, psixologik va ijtimoiy rivojlanishi, ta’lim olishga bo‘lgan intilishlaridagi tafovutlar Markaziy Osiyo, Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi davlatlari, shuningdek, boshqa bir qator xorijiy davlatlar uchun

[3] https://t.me/statistika_rasmiy/5849

[4] https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/63470-yarim-jilda-68-ta-yangi-maktab-urilgan-2

[5] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.03.2018 yildagi PF-5386-son «Obod qishloq» dasturi to‘g‘risida Farmoni, https://lex.uz/docs/3604659

ham xos ekanini ko‘rsatadi[6].

Tegishli tadqiqotlarda, xususan, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, shuningdek, Rossiya Federatsiyasi o‘rta umumta’lim tizimida aksari qishloq maktablaridagi o‘quvchilarning kam sonli ekani, malakali o‘qituvchilar yetishmasligi, maktablarning moddiy-texnika bazasi nochorligi va ularning faoliyati ko‘p jihatdan hududiy ma’muriyatlarning iqtisodiy ahvoliga bog‘liqligi qishloq yoshlarining sifatli ta’lim olishiga jiddiy to‘siq bo‘lib qolayotgani bayon qilingan. Natijada, qishloq o‘quvchilarining bilim darajasi, ijtimoiy faolligi va huquqiy madaniyati pastligi saqlanib qolmoqda.

Xitoylik olimlar ham keyingi yillarda qishloq maktablari o‘quvchilarining ta’lim olishi uchun teng imkoniyatlarni yaratish bilan bog‘liq muammolarni o‘rganishga jiddiy e’tibor qaratishmoqda. Masalan, L. Sinxe, V. I. Kazarenkovlar qishloq maktablarida ta’lim sifati shahar maktablariga nisbatan pastligi, qishloq maktablari bitiruvchilarining oliy ta’lim olish imkoniyatlari va mehnat bozorida raqobatbardoshligi yetarli darajada emasligini bildirishgan. Shu munosabat bilan mazkur tadqiqotchilar ta’lim tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy qilish, o‘quv materiallarini hududlar va qishloq muhitiga moslashtirish singari ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan takliflarni ilgari surishgan[7].

Qishloq maktablari o‘quvchilari uchun ta’lim olishda teng imkoniyatlar yaratish, mehnat bozorida ularning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq infrastrukturasi va ta’lim muassasalarini rivojlantirish sohasidagi vaziyat Rossiya Federatsiyasida keskin bo‘lib qolmoqda. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, har yili mamlakatda 400-500 qishloq maktablari yopilmoqda, bu holat ko‘proq aholisi kam, maktab sinflarini tashkil etish uchun o‘quvchilar yetishmovchi olis hududlardagi qishloqlarga xos bo‘lib, yoshlarning qishloq hududlarini tashlab ketishi ommaviy tus olgan[8]. Hozirgi vaqtda bu mamlakatning turli hududlarida, xususan, turli universitetlar huzurida olimlarning o‘nlab uyushmalari, ilmiy-tadqiqot markazlari qishloq maktablari muammolarini o‘rganish bilan shug‘ullanib kelishmoqda. Rossiya ta’lim akademiyasi ilmiy markazi huzurida tashkil etilgan “Qishloq maktabi pedagogikasi” deb nomlangan hududlararo laboratoriya faoliyat yuritadi, 2019-yildan beri “Qishloq maktabi pedagogikasi” ixtisoslashgan ilmiy jurnali nashr etilmoqda[9].

---

[6] Сайтимова Т.Н. Система общего среднего образования в Казахстане: современное состояние и тенденции развития. Автореферат дисс на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. https://www.dissercat.com/content/sistema-obshchego-srednego-obrazovaniya-v-kazakhstane; Всеобщее основное образование к 2015 г. Глобальная инициатива «Дети, не посещающие школу». ИССЛЕДОВАНИЕ ПО КЫРГЫЗСТАНУ. ЮНИСЕФ – Б.: 2012. – 127с. https://www.unicef.org/kyrgyzstan/media/3646/file; Зарифов Х.Г. Особенности организации учебной деятельности учащихся сельских школ в современных условиях: на примере Республики Таджикистан: автореферат дисс.... кандидата педагогических наук. http://www.dslib.net/obw-pedagogika/osobennosti-organizacii-uchebnoj-dejatelnosti-uchawihsja-selskih-shkol-v-sovremennyh.html; Айкина Н.В. Управление сельской школой в процессе ее реструктуризации. Автореферат дисс. на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. http://www.dslib.net/obw-pedagogika.html; Ефлова З.Б. Сельская школа России на перекрёстке социокультурной модернизации образования // Педагогика сельской школы. 2019. №1. С. 24-45.

[7] Sinhje L. Povyshenie kachestva obuchenija v sovremennyh sel’skih shkolah Kitaja = Improving the quality of education in China’s modern rural schools / L. Sin’hje, V. I. Kazarenkov // Kazanskij pedagogicheskij zhurnal. 2025. T. 31, №1. S. 9–24

[8] Ученья нет: почему в России исчезают сельские школы. Электронное издание “Известия”, 9.06.2025, https://iz.ru/1917496/irina-ionina-sofia-temchenko-valeriia-mishina/ucheniya-net-pochemu-v-rossii-ischezayut-selskie-shkoly

[9] Коршунова О. В. Педагогика сельской школы как научная теория. научный журнал “Педагогика сельской школы» — 2025 — № 2 (24), https://prs.yspu.org/wp-content/uploads/sites/25/2025/08/PSSH-2-2025-5-25.pdf

Yuqorida ko‘rib chiqilgan misollar ham qishloq hududlarida joylashgan umumta’lim o‘rta maktablarini rivojlantirish, qishloq yoshlarining ta’lim olishga bo‘lgan qiziqishlarini rag‘batlantirish, ularning sifatli ta’lim olishlari uchun teng imkoniyatlarni yaratish hozirgacha ko‘p davlatlar oldida dolzarb vazifalardan bo‘lib qolayotganidan guvohlik beradi.

O‘zbekistonda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida bo‘lgani kabi ta’lim tizimida ham keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilayotgan hozirgi sharoitda qishloq maktablari faoliyatida ham jiddiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Yangi, zamonaviy talablarga mos maktab binolar qurilmoqda, maktablar zamonaviy o‘quv-texnika vositalari bilan jihozlanib, ilg‘or xorijiy tajriba asosida darsliklar yaratilmoqda, ta’lim-tarbiya jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalar joriy etilmoqda. Qishloq yoshlarining chuqur bilimli, har jihatdan barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, ijtimoiy faolligi va huquqiy madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Zamonaviy qishloq maktabi ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar, ota-onalar va o‘quvchilarning sifatli ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda rivojlantirilmoqda. Shunga qaramay bu sohada ayrim kamchilik va ziddiyatlar saqlanib qolmoqda. Qishloq o‘quvchi yoshlarining sifatli ta’lim olish, ta’lim sohasida turli xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlari va qishloq hududlarida bu boradagi takliflarning o‘zaro nomutanosibligi shunday kamchiliklardan hisoblanadi. Bu sohadagi yana bir katta muammo jamiyatning har tomonlama barkamol, zamonaviy bilimlarga ega, ijtimoiy faol va huquqiy madaniyati yuksak darajada rivojlangan yosh avlodga bo‘lgan ehtiyoji va bu yo‘nalishdagi ta’lim-tarbiya ishlarining yetarli darajada samarali yo‘lga qo‘yilmaganida namoyon bo‘lmoqda.

Ma’lumki, ko‘p vaqtlardan beri qishloq hududlaridagi maktablar faqatgina yoshlar ta’lim oluvchi maskan bo‘lib qolmay, balki, muhim madaniyat markazi vazifasini o‘tab kelgan. Maktabda tashkil etilgan turli madaniy tadbir, tanlov va sport musobaqalari qishloq jamoatchiligining e’tiborida bo‘lgan, qishloq faollari, mehnat faxriylari bilan uchrashuvlar tashkil etilgan. O‘z o‘rnida qishloq va mahallalar hayotidagi muhim voqyealarda maktab o‘quvchilari faol ishtirok etishgan. Biroq, so‘nggi yillarda bunday an’analar susayib, maktabning qishloq ijtimoiy hayotidagi mavqyei pasaygani kuzatilmoqda. Shu sababli ham qishloq maktablarining qishloq yoshlarini jamoaviylik, milliy an’analar ruhida tarbiyalovchi, qishloq hayotiga yangi g‘oyalar, yangi ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni olib kiruvchi maskan sifatidagi o‘rnini saqlab qolish va rivojlantirish masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Ayni paytda qishloq sharoitida ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishga ijobiy ta’sir qiluvchi omillar ham mavjudligini e’tirof etish o‘rinli. Bunday omillar qatorida quyidagilarni ko‘rsatish o‘tish lozim:

– ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari, maktab, mahalla va qishloq faollari, o‘qituvchi va o‘quvchilarning ota-onalari bir-birlarini yaxshi tanishi, ular o‘rtasidagi yaqin aloqalar mavjudligi;

– o‘quvchilar tomonidan ayrim qishloq xo‘jaligi ishlarini bajarish tajribasi muntazam o‘zlashtirib borilishi ta’lim va tarbiya jarayonlarini faoliyatli yondashuv asosida tashkil etish imkonini beradi;

– o‘quvchilarning tabiatga bevosita yaqinligi, atrof-muhit bilan muntazam yaqin munosabatda bo‘lish yoshlarning har tomonlama rivojlanishiga, ruhiy-emotsional o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi;

– qishloq aholisining fikr-munosabatlari, mahalliy urf-odatlarning ta’siri o‘quvchilarning xulq-atvori, dunyoqarashi shakllanishida muhim o‘rin tutadi.

Turli hududlar va viloyatlarda joylashgan qishloqlar, olis hududlarda, tuman mar-

kazlari va shaharga yaqin hududlardagi qishloq yoshlari o‘rtasida sezilarli farqlar bo‘lishi mumkin. Masalan, Farg‘ona vodiysi, Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm viloyatlari yoki Toshkent shaxriga yaqin qishloq maktab o‘quvchilarining dunyoqarashi, qiziqishlari, ta’lim olish va kasb-hunar egallashga intilishlari yoki mehnatga munosabatlari bir xil emasligi aniq. Shunga qaramay, ular uchun umumiy bo‘lgan xulq-atvor, pedagogik, psixologik va ijtimoiy xususiyatlarni kuzatish mumkin.

Ko‘pchilik qishloq o‘quvchi yoshlarining pedagogik xususiyatlarida amaliy yo‘nalganlik, nazariy bilimlardan ko‘ra qo‘l mehnati va kundalik hayotga kerakli ko‘nikmalarni tez o‘zlashtish, an’anaviy ta’limga moyillik, kattalarning tajribasiga tayanib o‘rganish, ta’lim olish imkoniyatlari nisbatan chegaralangani sababli oliy ta’limga qiziqish pastligi, qishloq xo‘jaligi yoki hunarmandchilik bilan shug‘ullanishga moyillik ajralib turadi.

Pedagogika va psixologiyaga oid bir qator tadqiqotlarda qishloq o‘quvchi yoshlarining ruhiy-psixologik xususiyatlaridagi quyidagi umumiy o‘ziga xosliklar ko‘rsatib o‘tilgan:

- qishloq turmush tarzida voqyea, hodisa va faktlar sur’ati va miqdori shahardagidan ko‘ra kamligi sababli qishloq o‘quvchilari shaharlik tengdoshlariga nisbatan kamroq psixologik zo‘riqishlarni boshdan kechiradi, bu o‘z o‘rnida ularning asab tizimida, o‘zini nisbatan xotirjam va og‘ir-bosiq tutishida namoyon bo‘ladi[10]. Qishloq o‘quvchi yoshlarida soddalik, ta’sirchanlik, muloqotga ochiqlik, hissiy-emotsionallik singari jihatlar ko‘proq rivojlangan bo‘lib, hayotdagi o‘zgarishlarni shaharlik tengdoshlariga nisbatan qiyin boshdan o‘tkazishadi[11].

Qishloq yoshlarining ijtimoiy o‘ziga xosliklari ularning ijtimoiylashuvida oila muhiti, mahalla va qishloq jamoasi, mahalladoshlik, qo‘shnichilik munosabatlari, kundalik uy yumushlari va mehnat bilan shug‘ullanishning erta boshlanishi katta ta’sirga ega bo‘lishida ko‘rinadi.

Qishloq o‘quvchi yoshlarining bunday o‘ziga xosliklarini hisobga olish o‘qituvchidan ta’lim-tarbiya jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida tashkil etishni, ijtimoiy pedagogika tamoyillaridan kelib chiqib, o‘quvchilarning moslashuvchanlik, o‘zligini anglash va o‘ziga-o‘zi to‘g‘ri baho berish qobiliyatlarini rivojlantirishga e’tibor berishni talab qiladi.

Qishloq maktablari o‘z atrofidagi ijtimoiy muhit va jamoatchilik bilan hamkorlik qilishda shahar maktablariga nisbatan kengroq imkoniyatlarga ega. Jonli tabiatga, mahalliy urf-odatlar, milliy an’analarga yaqinlik, qishloqda jamoatchilik fikri va o‘qituvchi obro‘si ko‘proq ta’sirga egaligi, o‘quvchilarning ota-onalari o‘zaro yaqin yashashi, doimiy muloqotda bo‘lishi, qishloq aholisining ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik holati o‘xshashligi, o‘qituvchilarning o‘quvchilar, ularning hayot sharoiti, oilaviy munosabatlari haqida ko‘proq va batafsilroq bilishi ta’lim-tarbiya ishlarini samarali tashkil etishga yordam beradi.

Qishloq o‘quvchilariga ta’lim-tarbiya berish o‘qituvchidan yuqori malaka, mahalliy sharoitlar, o‘quvchilarning o‘ziga xosliklaridan unumli foydalanishni talab qiladi. Biroq, hozirgacha o‘qituvchilarining aksari qismi zamonaviy talablariga javob bermasligi o‘quv jarayonini tashkil etishda mahalliy pedagogik shart-sharoitlardan samarali foydalanish imkonini bermayapti.

[10] Сивцева К.Н. Педагогические основы социальной поддержки сельской семьи в РС (Я): Автореф. дисс... канд. пед. наук. -Якутск, 2003. https://moluch.ru/archive/116/31677

[11] Гинзбург М.Р. Психологическое будущее городских и сельских подростков // Мир психологии. 1995. № 4. С. 60-67. // Мир психологии и психология в мире : научно-методический журнал академии педагогических и социальных наук. – М.: Международная педагогическая академия, 1995. – №4 октябрь-декабрь 1995. – 160 с.

Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida 2022-yil 28-yanvar kuni maktab ta’limini rivojlantirish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishida 504 mingdan ziyod maktab o‘qituvchilaridan 60 ming nafari o‘rta maxsus ma’lumotli, 190 ming nafarida esa malaka toifasi yo‘qligi, shu paytgacha foydalanib kelinayotgan ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari faqat nazariy bilim berishga yo‘naltirilgan bo‘lib, bolalarni mantiqiy fikrlashga, amaliyotga, hayotga o‘rgatmayotgani ma’lum qilingan edi[12]. Shunindek, yig‘ilishda maktablarning dars tugashi bilan yopilishi noto‘g‘ri ekanligi, kutubxona, sport zal, kompyuter xonalari, tadbirlar zali doimiy ishlashi, ularda har kuni musobaqa, konsert, kitobxonlik, mushoira, “Zakovat” va boshqa intellektual o‘yinlar o‘tkazilishi kerakligi alohida ta’kidlangan.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan mulohazalar ham jamiyat oldida turgan muhim vazifalarni hal qilish, jumladan, qishloq hududlarini rivojlantirish, aholining ijtimoiy faolligi, huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan amaliy harakatlarni aynan qishloq maktablaridan boshlash maqsadga muvofiqligidan dalolat beradi.

Bu yo‘nalishdagi vazifalarni samarali hal qilish uchun qishloq maktablari amaliyotida yangi, hozirgi axborotlashgan davr talablariga mos va ilg‘or ish usullarini joriy qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish zarur. Bu jarayonda qishloq maktablarining an’anaviy o‘ziga xos jihatlari, qishloq o‘quvchi yoshlarining pedagogik, psixologik va ijtimoiy xususiyatlarini zamonaviy ta’lim usullari bilan uyg‘unligini ta’minlashga erishish muhimdir.

Ijtimoiy hayotda, jumladan, ta’lim tizimida kechayotgan o‘zgarishlar qishloq o‘quvchi yoshlarining ta’lim olishga qiziqishlarini rag‘batlantirish, ularning huquqiy madaniyatini, xususan, ta’lim olishga oid huquqiy bilimlarin oshirish, ularni ijtimoiy faol va har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalash masalasiga ham yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishni talab qilmoqda.

Fikrimizcha, qishloq hududlaridagi maktablarini rivojlantirish, qishloq o‘quvchi yoshlarining sifatli ta’lim olishlari uchun sharoitlarni yaratish, qishloq aholisi va yoshlarini ijtimoiy faolligi va huquqiy madaniyatni oshirishga qaratilgan amaliy harakatlar qishloq turmush tarzi, qishloq maktablaridagi muhit va qishloq o‘quvchi yoshlarining o‘ziga xos pedagogik, psixologik va ijtimoiy xususiyatlarini hisobga olgan holda olib borilishi, bu jarayonda o‘zaro bevosita bog‘liq uch omil – oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligidan unumli foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bu borada yuksak ijtimoiy faollik ko‘nikmalariga ega yoshlarni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining ta’lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorligini yanada rivojlantirish, mustahkamlash va samaradorligini oshirish yo‘llari keng miqyosda tadqiq etilishi va amaliy ishlar amalga oshirilishi zarur.

Qishloq maktablarini rivojlantirish, ta’lim sifatini oshirish, qishloq yoshlarining ta’lim olishga bo‘lgan imkoniyatlarini kengaytirish, o‘quvchilarning ijtimoiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirishda mahalla instituti salohiyatidan samarali foydalanish muhim vazifa sifatida qaralishi kerak.

belgilangan vazifalarni bugungi kun talabi darajasida amalga oshirishga alohida e’tibor qaratilishi kerak.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18.06.2021-yil 18-iyundagi 380-son qarori bilan tasdiqlangan “Fuqarolar yig‘ini to‘g‘risida namunaviy

[12] Maktab ta'limini rivojlantirish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilandi, 28.01.2022, https://president.uz/uz/lists/view

nizom”da[13] belgilangan hamda yoshlarni milliy va ma’naviy qadriyatlar, mahalliy urf-odat va an’analar ruhida tarbiyalash, ularning ijtimoiy faoligi va huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan vazifalar, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari loyihalari bo‘yicha takliflar ishlab chiqish singari Fuqarolar yig‘ini vakolatlarini ortiqcha rasmiyatchiliklarsiz, yangicha usul, zamonaviy vositalar yordamida amalga oshirilishiga erishish lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 19-iyundagi 175-son qarori bilan (hozirgi vaqtda o‘z uch kuchini yo‘qotgan) Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzurida tashkil etilgan “Oila-mahalla-ta’lim muassasasi” hamkorligi Jamoat kengashi, Kengashning viloyatlar, shaharlar va tumanlar bo‘g‘inidagi hududiy tuzilmalari faoliyatini tubdan takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqilishi ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Mazkur Jamoatchilik kengashlarining o‘tgan yillar davomida to‘plangan tajribasini bugungi kun nuqtai nazaridan tanqidiy tahlildan o‘tkazish, oila, maktab va mahalla hamkorligini tizimli va izchillligini ta’minlash qishloq o‘quvchi yoshlarining ta’lim olishga bo‘lgan qiziqishlarini rag‘batlantrish, ularning ta’lim olishga oid huquqiy madaniyati, ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. https://lex.uz/docs/6445145

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”, https://lex.uz/ru/docs/4149765

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 18.06.2021-yildagi 380-son “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, https://lex.uz/docs/5461749

4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi Matbuot xizmatining rasmiy kanali. https://t.me/statistika_rasmiy/5849

5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi rasmiy sayti. https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/63470-yarim-jilda-68-ta-yangi-maktab-urilgan-2

6. Сайтимова Т.Н. Система общего среднего образования в Казахстане: современное состояние и тенденсии развития. Автореф. дисс. кандидата пед. наук. ҳттпс://www.диссерат.ом/онтент/система-обшчего-среднего-образования-в-казакҳстане;

7. Всеобщее основное образование к 2015 г. Глобалная инитсиатива «Дети, не посещающие школу». Исследование по Кыргызстану. ЮНИСеФ-Бишкек:2012.–127с. ҳттпс://www.униеф.орг/кйргйзстан/медиа/3646/фил

[13] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 18.06.2021 yildagi 380-son “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, https://lex.uz/docs/5461749

Ozoda JUMANOVA,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi Milliy instituti, tayanch doktorant

BIRINCHI SINF O‘QUVCHILARINI MAKTABDAGI O‘QUV-TARBIYA MUHITIGA MOSLASHTIRISHDA PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK JARAYONNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada birinchi sinf o‘quvchilarining maktabdagi o‘quv-tarbiya muhitiga moslashishida maktabga tayyorgarlik jarayonining o‘rni va modlashuv davrida o‘qituvchining pedagogik mahorati haqida so‘z boradi.

Tayanch so‘zlar. Maktabga tayyorgarlik darajasi, moslashuv bosqichlari, kompetensiyalar, pedagogik mahorat.

В данной статье рассказывается о том, как проходит процесс подготовки к школе в адаптации первоклассников к школьной среде обучения и о педагогическом мастерстве учителя в период модничества.

Ключевые слова. уровень школьной подготовки, этапы адаптации, компетенции, педагогическое мастерство.

This article talks about the role of the school preparation process in the adaptation of first grade students to the educational environment at school and the teacher's pedagogical skills during the modernization period.

Key words. Level of school preparation, stages of adaptation, competencies, pedagogical skills.

Bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasi maktabdagi o‘quv-tarbiya muhitiga qanday moslashib ketishini belgilab beradi. Maktabga tayyorgarlikning kompetensiyalari asosida bolalarning maktabga tayyorgarlik darajalarini aniqlab olish mumkin. Shuni yodda tutish kerakki, bo‘lajak o‘quvchilarning aqliy salohiyati bilan bir qatorda ularning ijtimoiy- psixologik tayyorgarlik holati ham muhim hisoblanadi. Rivojlanishning markazida aqliy o‘zlashtirishdan oldin emotsional holat turadi. Bilimlar ham ijtimoiy holat ham o‘zgaruvchandir. Vaqt va harakat natijasida ikkisi ham o‘sishi yoki sustlashishi mumkin. 6-7 yoshli bolalarning maktabga tayyorgarligi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida amalga oshiriladi. 1-sinfdan maktab hayoti boshlanishi bilan o‘quvchilarda tayyorgarlik bosqichi tugab moslashuv davri boshlanadi. Yosh jihatidan teng bo‘lgan o‘quvchilarda psixologik va aqliy tayyorgarlik turlicha bo‘lganligi Sababli moslashuv davri ham turlicha kechadi. Ba’zi o‘quvchilar juda tez o‘quv jarayonlariga moslashib ketsa ba’zi o‘quvchilar uchun 6 oy yoki undan ham ko‘proq vaqt sarflanishi mumkin. Bu yerda o‘qituvchining pedagogik mahorati katta rol o‘ynaydi. Har bir bolaga uning qiziqishlari va qobiliyatidan kelib chiqib yondashish talab etiladi. O‘quvchining ortda qolayotgan jihatlarini oshirish ta’lim sohasida ko‘p qo‘llaniladi. Samarali yo‘l esa avvalo, o‘quvchining qobiliyatlarini Yanada rivojlantirish orqali uni jamoa ichida ko‘tarish va tengdoshlariga qo‘shishdir. O‘qituvchida pedagogik mahorat yetarli bo‘lsa, moslashish uchun ham kamroq vaqt sarflanadi.

Yurtimizda ta’lim sohasida yangi o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 12 yillik 2 ta’lim tizimini joriy qilish nazarda tutilmoqda. 999-son qaror bilan faoliyat olib

boruvchi “Ilk qadam” davlat dasturi bolalarni maktabga bir yillik majburiy tayyorlovga asoslangan. Endi bu jarayon maktablar tasarrufiga o‘tkazilishi kutilmoqda. Hozirgi kunda butun dunyoda bolalarning maktabga borish yoshi 6 yosh deb ma’qullanib kelinmoqda. Agar ushbu qaror kuchga kirsa bolalar 6 yoshdan maktabga boradi va maktabga tayyorgarlik davri sifatida qabul qilinadi.

Bolalarning maktabga ruhiy tayyorgarligining ahamiyati. Maktabning bola shaxsiga qo‘yadigan asosiy talablaridan biri psixologik tayyorgarlikdir. Bolaning psixologik tayyorligi uning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeining o‘zgarishi va birinchi sinf o‘quvchilaridagi o‘quv faoliyatining o‘ziga xosligi bilan uzviy bog`liq. Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, maktabga psixologik tayyorgarlik doimiy emas, balki u doimo o‘zgarib boyib boradi. Psixologik tayyorlikning tarkibiy jihatlari: intellektual (aqliy), ma’naviy va irodaviy tayyorgarlikdan iboratdir. Aksariyat hollarda bolaning aqliy rivojlanganlik darajasi haqida gapirilganda uning so‘z boyligi zaxirasi bilan aniqlanadigan aqliy bilimlari miqdoriga ko‘proq e’tibor beriladi. Ota-ona, hatto ayrim o‘qituvchilar ham bola qanchalik ko‘p bilsa, u shunchalik rivojlangan boladi, deb o‘ylaydilar. Aslida esa unday emas, fan-texnika, ommaviy axborot vositalarining keng tarqalganligi tufayli bugungi kun bolalari2 go‘yo ma’lumotlar ummonida suzib yurgandek bolmoqda. Bu esa ulardagi so‘z 2 boyliklarning keskin o‘sishiga asos bolmoqda, lekin bu ularning tafakkuri ham 2 shunday jadallikda rivojlanayapti, degani emas. Maktabda amal qilinayotgan o‘quv dasturlarini o‘zlashtirish boladan narsalarni taqqoslay bilish, tahlil qilish, umumlashtirish, mustaqil xulosalar chiqarish kabi bilish jarayonlarining yetarlicha rivojlangan bo‘lishini taqozo etadi. Shuning uchun ham hozirgi kunda maktab amaliyotchi psixologlari tomonidan bolalarni birinchi sinfga qabul qilish jarayonida keng foydalanilayotgan psixodiagnostik vositalar, testlar, so‘rovnomalar, asosan bolada yuqorida keltirib o‘tilgan xususiyatning rivojlanganlik darajasini aniqlashga mo‘ljallangan metodikalardan iboratdir. 5-7 yosh bolaning maktabga intellektual (aqliy) tayyorligining yana muhim ko‘rsatkichlaridan biri bu ulardagi obrazli tafakkurning oliy darajada rivojlanganligidir. Bularga tayangan holda bola atrof-muhitdagi narsa-hodisalar o‘rtasidagi eng muhim xususiyatlarni, munosabatlarni farqlay olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu o‘rinda bolalar chizmali tasvirlarni shunchaki tushunibgina qolmay, balki ulardan muvaffaqiyatli foydalana oladigan boladilar. Biroq ularning tafakkuri umumlashtirish xislatlariga ega bo‘lib borsa-da, predmetlar va ularning (tafakkuri) o‘rnini bosuvchilar bilan aniq xatti-harakati obrazliligicha qolaveradi.

Maktabgacha yosh davridayoq bola kichik maktab yosh davrida yetakchi faoliyat turi bo‘ladigan - o‘quv faoliyatiga tayyorlangan bo‘lishi lozim. Bundabolada ma’lum bir tegishli masalalarning shakllangan bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. Bunday malakalarning asosiy xususiyatlaridan biri bolaning o‘quv topshirig’ini ajratib olishi va faoliyatni mustaqil maqsadga aylantira olishidir. Bunday jarayonlar birinchi sinf o‘quvchilaridan topshiriqda o‘zi belgilagan o‘zgarish, yangilik alomatlarini qidirib topa bilish va ulardan hayratlanishni, qiziqishni talab qiladi. Bunday topshiriqlar amaliy ishlarga aylantirilsa yoki o‘yin tarzida bajarilsa, osonroq kechadi va bola o‘zlashtiradi. Yuqorida to‘xtalib o‘tganimiz intellektual tayyorlik bolaning maktabda muvafaqqiyatli o‘qib ketishi uchun yagona zamin emas. Agar bola zarur malaka va ko‘nikmalar zaxirasiga ega bolmasa, unda intellektual rivojlanganlik darajasi ham yuqori bo‘lsa-yu, o‘quvchilikning ijtimoiy holatiga shaxsan tayyor bo‘lmasa, maktabda o‘qib ketishi qiyin kechadi. Agar o‘qituvchi yoki ota-ona uni o‘qishga qiziqtira olmasalar, o‘quv vazifalarini zo‘rma-zo‘raki, sifatsiz, qo‘l uchida bajaradilar. Bunday vaziyatlarda zarur natijalarga erishish qiyin boladi. Eng yomoni, bu yoshda maktabga borishni xohlamaydigan bolalar ham uchrab turadi. 5-7

yoshli bolaning maktabga borishdan bosh tortishi asosan uni tarbiyalashda ota-onalar tomonidan yol qo‘yilgan xatoning oqibati hisoblanadi.

Bolani birinchi sinfda o‘qitishda yuzaga keladigan qiyinchiliklaming sababikattalarning bola bilan bo‘ladigan muloqotlari shakli u yoki bu vaziyatga bog‘liq bo‘lmagan holda, shaxsiy ahamiyatga ega bolishi muhim ahamiyatga ega. Bunday muloqot bolaning kattalar e’tiboriga va hamdardligiga bo‘lgan ehtiyoj va bu ehtiyojlarni kattalar tomonidan qondirilishi bilan xarakterlanadi. Muloqotning bu shakliga erishgan bolalar uchun kattalarga e’tibor, ular murojaatini tinglash va tushunishga intilish va kattalar tomonidan ham ularga nisbatan shunday e’tibor ko‘rsatilishiga bo‘lgan ishonch xosdir. Bunday bolalar kattalarning turli vaziyatlarda (ko‘chada, uyda, mehmonda, ishxonada) o‘zlarini qanday tutishlarini farqlay oladilar. Kattalarning bunday xulqni anglash evaziga bolalar ham kattalarga, o‘qituvchilarga, shu vaziyatga mos ravishda munosabatlarni namoyon qiladi. Agar bolada kattalarga nisbatan bunday munosabatlar shakllanmagan bolsa, unga mos ravishda kattalarga nisbatan ham tegishli munosabat yuzaga kelmaydi, bu esa, albatta, bola bilan olib boriladigan ta’lim jarayonini murakkablashtiradi.

Ota-onalar har bir bola ruhiy rivojlanishida o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi va bu xususiyatlar ularning u yoki bu faoliyat turini egallashida namoyon bolishini yodda tutishlari lozim. Ba’zi bolalar endigina birinchi so‘zlarni o‘zlashtirganlarida ularning tengqurlari allaqachon ma’lum bir iboralar bilan gaplasha oladigan boladilar. Ta’lim jarayonida bola imkoniyatlarining namoyon bo‘lishi ma’lum darajada nasliy omillar bilan ham bog‘likdir. Bolalar o‘z temperament xususiyatlariga ko‘ra ham bir-birlaridan ajralib turadilar:

• xushchaqchaq – sergap, quvnoq, hayotning o‘zgaruvchan sharoitlariga tez moslasha oladigan bolalar – sangvinik temperamentga mansub boladilar;

• кo‘pincha noxush kayfiyatda yuradigan, ta’sirchan, kamgap, sust bolalar - melanxolik temperamentga kiradilar;

• xotirjam, befarq, kamharakat, nutqi sust bolalar – flegmatiklardir;

• jahldor, betoqat, serzarda, harakatchan bolalar – xolerik hisoblanadilar.

Xulosa qilib aytganda, bolalar kattalarning yordamiga muhtoj bolishiga qarab ham bir-birlaridan farq qiladilar. Ba’zi bolalar biror xatti-harakatni bajarishni bir necha marta ko‘rsatish, tushuntirish ketidan ergashtirish kerak. Boshqa bolalarga esa bajariladigan ish bir marotaba ko‘rsatilsa yetarli bo‘ladi. Shunday bolalar ham borki, ular berilgan vazifani mustaqil bajaradilar. Bolalar o‘zlarini qiziquvchanlik, aqliy faolliklariga qarab ham bir-birlaridan ajralib turadilar. Ba’zi bolalar ko‘p savol beradilar va harakatchan bo‘ladi, ba’zi bolalarni esa hech narsa qiziqtirmaydi. Ota-onalar bolalaridagi o‘ziga xosliklarni qanchalik chuqur bilsalar, ularga o‘rgatishni muvaffaqiyatli tashkil qila oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pedagogikada zamonaviy yondoshuvlar / N. Yusupov. –Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti, 2013.

2. O‘zbekistonda bolalar tarbiyasi: ijtimoiy va psixologik jihatlar / I. Mahmudov. –Toshkent: Fan nashriyoti, 2011.

4. Ota-onalar tarbiyasining metodlari / S. Sultonov. –Toshkent: O‘zbekiston pedagogika nashriyoti, 2015.

5. Bolalar psixologiyasi / I. Abduqodirov. –Toshkent: O‘zbekiston pedagogika universiteti nashriyoti, 2014.

6. O‘qish va ta’lim metodikasida yangi yondoshuvlar / A. Mirzaahmedov. –Toshkent: O‘zbekiston pedagogika nashriyoti, 2017.

Faridabonu RAXIMOVA,
Andijon davlat pedagogika instituti, mustaqil izlanuvchi

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INTERAKTIV O‘QITISH TEXNOLOGIYALARINING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich ta’lim tizimida interaktiv o‘qitish texnologiyalarining nazariy, pedagogik va psixologik asoslari tahlil qilinadi. Interaktivlik tushunchasining mazmuni, uning dialogik ta’lim modeli bilan bog‘liqligi hamda konstruktivistik yondashuv doirasidagi ahamiyati ilmiy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, J.Piaget, L.S.Vygotskiy, J.Bruner, R.Mayer va A.Paivio nazariyalari asosida interaktiv ta’limning kognitiv rivojlanishdagi o‘rni asoslab beriladi. Multisensor yondashuvning didaktik imkoniyatlari va uning boshlang‘ich ta’lim jarayonida qo‘llash samaradorligi ochib beriladi.

Tayanch so‘zlar. Interaktiv ta’lim, konstruktivizm, kognitiv rivojlanish, multisensor yondashuv, dialogik ta’lim, yaqin rivojlanish zonasi, assimilyatsiya, akomodatsiya, multimedia o‘rganish, dual kodlash nazariyasi.

В статье анализируются теоретические, педагогические и психологические основы интерактивных технологий обучения в системе начального образования. Научно освещается содержание понятия интерактивности, его связь с моделью диалогического обучения и значение в рамках конструктивного подхода. Также на основе теорий Ж.Пиагета, Л.С.Выготского, Ж.Брунера, Р.Майера и А.Пайвио обосновывается роль интерактивного обучения в когнитивном развитии. Раскрываются дидактические возможности мультисенсорного подхода и эффективность его применения в процессе начального образования.

Ключевые слова. Интерактивное обучение, конструктивизм, когнитивное развитие, мультисенсорный подход, диалогическое обучение, зона ближайшего развития, ассимиляция, аккомодация, мультимедийное обучение, теория дуального кодирования.

The article analyzes the theoretical, pedagogical, and psychological foundations of interactive learning technologies in the primary education system. The content of the concept of interactivity, its connection with the model of dialogic education, and its significance within the framework of the constructivist approach are scientifically illuminated. Also, based on the theories of J. Piaget, L.S. Vygotsky, J. Bruner, R. Mayer, and A. Paivio, the role of interactive learning in cognitive development is substantiated. The didactic possibilities of the multisensory approach and the effectiveness of its application in the process of primary education are revealed.

